O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O’RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

SAMDU QOSHIDAGI 2-SON AKADEMIK LITSEYI

**N.O’.XOLMATOV, A.J.BODIROV, E.M.SULTONOV**

# TARIX FANIDAN TESTLAR TO’PLAMI

**yangi darsliklar asosida mavzulashtirilgan testlar**

**(Qadimgi dunyo va O’zbekiston tarixining IV asridan – XX asr boshlarigacha bo’lgan davri)**

**(Uslubiy qo’llanma)**

***Maktab o’quvchilari, akademik litsey talabalari, abiturentlar va tarix fanini o’rganuvchilar uchun***

Samarqand Davlat universitetining 2011-yil __ - __________
O’quv-uslubiy kengashining __ - raqamli majlis bayoni
bilan nashrga tavsiya etilgan.

**Samarqand - 2011**

Qadimgi dunyo va O'zbekiston tarixidan yangi darsliklar asosida mavzulashtirilgan testlar to'plami (Maktab o'quvchilari, akademik litsey talabalari, abiturentlar va tarix fanini o'rganuvchilar uchun uslubiy qo'llanma) - Samarqand, SamDU-2011, 124 bet.

**Tuzuvchilar:**

**N.O'.Xolmatov** – SamDU "Arxeologiya" kafedrasining dotsenti, t.f.n

**A. J. Bodirov** – SamDU qoshidagi 2-son akademik litseyining tarix fani o'qituvchisi.

**E.M.Sultonov** – SamDU "Tarixshunoslik va manbashunoslik" kafedrasining katta o'qituvchisi

**Ma'sul muharrir:**

**SH.S.G'offorov** – SamDU "O'zbekiston tarixi" kafedrasining professori, t.f.d

**Taqrizchilar:**

**S. Nazarov** – SamISI qoshidagi 1-son akademik litsey o'qituvchisi t.f.n. dotsent.

**R.Sh.Xoliqulov** – SamDU "O'zbekiston tarixi" kafedrasining t.f.n. dotsent

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da va "Ta'lim to'g'risidagi qonun"da barkamol insonni tarbiyalash va yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning asosiy tomonlari belgilab berilgan. Mazkur dasturiy hujjatlarda ta'kidlab o'tilganidek, o'quvchi yoshlarga chuqur bilim berish, ularning ma'naviy dunyosini boyitib borish o'rta maktablar, akademik litsey va kasb hunar kollejlari pedagogik jamoalarning bosh vazifasidir.

Bunday talablar tarix faniga ham to'la taalluqlidir.Tarix fani ma'naviy yetuk insonni tarbiyalashda g'oyat muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek "tarix xalq ma'naviyatining asosidir".

O'rta maktablarda, akademik litseylarda tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirishda test usulidan foydalanib dars o'tish ijobiy natijalar bermoqda.Test usulidan foydalanish o'quvchilar bilimini nazorat qilib borishda va iqtidorli yoshlarni oliy o'quv yurtlariga tanlab olishda muhim rol o'ynamoqda.

Yoshlarda teran tarixiy tafakkurni shakllantirishda ularning ma'naviy dunyosini boyitishda Qadimgi dunyo tarixi va O'zbekiston tarixining roli ham beqiyosdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Qadimgi dunyo tarixi va O'zbekiston tarixini bilish gumanitar yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga kirishning asosiy shartlaridan biridir.

Huquqshunoslik,tarix, falsafa, sotsiologiya, o'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar va boshqa gumanitar mutaxassisliklar bo'yicha oliy ma'lumot olishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan o'quvchi yoshlar Qadimgi dunyo tarixini va O'zbekiston tarixini chuqur o'zlashtirib olishlari zarur.Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda mazkur testlar to'plami sizlarga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz. Ushbu testlar to'plamida yer yuzida odam paydo bo'lganidan to milodiy 476 – yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar bo'lgan davrni va milodning IV asridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan davrga taalluqli testlar jamlangan .

O'quvchi ushbu to'plamdagi testlarni yechar ekan eng qadimgi Mesopotamiya, Misr, Yunoniston, Rim davlatlari va O'rta Osiyoning ilk davlatlari hukmronligi davri, xalqlari tarixi, madaniyati va urf- odatlari bilan tanishadi. O'quvchi ushbu to'plamdagi testlarni yechar ekan Vatanimiz tarixining milodiy IV asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid testlar bilan tanishadi. Testlarni yechar ekan xalqimiz hayotida chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lganligini, davlat qurilishi, boshqaruv ishlari takomillashib borganini, bularni o'lkamizda faoliyat yuritgan Eftaliylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari, Sohibqiron Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk davlat tarixini bilib oladi. Keyinchalik Turkistonning uch xonlikka bo'linib ketishi, bo'linishning sabablari va oqibatlarini bilib oladi. Testlar to'plamining to'rtinchi bo'limidagi testlarni yechar ekan o'quvchi bu yerda O'zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ro'y bergan voqealarni bilib oladi.

Aziz o'quvchilarga shuni eslatib o'tmoqchimizki, test avvalo bilimlarni nazorat qilish vositasidir.Shunday ekan, sizlar dastavval darsliklar va qo'shimcha adabiyotlarni, o'rganib, har bir mavzuni yaxshi o'zlashtirib oling, shundan keyingina testlarni yechishga kirishing, shu bilan o'z bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

# 1-mavzu: Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari

**1-bo'lim: Qadimgi dunyo.**

1-mavzu: Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari.

1) Yer yuzida odam paydo bo'lganidan to milodiy 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulagunga qadar kechgan voqealar …… vujudga keltiradi.
A) ota urug'i davri tarixini
B) ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini
C) qadimgi dunyo tarixini D) o'rta asrlar tarixini

2) Bizning davrimizgacha yetib kelgan qadimgi bitiklarni o'rganish bilan qaysi fan shug'ullanadi?
A) etnografika B) epigrafika
C) numuzmatika D) toponomika

3) Qadimiy tangalarni tadqiq etish bilan ……. degan maxsus fan shug'ullanadi.
A) geraldika B) toponomika
C) numizmatika D) epigrafika

4) Olimlar o'qigan quyidagi matnlarning qaysilari misrliklar tarixi haqida hikoya qiladi?
A) "Bibliya" va "Avesto"
B) "Marhumlar kitobi" va "Rigveda"
C) "Rigveda" va "Piramidalar matnlari"
D) "Piramidalar matnlari" va "Marhumlar kitobi"

5) Quyidagi qaysi matn hind xalqlari tarixidan hikoya qiladi?
A) "Rigveda" B) "Bibliya"
C) "Piramidalar matnlari" D) "Marhumlar kitobi".

6) Quyidagi qaysi fanni bejizga "buyuk o'qiyuvchi" deb atashmaydi?
A) adabiyotni B) tarixni
C) geografiyani D) matematikani

7) Quyidagi qaysi manbada yurtimizning qadimgi tarixiy viloyatlari –Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm aholisi ma'daniyati to'g'risida hikoya qiladi?
A) "Rigveda"da B) "Tarixiy yilnomalar"da
C) "Avesto"da D) "Behistun yozuvlari"da

8) To'qqiz kitobdan iborat kimning qaysi asarida o'lkamizning qadimgi aholisi to'g'risida batasfil ma'lumotlar beriladi?
A) Strabonning "Geografiya" nomli asarida
B) Geradotning "Tarix" asarida
C) Sim Syanning "Tarixiy yilnomalar " nomli asarida
D) Kvint Kursiy Ruf "ning Buyuk Aleksandr tarixi" nomli asarida

9)Mil.aw. I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi….ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealar haqida ma'lumotlar keltiradi,
A) Strabonning "Geografiya" nomli asarida
B) Kvint Kursiy Ruf "Buyuk Aleksandr tarixi" nomli asarida
C) Arrian "Aleksandrning harbiy yurishlari" nomli asarida
D) Geradotning "Tarix" nomli asarida

10) "Tarixiy yilnomalar" nomli asar muallifi , xitoy tarixchisi Sim Syan qaysi davrda yashab o'tgan?
A) mil.aw.III asr oxiri II asr boshlarida
B) mil.aw II asr oxiri I asr boshlarida
C) milodiy I asr oxiri II asr boshlarida
D) milodiy II asr oxiri III asr boshlarida

11) Quyidagi qaysi asar qadimgi Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf tomonidan yozilgan?
A) "Buyuk Aleksandr tarixi"
B) "Aleksandrning harbiy yurishlari"
C) "Tarixiy yilnomalar" D) "Tarix"

12) Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni milodiy II asrda yashagan …… ham ancha to'ldiradi.
A) yunon tarixchisi Geradot
B) Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf
C) Yunon tarixchisi Arrian
D) xitoy tarixchisi Sim Syan

13) Qaysi asrlarda yunonlar yurtimizning aholisi, viloyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan?
A) mil.aw. VI-V asrlarda B) mil.aw. III-II asrlarda
C) mil.aw. I-II asrlarda D) milodiy II-IIIasrlarda

14) Bundan ……yillar awal O'zbekistonning qadimgi aholisi bilan qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan.
A) 7-6 ming B) 5-4 ming C) 3-2 ming D) 2-1 ming

15) Qadimgi odam ajdodlarining qadimiy yodgorliklari topilgan Sharqiy Afrikadagi Olduvay darasi hozirgi ……… hududida joylashgan.
A) Tanzaniya B) Misr C) Kongo D) Zair

16) Quyidagi odam ajdodlaridan qaysi biri hozirgi qiyofadagi odam hisoblanadi?
A) neondertal B) kromanion
C) pitekantrop D) sinantrop

17) Uchi bir tomonga qaratib o'tkirlangan qo'pol tosh qurollar arxealogiya fanida qanday nomlangan?
A) mikrolit B) kerki C) chopper D) motiga

18) Qaysi davrda Buyuk muzlash boshlandi?
A) ilk paleolitning so'nggi davrlarida
B) so'nggi paleolitning oxirlarida
C) mezolit davrining boshlarida
D) neolit davrining oxirlarida

19) Kishilarning eng qadimiy mashg'uloti bo'lgan ……… o'zlashtiruvchi xo'jalik deb atalgan.
A) kulolchilik va ovchilik
B) termachilik va temirchilik
C) termachilik va ovchilik D) ovchilik va dehqonchilik

20) Qadimgi tosh asri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblangan Teshiktosh g'ori …….. Boysun tog'larida topilgan.
A) A.P. Gerasimov tomonidan 1936-yilda
B) A.P.Okladnikov tomonidan 1938-yilda

C) V.V. Bartold tomonidan 1908-yilda
D) V.L. Vyatkin tomonidan 1932- yilda

21) Qoyatosh rasmlaridan eng qadimiylari quyidagi qaysi yodgorliklardan topib o'rganilgan?
A) Lasko, Altamir, Kapovadan
B) Altamir, Zaroutsoy, Afrosiyobdan
C) Kapova, Lasko, Mug'dan
D) Afrosiyob, Mug', Zarautsoydan

22)Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e'tiqod fanda…… nomini olgan.
A) fetishizm B) totemizm
C) sehrgarlik D) animizm

23) Qaysi mingyilliklarda odamning o'zi ham tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi?
A) mil.aw. 50-40-mingyilliklarda
B) mil.aw. 40-25-mingyilliklarda
C) mil.aw. 25-30-mingyilliklarda
D) mil.aw. 12-7-mingyilliklarda

24) Taxminan ……..muqaddam odamlar ancha takomillashgan kesuvchi, arralovchi va parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan.
A) 40-30- ming yil B) 35-30- ming yil
C) 25-30- ming yil D) 15-20- ming yil

25) Qaysi davr boshlanihi bilan Muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim isishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi?
A) so'nggi paleolitda
B) mezolit davri boshlanishi bilan
C) neolit davri boshlanishi bilan
D) bronza davri tugashi bilan

26) Mezolit va neolit davrida odam toshdan kichik mehnat qurollari yasay boshlagan. Bu arxealogiya fanida qanday nomlangan?
A) chopperlar B) goplitlar
C) mikrolitlar D) kerkilar

27) O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi qachondan boshlab ziroatchilikka o'ta boshlagan?
A) mil.aw. 7-6 mingyilliklar oxirida
B) mil.aw. 6-5 mingyilliklar boshlarida
C) mil.aw. 5-4 mingyilliklar o'rtalarida
D) mil.aw.4-3 mingyilliklar boshlarida

28) Mis-tosh asri deb atalmish bronza davri ……. to'g'ri keladi.
A) mil.aw. 6-5 mingyilliklar oxiriga
B) mil.aw. 5-4 mingyilliklar oxiriga
C) mil.aw.4-3 mingyilliklar o'rtalariga
D) mil.aw.3-2 mingyilliklarning oxirlariga

29) Qachonga kelib, patriarxal davri boshlandi?
A) mil.aw. 5 mingyilliklardan
B) mil.aw. 4 mingyilliklardan
C) mil.aw. 3 mingyilliklardan
D) mil.aw. 2mingyilliklardan

30) Quyidagi qaysi yodgorlik Buxoro viloyati Qorako'l tumanidan topilgan, mil.aw. 2-mingyilliklarda yashagan chorvador va dehqonlarning qadimiy manzilgohi hisoblanadi?
A) Sarazm B) Zamonbobo
C) Moxandaryo D) Vardonze

31) Mil.aw. 2-mingyillikka doir O'zbekistonning janubidan topilgan bronza asri dehqonchilik manzilgohini belgilang?
A) Zamonbobo B) Tozabog'yob
C) Qiziltepa D) Sopollitepa

32)Temirdan birinchi bo'lib…foydalana boshlaganlar.
A) Eronda elam qabilalari
B) Kichik Osiyoda xett qabilalari
C) Mesopotamiyada akkad qabilalari
D) Kavkazortida arman qabilalari

33) O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar qaysi davrga tegishli?
A) XIV-XIII asrlarga B) XIII-XII asrlarga
C) IX-VIII asrlarga D) VI-V asrlarga

34) Mil.aw. I mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi qanday guruhlarga ajratilgan?
A) kohinlar, kashivarzlar, jangchilar, hunarmandlar
B) kadivarlar, dehqonlar, jangchilar, kohinlar
C) jangchilar, kashivarzlar, hunarmandlar, kohinlar
D) kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar

35) "Avesto"da O'rta Osiyodagi bir necha "nmana"lar urug' jamoasi ….. tashkil etishligi haqida so'z boradi.
A) "varzana"ni B) "zantu"ni C) "vis"ni D) "dah'yu"ni

36) "Avesto"da hududiy qoshnichilik jamoasi qanday nomlangan?
A) "varzana" B) "vis" C)"zantu" D)"nmana"

37) "Avesto"da jamiyatni idora qilish tizimi to'g'risida ma'lumot berilgan. Javoblarning qaysi birida boshqaruv tizimi ketma-ketligi to'g'ri berilgan?
A)oqsoqollar kengashi,qabila boshqaruvi,xalq yig'ilishi
B) urug' jamoasi boshqaruvi, qabila boshqaruvi, xalq yig'ilishi, alohida tumanlar hukmdorlari
C) oqsoqollar kengashi, xalq yig'ilishi, alohida tumanlar hukmdorlari, viloyatlarning hukmdorlari
D) urug' jamoasi boshqaruvi , xalq yig'ilishi, alohida tumanlar hukmdorlari, viloyatlarning hukmdorlari

38) "Avesto"dagi ma'lumotga ko'ra o'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa- ……….. uyushishgan.
A)"zantu"ga B)"dahyu"ga
C)"varzana"ga D)"sastar"ga

39) Ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga saylab qo'yiladigan harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shakli qanday nomlangan?
A) oqsoqollar boshqaruvi B) xalq yig'ilishi
C) harbiy demokratiya
D) lashkarboshilar boshqaruvi.

40)Qaysi asrlarda O'rta Osiyo hududida ilk davlat birlashmalari vujudga kelgan?
A) mil.aw.I-VIIIasrlarda B) mil.aw.-VIIIasrlarda
C) mil.aw.VIII-VIIasrlarda D) mil.aw.VI-IV asrlarda

**2-mavzu: Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo.**

1) Nil daryosi quyilishini yunonlar nima deb atashgan?
A) g'ayr B) suvlot C) delta D) ko'rfaz

2) Nil vodiysi har ikkala qirg'oq bo'ylab…… kenglikda va olti ming kilometr uzunlikdagi sug'oriladigan yerlardir.
A) 1km dan-10 km gacha B) 2km dan-16 km gacha
C) 3km dan-22 km gacha D) 5km dan-32 km gacha

3) Nil vodiysida yashovchilar yurtlariga qanday nom berishgan?
A) Sahroyi Kabr B) Liviya
C) "Misr"- "Qora tuproq" D) "Egipet"

4) Qachondan boshlab odamlar Nil vodiysi qirg'oqlaridagi yerlarni o'zlashtirishga bel bog'laganlar?
A) mil.aw. 7 ming yillik oxirlarida
B) mil.aw. 6 ming yillik boshlarida
C) mil.aw. 5 ming yillik o'rtalarida
D) mil.aw. 4 ming yillik boshlarida

5) Misrda qaysi faslda dalalarda urug' sochilar, sug'orish uchun kanallar va ariqlarni tozalashar edi?
A) qishda B) kuzda C) bahorda D) yozda

6) Misrda qachon hosil yig'im terimi boshlangan?
A) yozda B) kuzda C) qishda D) bahorda

7) Qadimgi Misr hunarmandlarining …. kasb korlari bo'lgan.
A) 20ga yaqin B) 25dan ziyod
C) 30dan ziyod D) 40dan ortiq

8) Qadimda oddiy misrliklarning uylari nimalardan yasalgan?
A) loy suvalgan papirus poyalaridan
B) somon qo'shib qorilgan loydan
C) toshlardan D) xom g'ishtdan

9) Qadimda Misrda tarqoq manzilgohlar……….deb atalgan.
A) "podshohlik" B) "sultonlik"
C) "nom" D) "uniya"

10) Qachon Quyi Misr va Yuqori (janubiy) Misr podshohliklari o'rtasida urush bo'lib o'tdi?
A) mil.aw. 3600-yilda B) mil.aw 3000-yilda
C) mil.aw.3200-yilda D) mil.aw.2800-yilda

11) Olimlar Misr tarixini qanday podshohlik davrlariga ajratishgan?
A) ilk,o'rta, yangi, so'nggi B) ilk,qadimgi,o'rta,oxirgi
C) ilk, qadimgi, o'rta, yangi, so'nggi
D) ilk,o'rta, eng yangi, yuqori, so'nggi

12) Qadimgi Misr mustaqil davlatlarga aylangan alohida "nom"larga parchalanib ketgandan…… mamlakatning qayta birlashuvi ro'y berdi.
A) 100yildan keyin B) 200 yildan so'ng
C) 150yildan so'ng D) 250yildan keyin

13) Misrda O'rta podshohlik hukmronligi davrida davlatning poytaxti qaysi shahar edi?
A) Memfis B) Nubiya C) Fiva D) Qohira

14) Mil.aw. 3000-yilda Quyi Misr va Yuqori (Janubiy) Misr davlatlari o'rtasida boshlangan urushda Yuqori Misr hukumdori …… g'alaba qozondi.
A) Yaxmos I B) Menes C) Tutmos II D) Xufu

15) Misr janubdan qayer bilan chegaradosh bo'lgan?
A) Liviya B) Falastin C) Nubiya D) Suriya

16) Misrning qaysi podshohligi davrida Sinay yarim oroli bosib olindi, mahalliyi qabilalar Misrga soliq to'lay boshlashdi?
A) O'rta podshohlik B) Yangi podsholik
C) Qadimgi podsholik D) So'nggi podsholik

17)O'rta podsholik firavnlari …….. Misrga qo'shib olishga muyassar bo'ldilar.
A) Suriya va Sahroyi Kabirni B) Bobil va Nubiyani
C) Janubiy Falastin yerlari va Nubiya shimolini
D) Mesopatamiya va Hindistonni

18) Qachon ko'chmanchi giksos qabilalari Misrga hujum qildi?
A) mil.aw.XXII asr boshlarida
B) mil.aw.XXasr oxirlarida
C) mil.aw.XIX asr boshlarida
D) mil.aw.XVIII asr oxirida

19) Ko'chmanchi giksoslarning asosiy kuchlari ……… bo'lgan.
A) yengil aravalar-otlar qo'shilgan jang aravalari
B) piyoda qo'shinlar
C) kamon va nayza bilan qurollangan
D) otliq ritsarlar

20) Qaysi Misr fir'avni bir qancha janglarda giksoslarni tor-mor etib, bosqinchilarni Misrdan haydab chiqardi?
A) Menes B) Yaxmos C) Tutmos II D) Xufu

21) Misrda qaysi hukmdor davridan Yangi podshohlik davri boshlandi?
A) Tutmos II B) Imenxotib C) Tutmos III D) Yaxmos

22) Qachon fir'avn Tutmos II katta yurishlar tashkillashtirishga muyassar bo'ldi?
A) mil.aw. 1800-yillarda B) mil.aw.1650-yillarda
C) mil.aw. 1500-yillar atrofida
D) mil.aw. 1320-yillar atrofida

23) Faqatgina yangi podshohlik fir'avnlaridan …….. Falastinni bosib olishga muvaffaq bo'ldi.
A) Yaxmos B) Tutmos II C) Xufu D) Tutmos III

24)Misr yana....yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyati yuksalishi boshlandi.
A) mil.aw. VIII asrda B) mil.aw. VII asrda
C) mil.aw. VI asrda D) mil.aw. V asrda

25) Forslardan ulkan lashkar to'plagan shahanshoh Kir II ning o'g'li Kambiz ….. Misrni bosib oldi.
A) mil.aw. 545-yilda B) mil.aw. 535-yilda
C) mil.aw. 525-yilda D) mil.aw. 520-yilda

26) Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfisda o'z xudosi ……. bo'lgan.
A) Amon B) Ra C) Xapi D) Ptax

27)Misrliklarning Ptax degan xudosining yer yuzidagisi ……….bo'lib, u peshonasi va belida oq qashqasi bo'lgan qora ho'kiz timsolida tasavvur etilgan.
A) Apis B) Amon C) Osiris D) Xapi

28) Qachondan boshlab Quyosh xudosi Amon-Ra firavnlaning bosh ilohi va homiysi hisoblangan?
A) mil.aw. 3000-yildan B) mil.aw. 2800-yildan
C) mil.aw. 2400-yildan D) mil.aw. 2000-yildan

29) Quyosh xudosi Amon-Raning ibodatxonasi qayerda bo'lgan?
A) Geliopolda(Baolbek) B) Fivada
C) Memfisda D) Qohirada

30) Qaysi xudo Nil xudosi Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni hisoblangan ?
A) Amon B) Xopi C) Osiris D) Isida

31) Yer osti saltanati xudosi hisoblangan Osirisning ibodatxonasi xarobalari qayerda hozirgacha saqlanib qolgan?
A) Qohira shahrida B) Baolbek shahrida
C) Abidos shahrida D) Quddus shahrida

32) Qaysi xudo Misrliklarining oy, donishmandlik va tabobat xudosi hisoblanadi?
A) Isida B) Tot C) Amon-Ra D) Ptax

33) Misrdagi eng katta va mashhur piramidalar Xufu, Xafra va Menkaura qaysi shahar yaqinida qurilgan?
A) Memfis B) Fiva C) Abidos D) Geliopol

34) Eng katta piramida Xufu (Yunonlar uni Xeopes deb atashgan) uchun……..qurilgan edi
A) mil.aw. 3000yilda B) mil.aw. 2800-yilda
C) mil.aw.2600-yilda D) mil.aw. 2300-yilda

35) Xufu piramidasi har biri ikki tonnadan og'irroq bo'lgan qancha dona tosh bo'lakchalaridan tashkil topgan?
A) 3400 ming B) 3mln C) 2.5mln D) 1800 ming

36) Fir'avnlarning mumyolangan jasadi solingan toshtobut qanday nomlangan?
A) Sfinks B) Sarkofag C) Mavzaley D) Maqbara

37) Yirik piramidalarni o'rtacha necha yil davomida qurishgan?
A) 15 yil B) 12-15 yil C) 20-yil D) 30-yil

38) Piramidalarni qo'riqlab turuvchi tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykallar qanday nomlangan?
A) Sarkofag B) Sfinks C) Basted D) Gektavr

39) Qaysi Misr fir'avnining maqbarasi ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizga qadar yetib kelgan?
A)Xufu B)Yaxmos C)Tutanxamon D)Tutumos III

40) Misrda qadimda vafot etganlarni mumiyolashgan. Odatda mumiyolash qariyb……… davom etgan.
A) 40kun B) 56kun C) 64kun D) 70kun

41) Misrliklar hashoratlar orasida qaysisini Quyoshning yordamchilari hisoblashgan?
A) chivinni B) qo'ng'izni C) homishakni D) kapalakni

42) Jismida qaysi iloha gavdalangan mushuk sharafiga uyushtirilgan bayramlarda Misrning jami aholisi ishtirok etgan?
A) Osiris B) Anibus C) Amon D) Bastet

43) Qadimda misrliklar yozuvdan qarg'ishlar va marosimlarni yozib borishda foydalangani uchun ularni qanday nomlashgan?
A) paygambarlar so'zi B) iyerogliflar
C) misr bitiklari
D) "muqaddas" yoki "xudolar kalomi"

44) Misrliklarning alifbosi qancha harfdan iborat bo'lgan?
A) 600ta mixxatdan B) 700ta iyerogliflardan
C) 750ta iyerogliflardan D) 800ta mixxatdan

45) Qaysi olim tomonidan misr matnlarini o'qish kaliti topildi?
A) nemis olimi Rextgofen
B) fransuz olimi Jak Fransua Shampolyon
C) nemis olimi Genrix Shliman
D) rus olimi V.L. Vyatkin

46) Misr matnlarini o'qish uchun qayerdan topilgan bir toshga chekilgan qadimgi misr va yunon tillaridagi bir xil ma'nodagi bitik sababchi bo'ldi?
A) Qohira shahridan uncha uzoq bo'lmagan Rozzet shahridan
B) Afina shahriga yaqin bo'lgan Spartak shahridan
C) Qohira shahriga yaqin bo'lgan Adidos shahridan
D) Bog'dod shahriga yaqin bo'lgan Quddus shahridan

47) Bugungi kunda Rozett bitiktoshi ………muzeyda saqlanmoqda.
A) Londondagi Britaniya muzeyida
B) Fransiyaning Parij muzeyida
C) Sank-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida
D) Italiyadagi Rim muzeyida

48) Yulduzlarni kuzata turib misrliklar yil davomiyligini qancha kun etib aniq-raso belgilashdi. Birinchi bo'lib taqvim tuzishdi?
A) 360kun B) 362kun C) 365kun D) 367kun

49) Misrda 52,5 sm ga teng bo'lgan o'lchov birligi qanday nomlangan?
A) barmoq B) qadam C) metr D) podsho tirsagi

50) Quyidagi qaysi asar Isida va Osiris haqidagi afsona hisoblanadi?
A) "Ikki aka-uka haqida ertak" B) "Sinuxet hikoyasi"
C) "Antigona" D) "Troya oti"

51) Misrda vaqt ……..bo'lmaga ajratilgan. Maxsus idishdan iborat suv soatlari yordamida o'lchangan.
A) 12 ta B) 20 ta C) 24 ta D) 32 ta

52) Misrda o'lchov birligi bo'lgan bir tirsak necha kaftni tashkil qiladi?
A) 7ta kaft o'lchamini B) 12ta kaft o'lchamini
C) 28ta kaft o'lchamini D) 16ta kaft o'lchamini

53) Quyidagi asarlarning qaysi biri qadimiy Misr xalqining mashhur asarlaridan biri hisoblanadi?
A) "Ramayana"
B) "O'lim shaxzodasi haqida ertak"
C) "Axilles tovoni"
D) "Qushlar"

54) Dajla va Frot daryolari oralig'idagi vodiyni yunonlar………deb nomlashgan.
A) "Vodiylar onasi" B) "Suv orti mamlakati"
C) Mesopotamiya D) Daryolar oralig'i

55) Mesapatamiyada jahondagi eng qadimiy miflardan biri yer yuzini butunlay suv bosishi to'g'risida qanday rivoyat dunyoga kelgan edi?
A) Dunyoning halokati B) To'fon rivoyati
C) Olamning yaralishi D) Cheksiz dunyo

56) Mesopotamiyaliklar qaysi daraxtni "hayot daraxti" deyishgan?
A) anjirni B) o'rikni C) xurmoni D) apelsinni

57) Qaysi davrda Mesopotamiyada shumerlar manzilgohlari vujudga kela boshladi?
A) mil.aw. 6-mingyillika B) mil. Aw. 5-mingyillika
C) mil.aw. 4-mingyillikda D) mil.aw.2-mingyillikda

58)Qaysi mingyillikda shumerliklarga singishib ketgan akkadlar butun Mesopotamiyani egallab oldilar?
A) mil.aw. 5-mingyillik boshlarida
B) mil.aw. 4-mingyillik boshlarida
C) mil.aw. 3-mingyillik oxirida
D) mil.aw. 2-mingyillik o'rtalarida

59) Mesopotamiyaga qayerdan kedr(sidra) yog'ochi keltirilar edi?
A) Finikiyadan B) Suriyadan
C) Kavkazortidan D) Hindistondan

60) Qo'shni Kavkazorti va Eron o'lkalaridan donga ayirboshlab……… keltirishardi.
A) yog'och, olmos, kumush va temir
B) mis,dori,oltin, bronza
C) oltin, mis, kumush,qalay, noyob toshlar
D) qalay, mis,lojuvard va mo'yna

61) Mesopotamiyadagi og'irlik o'lchovi "mino" ………. kumushga teng bo'lgan.
A)380 gramm B)450 gramm
C)500 gramm D)550 gramm

62) Qaysi mingyillikda shumerlar eng qadimgi yozuv mixxatni ixtiro qilishgan?
A) mil.aw. 6-mingyillikda B) mil.aw. 5-mingyillikda
C) mil.aw. 4-mingyillikda D) mil.aw. 3-mingyillikda

63) Milloddan awalgi 4-mingyillik oxirida Mesopotamiyada qanday shaharlar vujudga kela boshladi?
A) Uruk, Umma, Sidon, Lagash
B) Ur, Uruk, Umma, Lagash
C) Lagash, Tir, Sidon, Akkad
D) Sidon, Tir, Umma, Ur

64) Mesopotamiyada alohida ehtiromga sazovor …… quyosh xudosi hisoblangan.
A)Shamash B)Ishtar C) Sino D)Enkidu

65) Mesopotamiyaliklarning qaysi xudosi hosildorlik va sevgi, hamda ikki yuzli urush va g'alaba xudosi hisoblangan?
A) Sina B) Ea C) Ishtar D) Shamash

66) Mil.aw. 3-mingyilliklarda Shumer shaharlari orasida eng qudratlisi …… shahri bo'lgan.
A) Ur B) Umma C) Uruk D) Lagash

67) Qachonga kelib Mesopotamiyaning Lagash davlati yuksala boshladi?
A) mil.aw. 5-mingyillik oxirlarida
B) mil.aw. 4-mingyillik boshlarida
C) mil.aw. 3-mingyillik o'rtalarida
D) mil.aw. 2-mingyillik oxirlarida

68) Mesopotamiyaning eng sevimli qahramoni Gilgamish qaysi shahar podshosi bo'lgan?
A) Lagash B) Uruk C) Umma D) Sidon

69) Qaysi hukmdor mil.aw.3-mingyillikning ikkinchi yarmida o'z hukmronligi ostida Akkadni birlashtirdi va "to'rt iqlim mamlakati podshosi" unvonini oldi?
A) Gilgamesh B) Xammurapi C) Sargon I D) Sardur I

70) Qaysi davrga kelib Shumer-Akkad davlati ko'chmanchi qabilalar zarbasidan parchalandi?
A) mil.aw. 4-mingyillikda B) mil.aw. 2-mingyillikda
C) mil.aw. 3-mingyillikda D) mil.aw. 1-mingyillikda

71) Qachonga kelib Bobil podsholigi Mesopotamiya-ning janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi?
A) mil.aw. 3-mingyillikda B) mil.aw. 2-mingyillikda
C)mil.aw. 4-mingyillikda D) mil.aw. 1-mingyillikda

72) “Bobil” so’zi qanday ma’noni anglatadi?
A) ”Shahar ostonasi” B) “Vatan darvozasi”
C) ”Xudolar darvozasi” D) ”Payg’ambar eshigi”

73) Mesopotamiyani yangi davlatga birlashtirgan Bobil podshosi …….. yashab o’tgan.
A) mil.avv. 1872-1814-yillarda
B) mil.avv. 1792-1750-yillarda
C) mil.avv. 1720-1670-yillarda
D) mil.avv. 1680-1820-yillarda

74) Xammurapi qonunlariga ko’ra mabodo arxitektor qurgan uy to’satdan qulab, biror kishini bosib qolsa, arxitektor………
A) qo’li kesilishi kerak edi
B) щyog’i sindirilishi kerak bo’lgan
C) qatl etilishi lozim bo’lgan
D) jamoadan haydalgan.

75) Xammurapi qancha vaqt davomida qo’shni mamlakatlarni o’ziga bo’ysindirish uchun tinimsiz urushlar olib boradi?
A) 20 yil B) 25yil C) 30yil D) 40yil

76) Xammurapi qonunlariga ko’ra yong’in mahalida o’g’irlik bilan qo’lga tushgan kimsaga qanday jazo qo’llanilgan?
A) o’sha zahoti olovga otilgan B) dorga osilgan
C) qo’l-oyog’i kesib tashlangan
D) tiriklayin ko’milgan

77) Kimlarning bosqini Bobilning zavolga yuzlanishga zamin hozirladi?
A) Ossuriyaliklarning B) tog’lik kassitlarning
C) Eronliklarning D)Misrliklarning

78) Qachon Yangi Bobil podsholigi vujudga keldi?
A) mil.avv. IX asrda B) mil.avv. VIII asrda boshlarida
C) mil.avv. VII asrda D)mil.avv. V asrda

79) Qaysi hukmdor davrida Bobil o’z ravnaqi cho’qqisiga chiqdi?
A) Sargon I B) Xammurapi
C) Navuxodonosor II D) Gilgamesh

80) Navuxodonosor II turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida …….. to’g’risida farmon beradi.
A) pishgan g’isht ishlatish B) loy devor qurish
C) sement ishlatish D)xarsang tosh ishlatish

81) Navuxodonosor II Misrni Yangi Bobil podsholigiga qo’shib oladi … vayron qilib tashlaydi.
A) Qohirani B) Iyerusalim(Quddus)ni
C) Damashqni D) Bog’dodni

82) Navuxodonosor II hukumronligi davrida Bobilning nechta darvozasi bo’lgan?
A) 6 ta B) 8 ta C) 10 ta D) 12 ta

83) Qachon eronliklar lashkari Bobilni bosib oladi?
A) mil. avv. 545-yilda B) mil. avv. 540-yilda
C) mil. avv. 539-yilda D) mil. avv. 534-yilda

84) Shumerliklar oy yilini necha kun etib belgilashgan?
A) 365 kun B) 360 kun C) 364 kun D) 354 kun

85) Milloddan avvalgi 2-mingyillikdan Old Osiyoda yashagan xalqlarni birlashtirgan qanday ilk shahar davlatlar vujudga kelgan edi?
A) Mitanni, Ur, Lagash, Sidan, Tir, Ossuriya
B) Xett, Mitanni, Ossuriya, Urartu, Finikiya
C) Urartu, Uruk, Lagash, Xett, Tir
D) Finikiya, Suriya, Mitanni, Ossuriya

86) Qadimiy Xett podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?
A) Eron B) Suriya C) Turkiya D) Iroq

87) Qadimgi devorni buzishda qo’llaniladigan uchli yog’och qurol nima deb nomlangan?
A) gupsar B) taran C) cho’qmor D) katapulta

88) Qadimgi Mitanni davlati hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?
A) Iordaniya B) Isroil C) Suriya D) Iroq

89) Xettlar davlatining poytaxti qaysi shahar bo’lgan?
A) Oshshur B) Xattisa C) Karxamesh D) Quddus

90) Qaysi asrlarda nomlari noma’lum xalqlar (ularni “dengiz xalqlari” deb atashgan) xettlar poytaxtini bosib olib butunlay vayronaga aylantirdi?
A) mil. avv. XVIII asrda B) mil. avv. XV asrda
C) mil. avv. XIII asrda D) mil. avv. XI asrda

91) Hukumdorlarning haddan tashqari shavqatsizligi sababli Ossuriya poytaxti Nineviyani ……. deya tariflashgan.
A) “kallakesarlar shahri”
B) “yirtqichlar makoni”
C) “sherlar makoni” yoki “qonxo’rlar”
D) “qonga botgan shahar” yoki “sherlar darasi”

92) Qachon Ossuriyayaliklar davlati vujudga kelgan?
A) mil. avv. XX asr atrofidaB) mil. avv. XVIII asrda
C) mil. avv. XV asrda D) mil. avv. XIII asrda

93) XIII asrda podsho …….. hukumronligi davrida Ossuriya podsholigi o’z ravnaqini yuqori cho’qqisiga erishdi?
A) Navuxodonosor II B) Sargon I
C) Salmanasar D) Xammurapi

94) Qaysi asrlarda Ossuriya podsholigi qayta yuksalgan davrda Bobil, Bibl, Tir, Sidon va Falastinning bir qismi bosib olindi?
A)mil.avv. XII-X asrlarda B) mil. avv. X-IX asrlarda
C)mil.avv. VIII-VII asrlarda D) mil. avv. VII-V asrlarda

95) Mil. avv. 627-yilda Ossuriyaning zaiflashuvi natijasida ……. ajralib chiqdi.
A) Bobil B) Sidon C) Bibl D) Tir

96) Mil. avv. VII asr o'rtalarida quyidagi qaysi shaharlar Ossuriya davlati hududiga kirgan.
A) Bobil, Sidon, Tir,Bill
B) Tir, Tushpa, Xattusa, Uruk
C) Oshhur, Karxamesh, Bibl, Damashq
D) Karxamesh, Bobil, Persopol, Suza

97) Qachon Bobil va Midiya birlashib, bir hamla bilan Oshshur va Nineviyani zabt etishdi?
A) 627- yilda B) 622- yilda
C) 618- yilda D) 612- yilda

98)Qachon Ossuriya armiyasi batamom qirib tashlangandan keyin bu davlat ham zavolga yuzlandi?
A) mil.av 600-yilda B) mil.av 602-yilda
C) mil.av 605-yilda D) mil.av 704-yilda

99) Milloddan avvalgi IX-VIII asr boshlarida …….. hukumronligi davrida Urartu davlati gullab yashnadi
A) Salomansar va Sargon I B) Sardur I va Menua
C) Menua va Argishti D)Xommurapi va Sardur I

100) Qadimiy Urartu davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
A) Tir B) Memfis C) Tushpa D) Teshebani

101) Qachon Ossuriyalik qo'shinlar Urartlar qo'shinlarini tor-mor etib tashlagan?
A)704-yilda B)700-yilda C)684- yilda D)680-yilda

102) Qachon Urartu podsholigi tarix sahnasidan ketdi.
A)680-yilda B)704-yilda C)590-yilda D)540-yilda

103) Qadim zamonlarda O'rta yer dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab hozirgi Livan hududida va Suriyaning bir qismida qanday davlat joylashgan edi?
A) Finikiya B) Falastin C) Suriya D) Urartu

104) O'rta yer dengizi sohilida ……. singari yirik dengiz bo'yi shaharlari vujudga keldi?
A) Tir, Ur, Uruk B) Ugarit, Lagash,
C) Sidon, Lagash, Nineviya D) Tir, Sidon, Ugarit

105) Finikiyaliklar qaysi davrlarda Kipr oroli va Kichik Osiyo sohillarida koloniyalarga asos soldilar?
A) mil.avv. 3-mingyilliklda B)mil.avv. 2-mingyilliklda
C) mil.avv. 4-mingyilliklda D)mil.avv. 1-mingyilliklda

106) Mil.avv. X-IX asrlarda Finikiya … vujudga keldi.
A) Sardiniya podsholigi B) Bobil podsholigi
C) Tir-Sidon podsholigi D) Finikiya podsholigi

107) Qachon Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo'lgan alifbo yaratildi?
A) mil.avv. XII asrda B) mil.avv. X asrda
C) mil.avv. XII asrda D) mil.avv. XII asrda

108) Mil.avv. VII asrda Tir-Sidon podsholigini ……. bosib oldi.
A) Finikiya B) Bobil C) Misr D) Ossuriya

109) Qachonga kelib Falastinga qadimiy yahudiy qabilalari ko'chib kelib joylashganlar?
A) mil.avv. 4-mingyillik boshlarida
B) mil.avv. 3-mingyillikda
C) mil.avv. 2-mingyillik o'rtalarida
D) mil.avv. 1-mingyillikda

110) Qaysi asrlarda Falastin hududida Isroil podsholigi vujudga keldi; keyinchalik u Yahudiya podsholigiga birlashtirildi?
A) mil.avv. XII asrda B) mil.avv. XI asrda
C) mil.avv. IX asrda D) mil.avv. VII asrda

111) Mil.avv. 586-yilda Yahudiya ……. tomonidan bosib olindi.
A) Misr B) Bobil C) Finikiya D) Ossuriya

112) "Bibliya" so'zi yunonchada qanday ma'noni anglatadi?
A) "oyat" B) "o'qish" C) "kitob" D) "epos"

113) Miloddan avvalgi VI asrda hozirgi Eron hududida Ahamoniylar sulolasiga mansub shohlar asos solgan …… vujudga keldi.
A) Midiya podsholigi B) Elam podsholigi
C) Lidiya podsholigi D) Fors podsholigi

114) Mil.avv. 3-mingyillikda Eronning g'arbiy qismida Mesopotamiya bilan chegarada qanday davlat vujudga kelgan edi?
A) Midiya B) Elam C) Lidiya D) Ossuriya

115) Qadimgi Eron hududida qadim zamonlarda ……… singari turli qabilalar yashab kelgan.
A) elamiylar va forslar B)saklar va eroniylar
C) kassiylar, va elamiylar
D)massagetlar va elamiylar

116) Qaysi asrlarda Eron teritoriyasidagi mamla-katga midiyaliklar va forslar ko'chib o'rnashadi?
A) mil.avv. XVI asrda B) mil.avv. XIII asrda
C) mil.avv. XI asrda D) mil.avv. IX asrda

117) Elam davlatining poytaxti …… shahri bo'lgan.
A) Ekbatan B) Suza
C) Persopol D) Kirmonshoh

118) Mil.avv. VII asrda qaysi podsho hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi?
A) Kir II B) Kambiz C) Kiaksar D) Bardiya

119) Mil.avv. IX asrda Kaspiy dengizdan janubiy g'arbda joylashgan …….. qabilalar ittifoqlari vujudga keldi.
A) Elamda B) Ossuriyada
C) Lidiyada D) Midiyada

120) Qaysi davlatlar mil.avv. 612-605-yillarda ittifoq bo'lib Ossuriyani bosib oldi?
A) Lidiya va Bobil B) Midiya va Bobil
C) Urartu va Midiya D) Misr va Lidiya

121) Qachon Ahamoniylar sulolasidan bo'lmish podsho Kir II barcha forslarni o'z hokimiyati ostiga birlashtirdi?
A) mil.aw. 572-yilda B) mil.aw. 564-yilda
C) mil.aw. 558-yilda D) mil.aw. 545-yilda

122) Mil.aw. 539-yillarda Kir II qayerlarni zabt etdi?
A) Lidiya, Misr, Ossuriyani
B) Urartu, Finikiya, Suriyani
C) Midiya , Misr, O'rta Osiyoni
D) Armaniston, Midiya va Bobilni

123) Kambiz qayerni zabt etishi bilan Eron davlati hududi nihoyatda kengaydi?
A) Mesopotamiyani B) Misrni
C) O'rta Osiyoni D) Lidiya va Midiyani

124) Mil.aw. 522-486-yillarda Qadimgi Fors davlati taxtida kim hukumdorlik qildi?
A) Kir II B) Doro I C) Kambiz D) Kserks

125) Fors podshosi Doro I butun mamlakat uchun qanday nomlangan yagona oltin tangani muomilaga kiritdi?
A) "kiroyi" B) "doroyi" C) "fuls" D)"gitrifiy"

126) Ahamoniylar hukumronligi davrida "shoh yo'li" degan yo'l qurilgan bo'lib, bu …… yetib borar edi.
A) Persopoldan O'rtayer dengiziga qadar
B) Kiropoldan Qora dengiz qirg'ogigacha
C) Suzadan Badaxshongacha
D) Persepoldan Finikiya hududigacha

127) Doro I ning qayerlarni bosib olishi natijasida yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo'ldi?
A) Midiya va Bobil hududlarini
B) Kichik Osiyodagi yunon koloniyalari va Frakiyani
C) O'rtayer dengizi bo'yidagi yunon koloniyalariga hujumi
D) Falastin va Finikiya hududlarini bosib olishi

128) Qadimiy qaysi shaharda Doro I Kserksning muazzam xonalar va yuz ustunli zali bo'lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan?
A) Suzada B) Ekbatanada
C) Persopolda D) Elamda

129) Qadimiy qaysi shaharlar Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari edi?
A) Persopol va Tehron B) Suza va Ekbatana
C) Kiropol va Suza D) Ekbato'na va Kiropol

130) Qachon Makedoniyalik Aleksandr Fors davlatini bosib oldi?
A) mil.aw. 334-yilda B) mil.aw. 332-yilda
C) mil.aw. 330-yilda D) mil.aw. 328-yilda

131) Kir II . ……. O'rta Osiyo halokatga uchradi?
A) mil.aw. 545-yilda B) mil.aw. 540-yilda
C) mil.aw. 535-yilda D) mil.aw. 530-yilda

132) Qaysi davrda Hind daryosi vodiysi manzilgohlari tez-tez ro'y beruvchi toshqinlar, o'rmonlar va changalzorlar kengayishi hamda tuproq oriqlab ketishi tufayli zavolga yuz tutadi?
A) mil.aw. XX asrda B) mil.aw. XVIII asrda
C) mil.aw. XVI asrda D) mil.aw. XIII asrda

133) Mil.aw.1500-yillarda Hindiston hududiga bostirib kirgan bosqinchi oriylar - …….. yashagan ko'chmanchi qabilalar bo'lgan.
A) Ga'rbiy Yevropa va Sibirda B) Eron va Kavkazda
C) Sharqiy Yevropa va Uralda D) Elam va Bolqonda

134) Hind daryosi havzasidagi eng qadimiy shaharlar qaysilari hisoblanadi?
A) Moxenjandoro va Kashmir B) Xaroppa va Sind
C) Dehli va Agra D) Moxenjandoro va Xaroppa

135) Hindlarning qaysi xudosi osmondagi suvni tutqinlikdan xalos aylagach, yer yuzida qurg'oqchilik payoniga yetibdi?
A) Indra B) Ganesha C) Axriman D) Mitra

136) Hindlarda sigir muqaddas hayvon sanalib, uni o'ldirgan kimsaga qanday jazo qo'llangan?
A) uni qo'li kesib tashlangan
B) u bilan hech kim muloqotda bo'lmagan va jamiyatdan haydab yuborilgan
C) uni oyog'i chopib tashlangan
D) uni tosh bo'ron qilishgan

137) Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab qanday guruhlarga ajratilgan?
A) braxmanlar, kohinlar, savdogarlar, kulollarga
B) vayshilar, shudralar, chokarlar, kohinlarga
C) braxmanlar kshatriylar, vayshilar, braxmanlarga
D) shudralar, kashivarzlar, vayshilar, shudralarga

138) Quyidagilarning qaybirlari shudra tabaqasiga mansub bo'lgan?
A) hunarmandlar va savdogarlar
B) kohinlar va dehqonlar
C)dehqonlar va xizmatkorlar D)xizmatkorlar va qullar

139) Hindlarning e'tiqodicha, tabaqalardan har birini oliy xudo Braxma o'z jismining qandaydir bir qismidan dunyoga keltirgan bo'lib, kohinlar uning ……. yaratilgan.
A) dahanidan B) qo'llaridan
C) quymichidan D) oyoqlari tovonidan

140) Qadimgi hindlarda kshatriylar tabaqasini kimlar tashkil qilgan?
A) dehqonlar B) xizmatkorlar
C) jangchilar D) savdogarlar

141) Hindistonda tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmaganlarni qanday atashgan?
A) "veyshilar" B) "chandallar"
C) "shudralar" D) "kshatriylar"

142) Mil.aw. VII-VI asrlarda Hindistonda qanday davlatlar vujudga kelgan?
A) Magadxa, Chandragupta, Maurija
B) Koshala, Xaroppa, Magadxa
C) Magadxa, Koshala, Malla
D) Moxenjandoro, Maurya, Koshala

143) Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoni zabt etganidan so'ng qachon Panjob olkasi hududiga bostirib kiradi?
A) mil.aw. 329-yilda B) mil.aw. 328-yilda
C) mil.aw. 327-yilda D) mil.aw. 325-yilda

144) Qachon yunon-makedon qo'shinlari Hindistondan butunlay quvib yuborildi?
A) mil.aw. 325-yilda B) mil.aw. 323-yilda
C) mil.aw. 320-yilda D) mil.aw. 318-yilda

145) Yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga mashhur hind sarkardasi ………… sardorlik qilgan.
A) Chakrabati B) Chandragupta
C) Shiri Devi D) Ashoka

146) Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan ……. davlatining asoschisi bo'ldi.
A) Magatxa B) Malla C) Mauriya D) Koshalla

147) Qaysi shahar Mauriya davlatining poytaxti bo'lgan?
A) Dehli B) Pataliputra C) Agra D) Panjob

148) Mil.awalgi qaysi asrda, kimning hukumronligi davrida Mauriya rivojlanishda yuksak pog'onalarga erishdi?
A) mil.aw III asrda podsho Por davrida
B) mil.aw II asrda podsho Chandragupta davrida
C) mil.aw III asrda podsho Ashoka davrida
D) mil.aw II asrda podsho Gautama davrida

149) Qaysi davrda Hindiston ilm-fan, xususan, astranomiya va matematika sohasida yuksak darajaga erishadi?
A) mil.aw. 1-mingyillikda B) mil.aw. 2-mingyillikda
C) mil.aw. 12-mingyillikda D) mil.aw. 9-mingyillikda

150) Hindistonda ixtiro qilingan, hindlarning o'zi "qo'shining to'rt turi" deb ataydigan o'yin bugungi kunda butun jahonga qanday nom bilan ma'lum va mashhurdir?
A) "chavgon" B) "shashka"
C) "beysbol" D) "shaxmot"

151) Hindistoning qaysi shahrida hozirgacha saqlangan toza temirdan quyilgan minora ustuni hali ham zanglagan, korroziya hodisasi unga asrlar davomida ta'sir o'tkaza olmagan?
A) Bombey shahrida B) Dehli shahrida
C) Agra shahrida D) Kashmir shahrida

152) Yangi buddaviylik dini yaratuvchisi Budda taxallusini olgan shahzoda … nomi bilan bog'liqdir.
A) Chandragupta B) Por
C) Siddhartha Gautama D) Sheri Devi

153) Qadimgi hind tillari asosida qanday yangi adabiy til ishlab chiqildi?
A) sind tili B) urdu tili C) panjobiy tili D) Sanskrit tili

154) Hindlarning bugungi kungacha yetib kelgan eposlaridan qaysilarini bilasiz?
A) "Ramayana", "Muhabbatnoma", "Panchatantra"
B) "Mahobhorat", "Ramayana", "Panchatantra"
C) "Panchatantra", "Rigveda", "Mahobhorat"
D) "Muhabbatnoma", "Ramayana", "Patalaputra"

155) Buddavilik dini oldingilaridan nimasi bilan farq qiladi?
A) jonivorlarga ozor bermasligi bilan
B) xudolarning ko'p bo'lmasligi bilan
C) inson mavqei tabaqalarga ham, jamiyatdagi maqomiga ham bog'liq bo'lmasligi bilan
D) narigi dunyoga ishonmasligi bilan

156) Qaysi davrlarda Xitoyda ham ilk sivilizatsiyalar Xuanxe va Yansizi degan katta daryolar bo'ylarida kurtak yoya boshladi?
A) mil. aw. 5-4-mingyilliklarda
B) mil. aw. 4-3-mingyilliklarda
C) mil. aw. 3-2-mingyilliklarda
D) mil. aw. 2-1-mingyilliklarda

157) Qadimgi Xitoy davlati … vujudga keladi.
A) Yanzisi daryosining boshlanish qismida
B) Xuanxe daryosining o'rta oqimida
C) Dunxuan daryosining dengizga quyilish joyida
D) Chonsha daryosi bo'yida

158) Xitoycha "Xuanxe" qanday ma'noni anglatgan?
A) "Ko'k daryo" B) "Qora daryo"
C) "Qizil daryo" D) "Sariq daryo"

159) Xuanxe o'zanining tez-tez o'zgarib turganligi uchun xitoyliklar uni … deb ta'riflahsgan?
A) "ochofat daryo" B) "kulfat keltiruvchi daryo"
C) "beqaror daryo", "minglab ofatlar daryosi"
D) "to'fonli daryo", "kulfat keltiruvchi daryo"

160) Qaysi davrga kelib Xitoyda qabilalar ittifoqlari paydo bo'la boshlagan?
A) mil. aw. 5-mingyillikda B) mil. aw. 4-mingyillikda
C) mil. aw. 3-mingyillikda D) mil. aw. 2-mingyillikda

161) Mil. aw. 2-mingyillik o'rtalarida ittifoq shaharlar yagona davlatga birlashdi, bu davlat nomi bilan uning bosh shahri nomi kabi … deb atalgan.
A) "Zafaryor" B) "Chjou" C) "Loyan" D) "Shan"

162) Qachon Shanga qo'shni Chjou qabilasi bostirib kiradi?
A) mil. aw. 3-mingyillikda B) mil. aw. 2-mingyillikda
C) mil. aw. XII asrda D) mil. aw. X asrda

163) "Chjou" davlati ulkanligi tufayli hukmdorlar uni qanday atashgan?
A) "Buyuk davlar" yoki "imperiya"
B) "Zafaryor" yoki "dunyo ustuni"

C) “Buyuk shon” yoki “So’ngi podsholik”
D) “Zafaryor” yoki “O’rta podsholik”

164) “Chjou” podsholari o’zlarini … deb atashgan.
A) “Osmon o’g’illari” B) “Dunyo posbonlari”
C) “Buyuk inson” D) “Dunyo ustuni”

165) Xitoyga sholi urug’i qayerdan keltirilgan?
A) Koreadan B) Yaponiyadan
C) Hindistondan D) Vyetnamdan

166) Qachonga kelib Chjou davlatida markaziy hokimiyat zaif lashaboshlagan?
A)mil. avv. X-IX asrlarda B)mil. avv. VIII-VII asrlarda
C)mil. avv. XII-X asrlarda D)mil. avv. VI-V asrlarda

167) Xitoy tarixida qaysi asrlar “ko’p podsholik” davri nomini olgan?
A) mil. avv. XIII-XI asrlar B) mil. avv. XI-X asrlar
C) mil. avv. XII-X asrlar D) mil. avv. VII-V asrlar

168) “Zafaryor”- imperiyaning oliy hukmdorlari bilan ajralib chiqqan davlatlar hukmdorlari o’rtasida boshlangan urushlar qancha vaqt davom etdi?
A) 100 yilga yaqin B) 150 yilga yaqin
C) 120 yilga yaqin D) 200 yilga yaqin

169) Sin davlati hukmdori o’zining barcha raqiblarini yo’q qilib tashlab, … yagona davlat tuzdi.
A) mil. avv. VII asrda B) mil. avv. V asr o’rtalarida
C) mil. avv. VI asr boshlarida D) mil. avv. III asrda

170) Xitoyning qaysi hukmdori “Sinning birinchi hukmdori” degan nomni oldi?
A) U Di B) Sin Shixuandi C) Lyu Ban D) Vey Shu

171) Sin davlatining hukmdori o’z davlati hududini necha viloyatga taqsimlab boshqardi?
A) 22 ta B) 27 ta C) 32 ta D) 36 ta

172) Sin Shixuandi ko’zi tirikligidayoq o’ziga atab qurdirgan maqbarasini necha odam qancha vaqt davomida bunyod etdi?
A) 800 ming odam 26 yil davomida
B) 760 ming odam 32 yil davomida
C) 720 ming odam 37 yil davomida
D) 670 ming odam 42 yil davomida

173) Sin Shixuandi qabrini, imperatorni “qo’riqlash” uchun qancha sopol askar haykallari qo’yilgan?
A) 8 mingta B) 6 mingta C) 4 mingta D) 2 mingta

174) Sin Shixuandi hukmronligi davrida Xitoyda kimlarning ahyon-ahyondagi hujumlaridan himoyalanish uchun Buyuk devorni bunyod etish boshlab yuborildi?
A) xitanlarning B) yuechjilarning
C) xunnlarning D) dunganlarning

175) Buyuk devorning uzunligi necha kilometrni tashkil qilar edi?
A) 6 ming km.ni B) 5 ming km.ni
C) 4 ming km.ni D) 3 ming km.ni

176) Qachon Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo’zg’aloni alangalanib ketdi?
A) mil. avv. 236-yilda B) mil. avv. 223-yilda
C) mil. avv. 214-yilda D) mil. avv. 206-yilda

177) Sin sulolasiga qarshi dehqonlar qo’zg’oloniga kim boshchilik qilgan?
A) U Di B) Sin Shixuandi C) Lyu Ban D) Vey Shu

178) Qaysi hukmdor davrida Xan sulolasi davlati eng qudratli davlatga aylandi?
A) U Di B) Sin Shixuandi
C) Vey Shu D) Lyu Ban

179) Xan sulolasi hukmdorlari qaysi davrgacha mavjud bo’lgan?
A) mil. avv. 140-yilgacha B) mil. avv. 87-yilgacha
C) mil. avv. 220-yilgacha D) milodiy 140-yilgacha

180) Xitoyda II asrda bo’lib o’tgan eng yirik qo’zgolonni belgilang?
A) “Ko’k ro’molliklar” B) “Sariq ro’molliklar
C) “peshona bog’liqlar” D) “Qizil ro’molliklar”

181) Qaysi davrga kelib Xitoy imperiyasi uchta podsholikka ajralib ketdi?
A) milodiy II asrda B) milodiy III asrda
C) milodiy IV asrda D) milodiy V asrda

182) Xitoyliklar bundan … yil muqaddam bambuk o’rnida ipakdan foydalanishga o’tdi?
A) 4 ming B) 3 ming C) 2,5 ming D) 2 ming

183) Qachon Xitoyda qog’oz ixtiro qilindi?
A) mil. avv. II asrda B) mil. avv. I asrda
C) milodiy III asrda D) milodiy VI asrda

184) Xitoyda zilzilani oldindan aytib beruvchi qanday asbob ixtiro qilingan edi?
A) sekstant B) seysmometr
C) seysmograf D) termometr

185) Xitoyliklarning eng ajoyib ixtirolaridan biri kompas bo’lib, u magnitlangan temirdan yasalgan uzun dastali kattakon … eslatar edi.
A) xanjarni B) pichoqni C) vilkani D) qoshiqni

186) Yozma manbalarning guvohlik berishicha qaysi asrlarda O’zbekiston hududida so’g’diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massagetlar yashagan?
A) mil. avv. IX-VIII asrlarda
B) mil. avv. VIII-VII asrlarda
C) mil. avv. XI-IX asrlarda D) mil. avv.VII-VI asrlarda

187) Qadimgi Baqtriya deganda hozirgi qaysi hududlar tushuniladi?
A) Zarafshon vodiysi va Amudaryoning quyi qismi
B) Surxondaryo vodiysi, Shimoliy Afg’oniston va Janubiy Tojikiston hududlari
C) Qashqadaryo va Surxondaryo vodiysi
D) Amudaryoning quyi qismi va Shimoliy Afg’oniston hududlari

188) Qaysi yozma manbalarda Zarafshon va Qashqadaryo vohasi So'g'd deb yuritilgan?
A) "Avesto"da B) Behistun yozuvlarida
C) Xitoy manbalarida
D) Yunon-rim tarixchilarining asarlarida

189) Amudaryoning quyi qismida yashovchi o'troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti qaysi manbada Xvarazmish deyilgan?
A) Hind manbalarida B) Behistun yozuvlarida
C) "Avesto"da
D) Yunon-Rim tarixchilarining asarlarida

190) Qadimgi yunon-rim tarixchilarining yozishlaricha Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada kimlar yashagan?
A) Saka-tigraxaudalar B) massagetlar
C) Saka-xau-movarkalar D) Skiflar

191) Qaysi davrga kelib hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida qadimgi shaharlar rivojlangan?
A) mil. avv. XII-XI B) mil. avv. XI-IX
C) mil. avv. IX-VIII D) mil. avv. VII-VI

192) Saklarning saka-tiay-taradarayya guruhi qaysi hududlarda yashagan?
A) Hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston
B) Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimi
C) Pomirning tog'li tumanlari va Farg'onada
D) Kaspiy dengizi bo'ylari va Amudaryogacha bo'lgan hududlarida

193) Saklarning qaysi guruhi o'tkir uchli qalpoq kiyib yuruvchi Saklar deb atalgan?
A) Saka-tigraxaudalar B) Saka-tiay-taradarayya
C) Saka xau-movarkalar D) Saka-darayyalar

194) Quyidagi qaysi manzilgohlar O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shaharlar hisoblanadi?
A) Afrosiyob, Qiziltepa, Yerqo'rg'on, va Uzunqir
B) Qiziltepa, Bo'yrachi, Uzunqir, Sopollitepa
C) Yerqo'rg'on, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Sarazm
D) Uzunqir, Afrisiyob, Jarqo'rg'on, Oybuyirqala

195) Qaysi asrlarda O'zbekiston hududida temir asriga o'tish boshlandi?
A) mil. avv. XIV-XIII B) mil. avv. IX-VIII
C) mil. avv. XIII-XI D) mil. avv. VIII-VII

196) Qadimiy shaharlardan bo'lmish Ko'zaliqir qayerdan topib o'rganilgan?
A) Samarqanddan B) Qashqadaryo vodiysidan
C) Surxondaryodan D) Xorazmdan

197) Qaysi asrlarda qadimiy shaharlardan biri bo'lmish Afrosiyobga asos solingan?
A) mil. avv. XI-X asrlarda
B) mil. avv. X-IX asrlarda
C) mil. avv. VIII-VI asrlarda
D) mil. avv. VI-V asrlarda

198) Afrosiyob hozirgi Samarqandning qaysi hududida joylashgan?
A) shimoliy kengligida
B) sharqiy chegarasi hududlarida
C) janubiy chegarasida
D) g'arbiy chegasi hududlarida

199) Qaysi davrlarda O'rta Osiyoda zardushtiylik degan din keng tarqalgan?
A) mil. avv. 2-mingyillikda B) mil. avv. 1-mingyillikda
C) mil. avv. V-IV asrlarda D) mil. avv. III-II asrlarda

200) Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" qanday ma'noni anglatgan?
A) "oyatlar va kalimalar to'plami"
B) "urf-odatlar tasnifi"
C) "qat'iy belgilangan qonun-qoidalar"
D) "ilmu-amallar yig'indisi"

201) Zardushtiylikning zo'r ehtiromga sazovor xudolaridan biri … -Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat bag'shlovchi xudosidir.
A) Anaxita B) Mitra C) Ahuramazda D) Ahuraman

202) Qaysi olim ilk marotaba "Avesto"ning alohida qismlarini tarjima qilish baxtiga muyassar bo'lgan?
A) nemis olimi fon-Rextgofen
B) fransuz olimi A. Dyuperron
C) fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon
D) rus olimi V.L. Bartold

203) "Avesto"ning ilk qismi qachon paydo bo'lgan?
A) mil. avv. XIII-XII asrlarda
B) mil. avv. XII-XI asrlarda
C) mil. avv. VI-IV asrlarda
D) mil. avv. IX-VIII asrlarda

204) Zardusht vazlari matnlarining hammasi … jamlangan, bu kitoblar "Avesto" asosini tashkil etgan edi?
A) mil. avv. III asrda 21 ta kitobga
B) mil. avv. VII asrda 17 ta gotga
C) mil. avv. VIII asrda 21 ta kitobga
D) mil. avv. V asrda 17ta gotga

205) "Avesto" matnlariga sharh nima deb atalgan?
A) "tasvir" B) "sharh" C) "zand" D) "izoh"

206) Zardushtiylar nimalarni muqaddas bilishgan?
A) olov, suv, tuproq, havo
B) suv, havo, tuproq, ovqat
C) quyosh, haykal, suv, olov
D) havo, suv, yer, odam

207) Zardusht 30 yoshida yangi dinning asoschisiga aylangan. Payg'ambar so'zi qanday ma'noni anglatgan?
A) Xudoning yerdagi soyasi
B) "Ezgu amallar haqida mujda beruvchi"
C) Xudo va odamning o'rtasidagi vositachi
D) Xudoning yerdagi yordamchisi

## 3-mavzu: Qadimgi Yunoniston

1) Qadimgi Yunoniston qayerda joylashgan?
A) Qora dengiz sohillari va Bolqon yarim orolida
B) Bolqon yarim oroli va O'rta yer dengizi orollarida
C) Marmar dengizi orollari va Makedoniy orolarida
D) Krit oroli va Gretsiya hududlarida

2) Qaysi davrlarda Yunonistonda ilk shahar davlatlar vujudga kela boshladi?
A) mil.aw. 5-mingyillikda B) mil.aw. 4-mingyillikda
C) mil.aw. 2-mingyillikda D) mil.aw. 3-mingyillikda

3) Mil.aw. 2-mingyillikda Yunonistonning qayerida sivilizatsiya vujudga keladi?
A) Knosda B) Peleponesda
C) Trinfda D) Krit orolida

4) Mil.aw. 2-mingyillikda Yunonistonda ……..ilk shaharlar vujudga kela boshladi.
A) Miken, Knos, Tirinf, Pilos
B) Knos, Bobil, Pilos,Mitanni
C) Tirinf, Pilos,Afina, Spartak
D) Pilos, Knos,Troya, Efes

5) Mil.aw.1450-yillarda qit'adagi Yunoniston hududidan mikena qabilalari bostirib kiradi, uning muqim aholisini kimlar deyishgan?
A) doriylar B) yunonlar C) axeylar D) giksoslar

6) Qachon doriylar Yunonistonga bostirib kirib, Miken davlatini yakson qiladilar?
A) mil.aw. 1450-yilda B) mil.aw. 1200-yilda
C) mil.aw. 1324-yilda D) mil.aw. 842-yilda

7) Sparta davlatiga kimlar asos solishgan?
A) yunonlar B) axeylar C) doriylar D) guteylar

8) Odamlar yashaydigan hududlarni yunonlar qanday atashgan?
A) Piloslar B) Koloniya C) Satraplar D) Oykumena

9) Qaysi asrlarga kelib, dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi natijasida manzilgohlar va shaharlar soni ham ortib bordi?
A) mil.aw. XV-XIII asrlarda
B) mil.aw. XIII-XI asrlarda
C) mil.aw. IX-VII asrlarda
D) mil.aw. VII-V asrlarda

10) Yunoncha "POLIS" so'zi qanday ma'noni bildiradi?
A) manzilgoh B) shahar C) ark D) qal'a

11) Yunonistonda armiyaning asosini og'ir qurollangan askarlar…….tashkil etgan.
A) tiranlar B) falanga C) goplitlar D) qullar

12) Attika aholisi qanday uch katta guruhga bo'lingan edi?
A) fuqarolar, qullar, ajnabiylar(meteklar)
B) qullar, quldorlar, ruhoniylar
C) ajnabiylar(meteklar), quldorlar, dvoryanlar
D) pelebeylar, patritsiylar, ajnabiylar(meteklar)

13) Qachondan boshlab Yunonistonda davlat organlarida ishlashga muayyan haq to'lana boshlandi?
A) mil.aw. IXasrdan B) mil.aw.VII asrdan
C) mil.aw. V asrdan D) mil.aw.III asrdan

14) Mil.aw. 2-mingyillikda yunonlar qayerni "Akropol", ya'ni "yuqori shahar" deb atalganqala quradilar?
A) Peleponnesning janubda
B) Sparta shahrining shimolda
C) Attikaning g'arbiy qismida
D) Afina shahrining markazida

15) Afina davlatiga qaysi sohalar katta daromad keltirar edi?
A) qullar savdosi
B) boshqa davlatlar bilan olib borilgan savdo
C) Kumush konlari va tuz qazib olish
D) dehqonchilik va chorvachilik sohalari

16) Yunonlar to'rtburchak shaklini yuzaga keltiruvchi bir-biriga zich joylashgan qatorlar bilan jang qilishgan. Jangovar safda shu tariqa tuzilish esa ………deb atalgan.
A) tirer B) falanga
C) goplit D) qo'shin

17) Qaysi bandargoh Afinaning asosiy portiga aylangan va bu bandargohdan mamlakatga minglab qullar,tovarlar keltirar edi?
A) Rodas B) Efes
C) Pirey D) Platey

18)Yunonistonda bolalar nechi yoshdan o'qitilar edi?
A)5 yoshdan B)6 yoshdan
C)7 yoshdan D)8 yoshdan

19)Yunonchada "pedagog" so'zi qanday ma'noni anglatgan?
A) "bolani yo'lda kuzatib boruvchi"
B) "xivchinli kishi"
C) "bolaga rahnamolik qiluvchi"
D) "bolaga o'qish va yozishni o'rgatuvchi"

20) Yunonistonda puldor ota onalarning farzandlari qayerda o'qishni davom etkazishgan?
A) gimnaziyalarda B) litseylarda
C) palestrlarda D) kaloniylarda

21) Yunoniston maktablarida o'g'il bolalar necha yoshidan boshlab gimnastika bilan shug'ullanganlar?
A) 9 yoshidan B) 11 yoshidan
C) 14 yoshidan D) 16 yoshidan

22) Yunon palestrlarida bolalarga nimalar o'rgatiladi?
A) handisa, meditsina, musiqa
B) adabiyot o'qitilar, she'r yozish va musiqa
C) she'r yozish, ritorika va handisa
D) haykal yasash, she'r yozish va rasm chizish

23) Qaysi mashhur haykaltaroshlar ishlagan haykallar palestrlarda o'rnatilgan?
A) Mironning "Diskbol" va Pampeyning "Jangchi" haykallari
B) Polikletning "Nayzabardor" va Mikelanjeloning "Chavandoz" haykallari
C) Mironning "Diskbol" va Polikletning "Nayzabardor"
D) Geraklitning "Olimpiya" va Pampeyning "Jangchi" haykallari

24) Afinada oliy ta'lim olish muddati ……..bo'lgan.
A) 3-4 yil B) 4-5 yil C) 5-6 yil D) 6-7 yil

25) Oliy ta'lim muassalarida qanday fanlar o'qitilgan?
A) matemateka, medisina, tarix, ritorika
B) astranomiya, geometriya, geografoya, tarix
C) geografiya, tarix, adabiyot, geometriya
D) tarix, matematika, musiqa, mantiq

26) Qachon Janubiy Yunoniston hududiga doriylar qabilasi bostirib kirdi?
A) mil.aw. XVIII asrda B) mil.aw. XVI asrda
C) mil.aw.XIV asrda D) mil.aw. XII asrda

27) Spartada qulga aylantirilgan mahalliy aholi qanday nomlangan?
A) kolonlar B) pelebeylar C) ilotlar D) patritsiylar

28) Qaysi asrlarda qullar soni uncha ko'p bo'lmagan Afinadan farqli o'laroq Spartada qulga aylantirilgan aholi kopchilikni tashkil etar, ular ham spartaliklardan qattiq nafratlanar edi?
A) mil.aw. XI-X asrlarda B) mil.aw. X-IX asrlarda
C) mil.aw. VIII-VII asrda D) mil.aw.VII-V asrda

29) Spartada to'la-to'kis huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolar qanday nomlangan?
A) ilotlar B) periyeklar C)meteklar D) kolonlar

30) Periyeklar shaxsan ozod kishilar bo'lsada ……
A) Xalq kengashida ishtirok eta olmas, armiyada xizmat qilolmas edilar
B) Sud ishlarida ishtirok eta olmas edi
C) Savdo ishllari bilan shug'ullana olmas edi
D) armiyada xizmat qilolmas, o'z yer mulkiga ega bo'lolmas edi

31) Yunonlar egasiz yotgan serunum yerlarni o'zlashtirish uchun ketayotgan mahalda ular umrbod tark etgan vatanning bir parchasi sifatida nimani olib ketishgan?
A) tuproqni B) olovni
C) donni D) mehnat qurollarini

32) Buyuk Yunon koloniyalashtirilishi…davom etgan.
A) mil.aw. VIIIasrdan VI asrgacha
B) mil.aw. Xasrdan VII asrgacha
C) mil.aw. VI asrdan IV asrgacha
D) mil.aw. V asrdan III asrgacha

33) Yunonlar o'zlari o'zlashtirgan yerlar tevaragida yashovchi yunon bo'lmagan xalqlarni qanday nom bilan atashgan?
A) "ilotlar" B) "kolonlar"
C) "varvarlar" D) "oriylar"

34) Buyuk yunon koloniyalashtirilishi nomini olgan davrda Qora dengiz sohillarida qanday yirik koloniyalar vujudga kelgan?
A) Ellada, Xersones, Miken, Krit, Tasis, Tanais
B) Olviya, Xersones, Pantikapey, Tanois, Tasis, Trapezund
C) Pantikapey, Knos, Miken, Olviya, Xersones, Tasis
D) Miken, Pantikapey, Xersones, Knos, Tasis, Olviya

35) Qaysi asrlarda Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi 24 harfdan iborat yozuv vujudga keldi?
A) mil.aw. VIII asrda B) mil.aw. VII asrda
C) mil.aw. VI asrda D) mil.aw. V asrda

36) O'rta yer dengizi sohillarida ………yunon koloniyalari tashkil topgan edi.
A) ellikka yaqin B) yetmishdan ziyod
C) yuzdan ziyod D) oltmishdan ortiq

37) Qadimgi Yunonistonda harflarni nima bilan yozishgan?
A) qalamda B) stillda C) ruchkada D) bo'rda

38) Afina aholisi qanday qismlarga bo'lingan?
A) zodagonlar va demosga B) ruhoniylar va fuqarolarga
C) qullar va quldorlarga D) meteklar va zodagonlarga

39) Drakont qonuni shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga …….deya ta'rif berishgan.
A) "xalqning sho'ri"
B) "xalqqa qirg'in keltiruvchi"
C) "odamlarga ofat keltiruvchi"
D) "siyoh qolib, qon bilan yozilgan"

40) Qachon Solon davlatni idora qilishning oldingi, aristrokratiya tizimini demokratiyaga almashtirdi?
A) mil.aw. 641-yilda B) mil.aw.605-yilda
C) mil.aw.594-yilda D) mil.aw.567-yilda

41) Solon islohotlaridan keyin Attika aholisi qanday toifalarga ajratiladigan bo'ldi?
A) meteklar va fuqarolarga B) fuqarolar va qullarga
C) zodagonlar va meteklarga
D) pelebeylar va patritsiylarga

42) Afinada erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar necha yoshdan boshlab Xalq majlisida ishtirok etardilar?
A) 20 yoshdan B) 22 yoshdan
C) 25 yoshdan D) 30 yoshdan

43) Har yili saylanadigan Beshyuzlar kengashi qanday masalalarni hal qilardi?
A) kundalik joriy masalalarni
B) jang olib borish masalasini
C) savdo-sotiq masalalarini
D) lavozimlarni belgilash masalasini

44) Beshyuzlar kengashiga kim boshchilik qilardi?
A) qirol B) senator C)konsul D) strateg

45) Afinada muhim davlat organi bo'lgan xalq sudida necha yoshga to'lgan fuqarolar uning faoliyatida ishtirok etar edilar?
A) 20 yoshga B) 25 yoshga
C) 30 yoshga D) 40 yoshga

46) Afina davlatida kim 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan?
A) Salon B) Perikl C) Drakont D) Poliklet

47) Perikl hukmronligi davrida Afinada katta qurilish-larga e'tibor berilib, Akropoldagi….qurilgan edi.
A) Beshyuzlar kengashining binosi
B) Parfenon-iloha Afina ibodatxonasi
C) uning bahaybat maqbarasi
D) Kolizey amfiteatri

48) Perikl Afina shahrini xavf-xatardan asrash uchun qanday buyruqni bergan edi?
A) Tungi soqchilikni joriy etish to'g'risida
B) yollanma qo'shinni tashkil etish to'g'risida
C) Afinadan to Pirey dengiz bandargohigacha mudofaa devorlari qurish to'g'risida
D) soqchilik minoralarini qurish to'g'risida

49) Yunon fors urushlari ……qadar davom etgan.
A) mil.aw. 480-yildan boshlab 439-yilgacha
B) mil.aw. 490-yildan boshlanib 449-yilgacha
C) mil.aw. 470-yildan 423-yilgacha
D) mil.aw. 485-yildan 416-yilgacha

50) Yunonistonning qaysi shahriga kelgan fors elchilarini shaharliklar ularni chuqur quduqqa tashlab yuborgan va zaxarxanda bilan "Yetarlicha yerni ham suvni ham quduq tubidan topasizda" deyishgan ekan?
A) Afinaga B) Spartaga C) Salaminga D) Mikenga

51) Qaysi asrlarga kelib Fors shohlari Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarini bosib oldilar?
A) mil.aw. VII asr o'rtalarida
B) mil.aw VI asr boshlarida
C) mil.aw. VI asr oxirida
D) mil.aw. V asr o'rtalarida

52) Forslar va yunonlarning Marafon jangi ….bo'lib, yunonlar g'alabasi bilan tugagan.
A) mil.aw. 490-yilda B) mil.aw. 480-yilda
C) mil.aw. 473-yilda D) mil.aw. 449-yilda

53) Fermopil jangi qachon bo'lib o'tgan?
A) mil.aw. 490-yilda B) mil.aw. 485-yilda
C) mil.aw. 480-yilda D) mil.aw. 475-yilda

54) Fermopil yonidagi jangda yunon qo'shinlariga kim boshchilik qildi?
A) Miltiad B) Diosiy C) Perikl D) Leonid

55) Femistoklning maslahati bilan yunonlar nechta harbiy kema triyera qurishdi?
A)100 ta B) 160 ta C) 200 ta D) 240 ta

56) Leonid boshchiligidagi 300 nafar jangchi Fermopil darasidagi jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. Ushbu voqea tarixda qanday nom bilan mashhur bo'lgan?
A) "Yunon jangchilarining qahramonlari"
B)"Uch yuz spartaliklar jasorati"
C) "Uch yuz yunon jangchilarining jasorati"
D) "Afinaning uch yuz qahramoni"

57) Yunonlar bilan forslarning hal qiluvchi dengiz jangi……….tor Salamin bo'g'ozida bo'lib o'tdi.
A) mil.aw. 490-yilda B) mil.aw. 480-yilda
C) mil.aw. 470-yilda D) mil.aw. 460-yilda

58) Yunonlarning birlashgan qo'shinlari mil.aw. 479-yilda qayerda fors qoshinlarini tor-mor etdi?
A) Fermopil yaqinida B)Salamin bo'g'ozida
C) Gelleponst bo'g'ozida D)Plateya shahri yaqinida

59) Necha yildan ko'proq davom etgan yunon-fors urushlari yunonlarning to'liq g'alabasi bilan yakunlandi?
A)20 yildan B)25 yildan C)30 yildan D)40-yildan

60) Makedoniya podshosi Filipp II qayerni bosib olish maqsadida jang taktikasini takomillashtirdi va qo'shin yig'di?
A) Xeroniyani B) Elladani C) Afinani D) Spartani

61) Qaysi mashhur notiq Ellada shaharlarini kezib, ularning aholisini birlashish va makedonlarga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qo'shildi, xolos
A) Femistak B) Gerakl C) Demosfen D) Arastu

62) Qaysi shahar aholisi Filipp II qo'shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qo'shiladi?
A) Fiva B) Sparta C) Plateya D) Xeroniya

63) Qachon yunonlar va makedonlarning asosiy kuchlari Xeroniya shahri yaqinidagi Beotiyada to'qnashadilar?
A)mil.aw. 340-yil 10-mayda
B) mil.aw. 339-yil 10-martda
C)mil.aw. 338-yil 2-avgustda
D) mil.aw. 337-yil 12-aprelda

64) Makedoniyaliklarni piyodalarining 16 qator zich joylashuvi ………deyilgan.
A) saflanish B) qo'shilma C) goplit D) falanga

65) Makedoniya Yunonistonni qachon Xeroniya yaqinidagi jangda yunonlarning mag'lubiyatidan so'ng bosib oladi?
A) mil.aw. 339-yilda B) mil.aw. 338-yilda
C) mil.aw. 337-yilda D) mil.aw. 336-yilda

66) Miloddan awalgi 337-yilda Spartadan tashqari barcha yunon shahar davlatlarining vakillari qayerda yig'ildilar va Makedoniya hokimyati ostida yunon davlatlari ittifoqini tuzdilar?
A) Kornifda B) Elladada C) Afinada D) Fivada

67) Filipp II Fors davlatini bosib olish uchun re'jalashtirgan qo'shinlarning asosini yunonlarning lashkari tashkil etishi lozim edi. Yunonlarni qanoatlantirgan urush uchun bahona……
A) yunon lashkarboshlariga Fors davlati hududidan yer berishi
B) yunon askarlarini oylik bilan ta'minlashi
C) yunon-fors urushlari davrida yetkazilgan zarar uchun qasos olish va shoh Kserks Eronga olib ketgan yunon xudolari haykallarini aisrlikdan qutqarish
D) forslarni katta kemalarga egalik qilish huquqini berilishi

68) Bolalikdan yunonlar miyasiga …. singdirilar edi.
A) dushmanga shafqatsiz bo'lish
B) jamoat ishlari shaxsiy yumushlardan ustuvor ekanligi to'g'risidagi dunyoqarash
C) orqaga bir qadam ham chekinmaslik
D) Vatan tuyg'usi har narsadan ustun ekanligi

69) Qadimgi yunon haykaltaroshi Geraklni nega libossiz tasvirlagan?
A) dushman bilan jangda uning kiyimi halaqit bermasligi uchun
B) uning kuch qudratini ko'rsatish maqsadida
C) qadimiy haykallarda libos bo'lmagan.
D) haykalni chiroyli chiqishi uchun

70) Yunonlarda umumiy ta'limdan tashqari o'g'il bolalar ikki yillik harbiy xizmatni ham o'tashi shart bo'lgan. Birinchi yili ular……….
A) uylarida yashar va safda yurish, qurol taqib yurish, ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishni o'rganishardi.
B) Attika chegara qabilalarida harbiy xizmatni o'tashardi.
C) Pirey portida dengizchilik san'ati asoslarini o'rganishar edi.
D) safda yurish va qurol taqib yurishni hamda Attika chegaralarida soqchilik qilishardi.

71) Yunonistonda mamlakatni mudofaa qilish zarurati yuzaga kelsa necha yoshdagi erkaklarning barchasi qurol-yaroqlar va harbiy kiyim kechaklari bilan ko'rikka yetib kelishi shart edi?
A) 20 yoshga to'lgan B) 25 yoshga to'lmagan
C) 30 yoshga to'lmagan D) 40 yoshgacha bo'lganlar

72) Ilk Olimpiya o'yinlari qachondan qachongacha o'tkazilgan?
A) mil.aw. 676-yildan milodiy 230-yilgacha
B) mil.aw. 776-yildan milodiy 394-yilgacha
C) mil.aw. 866-yildan mil.aw. 420-yilgacha
D) mil.aw. 992-yildan mil.aw. 392-yilgacha

73) Qachonga kelib olimpiya o'yinlari qayta tiklanib hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda?
A) 1776-yildan B) 1784-yildan
C) 1846-yildan D) 1896-yildan

74) Qachonga kelib, nima sababdan qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilmasdan qoldi?
A) 394-yilda ustma-ust sodir bo'lgan zilzilalar oqibatida
B) 376-yilda Geraklning vafoti sababli
C) o'zaro urushlarning kuchayib ketishi
D) yunon-fors urushlarinig kelib chiqishi tufayli

75) Yunonistondagi Olimpiya o'yinlari qaysi xudo sharafiga bag'ishlanib o'tkazilgan?
A) Poseydon B) Zevs C) Demetra D) Femida

76) Olimpiya o'yinlari g'oliblari nima bilan mukofotlangan?
A) oltindan yasalgan medal bilan
B) temirdan yasalgan kubok bilan
C) muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan
D) bronzadan yasalgan belbog' bilan

77) Kimlar Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnatishga haqli bo'lgan?
A) urushda qahramonlik ko'rsatgan jangchi
B) musoboqalarda uch karra g'alaba qozongan sportchi
C) Olimpiya o'yinlarining mutloq g'olibi
D) disk uloqtirish va nayza uloqtirishda g'olib bo'lganlar

78)Olimpiya o'yinlarida kimlar qatnashishga haqli edi?
A) Yunonistonning har bir fuqarosi
B) qul bo'lmagan ozod fuqaro
C) jinoyat sodir etmagan, sha'niga dog' tushmagan ozod yunon
D) sport o'yinidan xabari bor fuqaro

79) Olimpiya o'yinlarida Yunonistonning to'rt tarafidan kelgan sportchilar besh kurashda bellashar edilar. bular……..
A) uzunlikka sakrash, tosh uloqtirish, yugurish, balandlikka sakrash, suzish
B) uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish va kurash
C) kurash, suzish, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, balandlikka sakrash
D) disk uloqtirish, kurash, suzish, balandlikka sakrash, arqon tortish

80) Qachon yunonlar Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga yurish qilgan?
A) mil.aw. 1436-yilda B) mil.aw. 1346-yilda
C) mil.aw. 1300-yilda D) mil.aw. 1200-yilda

81) Yunonlar qancha vaqt davomida Troyani behudaga qamal qilganlar?
A) 2 yil B) 16 yil C) 9 yil D) 6 yil

82) ”Illiada” degan mashhur yunon dostonida yunonlarning Troyaga urushining nechanchi yili haqida hikoya qilinadi?
A)beshinchi B)yettinchi C)sakkizinchi D)o’ninchi

83) ”Illiada” dostonining bosh qahramoni kim bo’lgan
A) Paris B) Axilles C) Sohibjamol Elena D) Spartak

84) Mashhur yunon dostoni “Illiada” va “Odessiya” ning muallifi kim?
A) Sofokl B) Esxil C) Gomer D) Axilles

85) Yunonlar Troyani istilo qilib qaytishlarida qaysi dengiz orqali uzoq va xatarli yo’llardan o’tishi kerak edi?
A) Qora dengiz B) Ilioniya dengizi
C) O’rtayer dengizi D) Egey dengizi

86) Qaysi olim XIX asrning oxirida Gomer hikoyalarini tadqiq qilib, Troya joylashgan yerni hisoblab chiqdi?
A) nemis olimi Genrix Shlimann
B) nemis geografi Rextgofen
C) fransuz olimi Jak-Fransuaz shampolyon
D) rus olimi Bartold

87) 1870-yilda olimlar tomonidan hozirgi qaysi davlat teritoriyasidan Troya shahri qoldiqlari topildi?
A) Suriyaning loqoq mavzeyidan
B) Turkiyaning Hisorlik tepaligidan
C) Eronning Kirmonshoh yaqinidan
D) Gretsiyaning Afina shahri yaqinidan

88) ”Teatr” so’zini yunonchadan tarjima qilganda qanday ma’noni anglatadi?
A) ”echkilar qo’shig’i” B)”madaniyat o’chog’i”
C)”tomoshaxona” D)”kulgi maskani”

89) Qadimgi Afina teatri qancha tomoshabinga mo’ljallangan?
A) 9 ming B)12 ming C)15 ming D)17 ming

90) ”Shoh Edip” va “Antigona” singari eng mashhur tragediyalarni kim yozgan?
A) Aristofan B) Sofokl C) Esxil D) Antoniy

91) Quyidagi pesalarning qaysi birlari komediyalar ustasi Aristofan ijodiga tegishli?
A) ”Antigona”, “Arilar”,”Qushlar”
B) ”Qushlar”, “Shoh Edip”, “Illiada”
C) ”Arilar”,”Qushlar”,”Baqalar”
D) ”Illiada”,”Baqalar”,”Antigona”

92) Qaysi asrlardan boshlab Yunonistonda ibodatxona va jamoat binolari toshdan barpo etila boshlandi?
A) mil.aw. IXasrdan B) mil.aw. VII asrdan
C) mil.aw. VIII asrdan D) mil.aw. V asrdan

93) Qadimiy davlatlarning qaysisida san’atkor haykaltaroshlar o’z zamondoshlari haykallarini yaratishgan?
A)Misr B)Urartu C)Ossuriya D)Yunoniston

94) Qaysi shaharda haykallar haddan ziyod ko’pligi tufayli, tarixchilar unda tirik odamlarga qaraganda haykallar ko’proq deb yozishgan?
A)Spartada B)Afinada C)Kiropolda D)Troyada

95) Yunonistonning eng buyuk haykaltaroshlaridan biri Fidiy………… boshchilik qilgan.
A) ”Disk uloqtiruvchi” haykalni yasalishiga
B) Spartada Olimpiyalik Zevs haykalini qurilishiga
C) Afinada Parfenon barpo etilishi va Akropol qayta qurilishiga
D) Apollon haykalining Troyadagi qurilishiga

96) Arxitektor va haykaltarosh Dedal qaysi podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan?
A) Shoh Edipga B) podsho Minosga
C) Shoh Odisseyga D) podsho Axillesga

97) Qadimgi Yunonistonda faylasuflarni ………sifatida bilishgan.
A) bilimlar egasi
B) insonlar tarbiyachisi
C) donishmand, hayot murabbiylari
D) dunyo siru asotirlarining bilimdoni

98)Mashhur yunon faylasufi Geraklit Yer yuzidagi hamma narsa nimadan kelib chiqqan deb uqtirar edi?
A) suvdan B) tuproqdan
C) olovdan D) havodan

99) Qaysi yunon faylasufi “insonda hech qanday ehtiyojlar bo’lmasligi shart” degan fikrni o’z ta’limotiga asos qilib oldi?
A) Geraklit B) Diogen C) Demokrit D) Fidiy

100) Frakiyalik Demokrit degan faylasuf Geraklit fikriga e’tiroz bildirgan holda…….degan ma’nodagi fikrni bayon etgan?
A) ”Insonda hech qanday e’tirozlar bo’lmasligi shart”
B) ”Bizni qurshab turgan hamma narsa ko’zga ko’rinmaydigan, mayda-mayda zarralar atomlardan tashkil topgan”
C) ”dunyodagi barcha narsalar olov, suv, tuproq va havodan tashkil topgan
D) ”Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas”, “Hamma narsa oqadi, hamma narsa o’zgaruvchandir”.

101) Tirikligidayoq “tarixning otasi” deb nom olgan Geradot qaysi davrlarda yashab o’tgan?
A) mil.aw. V asrda B) mil.aw. VI asrda
C ) mil.aw. IV asrda D) mil.aw. VII asrda

102) Makedoniyalik Aleksandr qaysi faylasufga “Senga qanday yordam berishim mumkin” deb so’raganda, u “Nariroq tursangchi, quyoshni to’sma!” deya kinoya qilgan edi?
A) Diogen B) Geraklit C) Geradot D) Demokrit

103) Qaysi yunon faylasufi "Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas", "Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir"degan mashhur hikmatlarni yozib qoldirgan edi?
A) Platon B) Geraklit
C) Sofokl D) Fidiy

104) "Tarixning otasi" deb nom olgan Geradot qaysi asari bilan yurtdoshlarini tanishtirgandan so'ng birdaniga mashhur odamga aylandi?
A) "Buyuk Aleksandr tarixi"
B) "Aleksandrning harbiy yurishlari"
C) "Yunon-fors urushlari to'g'risidagi tarix"
D) "Yunonlarning harbiy yurishlari".

105) "Menga tayanch nuqtasini topib beringlar. Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!" degan mashhur ibora qaysi faylasufga tegishli?
A) Aristotelga B) Arximedga
C) Suqrotga D) Platonga

106) Quyidagi iboralarning qaysi biri Afinalik mashhur faylasuf Suqrotga tegishli?
A) "Mening donishmandligim hech nimani bilmasligimni bilishimda"
B) "Xudo bizning o'zimizdir"
C) "Menga tayanch nuqtasini topib beringlar. Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!"
D) "Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir"

107)Suqrotning "o'z-o'zingni anglagin va bilgin" degan sevimli hikmatlari qaysi ibodatxonadagi bitiklarda uchraydi?
A)Afina ibodatxonasidagi
B)Delfiya ibodatxonasidagi
C)Parfenon ibodatxonasidagi
D)Olimpiya ibodatxonasidagi

108) Yunon afsonalarida yarim qush , yarim ayollar bo'lgan afsonaviy mavjudotlar qanday nomlangan?
A) titanlar B) sirenalar C) sikloplar D) kentavrlar

109) Qancha jasorati tufayli Gerakl Olimp to'g'idagi xudolar saltanatida faxrli o'ringa ega bo'lgan?
A) o'n olti B) o'n to'rt C) o'n ikki D) o'nta

110) Yunon afsonasiga ko'ra peshonasida bitta ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudot qanday nomlangan?
A) kentavrlar B) titanlar C)sikloplar D) sirenalar

111) Qadimgi yunonlarning qaysi xudolari olamga hukmronlik qilar edi?
A)Poseydon,Gelios,Gefest B)Zevs,Poseydon,Aid
C)Gelios,Zevs,Apollon D)Aid,Demetra,Zevs

112) Yunonlarda o'rmonlar, daryolar va tog'larda yashagan xudolari ham mavjud bo'lib, ular qanday atalgan?
A) Aris va Gefest B) Germes va Gelios
C) Satirlar va Nimfalar D) Geya va Femida

113) Yunonlarning adliya, muhabbat va go'zalik ilohalari qanday nomlangan?
A) Ares va Germes B) Afrodita va Gefest
C) Femida va Afrodita D) Demetra va Gelios

114) Quyidagi qaysi xudo Zevsning o'g'li bo'lib yorug'lik, musiqa va she'riyat xudosi hisoblangan?
A) Poseydon B)Femida C)Germes D) Apollon

115) Yunonlarning e'tiqodicha , xudolar Makedoniya va Fessaliya chegarasidagi Yunoniston viloyatlari-dan biri………. Olimp tog'ida joylashgan.
A) Spartada B) Elidada C) Korinfda D) Fivada

**4-mavzu: Mil.avv. VI-milodiy IV asrlarda O'rta Osiyo**

1) Kir II mil.avv.545 va 540 yllar oralig'ida...bosib oldi
A) Parfiya, So'gdiyona, Marg'iyonani
B) Parfiya , Marg'iyona va Baqtiriyani
C) Kichik Osiyo, Midiya va Bobilni
D) Lidiya, Midiya va Marg'iyonani

2) Qachon Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurishga otlandi?
A) mill.avv 545-yilda B) mil.avv. 540-yilda
C) mil.avv. 530-yilda D) mil.avv 522-yilda

3) Massagetlar yurti qanday qilib bosib olingani to'g'risida qaysi tarixchi hikoya qilib bergan?
A) Gerodot B) Polien C) Arrian D) Kvint Kursiy Ruf

4) Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Doro I qachon taxtga o'tiradi?
A) mil.avv. 530-yilda B) mil.avv. 526-yilda
C) mil.avv. 522-yilda D) mil.avv. 519-yilda

5) Ahamoniylar sulollasi vakili Doro I qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) mil.avv 530-490 yillarda
B)mil.avv. 524-589 yillarda
C) mill.avv. 526-487 yillarda
D) mil.avv. 522-486 yillarda

6) Doro I hukmronligining 1 yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi ko'tarilgan yirik xalq qo'zg'loniga kim boshchilik qiladi?
A) Farasman: B) Frada: C) Skunxa: D) Shiroq:

7) Behistun bitiklarida yozilishicha Doro I hukmronligining nechanchi yilida saklar ustiga yurish qiladi?
A) 1-yilda (mil.avv. 522-yilda)
B) 2-yilda (mil.avv. 521-yilda)
C) 3-yilda (mil.avv. 519-yilda)
D) 4-yilda (mil.avv. 518-yilda)

8) Mashhur qadimgi yunon dramaturgi Esxil o'zining Forslar tragediyasida qayerdagi jangda halok bo'lgan navqiron baqtiriyalik jangchilarni tilga oladi?
A) Attika yaqinidagi: B) Salamin yonidagi:
C) Fermopil yonidagi: D) Egey dengizidagi:

9) Qachonga kelib saklar xorazmiylar va massagetlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib mustaqil bo'ladilar?
A) mil.aw. V asrda: B) mil.aw.VI asrda
C) mil.aw. IV asrda D) mil.aw. III asrda

10) Qaysi davrlarda O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga- pullar tarqalgan?
A) mil.aw.VI -V asrlarda B) mil.aw. V-IV asrlarda
C) mil.aw IV-III asrlarda D) mil.aw. III-II asrlarda

11) Quyidagi qayshi manzilgohlar mil.aw. VI-IV asrlarda yirik hunarmandchilik markazlari hisoblangan?
A) Qizil tepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Afrosiyob, Ko'zaliqir
B) Yerqo'rg'on, Afrasiyob, Bo'yrachi, Sopollitepa, Uzunqir
C) Afrosiyob, Sarazm, Oltintepa, Dalvarzitepa, Yerqo'rg'on
D) Uzunqir, Jarqo'ton, Sazag'on, Qovunchitepa, Sarazm

12) O'rta Osiyo hududida zargarlik san'atning yuksak darajada rivoj topganligini bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanyotgan …….. Amudaryo xazinasidan topilgan oltin va kumush buyumlar yorqin misol bo'la oladi.
A) 1868-yilda B) 1872-yilda
C) 1877-yilda D) 1896-yilda

13) O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo'lingan?
A) 9 ta B) 6 ta C) 3 ta D) 11 ta

14) Aleksandr qachon Makedoniya podshosi bo'ladi?
A) mil.aw. 337-yilda B) mil.aw. 336-yilda
C) mil.aw. 334-yilda D)mil.aw. 332-yilda

15) Aleksandr Makedonskiy qachon Sharqqa yurish boshladi va u necha yil davom etdi?
A)mil.aw.336-yilda, 14-yil B)mil.aw. 335-yilda 13-yil
C)mil.aw.337-yilda, 15-yil D)mil.aw. 334-yilda 11-yil

16) Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan kim ular haqida mufassal ma'lumotlar qoldirgan?
A) Geradot B) Arrian C) Aristobul D) Strabon

17) O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar qanday nomlangan?
A) "aqinak" B) "sagaris"
C) "bargustuvon" D) "katapulta"

18) Mil.aw. VII-IV asrlarda qaysi katta shaharlar burjlari va jangavor tuyniklari bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingan?
A) Afrosiyob, Sopollitepa, Jarqo'ton
B) Qiziltepa, Afrosiyob va Uzunqir
C) Uzunqir, Yerqo'rg'on, Bo'yrachi
D) Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Sopollitepa

19) Qachon Makedoniyalik Aleksandr qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan so'ngi shohi Doro III qo'shinlarini tor-mor keltirdi?
A) mil.aw. 332-yilda
B) mil.aw. 331-yilda
C) mil.aw. 330-yilda
D) mil.aw. 329-yilda

20) Birinchi bo'lib Aleksandrni yo'lini to'sgan qaysi shahar bo'ldi?
A) Persopol B) Baqtra (Zariasp)
C) Nautaka D) Maroqand

21) Qachon Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Maroqandni egallaydi?
A) mil.aw. 332-yilda B) mil.aw. 330-yilda
C) mil.aw. 329-yilda D) mil.aw. 328-yilda

22) Saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida bir tayanch manzil barpo etish to'g'risida buyruq beradi.Bu……
A) Oksdagi Aleksandriya rdi
B) Marg'iyona Aleksandriyasi rdi
C) So'g'diyona Aleksandriyasi rdi
D) Uzoqdagi Aleksandriya rdi

23) Aleksandr So'g'diyonadagi qo'zg'olonni bostirish uchun o'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholidan qanchasini qirib tashlaydi?
A)50 ming B)80 ming C)120 ming D)150 ming

24) Qachon Aleksandrning Spitamen bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tdi?
A) mil.aw. 329-yilning kuzida
B) mil.aw. 329-yilning bahorida
C) mil.aw. 328-yilning kuzida
D) mil.aw. 327-yilning bahorida

25) Aleksandr uch yillik urushlari natijasida uncha katta bo'lmagan hududlarni ……... bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.
A) Sirdaryo havzasi, Toshkent va Chimkentni
B) Marg'iyona Baqtriya, So'g'diyona va hozirgi Bekobod va Xo'janddan iborat Sirdaryo bo'ylarini
C) Toshkent vohasi, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'dni
D) Baqtriya, Marg'iyona So'g'd, va Xorazmni

26) Aleksandr bosqini davrida qaysi hududlar mustaqilligicha qoldi?
A) So'g'diyona, Marg'iyona va Xorazm
B) Farg'ona, Toshkent va Xo'jand
C) Xorazm, Toshkent va Farg'ona
D) Farg'ona, Xorazm va Marg'iyona

27) Yunon tarixchilarining yozishicha Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda qancha shahar qurdirgan?
A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 16 ta

28) Qachondan boshlab Aleksandr askarlarining siyraklashgan saflarini Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va So'g'iyona yoshlari hisobiga to'ldiradi?
A) mil.avv. 327-yildan B) mil.avv. 326-yildan
C) mil.avv. 325-yildan D) mil.avv. 324-yildan

29) Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin u tuzgan davlat qanday qismlarga bo'linib ketadi?
A) Marg'iyona, Makedoniya va Misrga
B) Makedoniya, Misr va Suriyaga
C) Misr, Baqtriya va Makedoniyaga
D) Suriya, Misr va Marg'iyonaga

30) Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin qachon Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri Salavki Bobil (Mesopotamiya) davlati hukumdori bo'ldi?
A) mil.avv. 316-yilda B) mil.avv. 314-yilda
C) mil.avv. 312-yilda D) mil.avv. 310-yilda

31) Salavka davlati tarkibiga qayerlar kirar edi?
A) Eron, Baqtriya, So'g'diyona va Misr
B) Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyona
C) Parfiya, Eron, So'g'diyona, Misr va Suriya
D) Baqtriya, So'g'diyona, Bobil va Hindiston

32) Salavka davlatida davlat mudofasi va qo'shinlarini tashkil etish bilan kim shug'ullanar edi?
A) konsul B) satrap C) strateg D) senator

33) Mil.avv. 293-yilda Salavka Sharqiy viloyatlar - ……….. noibi etib o'z o'g'li Antioxni tayinladi.
A) Parfiya, , Baqtriya va So'g'diyona
B) Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm va Eron
C) So'g'diyona, Marg'iyona, Misr va Mesopotamiya
D) Eron, So'g'diyona Parfiya, Hindiston va Marg'iyona

34) Salavka qachon vafot etdi va Antiox ulkan davlat hukmdoriga aylandi?
A) mil.avv. 293-yilda B) mil.avv. 290-yilda
C) mil.avv. 284-yilda D) mil.avv. 280-yilda

35) Salavka vorisi Antiox ulkan davlatni qancha vaqt mobaynida boshqardi?
A) 15 yilcha B) 20 yilcha C) 25 yilcha D) 30 yilcha

36) Qachonga kelib Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi?
A)mil.avv. IV asr boshlarida B)mil.avv. IV asr oxirida
C)mil.avv. III asr o'rtalarida D)mil.avv.II asr boshida

37) Antik davr tarixchilarining xabar berishicha …-mingta Baqtriya shahri hukmdori o'zini podsho deb e'lon qilgan.
A) Antiox B) Diodot C) Yevtidem D) Demetriy

38) Yunon – Baqtriya davlatining qaysi hukmdori davrida podsholik eng katta sarhadlarga ega bo'ldi?
A)Diodot B)Yevtidem C)Demetriy D)Geliokl

39) Parfiyada hokimyat kimning qo'liga o'tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytrirdi?
A)Mitridat I B)Mitridat II C)Geliokl D)Arshak

40) Yunon – Baqtriya davlatining kuchsizlanganidan foydalangan qaysi qabila mil.avv. 140-130-yillarda bu davlatni bosib oladilar?
A)xunlar B)xitanlar C)yuechjilar D)massagetlar

41) Yunon – Baqtriya davlati necha yil yashadi?
A) 80 yil B) 100 yil C) 120 yil D) 140 yil

42) Yunon – Baqtriya davlatida tangalar qanday tasvir bilan zarb etilgan?
A) tuya B) arslon C) malika D) hukmdor

43)Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga boradigan karvon yo'li o'tgan bo'lib,bu Buyuk Ipak yo'lining qaysi tarmog'i edi?
A) janubiy B) shimoliy C) g'arbiy D) sharqiy

44) Qayerdan qayergacha karvon yo'li qurib bitkazilgach jahondagi ko'pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlangan?
A) Suzadan Baqtriya poytaxti Zariaspgacha
B) Dajla daryosi bo'yi – Salavkidan Baqtriyagacha
C) Ahamoniylar poytaxti Persopoldan So'g'diyonagacha
D) Yunoniston poytaxti Afinadan Maroqandgacha

45) Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi qaysi davrlarga borib taqaladi?
A) mil.avv. IX asrlarga B) mil.avv. VI-IV asrlarga
C) mil.avv. VII asrlarga D) mil.avv. V-III asrlarga

46) Mil.avv.V-IV asrlarda Xorazmda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qa'la bunyod etilgan edi?
A) Tuproqqa'la B) Qo'yqirqilganqa'la
C) Ko'zaliqir D) Qala'liqir

47) Qaysi manzilgoh xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan?
A) Qo'yqirqilganqa'ladan B) Oybuyirqa'ladan
C) Yerqo'rg'ondan D) Sopollitepadan

48) Xorazmdagi qaysi qadimiy shaharning markazidan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa yon – atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan?
A) Ko'zaliqir B) Tuproqqa'la
C) Jonbosqa'la D) Oybuyurqa'la

49) Tuproqqa'la shahri markaziy maydonidagi mustahkam saroyning zallaridan devor bo'ylab baland taglikka ……. o'rnatilgan edi.
A) 30 dan ko'proq shamdonlar
B) 20 dan ko'proq haykallar
C) 40 ga yaqin tosh ustunlar
D) 50 ga yaqin xumdonlar

50) Qaysi davrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan?
A) mil.aw.V-IV asrlarda
B) mil.aw.IV-III asrlarda
C) mil.aw. I asrda va dastlabki milodiy asrlarda
D) milodiy III-IV asrlarda

51) O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvlar qaysi yodgorlikdan topilgan?
A) Oybuyirqa'ladan, mil.aw. V-IV asrlarga oid
B) Jonbosqa'ladan, mil.aw. V-IV asrlarga oid
C) Tuproqqa'ladan, mil.aw. II-III asrlarga oid
D) Jonbosqa'ladan, mil.aw. III-II asrlarga oid

52) Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar …….. qadar foydalanishgan.
A) milodiy I asrdan – milodiy VI asrgacha
B) mil.aw. II asrdan – milodiy V asrgacha
C) mil.aw. I asrdan – milodiy VIII asrgacha
D) mil.aw. IV asrdan – milodiy VII asrgacha

53) Qangyuy davlati hozirgi qaysi hududlarni o'z ichiga olgan?
A) hozirgi Farg'ona va Toshkent vohalarini
B) hozirgi Sirdaryo havzasi va So'g'd teritoriyalarini
C) hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo havzasini
D) hozirgi Chimkent viloyati, Farg'ona vodiysi va So'g'd teritoriyalarini

54) Qangyuy davlatiga ……. asos solishgan.
A) mil.aw. V asrlarda massagetlar
B) mil.aw. IV asrda yuechjilar
C) mil.aw. III asrda saklar
D) mil.aw.II asrda xetanlar

55) Qang' davlati poytaxti Qang'ha shahar xarobasini qadimshunoslar qayerdan topishgan?
A) Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidan
B) Chimkent viloyatining Turkiston tumanidan
C) Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidan
D) Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidan

56) Xitoy tarixchilari Qang'davlati poytaxtini qanday atashgan?
A) Binokat B) Bityan
C) Boshkent D) Beshkent

57) Qaysi asrdga kelib Qang' qabilalarning eng qudratli davlat birlashmasiga aylanadi?
A) mil.aw. IV asr oxirida
B) mil.aw. III asr boshlarida
C) mil.aw. II asr oxirida
D) mil.aw. II asr o'rtalarida

58) Qang' davlatining gullab-yashnashiga uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining qaysi tarmog'i o'tganligi imkon yaratdi?
A) janubiy B) shimoliy C) g'arbiy D) sharqiy

59) Qang' davlati aholisini qanday atashar edi?
A) qanguylar B) qanglilar
C) qang'arlar D) qanxorlar

60) Qang' davlatiga Xitoyliklar qancha qo'shin bilan yurish qilib kelgan?
A) 80 ming B) 70 ming C) 60 ming D) 50 ming

61) Qaysi asrlarga kelib Qang' davlati parchalanib ketdi?
A) milodiy I asrda B) milodiy II asrda
C) milodiy III asrda D) milodiy IV asrda

62) Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysidagi qadimiy davlat qanday nom bilan uchraydi?
A) Darband B) Denov C) Dang'un D) Dovon

63) Manbalarda yozilishicha Xitoyliklarning Qang' davlatiga bostirib kelgan 60000 nafar jangchisidan qanchasi Xitoyga qaytib kelgan?
A) 20000 nafari B) 15 ming nafari
C) 10000 nafari D) 7000 nafari

64) Dovon davlati taxminan ……… mavjud bo'lib, Farg'onada joylashgan.
A) mil.aw. IV asrdan to milodiy IV asrgacha
B) mil.aw. III asrdan to milodiy II asrgacha
C) mil.aw. V asrdan to milodiy III asrgacha
D) mil.aw. II asrdan to milodiy IV asrgacha

65) Dovon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy yilnomalarida uchraydi va ular ……. doirdir.
A) mil.aw. IV-III asrlarga B) mil.aw. III-II asrlarga
C) milodiy I-II asrlarga D) mil.aw. I-III asrlarga

66) Xitoy tarixchilarining yozishicha, Dovon davlati aholisi qancha shaharlarda istiqomat qilgan?
A) 50 ga yaqin B) 60 dan ziyod
C) 40 dan ortiq D) 70 dan ortiq

67) Dovonda bo'lgan qaysi Xitoy sayyohi "Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohirdir" deb yozgan?
A) Sima Sziyan B) Chjan Syan
C) Vey Bi D) Vi Di Len

68) Qaysi xalq solnomasida: "Ansi (Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshaydir" deb yozilgan?
A) Eron B) Misr C) Rim D) Xitoy

69) Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha Dovon davlati hududlari qayergacha borgan?
A) hozirgi Toshkent vohasigacha
B) hozirgi Qashqadaryo vohasigacha
C) hozirgi Zarafshon vohasigacha
D) hozirgi Surxandaryo vohasigacha

70) Dovon davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
A)Koson B)Sho'robashat C)Ershi D)Uchqo'rg'on

71) Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqlashicha qaysi asrlarda Farg'onada yuksak taraqqiy etgan, aholisi ko'p sonli, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlarga ega davlat bo'lgan?
A) mil.aw. IV-III asrlarda B) mil.aw. III-II asrlarda
C) mil.aw. V-IV asrlarda D) mil.aw. II-I asrlarda

72) Olimlarning aniqlashicha qachonga kelib Farg'ona davlati barham topgan?
A) mil.aw. II asrda B) mil.aw. I asrda
C) mil.aw. III asrda D) milodiy II asrda

73) Qachon ko'chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlati hududiga bostirib kiradilar?
A)mil.aw. 140-130-yillarda B)mil.aw. IV-III asrlarda
C)mil.aw. 120-80-yillarda D)mil.aw. III-II asrlarda

74) Birlashgan besh yuechji qabilasining birinchi hukmdori kim edi?
A)Vima Kadfiz B)Kudjula Kadfiz
C)Kanishka D)Vasideva

75) Qaysi podsho hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovorga ko'chiriladi?
A)Kudjula Kadfiz B)Kanishka
C)Vima Kadfiz D)Vasishka

76) Kudjula Kadfiz hukmronligi davrida qayerlar Kushon davlatiga qo'shib olindi?
A) Hindiston va Xitoy B) Xarazm va Xuroson
C) Afg'oniston va Kashmir D) Turkiya va Hindiston

77) Kushon davlatining hududi qayerdan qayergacha bo'lgan hududlarni qamragan edi?
A) Hindiston va Xitoydan O'zbekistonning janubiy viloyatlari va Afg'onistongacha bo'lgan?
B) Hindiston va Pokiston hamda Xitoyning Uyg'ur jumxuryatigacha
C) Turkiyadan to Shimoliy Afg'oniston teritoriyasigacha
D) Kashmir va Pokiston hamda Eron teritoriyasigacha

78) Qachonga kelib Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi?
A) milodiy II asrda B) milodiy IV asrda
C) mil.aw. II asrda D) mil.aw. III asrda

79) Kushon podsholigini eng yuksak cho'qqisiga olib chiqqan Kanishka qaysi yillar hukmronlik qilgan?
A) milodiy 25-58-yillarda B) milodiy 62-87-yillarda
C) milodiy 89-115-yillarda D) milodiy 78-123-yillarda

80) Kanishka hukmronligi davrida yangi-yangi shaharlar bunyod etildi, …….. imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi.
A) Hindiston, Yunoniston va Mesopotamiya
B) Xitoy, Hindiston va Rim
C) Rim, Xitoy va Misr
D) Misr, Sosoniylar va Xitoy

81) Kushon davlatida hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etganligini qaysi yodgorliklarni o'rganish jarayonida aniqlangan topilmalar buni tasdiqlaydi?
A) Ayritom, Zartepa, Xolchayon, Qoratepa, Sangirtepa
B) Zartepa, Yerqo'rg'on, Dalvarzintepa, Qoratepa
C) Dalvarzintepa, Ayritom, Xolchayon, Zartepa, Ayritom, Qiziltepa
D) Xolchayon, Sopolitepa, Zartepa, Ayritom, Qiziltepa

82) Kushon davlati iqtisodiyotining asosini nimalar tashkil qilgan?
A)Savdo-sotiq va hunarmandchilik
B)Sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik
C)Chorvachilik,sug'orma dehqonchilik va savdo-sotiq
D) hunarmandchilik,sug'orma dehqonchilik va chorvachilik

83) Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O'rta Osiyoda qadimgi qaysi yozuv keng tarqaladi?
A) Baqtriya B) So'g'd C) Oromiy D) Xorazm

84) Qaysi yodgorlikni o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtiriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan?
A)Dalvarzintepa B)Xolchayon
C)Ayritom D)Qadimgi Termiz

85) Kushon mamlakatida yana bir xil yozuv-kushon shaklli yozuvi mavjud bo'lgan, bunda harflar ……shaklida bo'lgan.
A) aylana, to'rtburchakli va uchburchak
B) burchakli, to'rtburchakli va aylana
C) beshburchakli, aylana va parallel
D) to'rtburchakli, avalsimon va beshburchakli

86) Kushon podsholigida yozuv qadimdan mavjudligini qaysi yodgorlikdan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi?
A) Afg'onostonning Qunduz shahri yaqinidagi Surxko'tal yodgorligi
B) Surxandaryo vohasidagi qadimgi Termiz yodgorligi
C) Afg'onistonning Balx shahri yaqinida Ayritom yodgorligi
D) Surxandaryo vohasidagi Dalvarzintepa yodgorligi

87) Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo'shib olinib yaqindan aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga kirib kela boshlagan buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga qaysi asrgacha O'rta Osiyoda mavjud bo'ldi?
A) milodiy IV asrgacha B) milodiy VI asrgacha
C) milodiy III asrgacha D) milodiy VIII asrgacha

88) Quyidagi qaysi yodgorliklarda muhtasham buddaviylik ibodatxonalari bo'lgan?
A) Eski Termiz, Ayritom va Dalvarzintepada
B) Ayritom, Fayoztepa va Surxko'talda
C) Qoratepa, Zartepa va Sopollitepada
D) Qiziltepa, Dalvarzintepa va Eski Termizda

89) Quyidagi qaysi yodgorliklar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan o'ralgan edi?
A) Qoratepa va Zartepa
B) Ayritom va Qoratepa
C) Dalvarzintepa va Eski Termiz
D) Fayoztepa va Zartepa

90)"Buyuk Ipak yo'li" deb atalgan yo'l qachon vujudga kelgan?
A) mil.avv. 3-2 mingyillikda B) mil.avv. VI-IV asrda
C) mil.avv. 2-1 mingyillikda D) mil.avv. II asrda

91) Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li bu nomni olguncha qanday atalgan?
A)"Sharqiy meridianal yo'l" B)"Shimoliy ipak yo'li"
C)"Buyuk meridianal yo'l" D)"La'l yo'li"

92) Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida mashhur bo'lgan yo'lga qachon, kim tomonidan "Ipak yo'li" degan nom berilgan?
A)1822-yilda fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon
B)1867-yilda fransuz olimi A.Dyuperon
C)1867-yilda rus olimi I.A.Orbeli
D)1867-yilda nemis geografi F.Rixtgofen

93) Eng qadimgi yo'llardan biri miloddan avvalgi 3-2-mingyillikda vujudga kelgan "La'l yo'li" qayerdan o'tgan?
A) Turkiya orqali Misrga o'tgan
B) Pomir tog'laridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali o'tgan
C) Badaxshon tog'idan boshlanib Eron orqali Mesopotamiyaga o'tgan
D) Pomir tog'laridan boshlanib Turkiya orqali G'arbiy Yevropa hududlarigacha kirib brogan

94) Eron ahamoniylari sulolasining karvon yo'li bo'lgan "Shoh yo'li" mil.avv.VI-IV asrlarda ........ .
A) Eron va Old Osiyoni Misr bilan bog'lab turgan
B) Baqtiriyani Eron va Misr bilan bog'lab turgan
C) Kichik Osiyo shaharlarini, O'rta yer dengizi bo'yidagi Efes,Sard shaharlari Eron poytaxtlaridan biri-Suza bilan bog'lagan
D) So'g'diyona, Toshkent vohalarini Eron orqali Misr bilan bog'lagan

95) Buyuk Ipak yo'lining uzunligi qancha bo'lgan?
A) 6 ming km B) 8 ming km
C) 10 ming km D) 12 ming km

96) "Buyuk Ipak yo'li" Sariq dengizdan boshlanib ..... orqali O'rtayer dengizi sohillarigacha borgan.
A) Sharqiy Turkiston,O'rta Osiyo,Eron,Mesopotamiya
B) O'rta Osiyo, Eron, Kichik Osiyo, Misr
C) Eron, Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Rim
D) Kichik Osiyo, Mesopotamiya, Rim

97) So'g'diyonadan Xitoyga qanday mahsulotlar olib borilgan?
A) zotli otlar, qimmatbaho toshlar, uzum, yong'oq
B) uzum, anor, yong'oq, guruch va paxta
C) jun gazlama, gilam, zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar
D) paxta chigiti, yong'oq, anor, zotli otlar

98) Qachon Xitoy imperatori U-Di elchi Chjan Syuanni ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natadi?
A) mil.avv. 112-yili B) mil.avv. 124-yili
C) mil.avv. 132-yili D) mil.avv. 138-yili

99) "Buyuk Ipak yo'li" orqali Hindistondan O'rta Osiyoga nimalar ortilgan karvonlar kelgan?
A) ip gazlama va paxta chigiti
B) jun gazlama va gilam
C) guruch va qimmatbaho toshlar
D) ip gazlama va zeb-ziynatlar

100) Xitoy elchisi Chjan Syan Xunnlar qo'liga asir tushib qancha vaqt hibsda yotadi?
A) yetti yilcha B) to'qqiz yilcha
C) sakkiz yilcha D) o'n yilcha

101) "Buyuk Ipak yo'li" qayerga kelib ikki tarmoqqa bo'lingan?
A) Farg'ona vodiysida B) Zarafshon vodiysida
C) Toshkent vohasida D) Oloy o'lkasida

102) "Buyuk Ipak yo'li"ni birinchi ........ kelgan.
A) O'shdan Marg'ilon, O'ratepa orqali Samarqandga
B) O'zgandan Axsi shahri Qamchiq dovoni orqali (yozda) Iloq vohasi va Toshkentga
C) O'shdan Andijon, O'ratepa orqali Jizzaxga
D) O'zgandan Marg'ilon, O'ratepa, Jizzax orqali Samarqandga

103) Xitoy elchisi vataniga Farg'onadan nima olib ketadi?
A) uzum, anor va anjir B) "Samoviy ot" va anor
C) ot va beda urug'i D) anor, uzum, bodring va ot

104) "Buyuk Ipak yo'li"ning ikkinchi tarmog'i ........ tarmoq bo'lib, O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan.
A) janubiy B) shimoliy C) sharqiy D) g'arbiy

**5-mavzu: Qadimgi Rim**

1) Italiya davlati qayerda joylashgan?
A) Korsika orolida B) Sardiniya orolida
C) Sitsiliya orolida D) Apennin yarimorolida

2) "Italiya" so'zi yunonchadan qanday tarjima qilinadi?
A) "o'tloqzor o'lka" B) "buzoqchalar o'lkasi"
C) "toychoqlar o'lkasi" D) "qo'zichoqlar o'lkasi"

3) Apennin yarim orolidagi eng katta daryo qaysi daryo hisoblanadi?
A) Tibr daryosi B) Neapol daryosi
C) Po daryosi D) Tavr daryosi

4) Apennin yarim orolining barcha qabilalari qanday nomlangan?
A) lotinlar B) samniylar C) sabiniylar D) italiklar

5) Italiyaning g'arbiy qismida Kichik Osiyodan bu mamlkatga ko'chib kelgan qaysi qabila yashagan?
A) lotinlar B) etrusklar C) samniylar D) sabiniylar

6) Mill. avvalgi VIII asrga kelib etrusklar Italiyada nechta shahar-davlat tuzishadi?
A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 14 ta

7) Italiyadagi shahar davlatlar qachon Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan kurash boshladilar?
A) mill. avv. VIII asrda B) mill. avv. VII asrda
C) mill. avv. V asrda D) mill. avv. IV asrda

8) Rim shahri qaysi daryo bo'yidagi shinamgina dehqonchilik manzilgohlaridan boshlangan?
A) Po daryosi B) Tavr daryosi
C) Tibr daryosi D) Sardiniya daryosi

9) Qadimgi Rim shahri nechta tepalikda joylashgan?
A) uchta B) beshta C) yettita D) to'qqizta

10) Rivoyatlarga qaraganda qachon Rim shahri aka-uka Romul va Rem tomonidan asos solingan?
A) mill. avv. 753-yilda B) mill. avv. 732-yilda
C) mill. avv. 683-yilda D) mill. avv. 670-yilda

11) Qachonga kelib Rim aholisi ko'p shaharga aylandi?
A) mill. avv. VIII asrda B) mill. avv. VII asrda
C) mill. avv. VI asrda D) mill. avv. IV asrda

12) Rimda hukmdorlar yana qanday vazifani bajarishgan?
A) harbiy boshliq, ham sudya, ham kohin
B) kohin, ham sudya, ham mirob
C) sudya, harbiy boshliq, shahar oqsoqoli
D) konsul, sudya, harbiy boshliq

13) Qachon Rim respublika deb e'lon qilindi?
A) mill. avv. 753-yilda B) mill. avv. 676-yilda
C) mill. avv. 564-yilda D) mill. avv. 509-yilda

14) Kim mill. avv. VI asrda Rimda saylab qo'yilgan hikmdorni o'ldirib, hokimiyatni egallab oldi?
A) Mark Krass B) Mag'rur Tarkviniy
C) Yuliy Sezar D) Mark Antoniy

15) Rimda Xalq majlisini qarorini………..
A) konsul tasdiqlar edi B) pelebeylar tasdiqlar edi
C) senat tasdiqlar edi D) diktatorlar tasdiqlar edi

16) Saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat quroldorlar qanday libos kiyishgan?
A) "kandida" deb ataluvchi oq-harir libos
B) "baraban" deb ataluvchi shoyi libos
C) "korona" deb ataluvchi qizil libos
D) "kanon" deb ataluvchi sariq libos

17) Qadimgi Rim senati necha kishidan iborat bo'lgan?
A) 150 kishidan B) 200 kishidan
C) 250 kishidan D) 300 kishidan

18) Diktator qancha vaqtdan ko'p hokimiyat tepasida tura olmas edi?
A) uch oydan B) olti oydan
C) to'qqiz oydan D) bir yildan

19) Rimda har bir konsulni necha kishidan iborat faxriy qorovul qo'riqlab yurar edi?
A) 8 kishidan B) 10 kishidan
C) 12 kishidan D) 14 kishidan

20) Qadimgi Rimda konsullarni 12 kishidan iborat qo'riqlab yuruvchi faxriy qorovillar qanday nomalngan?
A) "kondidat" B) "diktator"
C) "senator" D) "liktorlar"

21) Konsul jinoyatchilarni jazolash egaligi alomati sifatida liktorlar nima taqib yurishgan?
A) yelkalariga o'rtasiga boltacha sanchilgan qayishqoq arqonchalardan bog'lama
B) yonlariga qilich va dubilg'a
C) boshlarida dubulg'a va qo'llarida qalqon
D) ikki tomoni o'tkirlangan xanjar

22) Rimda konsullar … nafar bo'lib, ular muhim masalani hal etayotganda bir-birlari bilan maslahatlashib olishi kerak edi.
A) ikki B) uch C) to'rt D) besh

23) Xalq tribuni qanday so'zni aytishi mumkin bo'lgan, bunday holda qonun qabul qilinmas edi?
A) "qabul qilinmasin" B)"qarshilik bildiraman"
C) "veto" (taqiqlayman) D)"neto" (qabul qilmaymiz)

24) Qachonga kelib Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonun qabul qilindi?
A) mill. avv. VII asrda B) mill. avv. VI asrda
C) mill. avv. V asrda D) mill. avv IV asrda

25) Rimdagi "12 jadval qonunlari" kimlarning manfaatlarini himoya qilar edi?
A) liktorlarni B) patritsiylarni
C) plebiylarni D) diktatorlarni

26) "12 jadval qonunlari" nimani daxlsiz deb e'lon qildi?
A) harbiy xizmatni B) xususiy mulkni
C) konsullar hayotini D) Xalq tribuni huquqlarini

27) Qaqdimgi Rimda urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo'zg'aloni ro'y berganda … va uning o'rinbosari otliq qo'shinlar boshlig'i tayinlanar edi!
A) konsul B) diktator C) senator D) diktor

28) Rim respublikasida kimlar qashshoq rimliklar manfaatlarini ifoda etar edilar?
A) Xalq majlisi B) Xalq tribuni
C) konsullar D) liktorlar

29) Suv Rim shahriga bir necha qavatli ko'prikka o'xshab ketuvchi …….. orqali oqib kelar edi.
A) mozaikalar B) villalar
C) akvediklar D) tarnovlar

30) Lotincha "Respublika" so'zining o'zagini tashkil qilgan "res" so'zining ma'nosi nima?
A) "xalq" B) "ish" C) "boshqaruv" D) "hukmronlik"

31) Qadimgi Rimda uylar shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan sur'atlar nima deb atalgan?
A) freskalar B) akvediklar
C) mozaikalar D) lombardlar

32) Rim bozorlarida eng bozori chaqqon tovar.….edi.
A) qullar
B) qishloq xo'jaligi mahsulotlari
C) hunarmandchilik mahsulotlari
D) to'qimachilik mahsulotlari

33) Qadimgi Rimda shohona koshona uy-joylar nima deb atalgan?
A) qasr B) ko'shk C) villa D) akropol

34) Rimda shohona koshona uy-joylarni devorlarini selgimagan suvoqqa ishlangan rasmlar bilan bezatishgan. Bu qanday atalgan?
A) akveduk B) freska
C) mozaika D) ganchkori

35) Rim xudolaridan qaysi biri urush xudosi hisoblangan?
A) Fortuna B) Yupiter C) Mars D) Neptun

36) Rimliklar qaysi xudoni olov va temirchilar homiysi deb hisoblashgan?
A) Baxusni B) Vulkonni C) Yupiterni D) Venerani

37) Qaysi xudo Rimning bosh xudosi osmon, momoqaldiroq va yashin podshosi hisoblangan?
A) Yupiter B) Diana C) Neptun D) Venera

38) Qadimgi Rimda o'g'il bolalar 14 yoshga to'lgunga qadar kiyadigan pushti yo'llik kiyim nima deb nomlangan?
A) "Zandana" B) "kondida"
C) "vodoriy" D) "toga"

39) Quyidagi qaysi xudo uyqu xudosi hisoblangan?
A) Yupiter B) Morfey C) Diana D) Neptun

40) Rimning qaysi xudosi ko'pincha taqdirlar peshvosi sifatida gohida rul bilan, ba'zan esa taqdir qo'nimsizligi ramzi sifatida shar bilan birga tasvirlangan?
A) Yustitsiya B) Yupiter
C) Diana D) Fortuna

41) Rimning qasos va intiqom ilohalari bo'lmish ……. yovuz, qasoskor ayollar qiyofasida tasvirlangan?
A) Furiya B) Fortuna C) Diana D) Neptun

42) Rimliklar qaysi xudoni Rim davlatining homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb hisoblashgan?
A) Morfeyni B) Neptunni C) Yupiterni D) Fortunani

43) Diniy marosimlar o'tkazilishi ustudan nazorat qiluvchi Rim ruhoniylari … deb atalagan.
A) altarlar B) nektarlar
C) pontifiklar D) va'zxonlar

44) Rimda ibodatxona yonida qurbonlik baxshida etiladigan ko'tarma joy bo'lgan. U qanday atalgan?
A) akvedik B) pandus C) pontifik D) altar

45) Necha nafargacha ruhoniylar jamlangan pontifiklar hayatiga Buyuk pantifik rahbarlik qilar edi?
A)3 nafardan 6 nafargacha
B)6 nafardan 9 nafargacha
C) 5 nafardan 15 nafargacha
D) 7 nafardan 12 nafargacha

46) Rimda fol ochuvchi kohinlar qanday nomlangan?
A)duoxonlar B)pontifiklar C)vestachlar D)avgurlar

47) Nima sababdan qashshoq kishi konsul bo'la olmagan?
A) ular quyi tabaqa vakillari bo'lgani uchun
B) davlatga xizmat qilish evaziga haq to'lanilmagani uchun
C) saylovchilarni o'z tarafiga og'dirib ololmaganligi uchun
D) Rim qonunlariga ko'ra bu taqiqlangan

48) Rimda fol ochuvchi avgurlar nimaga qarab fol ochishgan?
A) qushlar parvoziga, suvga, donga qarab
B)aks sado,chaqmoq,suv,olov va quyoshga qarab
C) oynaga, suvga, momoqaldiroq, chaqmoq, olov va muqaddas qushlarga sepilgan donlarga qarab
D) momoqaldiroq, qushlar parvozi, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aks sado va hokazolarga qarab

49) Qadimgi Rimda xonadon o'chog'i ilohasi Vesta ibodatxonasida muqaddas olov saqlangan. Muqaddas olovni saqlash kimning majburiyatlari sirasiga kirgan?
A) avgurlar B) ayol kohinlar
C) pontiklar D) erkak kohinlar

50) Rim armiyasida erkak fuqarolar necha yoshdan necha yoshgacha xizmat qila olar edi?
A) 14 yoshdan 25 yoshgacha
B) 15 yoshdan 27 yoshgacha
C) 17 yoshdan 46 yoshgacha
D) 19 yoshdan 50 yoshgacha

51) Rimda 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi … deb yuritilgan.
A) falanga B) legion C) kogorta D) senturiya

52) Qadimgi Rimda harbiy xizmat necha yil bo'lgan?
A) 15 yil B) 20 yil C) 25 yil D) 30 yil

53) Rim qo'shinidagi 10 ta kogorta nimani tashkil qilgan?
A) falangani B) legionni C) senturiyani D) triumfni

54) Qadimgi Rimliklar qanday qamal qurolidan foydalanib devorlarni teshib shaharlarga kirar edi?
A)naftondoz B)toshotar C)katapulta D)dinamid

55) Janglardagi zafardan so'ng Rim senati qaroriga ko'ra Rim qo'shinlari g'alabani nishonlar edi. Bu nima deb nomlangan?
A) triumf B) karnaval C) quriltoy D) sayl

56) Qachonga kelib Rim sarkardalari mamlakatning shimoliy qismidan tashqari butun Italiyani zabt etishga erishdilar?
A) mill. aw. VII asrda B) mill. aw. V asrda
C) mill. aw. III asrda D) mill. aw. II asrda

57) Rim va Karfagen o'rtasidagi urushning sababi nimada edi?
A) Korsika masalasi B) Sitsiliya masalasi
C) O'rta yer dengizi masalasi
D) Sardiniya orollari masalasi

58) Rim Karfogen bilan necha marotaba urush olib bordi?
A) ikki marta B) uch marta
C) to'rt marta D) besh marta

59) Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlar nima uchun tarixga Puni urushi nomi bilan kirgan?
A) Rim qo'mondonining ismi Puni bo'lgani uchun
B) bu urush Puna degan joyda bo'lgani uchun
C) negaki Rimliklar Karfagenni Puna deb atashardi
D) Korsika va Sardiniya oraligidagi hududlar shunday nomlanardi

60) Puni urushi davrida Karfagenning zaif tomoni nimada edi?
A) harbiy dengiz flotining yo'qligi
B) qo'shinda yollanma askarlarning xizmat qilishi
C) qo'shinda asosan qullarning xizmat qilishi
D) qo'shindagi askarlarning tog'da jang qila olmasligi

61) Karfagen armiyasiga kim boshchilik qilardi?
A) Sarkarda Kannut B) Sarkarda Sezar
C) Sarkarda Gannibal D) Sarkarda Krass

62. Qachon Karfagenliklar tomonidan rimliklar tor-mor etildi?
A) mill. aw. 237-yilda Korsika yonidagi jangda
B) mill. aw. 224-yilda Sitsiliya g'arbidagi jangda
C) mill. aw. 220-yilda Sardiniya yonidagi jangda
D) mill. aw. 216-yilda Kanna yonidagi jangda

63) Kanna yonidagi jangda qancha rimlik legion halok bo'ldi?
A) 100 ming B) 90 ming C) 70 ming D) 50 ming

64) Qachon, qayerda Gannibal armiyasi rimliklar tomonidan yakson etildi?
A) mill. aw. 227-yilda Karfagen yonida
B) mill. aw. 215-yilda Korsika yonida
C) mill. aw. 210-yilda Rim shahri yaqinida
D) mill. aw. 202-yilda Zama shahri yaqinida

65) Qaysi sarkarda kutilmaganda qo'shinlari bilan Afrika qirg'og'iga kelib tushadi?
A) Sarkarda Ssipion B) Sarkarda Gannibal
C) Sarkarda Krass D) Sarkarda Takviniy

66) Qachon Karfagen butunlay vayronaga aylantirildi?
A) mill. aw. 194-yilda B) mill. aw. 173-yilda
C) mill. aw. 162-yilda D) mill. aw 146-yilda

67) Bosib olingan yerlarni rimliklar qanday atashgan?
A) Satrab B) guberniya C) provinsiya D) uyezd

68) Puni urushlari ……. hukmronlik uchun Rim bilan Karfagen o'rtasida sodir bo'lgan?
A) Qora dengizda B) O'rta yer dengizida
C) Sitsiliya orolida D) Egey dengizida

69) Rimliklar bosib olgan hududlarni boshqaruvchi noiblari qanday nomlangan?
A) konsul B) gubernator
C) prokonsul D) nomarx

70) Provinsiyalar Rimga qarshi kurashganliklari uchun rimliklar qanday tamoilga asoslanib ish ko'rishgan?
A) "imtiyozlar berish"
B) "o'zlariga noib tayinlash"
C) "maxsus nazoratchi qo'yib"
D) "bo'lib tashlab hukmronlik qil"

71) Qachonga kelib qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi Rimga ma'lum bo'ldi?
A) mill. aw. V-IV asrlarda B) mill. aw. IV-III asrlarda
C) mill. aw. I-II asrlarda D) mill. aw. III-IV asrlarda

72) Rimda mayda yer egalari qanday nom bilan atalgan?
A) “kolonlar” B) “legionerlar”
C) “kulbali qullar” D) “gladiatorlar”

73) Qadimgi Rim gladiatorlari qaysi toifadagi kishilar bo’lishgan?
A) kuchli dengizchilar B) qullar yoki jinoyatchilar
C) savdogarlar yoki dengizchilar
D) jinoyatchilar yoki legionerlar

74) Mashhur me’moriy yodgorlik Kolizey amfiteatriga qancha tomoshabin sig’gan?
A) 50 ming B) 60 ming C) 70 ming D) 80 ming

75) Spartak boshchiligidagi qo’zg’alon qachon bo’lib o’tgan?
A) mill. aw. 96-93-yillarda
B) mill.aw.84-81-yillarda
C) mill. aw. 74-71-yillarda
D) mill.aw.68-66-yillarda

76) Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortgani uchun Spartak qayerdagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborildi?
A) Korsikadagi B) Afina shahridagi
C) Rim shahridagi D) Kapuya shahridagi

77) Spartak va uning qancha tarafdorlari qorovullarga hujum qilib gladiatorlik maktabidan qochib chiqib ketdilar?
A) 100 nafar B) 160 nafar C) 200 nafar D) 270 nafar

78) Rim hukumati qo’zg’alon ko’targan qullarni tor-mor etish uchun qancha kishilik qo’shin yubordi?
A) 1,5 ming B) 2,2 ming C) 3 ming D) 4 ming

79) Rim hukumati Spartakka qarshi kim boshchiligida ko’p kishilik qo’shin yubordi?
A) Pompey B) Mark Krass
C) Sezar D) Mark Antoniy

80) Qachon ro’y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o’zi esa ana shu jangda halok bo’ldi?
A) mill. aw. 73-yilning bahorida
B) mill. aw. 72-yilning yozida
C) mill. aw. 71-yinning bahorida
D) mill. aw. 70-yilning kuzida

81) Spartak boshchiligidagi qo’zg’alon bostirilgandan keyin qancha asirlar Rim-Kapuya oralig’idagi yo’l bo’ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi?
A) 10 mingga yaqin
B) 8 mingdan ziyod
C) 7 mingga yaqin
D) 6 mingdan ziyod

82) Spartak boshchiligidagi qo’zg’alon ko’targanlarning alohida to’dalari tag’in qancha vaqt kurashni davom ettirdilar?
A) 20 yil B) 16 yil C) 12 yil D) 10 yil

83) Qaysi davrga kelib muntazam yollanma qo’shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar?
A) mill. aw. IV asrda B) mill. aw. I asrda
C) mill. aw. II asrda D) mill. aw. III asrda

84) Spartak qo’zg’oloni bostirilib tor-mor etilgandan keyin qaysi sarkardalar o’rtasida hokimiyat uchun kurash ancha davom etdi?
A)Krass va Seza
B)Oktavian Avgust va Mark Antoniy
C) Pompey va Krass D) Sezar va Brut

85) Qayerdagi urushlardagi g’alabalar tufayli Sezarning nufuzi va obro’yi ancha oshdi?
A) Misrdagi B) Karfagendagi
C) Sardiniyadagi D) Galliyadagi

86) Qachon Yuliy Sezar yakka hokimiyat uchun oshkora kurashni boshlab yubordi?
A) mill. aw. 62-yilda B) mill. aw. 56-yilda
C) mill. aw. 49-yilda D) mill. aw. 44-yilda

87) Qachonga kelib Yuliy Sezar hukmronligi tugadi?
A) mill. aw. 47-yilda B) mill. aw. 44-yilda
C) mill. aw. 41-yilda D) mill. aw. 37-yilda

88) Sezarning cheklanmagan hokimiyatidan norozi bo’lgan senatorlar fitna uyushtirdilar. Bu fitnaga kim boshchilik qiladi?
A) Krass B) Pompey C) Brut D) Antoniy

89) Oktavianning mamlakat hukmdoriga aylanishiga kim qarshi bo’ladi?
A) Brut B) Krass C) Pompey D) Mark Antoniy

90) Nima Oktavianning Mark Antoniydan norozi bo’lishiga sabab bo’ldi?
A) Rimning sharqiy qismini bosib olishi
B) Nikoh sovg’asi tariqasida Antoniy Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini berishi?
C) Misr malikasi Kleopatraga uylanishi
D) Aleksandriya shahrini bosib olishi

91) Qachon Yunoniston qirg’oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o’rtasida jang bo’ldi?
A) mill. aw. 63-yilda B) mill. aw. 57-yilda
C) mill. aw. 46-yilda D) mill. aw. 31-yilda

92) Qachon Oktavian senatdan imperator unvoni va Avgust laqabini oldi?
A) mill. aw. 49-yilda B) mill. aw. 37-yilda
C) mill. aw. 29-yilda D) mill aw. 16-yilda

93) Oktavian Avgust zamonida jangchilarning xizmat muddati necha yil qilib belgilandi?
A) 15 yil B) 20 yil C) 25 yil D) 30 yil

94) Rim imperiyasi armiyasining umumiy soni Oktavian Avgust hukmronligi davrida qanchaga yetgan?
A) 300 mingga B) 400 mingga
C) 500 mingga D) 700 mingga

95) Oktavian vorislari bo'lmish … hukmronligi davrida imperiya inqirozi boshlangan.
A) Krass va Antoniy B) Kaligula va Neron
C) Neron va Trayan D) Mark Antoniy va Kleopatra

96) Qaysi davr Rim imperiyasining "oltin asri" degan nomni oldi?
A) mill. aw. III asr B) mill. aw. II asr
C) milodiy II asr o'rtalari D) milodiy III asr oxirlari

97) Kim Rim imperiyasining asoschisi edi?
A) Yuliy Sezar B) Oktavian Avgust
C) Mark Antoniy D) Brut

98) Oktavian Avgust qachon vafot etdi?
A) mill. aw. 31-yilda B) mill. aw. 29-yilda
C) milodiy 14-yilda D) milodiy 23-yilda

99) Qachon Troyan imperatorlik taxtini egalladi?
A) milodiy 49-yilda B) milodiy 66-yilda
C) milodiy 74-yilda D) milodiy 98-yilda

100) Troyan kolonnasining balandligi qancha bo'lgan?
A) 27 metr B) 36 metr C) 40 metr D) 48 metr

101) Troyan kolonnasi-ustunini bezab turgan … bilan urush manzaralari tasvirlangan bo'rtma rasmlar bu haqda hikoya qiladi
A) daklar B) doriylar
C) giksoslar D) samniylar

102) Troyan hukmronligi davrida nima bekor qilindi?
A) qurulish ishlarini olib borishni
B) yolg'onchi chaqimchilikka asoslanib qatl etishni
C) saroy va ibodatxobalar qurishni
D) Xalq majlisi yig'ilishlarini

103) Qaysi hududlar Troyan davrida Rim imperiyasi tarkibiga kirdi?
A) Misr va Kichik Osiyo
B) Parfiya va O'rta Osiyo
C) Ossuriya va Mesopotamiya
D) Mesopotamiya va Hindiston

104) Troyan hukmronligi davrida kimlar bilan urush olib borilgan?
A) misrliklar B) midiyaliklar
C) italiklar D) daklar

105) Imperator Konstantin zamonida milodiy 330-yili qayer Rim imperiyasining poytaxti deb e'lon qilindi?
A) Mesopotamiyadagi Logash shahri
B) Italiyadagi Korra shahri
C) Bosfor bo'g'ozidagi Vizantiy shahri
D) Parfiyadagi Ktesifon shahri

106) Qachon Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi?
A) milodiy 365-yilda B) milodiy 375-yilda
C) milodiy 385-yilda D) milodiy 395-yilda

107) Qachon Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi?
A) milodiy II asrda B) milodiy III asrda
C) milodiy IV asrda D) milodiy V asrda

108) Qaysi davrda butun Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo'zg'olonlari qamrab oldi?
A) mill. aw. II-I asrlarda B) milodiy I-II asrlarda
C) milodiy II-III asrlarda D) milodiy IV-V asrlarda

109) Rim imperiyasi chegaralarining shimoli-g'arb tarafidan ko'chmanchi qabilalar paydo bo'ladilar. Rimliklar ularga qanday laqab berishgan?
A) "giksoslar" B) "dengiz o'g'illari
C) "varvarlar" D) "komonlar"

110) Milodiy 410-yilda kim boshchiligidagi gotlar Rimni qurshab oldilar?
A) Vishtasp B) Atlilla C) Romul D) Alarix

111) "Varvar"larning Rim imperiyasiga hujumi qancha vaqt davom etdi?
A) 75 yil B) 88 yil C) 135 yil D) 150 yil

112) Qadimiy shaharlardan qaysi biri "boqiy shahar" deya ta'riflangan?
A) Bobil B) Rim C) Afina D) Pekin

113) Qaysi davlatning qulashi haqida o'sha zamon tarixchisi nadomad bilan shunday yozgan edi: "butun yer yuzini bo'ysundirgan jahon shamchirog'i ham so'ndi".
A) Afina B) Bobil C) Rim D) Ossuriya

114) Qachon xunlar Italiyaga bostirib kirdilar?
A) milodiy 395-yilda B) milodiy 423-yilda
C) milodiy 445-yilda D) milodiy 452-yilda

115) Milodiy 455-yilda Rimga germanlarning qaysi qabilasi hujum qildi va ikki hafta davomida shaharni taladi?
A) angl-saks B) vestgot C) vandal D) frank

116) Qaysi yili G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va qadimgi dunyo tarixi yakunlanishi sanasi sifatida tarixga kirdi?
A) milodiy 375-yil B) milodiy 386-yil
C) milodiy 466-yil D) milodiy 476-yil

117) Milodiy 476-yilda imperator saroyi qo'riqchilari qo'mondoni so'nggi imperator …. saroydan haydab yubordi, hukmdor tojini Konstantinopolga jo'natdi.
A) Aleksandrni B) Romulni C) Simonni D) Filipni

118) Qaysi davrga kelib Rimliklar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi?
A) mill. aw. II asrda B) mill. aw. I asrda
C) milodiy I asrda D) milodiy II asrda

119) Rimliklar qashshoqlar mehrini qozonishga urungan imperatorlar poytaxt aholisi uchun ……..
A) muxtasham koshonalarga kirishga ruxsat bergan
B) tomoshalar ko'rsatish uchun amfiteatr qurishgan
C) ta'lim olish va sport bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib bergan
D) "termlar" deb atalgan ko'rkam hammomlar qurdirgan edilar

120) Rimdagi badavlat oilalarning farzandlari necha yoshdan maktabga qatnar edi?
A) 5 yoshdan B) 6 yoshdan
C) 7 yoshdan D) 8 yoshdan

121) Rim maktabida yozuvni o'rganayotgan bola qanday metal ruchka bilan harflarni mum qoplangan taxtachalarga qitirlatib, o'yib yozardilar?
A) qalamtarosh B) pensil C) mo'yqalam D) stil

122) Rimda siyosiy arbob bo'lishni xoxlagan har bir kishi nimalarni o'zlashtirgan?
A) adabiyot va musiqani
B) she'r yozish va rasm chizishni
C) notiqlik va ritorikani D) rasm chizish va musiqani

123) Qachonga kelib Rim eng yirik va aholisi ko'p shahar bo'lgan?
A) mill. avv. II asrda B) mill. avv. I asrda
C) milodiy I asrda D) milodiy II asrda

124) Yuqori qismidan anhor o'tkazilgan ko'prik qanday atalgan?
A)vodoprovod B)akveduk C)tarnov D)triumf

125) Rimda barcha xudolar joylashgan ibodatxonasi qanday nomlangan?
A)Kolonna B)Ttiumf C)Panteon D) Kolizey

126) Ikki ming yil muqaddam Rim hokimiyati ostida bo'lgan … Nazeret shahrida duradgor Ioisif va rafiqasi Mariya xonadonida "Xudoning o'g'li" nomini olmish Iiusis (Iso) tug'ilganligi haqida rivoyatlar tarqala boshlagan.
A) Kichik Osiyo va Falastin yerlari
B) Iordan daryosi havzasidagi
C) Isroil hududida
D) Bobil teritoriyasida

127) Necha yoshida Iso sahroda yashovchi voiz cho'qintiruvchi Ioann qo'lida Iordan daryosida cho'qintiriladi?
A) 20 yoshida B) 25 yoshida
C) 30 yoshida D) 35 yoshida

128) Iso payg'ambar necha nafar havoriylari bilan Falastin bo'ylab sayohat qilib, xudo oyatlari haqida hikoya qilib beradi, turli mo'jizalar ko'rsatadi, o'liklarni tiriltiradi, yashashdan umidini uzgan tuzalmas xastalarni sog'aytiradi?
A) olti nafar B) sakkiz nafar
C) o'n nafar D) o'n ikki nafar

129) Rivoyatlarda aytilishicha, Yer yuzidagi ilk inson Odam Ato qayerga dafn qilingan?
A) Iordan dengizi bo'yiga B) Golgof tog'iga
C) Soron tekisligiga D) Rim shahriga

130) Iso Masih haqidagi rivoyatlar Yevengaliya (Injil) nomini olgan, yunonchadan tarjima qilinganda bu so'z qanday ma'noni anglatadi?
A) "ta'limot" B) "ma'lumot"
C) "xushxabar" D) "o'qish"

131) Iso payg'ambarning shogirdlari qanday nomlangan?
A) papalar B) apostollar
C) avgurlar D) bogomillar

132) Qachon xristianlik vujudga kelgan sana hisoblanadi?
A) mill. avv. II asr B) mill. avv. I asr
C) milodiy I asr D) milodiy II asr

133) Qachon Rimga imperator Konstantin xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e'lon qilgan farmon chiqaradi?
A) milodiy 347-yilda B) milodiy 334-yilda
C) milodiy 326-yilda D) milodiy 313-yilda

134) Yahudiy ruhoniylari Iso payg'ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o'lim jazosiga mahkum etadilar, bu hukmni kim tastiqlashi kerak edi? A) Rim hukmdori Konstantin B) Rim imperatori Romul
C) Rim noibi Pantiy Pilat D) Rim imperatori Neron

135) Quyidagilarning qaysi biri Rimdagi eng baland tepalik hisoblanadi?
A) Akropol tepaligi B) Kapitoliy tepaligi
C) Golgof tepaligi D) Vezuviy tepaligi

# II BO'LIM: MILODNING IV ASRIDAN XVI ASR BOSHLARIGACHA

## 1- mavzu: Ilk o'rta asrlarda vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.

1.Charxfalak so'zi qanday manoni anglatadi?
A) sug'orish inshoati B) "Osmon osti"
C) "Yer kurrasi" va "koinoti" D) "Dunyo aylanasi"

2. Qaysi davrga kelib Xorazm davlatini Afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshladi?
A) II asr boshlaridan B) III asr o'rtalaridan
C) IV boshlaridan D) IV asr oxirlaridan

3. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha , xorazmshohlar unvoni dastlab …. tomonidan qabul qilingan?
A) afrig'iylar sulolasi B) massagetlar sulolasi
C) sosoniylar sulolasi D) siyovushlar sulolasi

4. Quyidagi kishilardan kimlar "Xorazmshoh" unvoniga sazovor bo'lgan?
A) Afrig', Saksafar, Xusrav, Spitamen
B) Kayxusrav, Saksafar, Forasman, Xusrav
C) Farasman, Alfir, Rustamshoh, Saksafar
D) Saksafar, Kayxusrav,Afrig', Xusrav

5. Qaysi tarixchi Xorazm VI asrning 60-yillarida Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borganligi to'g'risida ayrim ma'lumotlarni qayd etgan?
A)Kvint Kursiy Ruf B)Al-Maqdusiy C)Menandr D)Ibn Battuta

6. Qaysi sosoniy shohi dastlabki janglardayoq Xiyoniylardan yengiladi?
A) Xisrav Anishervon B) Kubod C) Shopur II D) Kiaksar I

7. Eftalitlarning ilk ajdodlari qayerda yashagan turkiy xun qabilalari ittifoqi tarkibida bo'lgan?
A) Xitoyning shimoli g'arbiy hududida (Xese) yashagan
B) Mo'g'ilistonning shimoli g'arbiy hududida (Ulan-Ude)
yashagan
C) Uyg'uristonning g'arbi sharqida (Uruhchida) yashagan
D)Afg'onistonning janubi g'arbida (Mazori Sharif) yashagan

8. Qaysi manbalarda ta'rif etilishicha, mil.av.VII asrda mallasoch, ko'zi ko'k xunlarning bir qismi yashab turgan yerlarini tashlab, pomir tog'l etaklariga kelib o'rnashgan?
A) Arman manbalarida B) Xitoy manbalarida
C) Arab manbalarida D) Vizantiya manbalarida

9. Xunlar davlati yemirilgach ko'zi ko'k xunlarning bir qismi qayerga borib o'rnashgan?
A) Jung'ariyaga, Elsuvi (Ili) havzasiga
B) Orol dengizi bo'yalariga
C) Jayxun daryosi havzasiga
D) Zarafshon vohasiga

10.Qaysi etnik uyushmadan Eftal nomi bilan atalgan yirik guruh ajralib, III asrda Turonning Janubiy va Harkon (Kaspiy) dengizining shimolida yastangan yaylovlarga o'rnashib boshqa turkiy elatlar bilan aralashib ketadi?
A) Kidariy B) Abdal C) Yueban D) Toxariy

11. Eftallar nimalarga topinuvchi xalq bo'lganlar?
A) hayvonlarga va haykallarga B) o't va quyoshga
C) olov va oyga D) quyosh va hayvonlarga

12. Eftalitlarning so'ngi avlodlari qaysi elatlar tarkibiga singib ketgan?
A) o'zbek,turkman va turk B) qoraqalpoq,qirg'iz va qozoq
C) turkman,turk va gagauz D) o'zbek,qozoq,qirg'iz

13.Qanday nomli etnik guruh zamonamizgacha turkman va anatoliyalik turklar tarkibida saqlangan?
A) "baxdiy" B) "abdal" C) "kidar" D) "no'g'ay"

14.Qachon turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallaydilar?
A) 552-yilda B) 553-yilda C) 555-yilda D) 575-yilda

15. Qaysi yillarda janubdan Eron sosoniylaridan,shimoldan Turk hoqonligidan zarbaga uchragan Eftallar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng tamomila barbod bo'ladi?
A) 563-567-yillar B) 558-563-yillar
C) 555-565-yillar D) 567-576-yillar

16.Turk xoqonligida o'n o'q sardori qanday nomlangan?
A) "tudun" B) "budun" C) "shod" D) "yabg'u"

17. Turk xoqonligida dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan soliq qanday nomlangan?
A) xiroj B) boj C) jul D) yasoq

18. Turk xoqoni kim boshchiligida Abruy qo'zg'alonini bostirishish uchun qo'shin yuboradi?
A) Bahrom Chubin B) Xisrav I Aneshervon
C) Qoracho'rin o'g'li Sheri Kishvar D) Yabg'u Iskmi

19. Qachon hadya tariqasida Samarqanddan yuborilgan dubulg'adan nusxa olib, Xitoy qurolsozlari qo'shinini temir qalpoq (dubulg'a) lar bilan ta'min etganlar?
A) 718-yilda B) 727-yilda C) 730-yilda D) 732-yilda

20. Toxariston qancha tog' va tog'oldi viloyatlaridan iborat?
A) 16 ta B) 20 ta C) 24 ta
D) 27 ta

21. Toxariston davlati hozirgi qaysi hududlarni o'z ichiga olgan edi?
A) Janubiy O'zbekiston va Tojikiston,Shmoliy Afg'aniston
B) Shimoliy O'zbekiston va Turkmaniston,G'arbiy Eron
C) Janubiy Tojikiston va O'zbekistonning shimolini
D) Turkmanistonning g'arbi va janubiy O'zbekistonni

22.Toxariston nomi ….. – toxarlar nomidan olingan.
A) mil.avv.III asrda Parkana davlatini qulatgan
B) mil.avv II asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan
C) milodiy I asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan ko'chmanchi yuechji qabilasi
D) milodiy III asrda Parfiya davlatini qulatgan ko'chmanchi chorvador qabila

23. Quyidagi davlatlarning qaysi biri Markaziy Osiyoda budda va moniylik dinlarini tarqalishi va rivojida muhim rol o'ynagan?
A) So'g'd B) Parkana C) Parfiya
D) Toxariston

24. Qaysi davrda G'arbiy turk hoqonligi hukmdorlik? qarorgohini choch viloyatiga ko'chiradi
A) VI asrning o'rtalarida B) VII asrning dastlabki choragida
C) VI asrning oxirgi choragida D )VII asrning oxirlarida
25.Choch viloyatida hukmdor va malika uchun qanday o'ziga xos qarorgohlar bino qilindi?
A) Chochkat va Tunkat B) Yangikent va Beklig'
C) Yabg'ukat va Xotinkat D) Binokat va Eloqkat

26. Ilk o'rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bo'lib …..yuritilgan.
A) "kuhandiz","shahriston", "rabot"
B) "ark", "rabot", "saroy"
C) "koshk", "qasr", "qo'rg'on"
D) "qasr", "shahriston","rabod"

27. O'rta asrlarda yashagan qaysi mualliflarning qayd etilishicha, birgina Binkat (Toshkent) arkining ikki, Shahristonning uch, ichki rabotning o'nta va tashqi rabotning yettita, jami shaharning yigirma ikkita darvozasi bo'lgan?
A) Ibn Battuta va Menandr B) Abu So'fiyon va Ibn Battuta
C) Ibn Xavqal va Ishtaxriy D) Menandr va Ibn Xavqal

28. VI-VII asrlarda qaysi hudud butun O'rta Osiyoda nasroniylik dinining markazlaridan hisoblanardi?
A) Farg'ona viloyatining So'x tumani
B) Surxandaryo viloyatining Angor tumani
C) Samarqand viloyatining Urgut tumani
D) Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani

29. Moniy dinining arkoni nimalar hisoblangan?
A) ro'za,nomoz,sadaqa B) ibodat,ro'za,sadaqa
C) haj,ro'za,soliq berish D)tavba,ro'za,haj

30.Ilk o'rta asrlarda yurtimizda qanday yozuvlar mavjud bo'lgan?
A) xorazm,sug'd,toxar va oromiy
B)sug'd,baqtriy,oromiy,va ko'k turk
C) toxar,oromiy,parkana,sug'd
D) sug'd,xorazm,toxar va turkiy run (ko'k turk)

31.O'rta asrlarda haykaltaroshlik rivojiga qaysi din kuchli ta'sir ko'rsatgan?
A) nasroniylik B) shomonlik
C) buddaviylik D) moniylik

32. Ilk o'rta asrlarda sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini qayerdan ajratib oladilar?
A) eng unumdor yerlardan
B) aholi ko'p yashaydigan hududlardan
C) sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to'g'on boshi atrofidan
D) chorva mollari tuyog'i ostida toptalmaydigan yerlardan

33. Ilk o'rta asrlarda qishloqlarda o'z ta'siri doirasini kengaytirib, bora-bora ziraotkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaganlar kimlar edi?
A) dehqonlar B) chokarlar C) koshivarzlar D) kadivarlar

34. Ilk o'rta asrlarda har bir katta yer egasining ……. va undan ortiq chokarlari bo'lgan.
A) 20-60 nafar B) 30-40, 50-100 nafar
C) 30-50 nafar D) 100-150 nafar

35. Ilk o'rta asrlarda qadimgi Turon diyorida qishloqning dehqonlarga qaram bo'lib qolgan ahli qanday atalgan?
A) kashivarz B) chorikor C) nisfikor D) kadivar

36. Turonzaminda ilk o'rta asrlarda qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi … deb atalardi.
A)iqtodorlar B)chokarzodalar C)kashivarzlar D) barzikorlar

37. Ilk o'rta asrlarda dehqonning hayotini va mol-mulkini qo'riqlovchi, harbiy posbonlar qanday atalgan?
A) navkar B) yasovul C) sarbon D) chokar

38. Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib qayer ajralib chiqdi?
A) Xorazm B) So'g'd C) Parkana D) Choch

39. Qaysi davrga kelib, garchi ekin yerlarining bir qismi mulkdor dehqonlar qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa ham, ammo ziraotkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi?
A) milodiy IV asr boshlarida

B) milodiy IV asrning o'rtalarida
C) milodiy V asrning o'rtalarida
D) milodiy VI asr boshlarida

40. Qang' davlatidan ajralib chiqqan Xorazmni qaysi sulolaga mansub bo'lgan xorazmshohlar idora qila boshlaydi?
A) xioniylar B) afrig'iylar C) kidariylar D) qo'ng'irotlar

41. Milodiy III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti ...... .
A) hozirgi Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Oybuyur qal'a bo'lgan
B) hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan
C) hozirgi Toshovuz viloyatining Tozabog'yob hududida edi
D)hozirgi Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi Dingilja edi

42.Tuproqqal'a shahrining umumiy maydoni ...tashkil etgan.
A) 17 gektarni B) 22 gektarni C) 26 gektarni D) 32 gektarni

43. Qachon xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga ko'chirdi?
A) milodiy 295-yilda B) milodiy 305-yilda
C) milodiy 353-yilda D) milodiy 377-yilda

44. Qaysi sulola vakillari ilk o'rta asrlarda betiga shoh va orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo mu-nosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar?
A)afrig'iy shohlari B) xioniy shohlari
C) kidariy hukmdorlari D) eftaliy hukmdorlari

45. Tuproqqal'a shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning ...... esa balandligi 25 metr bo'lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan.
A) janubiy qismida B) sharqiy tomonida
C) g'arbiy burchak qismida
D) shimoli-g'arbiy burchak qismida

46. IV asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan qaysi qabilalarning hujumi boshlandi?
A) xion B) toxar C) eftaliy D) afrig'iy

47. Grumbat boshchiligida xioniylar qachon So'g'dga bostirb kirdilar?
A) milodiy 305-yilda B) milodiy 353-yilda
C) milodiy 374-yilda D) milodiy 484-yilda

48. Qaysi davrga kelib xioniylar O'rta Osiyoda hukmronliklarini o'rnatdi?
A) 355-yillarda B) 270-yillarda
C) IV asrning 70-yillarida D) V asrning boshlarida

49. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan maydonda xioniylar qancha vaqt hukmronlik qildi?
A) 80 yilga yaqin B) 100 yildan ziyod
C) 60 yildan ko'proq D) 120 yildan oshiqroq

50. V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi ..... kirib keladi.
A) xioniylar B) toxarlar C) nushibilar D) eftaliylar

51. Qaysi davrlarda kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyat tobora kuchayib, ular bir-biriga dushman bo'lib qolgan?
A) IV asrning 30-40-yillarida B) IV asrning 60-70-yillarida
C) V asrning 20-yillarida D) V asrning 30-50-yillarida

52. Kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, janubga-Shimoliy Hindistonga chekinar ekan, u yerlarda necha yil hukmronlik qildilar?
A) 30 yil B) 45 yil C) 75 yil D) 100 yil

53. Qachon kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida navbatdagi to'qnashuv bo'lib o'tadi bunda qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta o'nglab ololmaydi?
A)353-yilda B)420-yilda C) 456-yilda D) 484-yilda

54. Qaysi manbalarda "Eftal" degan nom ilk bor "xeptal" shaklida uchraydi?
A) V asr arman manbalarida B) II asr yunon manbalarida
C) IV asr xitoy salnomalarida D) VIII asr arab manbalarida

55. Eftallar qisqa vaqt ichida ..... hududlarini bo'ysindirdilar.
A) Farg'ona, Toshkent va Xorazm
B) Toxariston, Zarafshon va Choch
C) Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshon
D) Iloq, Shosh va Farg'ona

56. Eftalitlar o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida ...... Xitoyga elchi yuboradilar.
A) 453-yilda B) 456-yilda C) 484-yilda D) 496-yilda

57. Sosoniy shohi Pero'z qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 459-484-yillarda B) 453-474-yillarda
C) 488-531 -yillarda D) 531-579-yillarda

58. Sosoniylar shohi eftaliylarga qarshi necha marta yurish qiladi?
A)ikki marta B)uch marta C)to'rt marta D)olti marta

59. Sosoniylar shohi Pero'z dastlabki jangda yengilib eftaliylarga asir tushgach u qanday qilib ozod etiladi?
A) Sosoniylar tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga

B) Vizantiya imperatori Zenon tomonidan yuborilgan o'lpon
evaziga
C) Sosoniy shohi Pero'z o'z o'g'li Kubodni garovga berish
evaziga
D) Vizantiya va Xitoy imperatorlarini aralashuvi bilan

60. Pero'z tutqinlikdan ozod etilgach …… davomida eftalitlarga katta o'lpon to'lab turiladi.
A) ikki yil B) uch yil C) to'rt yil D) besh yil

61. Sosoniylar shohi Pero'z qachon eftaliylarga qarshi uchinchi marta yurishga otlanadi?
A) 474-yilda B) 478-yilda C) 481-yilda D) 484-yilda

62. Pero'zning vorisi Kubod qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 456-484-yillarda B) 468-502-yillarda
C) 488-531-yillarda D) 492-536-yillarda

63. Keyinchalik eftaliylar ….. shaharlarini ham o'z tasarrufiga kiritadilar.
A) Kobul, Panjob, Urumchi, Yorkent, Xo'tan, Kashmir
B) Kobul, Panjob, Urumchi, Qorashar, Xo'tan, Qashg'ar
C) Balx, Hirot, Panjob, Xo'tan, Kashg'ar, Yorkent
D) Qarashar, Xo'tan, Urumchi, Yorkent, Jankent

64. V asrning ikkinchi yarmida va VI asrning boshlarida qayerlarni birlashtirgan, ilk o'rta asrlarni yangi qudratli davlati hisoblangan Eftaliylar davlati tashkil topadi?
A) O'rta Osiyo, Kashmir, Panjob va Urumchi
B) Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston
C) O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy
Turkiston
D) O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Panjob va Kashmir

65. Ilk o'rta asrlarda ….. rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblanadi.
A) Farg'ona va Kesh
B) Toxariston va So'g'd
C) Qashqadaryo va Zarafshon
D) Chog'aniyon va Naxshab

66. Qaysi manbalarda qayd etilishicha,
V-VI asrlarda Sharqiy Turkistonda va O'rta-Osiyo yerlarida paxta ekilar edi?
A) Xitoy B) Hindiston C) Vizantiya D) Eron

67. Ilk o'rta asrlarda Toshkent vohasi va Janubiy Qozag'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan qan-day suv inshootlari barpo etilgan edi?
A) Zog'ariq va Solor B) Kaykovus va Anhor
C) Zaxariq va Chirchiq D) Zog'ariq va Bo'zsuv

68. V asrda barpo etilgan qaysi suv inshooti Samarqand viloyati janubiy tumanlarini suv bilan ta'minlovchi eng yirik sug'orish tarmog'i hisoblanadi?
A) Jo'yi Xurmo B) Mirza ariq
C) Poyariq D) Darg'om kanali

69. Ilk o'rta asrlarda qaysi hududlarning mahalliy hokimlari tomonidan chiqaril-gan chaqa tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomilada bo'lgan?
A) Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va
Xorazmda
B) Samarqand, Ishtixon, Dobusiya, Varaxsha, Naxshabda
C) Vardona, Buxoro, Samarqand, Kesh, Toxaristonda
D) Toxariston, Balx, Shosh, Eloq va Parkanada

70.Ilk o'rta asrlarda …… xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi.
A) turk tili B) sug'd tili C) xitoy tili D) arab tili

71. Milodiy V-VI asrlarda qaysi yozuvlar O'rta Osiyoda keng tarqalgan edi?
A) Sug'd yozuvi, eftaliy va Kushon yozuvlari
B) Xorazm, Baqtriya va arab yozuvlari
C) Krill, Xitoy va Sug'd yozuvlari
D) Sug'd yozuvi, Xorazm va eftaliy yozuvlari

72. Eftaliylar yozuvi necha harfdan iborat bo'lgan?
A) 22 harfdan B) 25 harfdan
C) 28 harfdan D) 32 harfdan

73. V asrda O'rta Osiyolik shishasozlar qayerlik hunarmandlarga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar?
A) Hindiston B) Vizantiya C) Xitoy D) Rim

74. Turk xoqonligining asoschisi Bumun qachon "xoqon" deb e'lon qilindi?
A) 550-yilda B) 552-yilda C) 555-yilda D) 558-yilda

75. Turklar 558-yilga kelib qaysi teritoriyalarni zabt etdi?
A) Sharqiy Turkistonni B) Vizantiyani
C) Yoyiq va Itil bo'ylarini D) Toxariston va Zubilistonni

76. Eron askarlarining Balxga hujumi ko'magida turklar …… Eftaliylar davlati yerlariga bostirib kiradilar.
A) 484-yilda B) 520-yilda C) 563-yilda D) 578-yilda

77. Turklar 575-576-yillarda ….. kirib boradilar.
A) Sharqiy Turkiston yerlariga
B) Shimoliy Eron va Hindistonning sharqiy hududlariga
C) Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) bo'ylariga
D) Shimoliy Kavkazning bepayon yerlarini egallab, Qrim
yarim oroliga

78. Qachon Turk xoqonligidan zarbaga uchragan Eftaliylar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng tomomila barbod bo'ladi.
A) 575-580-yillarda B) 585-590-yillarda
C) 563-567-yillarda D) 570-575-yillarda

79. Eftaliylar davlati qulagach ….. Amudaryodan to Suriyaga qadar Ipak yo'li ustida haqiqiy sarbon bo'lib oldi.
A) Turk xoqonligi B) Eron
C) Vizantiya D) Xitoy

80. Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy (Qora dengiz) Bosforgacha cho'zilgan ulkan maydonda ko'chmanchi chorvadorlarning Turk xoqonligi qachon tashkil topdi?
A) V asrning 50-60-yillarida B) VI asrning 40-50-yillarida
C) VI asrning 70-80- yillarida D) VII asrning boshlarida

81. Turk xoqonligida ko'chmanchi chorvador aholi qanday nomlar bilan yuritilgan?
A) "yabg'u" yoki "jabg'u" B) "budun" yoki "qora budun"
C) "o'n o'q el" yoki "shod" D) "qoon" yoki "qog'on"

82. O'n o'q el sardori bir tuman (ya'ni o'n ming) suvoriyni safga tortgan harbiy bo'linmaning tuman boshisi …. deb yuritilgan.
A) "yabg'u xoqon" B) "hojib" C) "shod" D) "budun"

83. Necha kun davom etgan shiddatli jangda eftaliylar qo'shini yengiladi?
A) olti kun B) sakkiz kun C) o'n besh kun
D) bir oy

84. Sosoniylar shohi Xisrav I Anushervon turklar bilan qanday tarzda ittifoqchiligini yanada mustahkamlaydi?
A) 300 nafar harbiy maslahatchi berish yo'li bilan
B) 30 qop kumush dirham o'lpon to'lash bilan
C) Eron shohining Istemiga kuyov bo'lishi orqali
D) Turklarning Eftaliylarning katta hudu-dini egallashga rozilik berishi tufayli

85. Turklar 563-yilda Eftaliylar davlati yerlariga bostirib kirishi natijasida yana ….. ishg'ol qiladilar.
A) Parak (Chirchiq) vodiysi va uning markazi Choch shahrini
B) Eloq (Ohangaron) vodiysi va uning markazi Tunkat shahrini
C) Zarafshon vohasining markazi Afrosiyob shahrini
D) Qashqadaryo vohasining markazi Nasaf shahrini

86. VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida qancha mayda hokimliklar mavjud edi?
A) sakkizga yaqin B) o'ndan ortiq
C) o'n beshga yaqin D) yigirmadan ziyod

87. Mayda hokimliklarning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan ….. undirib olish bilan cheklanardilar.
A) xiroj va zakot B) qopchur va shulen
C) boj va yasoq D) kalon va zakot

88. Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat qachon Turk xoqonligini ikkiga – Sharqiy turk xoqonlgi va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi?
A)VI asrning 50-yillari boshida
B)VI asrning 80-yillari oxirlarida
C) VII asrning 30-yillarida
D) VII asrning 60-yillari oxirlarida

89. Turk xoqonligining mustaqil hokimliklari ustidan nazorat qilish uchun qo'yilgan noiblari …. edi.
A) "budun"lar B) "jabg'u"lar C)"shod"lar D) "tudun"lar

90. VII asrning birinchi choragida G'arbiy Turk xoqonligi nihoyatda kuchayadi, uning sharqiy chegarasi … borib taqaladi.
A) Ural daryosigacha B) Oltoygacha
C) Himolay tog'larigacha
D) Sharqiy Turkiston hududlarigacha

91. Qaysi xoqon hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilindi?
A) Bumin B) Istami C) To'nyabg'u D) Asonshod

92. Ilk o'rta asrlarda qaysi davlat Xitoyga to'qqiz marotaba savdo elchilari yuboradi?
A) Xorazm davlati B) Eftaliylar
C) Kidariylar D) G'arbiy Turk xoqonligi

93. Boshqaruv tartiblarini isloh qilgan Turk xoqoni To'nyabg'u qaysi davrlarda hukmronlik qilgan?
A) 603-613-yillarda B) 608-618-yillarda
C) 618-630-yillarda D) 632-644-yillarda

94. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon ….. Abruy boshchiligida bo'lib o'tdi.
A) 556-558-yillarda B) 558-586-yillarda
C) 562-563-yillarda D) 594-596-yillarda

95. Qo'zg'olon natijasida Abruydan jabrlangan mulkdorlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib …. atrofiga borib o'rnashadilar.
A) Yettisuv va Talos B) Xo'jand va Siyob
C) Turkiston va Taroz D) Jand va Shosh

96. V-VII asrdayoq O'rta Osiyoning ayrim viloyat va vohalarida uning yirik shaharlariga tayangan ….. mustaqil hokimliklar tashkil topadi.
A) 10 dan ortiq B) 12 dan ortiq
C) 15 dan ortiq D) 20 dan ortiq

97. Qaysi davrlarda G'arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy aloqalar ayniqsa kuchaydi?

A) VI asrning birinchi yarmida
B) VI asrning ikkinchi yarmida
C) VII asrning birinchi yarmida
D) VII asrning ikkinchi yarmida

98. Qaysi yili Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushona (Jizzax va O'ratepa viloyatlari) dan birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi?
A) 618-yilda B) 627-yilda C) 630-yilda D) 636-yilda

99. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda mustaqil hokimliklar orasida qaysisi eng yirigi edi?
A) Sug'd ixshidlari B) Farg'ona ixshidlari
C) Toxariston dehqonlari D) Choch dehqonlari

100. V-VII asrlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan mahalliy davlatlarning qaysilarida hukmdorlar "ixshid" deb atalgan?
A) Choch va Farg'onada B) Iloq va Xorazmda
C) Toxariston va Chochda D) Sug'd va Farg'onada

101. O'rta asrlarda Sug'ddan qayerlarga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlardan tortib, turli-tuman matolar va dorivorlargacha olib chiqilardi?
A)Sharqiy Osiyo va Xitoyga B) Hindiston va Kichik Osiyoga
C) Eron va Vizantiyaga D) Kavkaz orti va Misrga

102. Ilk o'rta asrlarda mustaqil hokimliklarning bir nechtasini birlashtirgan Toxariston davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
A) Termiz B) Hiriy C) Dalvarzin D) Balx

103. Toxariston aholisining nechta harfli yozuvi bo'lgan?
A) 22 harfli B) 25 harfli C) 38 harfli D) 40 harfli

104. Farg'onadan ilk o'rta asrlarda qo'shni mamlakatlarga …….
A) Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmoqlari o'tgan
B) nasldor otlar chiqarilgan
C) bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan
D) zeb-ziynatlar, turli xil shisha buyumlar chiqarilgan

105.Farg'ona vodiysining qaysi hududlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullangan?
A) Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida
B) Chotqol va Qurama tog'larida
C) Pomir va Oloy tog'lari yonbag'irlarida
D) Koson va Qoramozor tog' yonbag'irlarida

106. Chochning markazi Choch shahri bo'lib, hukmdori ….. deb yuritilgan.
A) "tudun" B) "budun" C) "dehqon" D) "ixshid"

107. Iloqning markazi qaysi shahar bo'lib, hokimlari qanday atalgan?
A) Choch, "tudun" B) Tunkat, "dehqon"
C) Parkana, "ixshid" D) Shosh, "budun"

108. Choch tudunlari zarb qildirgan chaqa tangalarda nimalar tasvirlangan?
A) old tomoniga suvoriy, orqasiga sherning tasviri tushirilgan
B) old tomoniga malika, orqasiga oyning tasviri aks ettirilgan
C) old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan
D) old tomoniga quyosh,orqasiga qoplon tasviri tushirilgan

109. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida boshqariv ma'muriyatining asosiy vazifasi nimalardan iborat bo'lgan?
A) fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan
B) fuqarolarni qo'shinga jalb etish, boj va yasoqlarni undirishdan iborat bo'lgan
C) aholini suv inshootlarini tuzatish ishlariga safarbar etishdan I iborat bo'lgan
D) hashar ishlariga bosh qosh bo'lishdan, boj va yasoqlarni yig'ishtirib olish bilan shug'ullangan

110. Markaziy Osiyoda o'rta asrlarda shaharlar qanday qismlardan iborat bo'lgan?
A) "ko'shk", "qasr", "ark"
B) "ark", "shahriston", "rabod"
C) "qasr", "shahriston", "qo'rg'on"
D) "rabot", "qasr", "shahriston"

111. O'rta asrlarda shaharning hokim qasri joylashgan qismi qanday atalgan?
A) "ark" B) "rabod" C) "qasr" D) "shahriston"

112. O'rta asrlarda shaharning tashqi mavzesi qanday nomlangan?
A) "shahriston" B) "rabod" C) " qasr" D) "qo'rg'on"

113. Qadimiy qaysi yozuv asosida sug'd va xorazm yozuvlari maydonga kelgan edi?
A) Baqtriya B) Shumer C) Oromiy D) Finikiya

114. Toxar yozuvi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?
A) oromiy yozuvi B) sug'd yozuvi
C) finikiya yozuvi D) baxtar yozuvi

115. Sug'd yozuvlari quyidagi qaysi hududlardan topib o'rganilgan?
A) Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyobdan va Mo'minobod yodgorligidan
B) Panjikent yaqinidagi Qa'lai Mug'dan va Sazag'an madaniy yodgorligidan
C) Panjikent yaqinidagi Qal'ai Mug'dan, Sharqiy

Turkistondagi Turfan shahri yaqinida, Samarqandning
qadimiy xarobasi Afrosiyobdan
D) Sharqiy Turkistondagi Turfon shahri yaqinidan va Omonqo'ton madaniy yodgorligidan

116. Sug'dda o'g'il bolalar ….. to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilar edi.
A)besh yoshga B)olti yoshga
C)yetti yoshga D)sakkiz yoshga

117. Sug'dda o'g'il bolalar necha yoshga to'lganda savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi?
A) 16 yoshga B) 17 yoshga C) 20 yoshga D) 25 yoshga

118. Sug'd xati asosida qaysi xalqlar yozuvlari shakllangan?
A) uyg'ur va turk yozuvlari B) turk va mo'g'ul yozuvlari
C) mog'il va manjur yozuvlari D) turk va avar yozuvlari

119. Qaysi yozuvdan o'z navbatida mo'g'ul va manjur xatlari paydo bo'lgan?
A) turk B) uyg'ur C) sug'd D) xitoy

120. Tarixdan ma'lumki sug'diylarning kattagina guruhi doimo turk xoqonlarining qarorgohida yashagan, ular u yerda qanday vazifalarni bajarganlar?
A) elchi, xat va savdoga o'rgatuvchi ustoz
B) vazir, harbiy qo'mondon va xat o'rgatuvchi
C) savdo va tijorat ishlari bo'yicha ish yurituvchi
D) turk xoqonlarining farzandlarini tarbiyachisi

121.Ko'k turk xati biri ikkinchisiga tutashib ketadigan…iborat edi
A) 22-25 harfdan B) 25-28 harfdan
C) 28-32 harfdan D) 38-40 harfdan

122. Qadimgi ko'k turk bitiklari (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari) qayerlardan topib o'rganilgan?
A) Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topib o'rganilgan
B) Oltoy va Mo'g'uliston, Yettisuv va Farg'onadan topib o'rganilgan
C) Farg'ona, Zarafshon va Panjikent hududlaridan topib o'rganilgan
D) Zarafshon vohasi va Qashqadaryo vohasi hamda Sharqiy Turkiston hududlaridan topib o'rganilgan

123.VI-VII asrlarda O'rta Osiyoda …. kabi bir nechta mahalliy dinlar mavjud bo'lgan.
A) zardushtiylik, xristianlik, moniylik va islom
B) islom, iudizm, sionizm, moniylik va qam
C) zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik, moniylik va qam
D) buddaviylik, islom, xristianlik, iudizm, moniy va qam

124. Qadimda turklar o'z dinini ….. deb yuritganlar.
A) "qam" B) "moniy"
C) "nasoro" D) "islom"

125. Chorvador ko'chmanchi aholi Ko'k Tangri sharafiga qurbonlik uchun…. so'yishgan.
A) xo'roz B) ko'k qo'chqor
C) qora qashqa ot D) peshonasi oq ho'kiz

126. Surxon vohasidagi qaysi yodgorlikdan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'rta asrlar zamonining yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi?
A) Sopollitepa B) Qiziltepa C) Bandixon D) Bolaliktepa

127. Qaysi yodgorlikdan topilgan budda haykalining bo'yi 12 metrga boradi?
A) Farg'ona vodiysida Quvadan topilgan
B) Qo'rg'ontepa yaqinida Ajinatepadan
C) Panjikentdan Qalayi Mug'dan
D) Sharqiy Turkistondagi Turfon shahridan

128. VI-VII asrlarda …. naychilari bilan mashhur bo'lgan.
A) Kucha B) Buxoro C) Samarqand D) Toshkent

129. Qaysi shaharning usta hunarmandlari tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan?
A) Samarqand B) Buxoro C) Kucha D) Toshkent

130. Ilk o'rta asrlarda ganchkorlik san'atining nodir yodgorligi namunalari …. orqali tatqiq etildi.
A) Ajinatepa topilmalari B) Quva topilmalari
C) Turfon shahri topilmalari D) Varaxsha topilmalari

131. Ilk o'rta asrlarda qayer o'zining qiziqchilari bilan shuhrat topgan?
A) Samarqand B) Buxoro C) Toshkent D) Kucha

132. Choch o'yinchi yigitlari ijro etgan mashhur "Choch raqsi" yoki doira chertmasiga imo bilan yelka tushadigan o'ynoqi "Doira raqsi" qayerni ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi?
A) Hindiston B) Vizantiya C) Xitoy D) Rim

133. Ilk o'rta asrlarda dindagi eng muhim vazifalardan biri qanday nomlangan?
A) mufti B) shayxulislom C) shomon D) arkon

134. Ko'chmanchi chorvador aholining Ko'k Tangriga sig'inuvchi yakka xudolik dini qanday nomlangan?
A) moniy B) qam-shomon
C) nasroniylik D) zardushtiylik

## 2-mavzu: O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath etilishi, uning oqibatlari, xalq ozodlik qo'zg'olonlari.

1. Islomni qabul qilib,rasullohga ergashgan uning izdoshlari qanday atalgan?
A) "olloh bandasi" B) "taqvodor"
C) "muslim" musulmonlar D) "Xalifayi rashaddunlar"

2. Quyidagi qaysi mamlakatlar bo'ysundirilib,behisob o'ljalarga ega bo'lgan Arab xalifaligi harbiy yurishlarini bizning o'lkamizga qaratadi?
A) Falastin,Iroq,Eron,Mesopatamiya
B) Misr,Suriya,Falastin,Iroq,Eron
C) Suriya,Makedoniya,Iroq,Eron,Turkiya
D) Iroq,Xuroson,Eron,Hindiston

3. Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradi va qayerlarni egallaydi?
A) Poykand va Romitonni B) Qorako'l va Karmanani
C) Romiton va Vardonani D) Chag'aniyon va Varaxshani

4. Narshaxiyning yozishicha, Buxorxudotlar hokimyati hududida necha yirik qo'rg'onlar bo'lgan?
A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 16 ta

5. Qaysi yillarda Tug'shoda davlatni boshqargan?
A)680-696-yillarda B) 687-700-yillarda
C) 690-714-yillarda D) 692-724-yillarda

6. Qachon Abu Muslum boshliq qo'zg'alonchilar xalifalikning markaziy viloyatlari tomon yo'l oladilar?
A) 748-yilning boshida B) 748-yilning oxirlarida
C) 749-yilda D) 750-yilda

7. Qachon Abbosiylarga qarshi Buxoroda qo'zg'alon sodir bo'ladi?
A) 750-yilda B) 751-yilda C) 752-yilda D) 753-yilda

8. Xitoy imperatorining qo'shinlari Turkistonga bostirib kirganda Abu Muslim kim boshchiligidagi qo'shinlarni ularga qarshi yuboradi?
A) Abul Abbos So'fiyonni B) Ziyod ibn Solihni
C) Ubaydulloh ibn Ziyodni D) Nasr ibn Sayyorni

9. Abu Muslumning 751-yilda Talosvo diysiga yuborgan harbiy kuchlari kimlardan tashkil topgan edi?
A) xorazmlik,sug'd,va toxarlardan
B) sug'd,arab,va xorazmliklardan
C) arab va sug'd, shuningdek turklardan
D) turk, fors,va arablardan

10.Ummaviylar –Arab xalifaligini qaysi yillarda boshqargan sulola hisoblanadi?
A) 661-750-yillarda B) 644-740-yillarda
C) 661-763-yillarda D) 620-760-yillarda

11. Muhammad (s.a.v) avlodiga mansub – Abbosiylar sulolasi qaysi yillarda Arab xalifaligini boshqardi?
A)761-1180-yillarda B) 750-1258-yillarda
C) 768-1275-yillarda D)740-1208-yillarda

12. "Sarhang" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
A) matoga ohor beruvchi B) niqobli kishi
C) kichik lashkarboshi D) qo'shin boshlig'i

13. Quyidagi qaysi hududlar qo'zg'olonchilarga o'tgan yerlar hisoblanadi?
A)Xorazm va Xuroson B) Chog'oniyon va Sug'd
C) Xuroson va Sug'd D) Xorazm va Sug'd

14. Qachondan boshlab qo'zg'alon Buxoro vohasida kuchayib ketadi?
A) 772-yildan B) 774-yildan C) 776-yildan D) 777-yilda

15."Oq kiyimlilar" qo'zg'alonida kurashning oxirgi bosqichi qayerda bo'lib o'tadi?
A) Naxshabda B) Chag'aniyonda
C) Zarafshon vohasida D) Kesh vodiysida

16. Manbalarda qayd etilishicha qaysi arab lashkarboshilari tomonidan Xorazm ikki matotaba talon- taroj etilgan
A) Ubaydullohon ibn Ziyod va Qutayba ibn Ziyod
B) Salim ibn Ziyod va Ummaviya ibn Abdulloh
C) Moviya I va Said ibn Xoroshiy
D) Umar ibn Abdulaziz va Said ibn Usmon

17.Qachon Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlandi?
A) VI asr o'rtalarida B) VI asr oxirlarida
C) VII asr boshlarida D) VII asr oxirlarida

18. Allohning rasuli (elchisi) Muhammad (s. a. v. sallolohu alayhu vasallam) binni Abdulloh qaysi yillarda yashab o'tganlar?
A) 540-603-yillarda B) 548-613-yillarda
C) 563-620-yillarda D) 570-632-yillarda

19. Islomni qabul qilib, rasullohga ergashgan uning izdoshlari …… deb atalgan.
A) choriyor B) muslim C) izdosh D)xalifa

20. Qachon Muhammad (s. a. v) arablarni yagona davlatga birlashtiradi?
A) 630-yilda B) 616-yilda C) 620-yilda D) 632-yilda

21. Muhammad (s. a. v) vafot etgach, uning eng yaqin safdoshi Abu Bakr qaysi yillari xalifalikni boshqargan?
A) 630-632-yillarda B) 631-633-yillarda
C) 632-634-yillarda D) 634-636-yillarda

22. "Daryoning narigi tomoni" degan ibora arabchada qanday ataladi?
A) Xuroson B) Movarounnahr C) Mesopotamiya D) Xalifalik

23. Qachon arablar jangsiz Marvni egalladi?
A) 648-yilda B) 651-yilda C) 656-yilda D) 667-yilda

24. Arablar hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlarni bosib olib, u yerlarni qanday ataydi?
A) Movarounnahr B) Mesopotamiya
C) Xuroson D) Chog'oniyon

25. Arablarning Movarounnahrga ilk bor hujumlari …… boshlandi.
A) 651-yilda Marvdan B) 654-yilda Maymurg'dan
C) 667-yilda Chog'oniyondan D) 673-yilda Balxdan

26. Qachon xalifa Muoviya I farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofatiga bostirib kiradi?
A) 654-yilda B) 667-yilda C) 673-yilda D) 700-yilda

27. Qachon arablarning Chog'oniyonga hujumi boshlanadi?
A) 664-yilda B) 667-yilda C) 670-yilda D) 671-yilda

28. Arablar 673-yilda Buxoro muzofotiga bostirib kirib Buxoro hukmdori bilan sulh tuzib bu yerdan qancha asir olib ketadi?
A) ikki ming B) uch ming C) to'rt ming D) olti ming

29. Qachon Qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlanadi?
A) 700-yilda B) 702-yilda C) 703-yilda D) 704-yilda

30. 707-yilda Qutayba ibn Muslim katta qo'shin bilan …… egallaydi.
A) Poykandni B) Buxoroni C) Varaxshani D) Samarqandni

31. Qutayba qachon qayerni zabt etish bilan harbiy yurishlarini boshlaydi?
A) 704-yilda Xurosonni B) 705-yilda Balx viloyatini
C) 705-yilda Marvni D) 706-yilda Xorazmni

32. Necha kunlik arablarning qamali natijasida Poykand egallanib, qo'lida qurol tutishga qodir bo'lgan barcha erkak zoti qirib tashlanadi, shahar esa vayron etiladi?
A) 20 kunlik B) 36 kunlik C) 50 kunlik D) 70 kunlik

33. Qachon Qutayba Naxshab va Keshni bosib olib, Samarqandga hujum boshlash uchun tayyorgarlik ko'radi?
A) 707-yilda B) 709-yilda C) 710-yilda C) 711-yilda

34. 711-yilda qayerning hukmdori yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi?
A) Sug'd ixshidi B) Chog'oniyon malikzodasi
C) Choch dehqoni D) Xorazm shohi

35. Qachon Qutayba qo'shinlari Samarqandga hujumini boshlaydi?
A) 710-yilda B) 711-yilda C) 712-yilda D) 713-yilda

36. Tarxun taxtdan tushirilgandan keyin, uning o'rniga o'tirgan Gurak qaysi yillarda Sug'dda podsholik qiladi?
A) 710-737-yillarda B) 712-740-yillarda
C) 712-737-yillarda D) 714-738-yillarda

37. Qutayba mahalliy aholini islom diniga kiritishga harakat qilib …
A) ibodat qilmaganlarga jizya solig'ini joriy etgan
B) masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 2 dirhamdan pul hadya joriy etdi
C) islom dinini qabul qilmaganlarga katta xiroj solig'i soldi
D) masjidga kelib nomoz o'qimaganlar-ga xiroj, jizya va zakot soliqlarini joriy etdi

38. Gurak bilan Qutayba o'rtasida sulh tuzilib, …..
A) majusiylar arablarga ibodatxonalarni bo'shatib berish kerak edi
B) arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming hisobida boj to'lashi kerak edi
C) Samarqandliklar arablarni hukmronliklarini tan olishi kerak edi
D) Samarqandliklar arab tili va yozuvini o'rganishi kerak edi

39. Samarqand arablar tomonidan egallangach, Qutayba Gurakni qayerlarning hokimi etib tayinladi?
A) Samarqand, Kesh va Naxshabga
B) Samarqand, Kesh va Buxoroga
C) Samarqand, Naxshab va Vardonzega
D) Samarqand, Ustrushona va Keshga

40. 713-yilda Qutayba qo'shinining bir qismi ……
A) Choch viloyatiga, o'zi boshliq asosiy kuch esa Farg'ona tomon yo'l oladi
B) Ustrushona ustiga yurish uyushtiradi
C) Choch viloyatiga va bir qismi Keshga yurush qiladi
D) Kesh va Naxshab tomon yo'l oladi

41. Arablar bosqini davrida Chochning poytaxti qanday nomlangan?
A) Madinat ut tujjor B) Madinat ash-Shosh
C) Madinat ash-Toshkent D) Madinati Binokat

42. 715-yilning boshida Qutayba qo'shinlari …….
A) Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, Qashg'argacha kirib boradi
B) Farg'ona vodiysini egallab, Chu vohasiga kirib boradi
C) Xo'tan, Qashg'ar va Bolosog'in hududlarini egallaydi
D) Yettisuv, Xo'tan va Farob hududlarini bosib oladi

43. Arablar hukmronligi davrida Movarounnahr aholisidan idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olinadigan soliq qanday nomlangan?
A) xiroj B) zakot C) afanak D) ushr

44. Qaysi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablar va ular bilan birga kelgan ajamlarga bo'shatib beriladi?
A) Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand
B) Buxoro, Samarqand, Nasaf va Shosh
C) Poykand, Buxoro, Samarqand va Kesh
D) Samarqand, Urganch, Nasaf va Shosh

45. Qaysi xalifa murakkab vaziyatni hisob-ga olib, bo'ysindirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi, yangi yerlarni bundan bu-yon zabt etishni to'xtatish hamda moli-yaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon berdi?
A) xalifa Muoviya B) xalifa Mahdiy
C) xalifa Umar ibn Abdulaziz D) xalifa Marvon II

46. Qachon Samarqand ixshidi Gurak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida Sug'dda qo'zg'olon boshlandi?
A) 717-yilda B) 720-yilda C) 721-yilda D) 723-yilda

47. Qaysi xalifa hukmronligi davrida musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan mahalliy xalqlardan xiroj va juzya soliqlarini olish bekor qilindi?
A) xalifa Mahdiy B) xalifa Xorun ar-Rashid
C) xalifa Ma'mun D) xalifa Umar ibn Abdulaziz

48. Qachon Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozongan Said Xarashiy Xurosonga noib etib tayinlanadi?
A) 717-yilda B) 720-yilda C) 721-yilda D) 724-yilda

49. Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor (738-748) mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlab olish maqsadida qanday islohot o'tkazadi?
A) harbiy B) boshqaruv C) qishloq xo'jaligi D) moliyaviy

50. Arab xalifaligida …. toj-u taxt kurashi kuchaydi.
A)VII asrning 90-yillarida B)VIII asrning 40-yillarida
C)VIII asrning ikkinchi yarmida D)VIII asrning 70-80-yillarida

51. VIII asrning o'rtalarida qayer xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'lkalardan biri bo'lib qolaverdi?
A) Xuroson B) Movarounnahr
C) Hijoz D) Xalab

52. VIII asrning 40-yillarida Muhammad payg'ambar avlodlaridan qaysi biri xalifalik uchun kurash boshladi?
A) Marvon II
B) Abbosning nevarasi Nasr ibn Sayyor
C) Abbosning nevarasi Muhammad ibn Ali
D) Abul Abbos Saffoh

53. Qaysi xalifa hukmronlik qilgan davrda ummaviylarga qarshi umumiy norozilik nihoyatda kuchaydi?
A) Umar ibn Abdulaziz B) Marvon II
C) Abul Abbos Saffoh D) xalifa Mansur

54. Ummaviylarga qarshi kurashga da'vat qilish uchun Abu Muslim qachon Xurosonga keladi?
A) 746-yilda B) 747-yilda C) 748-yilda D) 749-yilda

55. Abu Muslim o'ziga qarorgoh qilib qayerni belgilaydi?
A) Shavval qishlog'ini B) Marv shahrini
C) Moxuvon qa'lasini D) Balx shahrini

56. Abu Muslim qullar uchun qayerda maxsus joy tashkil ettiradi va ularga kimni boshliq qilib tayinlaydi?
A) Shavval qishlog'ida, Dovudni
B) Moxuvon qa'lasida, Sulaymonni
C) Qunduz qa'lasida, Murodni D) Xiri qa'lasida, Dovudni

57. Abu Muslim harakati nomoyondalari qanday rangdagi libos kiyishgan edilar?
A) oq B) qora C) qizil D) yashil

58. Qachon Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egallaydi?
A) 746-yilning o'rtalarida B) 747-yilning boshlarida
C) 748-yilning boshida D) 749-yilning o'rtasida

59. Xalifa Marvon II taxtdan ag'darilgandan keyin, uning o'rniga abbosiylardan kim xalifalik taxtiga ko'tarildi?
A) Abul Abbos Abdulloh B) Abul Abbos Saffoh
C) Horun ar-Rashid D) Abu Mansur

60. Abu Muslimning 755-yilda abbosiylar tomonidan o'ldirilishi xalifalik sharqida, ayniqsa … abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona bo'ldi.
A) Xuroson va Movarounnahrda B) Xuroson va Talosda
C) Eron va Falastinda D) Sharqiy Turkiston va Eronda

61. Qaysi yillarda Movarounnahrda "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloni bo'lib o'tdi?
A) 755-760-yillarda B) 760-765-yillarda
C) 769-783-yillarda D) 771-777-yillarda

62. "Oq kiyimliklar" qo'zg'olonining rahbari Hoshim ibn Hakim asli qayerlik bo'lgan?

A) samarqandlik B) buxorolik C) balxlik D) marvlik

63. Hoshim ibn Hakim qanday lavozimdan vazirlik darajasiga ko'tarilgan?
A) sarhanglik B) hokimlik C) qozilik D) shayxulislomlik

64. Muqannaning targ'iboti Movarounnahrning qaysi hududlarida yaxshi samara beradi?
A) Buxoro va Samarqand B) Naxshab va Kesh
C) Toxariston va Xorazm D) Ustrushona va Shosh

65. Muqanna Movarounnahrga kirib kelgach o'ziga qayerni qarorgoh qilib belgilaydi?
A) Naxshabni B) Kesh qa'lasini
C) Som qa'lasini D) Narshax qa'lasini

66. "Oq kiyimliklar" qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa Mansur …. Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrga safarbar qiladi?
A) 772-yilda B) 775-yilda C) 777-yilda D) 783-yilda

67. "Oq kiyimliklar" 776-yildan boshlab…..
A) Buxoro vohasida kuchayib boradi
B) Qashqadaryo vohasida keng tus oladi
C) Iloq (Ohangaron) vodiysi va Shoshga ham o'zini ta'sirini o'tkazadi
D) Termizda ham keng yoyiladi

68. 777-yilda "Oq kiyimliklar"ga uzil-kesil zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa …. Nishopurga keladi.
A) xalifa Mahdiy B) xalifa Umar ibn Abdulaziz
C) xalifa Mansur D) xalifa Xorun ar-Rashid

69. "Oq kiyimliklar" va turkiy qabilalar Samarqandda arablarga qarshi qancha vaqt jang qiladi?
A) olti oy B) sakkiz oy C) bir yil D) ikki yil

70. "Oq kiyimliklar" ….. yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar.
A) Buxoro va Poykandda B) Narshax va Samarqandda
C) Xorazm va Marvda D) Shosh va Farg'onada

71. Qachon Muqannaning Som qa'lasidagi qarorgohi qamalga olinadi?
A) 776-yilda B) 777-yilda C) 780-yilda D) 783-yilda

72."Oq kiyimliklar" kurashining oxirgi bosqichi…..bo'lib o'tadi.
A) Kesh vohasida B) Zarafshon vohasida
C) Ustrushona hududida D) Farg'ona vodiysida

73. Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'o-lon qachon, qayerda boshlanib ketadi?
A) 800- yilda Keshda B) 803-yilda Marvda
C) 806-yilda Samarqandda D) 810-yilda Shoshda

## 3-mavzu: IX-XII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarnig shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti

1. Qarluqlar davlati hukmdori qanday nom bilan yuritilgan?
A) "yabg'u" yoki "jabg'u" B) "yabg'u hoqon"
C) "takin" D) "shod"

2." Safforiylik" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
A) haq din uchun kurashuvchi jangchi
B) matoga ohor beruvchi
C) miskar hunarmandlar
D) kichik lashkarboshi

3. Tohiriylar zamonida mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og'ir soliqlaridan bezor bo'lgan xalq qo'zg'alon ko'taradi. Bu qo'zg'alonga ….. boshchilik qiladi
A) Rofe ibn Lays B) Mazdak ibn Hamadoniy
C) Abu Muslim D) Aka-uka Yoqub va Amr Layslar

4. X asrda Buxoriyning kovushdo'zlar mahallasida qurilgan madrasa qanday nom bilan yuritilgan?
A)Mir Arab madrasasi B) Farjak madrasasi
C) So'fiyon madrasasi D) Kovushdo'zon madrasasi

5. Quyidagi atamalarning qaysisi "harbiy ishlar vaziri ma'nosini anglatadi?
A) sohibi shurat B) mustofiy
C) hojibi buzruk D) sarhangi kalon

6. Qachon Movoraunnahr xalqi Arab xalifaligi istebdodidan abadiy xolos bo'ldi?
A) VIII asr oxirlarida B) IX asr boshlarida
C) IX asr oxirlarida D) X asr o'rtalarida

7. Qaysi hukmdor davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan?
A) Nasr ibn Ahmad B) Ismoil Somoniy
C) Nasr II D) Nuh ibn Mansur

8. Somoniylar hukmronligi davrida Shosh o'zining nimasi bilan mashhur edi?
A) konchilik mahsulotlari va charm mollari bilan
B) qayiqsozligi bilan
C) yuqori navli qog'ozi bilan
D) zargarlik buyumlari bilan

9. Kimning ta'kidlashicha, VII-IX asrlarda Xitoy bilan bo'lgan savdoda choy,ipak,mato,tuz va ot asosiy o'rinda turgan?
A) A.Xo'jayevning B) T.Shirinovning

C)A.Muhammadjonovning D) A.Asqarovning

10. O'rta asrlarda Xitoy bozorida choy bahosidahar bir otning bahosi necha kg oliy navli choyga teng bo'lgan?
A) 42 kg B) 48 kg C) 52 kg D) 56 kg

11. Qaysi asrda choy asosiy import mahsulotlaridan biriga aylangan?
A)VI-VII asrlarda B) VII-IX asrlarda
C)IX-X asrlarda D) X-XI asrlarda

12. Qachon Somoniylar davlatida og'ir ahvoldan chiqish uchun aholidan ikki marta soliq undirib olindi?
A) 942-yilda B) 948-yilda C)956-yilda D) 961-yilda

13. Qaysi yilda Nuh (943-954) Abu Ali Chag'aniyonni avval Chag'aniyonga, so'ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi?
A) 947-yilda B) 942-yilda C) 952-yilda D) 961-yilda

14. Kim 962-963-yillarda G'azna viloyatini noib va lashkar amiri sifatida boshqargan?
A)Anushtagin B)Alptegin C)Mahmud G'aznaviy D)El Arslon

15.G'aznaviylarning siyosiy nufuzi kimning davrida ortib,somoniylar tomonidan e'tirof etilgan?
A) Alptegin B) Mahmud G'aznaviy
C) Sobuqtegin D) Ma'sud G'aznaviy

16.G'aznaviylar davlati chegarasi g'arbda qayerlargacha chozilgan edi?
A) Ray va Isfahon shaharlari,Kaspiy dengizigacha
B) Xorazm va Orol dengizigacha cho'zilgan
C) Shimoliy Hindistongacha
D) Janubiy Balujistongacha

17. Qachonga kelib G'aznaviylar davlati butunlay tugatilgan?
A) 1041-yilda B) 1092-yilda C)1168-yilda D) 1186-yilda

18. G'aznaviylar davlatida viloyat hukmdori qanday nomlangan?
A) sipohsolar B) voliy C) amid D) sarhang

19. G'aznaviylar hukmronligi davrida viloyatda boshqaruv ishlari qaysi mansabdor tomonidan amalgam oshirilgan?
A) amid B) solor C) sarhang D)Voliy

20.G'aznaviylarning poytaxt saroyida qancha olim,shoir va sa'natkor ijod qilgan?
A)100 dan ortiq B) 200 ga yaqin
C) 300 dan ortiq D) 400 dan ortiq

21. G'aznaviylar hukmdori sulton Ma'sudga bag'ishlab kimlar asarlar yaratishgan?
A) Nasr Xisrav va Gardiziy B) Bayhaqiy va Firdavsiy
C)Abu Rayhon Beruniy va Bayhaqiy D)Gardiziy va Bayhaqiy

22. G'aznaviylar qo'shinining lashkarboshisi qanday atalgan?
A) sarhang B) sipohsolar C) amid D)solor

23.Qarluqlar, chikil o'g'iz va boshqa qabilalarning yagona ittifoqqa birlashuvi natijasida bu ulkan hududda qanday davlat tashkil topadi?
A) Xoqoniya B) Buyuk Turk C) G'aznaviylar D) Turkiston

24.Qachonga kelib "Xoqoniya " rivoj topib kuchaygach, u "Qarluq-Qoraxoniylar " davlati nomini olgan?
A) IX-X asrlarda B)X-XI asrlarda
C) XI-XII asrlarda D)XII-XIII asrlarda

25. Buxorodagi Minorayi Kalon qaysi davrga tegishli yodgorlik hisoblangan?
A) X asrga B) XI asrga C)XII asrga D)XII asrga

26.Qachon Gurganch miri Ma'mun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sozovor bo'ldi?
A) 990-yilda B) 992-yilda C)995-yilda D)997-yilda

27. Xorazmshoh unvonini tiklagan Qutbiddin Muhammad qaysi yillarda Xorazmga noiblik qilgan?
A) 1040-1097-yillarda B) 1097-1127-yillarda
C)1100-1131-yillarda D)1156-1172-yillarda

28. VIII asr oxiri IX asr boshlarida arab xalifaligiga bo'ysunmagan teritoriyalarda qanday davlatlar tashkil topgan?
A) Oltoy va Yettisuv hokimliklari
B) G'arbiy va Sharqiy Turk hoqonliklari
C) Farg'ona va Turkiston davlatlari
D) Qarluqlar va O'g'uzlar davlati

29. Qaysi davlatning hukmdori "yabg'u" yoki "jabg'u" deb yuritilgan?
A) O'g'uzlar davlatining B) Qarluqlar davlatining
C) Turk hoqonligining D) Qoraxoniylar davlatining

30. Qarluqlar davlatining poytaxti Chu vodiysidan shimolroqda joylashgan …….. shahar edi.
A) Siyob B) Yangikent C) Jul D) Tolos

31. Qachonga kelib qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan?
A) IX asr oxirlariga kelib B) X asr boshlarida
C) VIII asr o'rtalarida D) X asr o'rtalariga kelib

32. Turk xoqonligi yemirilgach, o'g'uzlarning kattagina qismi ….. muqum o'rnashib olganlar.
A) Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida
B) Amudaryo havzasi hamda Xorazm vohasida
C) Issiqko'l atroflari va Chu vodiysida
D) Tolos vodiysi hamda Yettisuv havzasida

33. O'g'uzlar davlatiga qachon asos solingan?
A) VIII asr boshlarida B) VIII asr oxiri va IX asr boshlarida
C) VIII asr oxirlarida D) IX asr oxiri va X asr boshlarida

34. O'g'uzlar davlatining poytaxti qayer bo'lgan?
A) Siyob B) Yangikent C) O'tror D) Jand

35. O'g'uz yabg'ulari shaharlardan nima maqsadda foydalanganlar?
A) poytaxt sifatida
B) boshqa davlat elchilarini kutib olish uchun
C) qishlov uchun qarorgoh sifatida
D) davlat boshqaruvini olib borish uchun

36. O'g'uzlar asosan chorvachilikning qaysi sohasi bilan shug'ullanganlar?
A) yilqichilik B) tuyachilik C) qo'ychilik D) qoramolchilik

37. Qachondan o'g'izlar islom dinini qabul qiladilar?
A) IX asrdan B) X asrdan C) XI asrdan D) XII asrdan

38. X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan qaysi qabila tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab bo'linib ketadi?
A) qarluqlar B) yag'molar C) qipchoqlar D) naymanlar

39. Qipchoqlardan zarbaga uchragan o'g'uzlarning bir qismi g'arbga, ….. borib o'rnashadilar.
A) Shimoliy Kavkaz dashtlariga B) Xuroson hududiga
C) Ural hududiga D) Janubiy Sibir teritoriyasiga

40. Qarluq qabilalari qaysi xalqlarning etnogenezida muhim rol o'ynadi?
A) turkman va ozarbayjonlarning B) qirg'iz va qozoqlarning
C) qoraqalpoq va turkmanlarning D) o'zbek va tojiklarning

41. Qipchoqlardan zarbaga uchragan o'g'uzlarning ikkinchi qismi avval Movarounnahrga kirib boradi va undan janubi-g'arbga siljib, yangi sulola – saljuqlar boshchiligida ….. istilo qilishga kirishadi.
A) Eronni B) Xurosonni
C) Old Osiyo mamlakatlarini D) Musulmon mamlakatlarini

42. O'g'uzlar qaysi xalqlarning shakllanish etnogenezida muhim rol o'ynadi?
A) o'zbek, qirg'iz, qozoq
B) qozoq, turkman, qoraqalpoq
C) turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq
D) ozarbayjon, gagauz, turk, o'zbek

43. Qaysi davrda xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi?
A) VIII asr o'rtalari- X asr boshida
B) VIII asr oxiri- IX asr boshida
C) IX asr oxiri- X asr boshida
D) X asr o'talari- XI asr boshida

44. Qanday jarayon mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o'z tasarruflariga o'tkazib oladilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoladilar?
A) xalifa Horun ar-Rashid (786-809) vafotdan so'ng uning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasida 809-813 yillarda taxt uchun bo'lgan kurash katta yo'l ochib beradi
B) Aminning xalifalik taxtiga ko'tarilishi
C) Tohir ibn Husaynni Xuroson noibi etib tayinlanishi
D) Sharqiy viloyatlarda qo'zg'olonlarning kuchayib ketishi

45. Qachon Tohir ibn Husayn Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi?
A) 820-yilda B) 821-yilda C) 822-yilda D) 823-yilda

46. Tohir ibn Husayn davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida ….. xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlatadi?
A) 821-yilda B) 822-yilda C) 823-yilda D) 824-yilda

47. Abul Abbos Abdulloh noibligi (830-844) davrida poytaxt …. ko'chiriladi.
A) Balxdan Marv shahriga
B) Raydan Nishopur shahriga
C) Marvdan Nishopur shahriga
D) Nishopurdan Damashq shahriga

48. Tohiriylar hukmronligiga qarshi qachon Xurosonda qo'zg'olon boshlanadi?
A) 870-yilda B) 871-yilda C) 873-yilda D) 875-yilda

49. 873-yilda Xurosonda boshlangan tohiriylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga kimlar boshchilik qilgan?
A) ota-bola Umar va Yahyolar
B) aka-uka Yoqub va Amir ibn Layslar
C) Ismoil va Nasr
D) Talxa va Abul Abbos Abdulloh

50. Tohiriylardan bo'lmish Abul Abbos Abdulloh qaysi yillarda Xurosonda noiblik qildi?
A) 822-830-yillarda B) 830-844-yillarda
C) 834-848-yillarda D) 840-852-yillarda

51. "G'oziy" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A) haq din uchun kurashuvchi jangchi
B) miskar hunarmand
C) islom dinini qabul qiluvchi
D) majusiylarga qarshi kurashuvchi

52. Somoniylarning qaysi hukmdori Samarqandni markazga aylantiradi?
A) Nuh B) Ahmad C) Nasr D) Ismoil

53. Qachon Ismoil somoniy butun Movaro-unnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirdi?
A) 882-yilda B) 886-yilda
C) 888-yilda D) 900-yilda

54. Ismoil Somoniy 893-yilda Taroz shahrini fath etib …..
A) soliq tartibini yo'lga soldi
B) davlatning ichki va tashqi ishlarini yo'lga soldi
C) yangi pul zarb etishga ruxsat berdi
D) dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi

55. 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasini atrofini o'rab turgan qadimiy mudofa inshooti bo'lmish devor qanday nomlangan?
A) Devori qiyomat B) Kampirak (Kampir)
C) Devoli Sang D) Devdevor

56. Qaysi xalifa safforiylar hukmdori Amir ibn Laysga Xuroson bilan birga Movaro-unnahr ustidan ham hukm yuritish huqu-qi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi?
A) xalifa Horun ar-Rashid B) xalifa Ma'mun
C) xalifa Mu'tazid D) xalifa Abu Mansur

57. Qachon xalifalik qo'shinlari bilan Ismoil Somoniy qo'shinlari o'rtasida urush boshlandi?
A) 888-yilda B) 893-yilda C) 900-yilda D) 906-yilda

58. Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar boshqaruvi asosan …… kabi o'nta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanardi.
A) vazir, ariz, mustafiy, devonbegi, iqtobegi
B) vazir, mustafiy, amid ul –mulk, sohibi shurat
C) sohibi shurat, vazir,devonbegi, ariz, mustafiy
D) mustafiy, vazir, mirob, ariz, shoh yasovuli

59. Somoniylar hukmronligi davrida ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartibotlarini qaysi mansabdor bevosita nazorati ostida tutib turardi?
A) vazir devoni B) amid ul-mulk
C) sohibi shurat D) mustofiy

60. Sosoniylarning qaysi hukmdori davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoda joylashgan edi?
A) Ismoil Somoniy B) Nasr II
C) Nasr ibn Ahmad D) Nuh ibn Mansur

61. Musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh – madrasa Buxoro shahrining qayerida joylashgan edi?
A) Registon maydonida
B) Darvozayi Mansur mahallasida
C) Kavushdo'zlar mahallasida
D) Shayxlar mahallasida

62. Somoniylar hukmronligi davrida mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda …… deb atalgan din va ilm peshvolari rahnomolik qilardilar.
A) "qozikalon" B) "mufti"
C) " ustod" D) "sadr"

63. Somoniylar saroyida oliy unvon hisoblangan qanday lavozimdagi shaxs saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi?
A) "xatib" B) "ustod"
C) "qozi askar" D) "hojibi buzruk"

64. Somoniylar davrida davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri qanday atalgan?
A) vaziri shurat B) sohibi shurat
C) amid ul-mulk D) mustofiy

65. Somoniylar hukmronligida harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan qanday devon shug'ullangan?
A) sohibi shurat B) hojibi buzrug
C) amid ul-mulk D) ariz

66. IX-X asrlarda dehqon paykallariga obirahmatni yetkazib berish uchun qanday sug'orish bo'yicha mutaxassislar yoz bo'yi mehnat qilishgan?
A) mirob, suvchi, poykor B) mirob' jo'ybon, poykor
C) poykor, polizchi, paykalchi D) jo'ybon, paykalchi, mirob

67. Somoniylar hukmronligi davrida qayerlarda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilgan?
A) Xorazm va Termizda B) Urganch va Marvda
C) Binkat va Urganchda D) Xorazm va Marvda

68. "Vadoriy" nomi bilan Sharqda mashhur bo'lgan mato qayerda tayyorlangan?
A) Samarqandning Vador qishlog'ida
B) Buxoroning Vodor qishlog'ida
C) Shoshning Vodor qishlog'ida
D) Nasafning Vodor qishlog'ida

69. "Zandonachi" nomi bilan sharqda mashhur bo'lgan malla rang bo'z matosi qayerda tayyorlangan?
A) Nasafning Zandona qishlog'ida
B) Samarqandning Zandona qishlog'ida
C) Buxoroning Zandona qishlog'ida
D) Termizning Zandona qishlog'ida

70. IX-X asrlarda Shimoliy yo'l orqali …. Movarounnahrning shahar va qishloqlaridan bo'z, kiyim-kechak, egar-jabdug', o'q-yoy, qilich, idish-asbob, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq

meva, kunjut va zig'ir moyi va boshqa shu kabi mollar olib borilgan.
A) Hindiston va Turkiyaga B) Janubiy Sibir va Mo'g'listonga
C) Xitoy va Eronga D) Kichik Osiyo va Kiyev Rusiga

71. IX-X asrlarda Movarounnahrga qimmatbaho mo'ynalar, shuningdek, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qora mol qayerdan olib kelingan?
A) Xitoy va Hindistondan B) Eron va Kichik Osiyodan
C) Bulg'or va Xazardan
D) Mesopotamiya va Arabistondan

72. Somoniylar davrida kumush tangalar hukumat boshlig'i nomidan …. davlat zarbxonalarida so'qilar edi.
A) Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda
B) Uzgan, Qubo, Buxoro va Samarqandda
C) Samarqand, Buxoro, Xo'jand va Shoshda
D) Samarqand, Poykand va Termizda

73. Somoniylar davriga oid qaysi tanga yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, u asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan?
A)"muhammadiy" B)"gitrifiy" C)"ismoiliya" D) "musayabi"

74. Somoniylar hukmronligi davrida yer egaligining nechta turi mavjud edi?
A) 3 turi B) 4 turi C) 5 turi D) 6 turi

75. Oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'l ostidagi yerlar qanday nomlangan?
A) "vaqf yerlari" B) "jamoa yerlari"
C) " mulk yerlari" D) "mulki xos"

76. Somoniylar davrida imtiyozga ega bo'lgan mulkdorlar davlatga ko'pincha hosilning 1/10 hisobida ……solig'ini to'lagan, xolos.
A) ushr B) tanobona C) xiroj D) mounat

77. Somoniylar davrida 942-yilda og'ir iqtisodiy tanglik sodir bo'ladi. Uning sababi nimada edi?
A) qishloq xo'jaligidagi og'ir ahvol
B) boshqa hududlarga tez-tez uyushtirilgan yurushlar
C) dehqonlarning o'g'ir soliqlarga duchor qilinishi
D) Somoniylarning harbiy yurshlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari natijasida

78. IX-X asrlarda agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning qancha miqdorida belgilanardi?
A) 1/3, 1/4 yoki 1/5 B) 1/2 yoki 2/4
C) 1/10 yoki 1/12 D) 2/5 yoki 3/7

78. 947-yilda Nuh ibn Mansurning amakisi …..
A) Abu Ali Chog'oniyon Buxoroni egallaydi
B) Ibrohim isyon ko'taradi
C) Ismoil Tarozga yurish qiladi
D) Nasr ibn Ahmad boshqaruv islohati o'tkazadi

80. Qachon Buxoro harbiy askarlarning g'alayoni ko'tariladi?
A) 948-yilda B) 952-yilda C) 956-yilda D) 961-yilda

81. Davlat solig'idan qisman yoki butunlay ozod etilgan oliy martabali ruhoniy va sayidlarga qarashli yerlar qanday nomlangan?
A) "mulk yerlari" B) "mulki xos"
C) "vaqf yerlari" D) "mulki sultoniy"

82. Qoraxoniylar davlatining asoschisi kim?
A) Ibrohim Bo'ritagin B) Hasan Bug'roxon
C) Abdulkarim Sotuq D) Nasr Eloqxon

83. Qadimda turkiy xalqlarda buyuklik yoki ulug'lik qanday so'z bilan ifodalangan?
A) "arslonxon" B)"bug'ro" C) "tamg'ach" D) "qora"

84. X asr o'rtalarida Issiqko'lning janubi va Qashg'arda hamda Yettisuvda yashagan qaysi qabilalar Qoraxoniylar davlatiga asos soldi?
A) xitoy-qipchoq, mo'yton va yag'mo
B) yag'mo, chigil va qarluq
C) qarluq, o'g'iz va qipchoq D) qipchoq, nayman, mo'g'ul

85. Qoraxoniylar davlatining poytaxti qayer bo'lgan?
A) Koshg'ar B) Yangikent C) Siyob D) Bolasog'un

86. Quyidagi so'zlarning qaysi birlari Qoraxoniylar davlatida oliy darajali hukmdor ma'nosini anglatgan?
A) "qoraxon" va "jabg'u" B) "arslonxon" va "bug'roxon"
C) "arslonxon" va "yabg'u" D) "bug'roxon" va "sulton"

87. …….. Hasan Bug'roxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahr tomon hujum boshladilar.
A) 968-yilda B) 970-yilda C) 986-yilda D) 992-yilda

88. Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansur o'z kuchiga ishonmay G'aznadagi noibi Sabukteginni yordamga chaqiradi, u o'zining ……. qo'shini bilan Movarounnahrga yetib keladi va Nuh bilan birlashib, bir necha janglardan so'ng qoroxoniylar noibi qo'shinlarini tor-mor qiladi.
A) o'n mingli B) o'n besh mingli
C) yigirma mingli D) yigirma besh mingli

89. Qoraxoniylar davrida kimlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi?
A) beklar, takinlar, bug'roxon va arslonxonlarga
B) imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarga
C) qoraxonlar, beklar va xatiblarga
D) shayxulislom, sadr va tudunlarga

90. Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansur qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun kimni yordamga chaqiradi?
A) Chag'oniyon noibi Abu Ali Simjuriyni

B) Chag'oniyonning yirik yer-mulk egasi Abu Ali Chag'oniyni
C) G'aznadagi noibi Sabukteginni
D) Termizdagi noibi Malikshoh Mahmudni

91. Qachon Buxoroning Nasr Eloqxon boshchiligida qoraxoniylar tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topdi?
A) 992-yilda B) 996-yilda C) 999-yilda C) 1006-yilda

92. 1006- va 1008-yillarda ……
A) somoniylar va g'aznaviylar o'rtasida to'qnashuv bo'ldi
B) qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar
C) saljuqiylar va g'aznaviylar o'rtasida jiddiy to'qnashuv yuz beradi
D) qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasida urushlar bo'ladi

93. Qachon qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritegin Amudaryo bo'yi viloyatlari – Xuttalon, Vaxsh va Chog'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi?
A)1008-yilda B) 1018-yilda C) 1028-yilda D) 1038-yilda

94. Qoraxoniylarning viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek kimlar xizmat qilardi?
A) rais, takin va vazirlar
B) vazirlar, sohibbaritlar va mustovfiylar
C) sadrlar, takinlar va mustovfiylar
D) sohibbaritlar, raislar va shayxlar

95. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilardilar. Ularni kimlar boshqarardilar?
A) eloqxon va takinlar B) bug'roxon va arslonxonlar
C) muhtasiblar va takinlar D) raislar va eloqxonlar

96. Qoraxoniylar hukmronligi davrida shaharlar kimlar tomonidan boshqarilgan?
A) shahar hokimi, rais va takinlar
B) takin, eloqxon va raislar
C) shahar hokimi, rais va muhtasiblar
D) sayyidlar, muhtasiblar va shahar hokimi

97. Qaysi davrga kelib "dehqon" degan tushuncha o'zining "qishloq hokimi"ni anglatuvchi asl ma'nosini yo'qotadi?
A) X-XI asrlarda B) XI-XII asrlarda
C) IX-X asrlarda D) XII-XIII asrlarda

98. Qaysi davrlarda Movarounnahr va Xurosonda iqto yerlari kengayib, mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi?
A) IX-X asrlarda B) X-XII asrlarda
C) XI-XII asrlarda D) XII-XIII asrlarda

99. Qoraxoniylar hukmronligi davrida qaysi shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan?
A) Bolaso'g'in, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro
B) Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Yangikent, Buxoro
C) O'zgan, Taroz, O'tror, Jand, Samarqand, Buxoro
D) Toshkent, O'tror, Jand, Yangikent, Buxoro, Samarqand

100. Qaysi davrga kelganda Qoraxoniylar davlati sharqdan kelgan yangi istilochilar-ko'chmanchi qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldilar?
A) XI asrning 80-yillarida
B) XI asrning 90-yillarida
C) XI asrning 30-yillari oxirlariga kelganda
D) XI asrning 60-yillari boshlariga kelganda

101. Ko'chmanchi qoraxitoylar qaysi xalqqa mansub qabila hisoblanadi?
A) uyg'urlarga B) xitoylarga C) yaponlarga D) mo'g'ullarga

102. Qoraxitoylar davlatining hukmdori qanday nomlangan?
A) sulton B) shahonshoh C) amir D) qo'rxon

103. Qaysi shahar qoraxitoylar davlatining poytaxti bo'lgan?
A) Yangikent B) Boloso'g`un C) Uzgan D) Xo'jand

104. Qoraxitoylarning kelib chiqishi to'g'risida gap ketganda hozirgi paytda olimlar ularni …… mansub deb hisoblaydilar.
A) Oltoy o'lkasida yashovchi turkiy qavmlarga
B) Sharqiy Tukistonda yashovchi uyg'urlarga
C) Chu va Tolos Vodiysida yashovchi turkiy qavmlarga
D) Sharqdan kelgan mo'g'ullarga mansub qabilalarga

105. Qaysi yili Qoraxitoylar Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni Mahmudga qaqshatqich zarba beradilar?
A) 1097-yilda B) 1117-yilda C) 1124-yilda D) 1137-yilda

106. Qoraxoniylar va qoraxitoylar o'rtasida tuzilgan sulhdan keyin necha yil o'tgach qoraxitoylar yana Movarounnahrga yurish qiladi?
A) ikki yil B) uch yil C) to'rt yil D) besh yil

107. Qaysi yilda bo'lib o'tgan jangda qoraxitoylar qoraxoniylar ustidan g'alaba qozonadi?
A) 1138-yilda B) 1139-yilda C) 1141-yilda D) 1143-yilda

108.Qachon Mahmud G'aznaviy tomonidan Xorazm zabt etilib, u o'z mustaqilligidan mahrum bo'ldi?
A) 1004-yilda B) 1008-yilda C) 1017-yilda D) 1037-yilda

109. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan ……. Xorazmga noib qilib tayinlaydi.
A) Anushteginni B) Sabukteginni
C) Otsizni D) Qutbiddin Muhammadni

110. Xorazmning qaysi hukmdori "xorazmshoh" unvonini tiklagan edi?
A) Anushtegin B) Qutbiddin Muhammad
C) Otsiz D) Elarslon

111. Mohir diplomat va g'ayratli lashkarboshi Otsiz qaysi yillarda Xorazm hukmdori bo'ldi?
A) 1097-1127-yillarda B) 1127-1156-yillarda
C) 1156-1172-yillarda D) 1172-1200-yillarda

112.Qaysi yili Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'tardilar?
A) 1127-yilda B) 1136-yilda C) 1147-yilda D) 1153-yilda

113. Qaysi xorazmshoh Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimigacha bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi?
A) Qutbiddin Muhammad B) Otsiz C) Elarslon D) Takash

114. Saljuqiylardan dastavval qayerlar ajralib ketadi?
A) Eron va Kichik Osiyo B) Fors va O'rta Osiyo
C) Kichik Osiyo va Kermon D) Fors va Ozarbayjon

115. 1187-1193-yillarda Takash qayerlarni zabt etadi?
A) Nishopur, Ray va Marvni B)Fors, Kermon va Xurosonni
C) Hirot, Marv va Ozarbayjonni D) Kermon, Fors va Hirotni
116. Takash qaysi yili saljuqlar sultoni To'g'rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysindiradi?
A) 1187-yildaB) 1193-yildaC) 1194-yildaD) 1196-yilda

117XII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan bo'lib, uning shimoliy- g'arbiy va g'arbiy chegarasi …..
A) Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan o'tar edi
B) Iroqqa qadar borar edi
C) G'azna viloyatidan o'tar edi
D) Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi

118. ….. Movarounnahrni qoraxitoylarga qaramlikdan ozod etilishga kirishildi.
A) 1204-yildan boshlab B) 1205-yildan boshlab
C) 1206-yildan boshlab D) 1208-yildan boshlab

119. Sulton Muhammad qo'shinlari tomonidan 1210-yilda ….. qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratiladi?
A) Dashti Qipchoqda B) Yettisuvda
C) Talos vodiysida D) Chu vodiysida

120. XII asr boshida Xorazmning janubi-g'arbda chegarasi qayerga qadar borar edi?
A)Yettisuvga B)Iroqqa C)Tolos vodiysiga D)Chu vodiysida

121. Sulton Muhammad Xorazmshoh qanday nomda ulug'lanar edi?
A) "naqshi Rustam" B) "Sharqning sohibqironi"
C) "Iskandari soniy" D) "Jahon ustuni"

122. XIII asr boshida Xorazmshohlar davlatining sharqiy chegarasi qayerlardan o'tar edi?
A) Yettisuv va Dashti Qipchoqdan
B) Bulg'or va Hazardan
C) Kichik Osiyo va Erondan
D) Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan

123.Qachon O'tror aholisi xorazmshohlarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?
A) 1208-yilda B) 1210-yilda C) 1212-yilda D) 1216-yilda

124. Qachon samarqandliklar xorazmshohlarga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?
A) 1210-yilda B) 1206-yilda C) 1212-yilda D) 1208-yilda

125. Sharqning yirik ilm va madaniy markazi bo'lgan Bog'dodda qachon "Bayt ul-hikmat" tashkil etilgan edi?
A) VIII asrda B) IX asrda C) X asrda D) XI asrda

126. IX asrda sharqning qaysi shaharlarida astronomik kuzatishlar olib boradigan rasadxonalar mavjud edi?
A) Bog'dod va Damashqda B) Samarqand va Buxoroda
C) Bog'dod va Halapda D) Damashq va Nishopurda

127. Al- Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozgan bo'lib shulardan …… nomli asari tarixga oiddir.
A) "Usturlob bilan ishlash haqida kitob"
B) "Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola"
C) "Hind hisobi haqida" D) "Al- jabr val-muqobila"

128. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy qaysi yillarda yashab ijod qilgan?
A) 748-826-yillarda B) 824-894-yillarda
C) 783-850-yillarda D) 792-856-yillarda
129. Zamonamizning mashhur matematigi, astronomi va geografi Muso al-Xorazmiyning nechta asari bizgacha yetib kelgan?
A) 20 ta B) 15 ta C) 13 ta D) 10 ta

130. Quyidagi allomalarning qaysi biri xalifa Ma'mun zamonida "Bayt ul-hikmat"da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi?
A) Ahmad al-Farg'oniy B) Muso al-Xorazmiy

D) al-Abbos Javhariy D) Ahmad al-Marvaziy

131. Muso al-Xorazmiy qaysi asari bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi?
A) "Hind hisobi haqida" B) "Al-jabr val-muqobila"
C) "Kitob surat ul-arz" D) "Algebrik tenglamalar hisobi"

132. Muso al-Xorazmiyning "Al-jabr" risolasi qaysi asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi?
A) X asrda B) XI asrda C) XII asrda D) XIII asrda

133. Buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasr al-Farg'oniy qaysi yillarda yashab ijod etgan?
A) 797-865-yillarda B) 824-894-yillarda
C) 810-870-yillarda D) 944-1016-yillarda

134. Qachon al-Farg'oniy Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashdi?
A) 820-822-yillarda B) 826-828-yillarda
C) 832-833-yillarda D) 836-837-yillarda

135. Qachon Al-Farg'oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr-daryo oqimi sathini o'lchaydigan "Miqyos an-Nil" inshooti va uning darajoti qayta tiklandi?
A) 833-yilda B) 843-yilda C) 858-yilda D) 861-yilda

136. Ahmad Farg'oniyning nechta asari saqlangan?
A) oltita B) sakkizta C) o'n ikkita D) o'n oltita

137. 1998-yil oktabrda alloma …. tavalludining 1200-yilligi nishonlandi.
A) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy
B) Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy
C) Abu Iso Muhammad at-Termiziy
D) Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasr al-Farg'oniy

138. Hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy qaysi yillarda yashab ijod qilgan?
A) 797-865-yillarda B) 810-870-yillarda
C) 824-894-yillarda D) 836-897-yillarda

139.Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga doir qancha asar yozgan?
A) o'nga yaqin B) o'n beshga yaqin
C) o'n sakkizta D) yigirmadan ortiq

140. Imom al-Buxoriyning "Al-Jomi as-sahih" asariga qancha hadis kiritilgan?
A) 7275 ta B) 6830 ta C) 7527 ta D) 7775 ta

141. Qachon Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi?
A) 1996-yil noyabrda B) 1998-yil oktabrda
C) 1999-yil mayda D) 2001-yil noyabrda

142. Necha jilddan iborat "Al Jomi as-sahih" kitobi ilk bor o'zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etildi?
A) 2 jildlik B) 3 jildlik C) 4 jildlik D) 5 jildlik

143. Quyidagi asarlarning qaysi biri kalom ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Motrudiy tomonidan yozilgan?
A) "Al-Jomi as-sahih" asari B) "Tavilot ahl as-sunna"
C) " Fozil odamlar shahri" D) "Al-Kashshof"

144. Qachon Imom al-Motrudiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi?
A) 1998-yil oktabrda B) 1999-yil noyabrda
C) 2000-yil noyabrda D) 2001-yil oktabrda

145. Asosini Abu Nasr ibn Iroq, Abulhayr ibn Hammor, Abu Sahl Masihiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar tashkil etgan "Dorul hikmat va maoruf" ("Hikmatlar va maorif uyi") – "Ma'mun akademiyasi" …. shakllandi.
A) 1000-yilda B) 1002-yilda C) 1004-yilda D) 1010-yilda

146. Qachon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida"gi farmoni chiqdi?
A) 1997-yil 11-noyabrda B) 1998-yil 12-mayda
C) 1997-yil 21-dekabrda D) 1998-yil 18 oktabrda

147. Qachon Respublikamizda "Xorazm Ma'mun akademiyasi" ning 1000 yilligi nishonlandi?
A) 2004-yil bahorida B) 2004-yil kuzida
C) 2005-yil bahorida D) 2005-yil kuzida

148. Abu Nasr Farobiy qancha asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi?
A) 100 dan ortiq B) 120 ga yaqin
C) 160 dan ortiq D) 140 ga yaqin

149. Farobiy bilimli, ma'rifatli, fikr-mulohazalarining kengligi va mantiqning teranligi tufayli sharqda Arastudan keyingi yirik mutafakkir - ….. nomi bilan shuhrat topdi.
A) "Aflotuni zamon" B) "Shayxul rais"
C) "Muallimus soniy" D) "Moniyi soniy"

150. Riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tabiatshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan Abu Nasr Farobiy qaysi yillarda yashab o'tgan?
A) 810-870-yillarda B) 824-894-yillarda
C) 873-950-yillarda D) 973-1048-yillarda

151. O'rta Osiyolik qaysi olim Sharqda "Sayx ur-rais" nomi bilan shuhrat topgan?
A) Abu Rayhon Beruniy B) Abu Ali ibn Sino
C) Abu Nasr Farobiy D) Mahmud az-Zamaxshariy

152.Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan tibbiyotga doir …… asar yozgan.
A) 36 ta B) 40 ta C) 43 ta D) 52 ta

153. Abu Ali ibn Sinoning qaysi asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan?
A) "Dorishunoslik " asari B) " Al qonun fit-tib" asari
C) "Tirik mavjudot a'zolari haqida" D) "Tabobat" asari

154. Abu Rayhon Beruniy o'zining falakiyotga oid asarida Kopernikdan …… Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi.
A) 300 yil muqaddam B) uch asr avval
C) 700 yil burun D) qaryib besh asr muqaddam

155. Abu Rayhon Beruniy qancha yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini va dunyoning geografik kartasini tuzgan?
A) 1018 ta B) 1029 ta C) 1130 ta D) 1156 ta

156. Muhammad az-Zamaxshariyning Qur'oni Karim tafsiriga oid qanday asari musulmon olamida mashhurdir?
A) "Al-Mufassal" B) "Kitob at-Tavhid"
C) "Tavilot ahl as-sunna" D) "Al-Kashshof"

157. Musulmon shaharlarining qaysi biridagi dorilfununda talabalar hozir ham "AL-Kashshof" asarida Qor'oni Karimni o'rganadilar?
A) Qohiradagi B) Makkadagi
C) Bog'doddagi D) Suriyadagi

158. Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmla-riga oid qancha asar yozib qoldirgan?
A) 30 dan ortiq B) 40 ga yaqin
C) 50 dan ortiq D) 60 dan ziyod

159. Buyuk allomalardan qaysi biri "Arab va g'ayri arablar ustozi" , "Xorazm faxri" kabi sharafli nomlar bilan ulug'langan?
A) Abu Nasr Farobiy B) Abu Rayhon Beruniy
C) Abu Ali ibn Sino
D) Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy

160. Mahmud Zamaxshariy arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan qanday asar yozgan?
A) "Al –Kashshof" B) "Al-Mufassal"
C) "Kitob at-Tavhid" D) "Ta'vilot ahl as-sunna"

161. Mashhur faqih (huquqshunos) Burhoniddin al-Marg'iloniyning 910 yilligi qachon nishonlandi?
A) 1999-yilda B) 2000-yilda
C) 2001-yilda D) 2002-yilda

162. Quyidagi asarlardan qaysi biri islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshu-noslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan?
A) "Al-Kashshof" asari B) "Fozil odamlar shahri" asari
C) "Kitob at-Tavhid" asari D) "Hidoya" asari

163. Quydagi asarlardan qaysi biri " Muallimus soniy" nomi bilan ulug'langan?
A) Abu Nasr Farobiy B) Abu Ali ibn Sino
C) Mahmud Zamaxshariy D) Abu Rayhon Beruniy

164. Islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm qanday ataladi?
A) ilmi hadis B) kalom C) fiqh D) va'z

165. X asrda 1,5 mln metr kub suv to'planadigan qanday suv ombori qurilgan?
A) Sultonband B)Xonbandi
C)Qo'rg'oshin nova D) Joyiarzis

166. XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan …… movarounnahrlik muhandislarga bu qonuniyat ma'lum ekanligidan dalolat beradi.
A) qariyb 3 asr avval B) qariyb 5 asr muqaddam
C) qariyb 7 asr myqaddam D) qariyb 450 yil avval

167. Qachondan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqalgan?
A) IX asrdan B) X asrdan C) XI asrdan D) XII asrdan

168. Movarounnahrda birinchi madrasa qachon, qayerda ochilgan?
A) X asrda Samarqandda B) XI asrda Termizda
C) X asrda Buxoroda D) XI asrda Keshda

169. Quyidagi madrasalarning qaysisi Movarounnahrda ochilgan birinchi madrasa hisoblanadi?
A) Fiqhshunoslar madrasasi B) Farjak madrasasi
C) Chorminor madrasasi D) Mir Arab madrasasi

170. Qachon Buxoroning Darvoza mahallasida qonunshunoslar uchun maxsus "Faqihlar madrasasi" qurilgan?
A) X asrda B) XI asrda C) XII asrda D) XIII asrda

171. Buxoro IX asrdan boshlab ……. nomi bilan shuhrat topadi.
A) "Buxoroyi sharif"
B) "Qubbat ul-islom" , " Islom dinining gumbazi"
C) "Hadis ilmining poytaxti" D) "Olimlar yurti"

172. Tasavvuf ta'limotining buyuk siymola-ridan bo'lgan Najmiddin Kubro qaysi yillarda yashab faoliyat ko'rsatgan?

A) 1140-1220-yillarda B) 1142-1221-yillarda
C) 1145-1221-yillarda D) 1147-1220-yillarda

173. Xoja Bahouddin Naqshband …. nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratdi.
A) "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin"
B) "Dalil al-oshiqin" va "Hidoya"
C) "Al-Mufassal" va "Kitob at-Tavhid"
D) "Ta'vilot ahl as-sunna" va "Hayotnoma"

174. Ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g'oyalar yig'indisi nima deb ataladi?
A) tasavvuf B) mafkura C) tariqat D) shariat

175. Naqshbandiya tariqati nimalarni targ'ib etadi?
A) tarkidunyochilikni
B) mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni
C) boshqalarning kuchidan foydalanmaslikni
D) komil inson darajasiga erishishni

176. "Dil ba yoru dast ba kor ("ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin") degan hikmatlar qaysi tasavvuf ta'limoti namoyandasiga tegishli?
A) Ahmad Yassaviyga B) Najmiddin Kubroga
C) Bahouddin Naqshbandga D) Iso Termiziyga

177. Tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l qanday atalgan?
A) tariqat B) odat C) shariat D) sufiylik

178. Qachondan boshlab o'lkamiz "Turkiston" nomi bilan atala boshlangan?
A) VI asrdan B) VII asrdan C) VIII asrdan D) IX asrdan

179. Kimlarning hukmronligi davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayonlar o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi?
A) Qarluqlarning B) Xorazmshohlarning
C) Qoraxoniylarning D) Qoraxitoylarning

180. Kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomi-da qo'shilib borishi nima deb ataladi?
A) xalqning shakllanishi B) etnik jarayon
C) millatning shakllanishi D) hududiy birlashuv

181. Tasavvuf o'rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqalgan bo'lib, bu ta'limot dastlab VIII asr o'rtalarida ….. yuzaga kelgan.
A) Eronda B) Afg'onistonda
C) Iroqda D) Movarounnahrda

## 4-mavzu: Mo'g'ullar istilosi. Vatanimiz xalqlarining ozodlik kurashi.

1. 1219-yilning kuzida Chingizxon Xorazmshohga qarshi qancha qo'shin bilan yurish boshladi?
A) 150 ming atrofida B) 200 mingga yaqin
C) 250 ming ortiq D)400 mingga yaqin

2. Manbalarga ko'ra O'tror qamali qancha vaqt davom etgan?
A) 3 oy B) 5 oy C) 7 oy D) 9 oy

3. O'tror mudofasining eng og'ir paytida kim qo'shini bilan shahar darvozasidan chiqib,mo'g'ullarga taslim bo'lgan?
A) G'ayirxon B) Qoracha Hojib
C)Bahriddin Amid D) Safiy Aqra Hojib

4.Qachon mo'gullar Buxoroni egallaydilar?
A) 1219-yilning dekabrida B) 1220-yilning mayida
C) 1120-yilning 16-fevralida D) 1220-yilning 10-iyunida

5. Buxoroda kim o'z oqsoqollari bilan Chingizxon oldiga shafqat so'rab chiqdi?
A) Sofiy Aqra Hojib B) Badriddin Qozixon
C) Qoracha Hojib D) G'ayirxon

6. Qachon Chingizxon Movarounnahrning eng mashhur va yirik shahri Samarqandga yaqinlashadi?
A) 1219-yilning dekabrida B) 1220-yilning fevralida
C) 1120-yilning martida D) 1220-yilning mayida

7.Qachon mo'g'ul bosqinchilari Jandni egallab,uni talaydilar?
A) 1219-yilning fevralida B) 1220-yilning aprelida
C) 1120-yilning mayida D) 1220-yilning iyunida

8. Kimning iltijo bilan "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deb aytgan xitobi ranamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzaru rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadon jangohga aylandi?
A) Jaloliddin Manguberdining B)Temur Malikning
C) Najmiddin Kubroning D)Mahmud Yalovichning

9. Jaloliddin Manguberdi qayerda mo'g'ul qo'shinlariga qarshi hujum qilib, ularni tor-mor etdi va bu uning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi?
A) Valion qa'lasida B)Niso shahrida
C)Nishopur shahrida D) Bomiyon hududida

10. Mo'g'ullar hukmronligi davrida hukmdor va noiblariga qarashli yerlar qanday atalgan?
A) mulki devon B) mulki inju C) mulki vaqf D)mulki arkon

11. Qaysi davrlarda mo'g'ul qabilalari hayotida hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi?
A) X asrda B) XI asrda C) XII asrda D) XIII asrda

12. Qachon, qayerda chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin ulug'xon (qoon) deb e'lon qilindi, unga "Chingiz" laqabi beriladi va Mo'g'ullar davlatiga asos solinadi?
A) 1204-yilda Siyob daryosi bo'yida
B) 1205-yilda Chu vodiysida
C) 1206-yilda Onon daryosi bo'yida
D) 1206-yilda Qoraqurum shahrida

13. 1206-yilda Chingizxon dastlab ….
A) naymanlarni bo'ysindiradi B) uyg'urlarni bo'ysindiradi
C) oyratlar bo'ysindiriladi D) Xitoyga yurish uyushtiradi

14.Qaysi yillarda mo'g'ullar Enasoy havzasi, so'ngra Yettisuv viloyatining shimoliy qis-mi zabt etildi va uyg'urlar taslim bo'ldi?
A) 1205-1206-yillarda B) 1206-1207-yillarda
C) 1207-1208-yillarda D) 1208-1209-yillarda

15. Qaysi yillarda Chingizxon bir necha bor Xitoyga hujum qilib, Shimoliy Xitoyning markazi Szindi shahrini ishg'ol qilib, Szin sulolasini taxtdan qulatadi?
A) 1209-1210-yillarda B) 1210-1212-yillarda
C) 1212-1213-yillarda D) 1211-1215-yillarda

16. Chingizxon 1218-1219-yillarda ….
A) Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyat-larini deyarli talofatsiz qo'lga kiritib, bu yerdagi Kuchlik davlatini tugatadi
B) Xorazmshohlar bilan savdo aloqalari o'rnatdi
C) Xitoyni to'liq bo'ysindirib bo'ldi
D) uyg'urlar teritoriyasi mo'g'ullar davlatiga qo'shib olindi

17. Chingizxon huzuriga 1216-yilda Xorazmshoh kim boshchiligida o'z elchilarini yubordi?
A) Xumortakin B) Mahmud Yalovoch
C) Bahouddin Roziy D) Qodir Inalchxon

18. Sulton Muhammad Chingizxon elchila-rini 1218-yilda qayerda qabul qiladi?
A) Urganchda B) Buxoroda C) Samarqandda D) Xo'jandda

19. Chingizxonning Sulton Muhammad huzuriga 1218-yilda yuborgan elchilariga kim boshchilik qilgan?
A) Bahouddin Roziy B) Ibn Kafroj Bug'ro
C) Mahmud Yalovoch D) Ma'sudbek

20. Chingizxon 1216-yilda huzuriga kelgan Xorazmshoh elchilaridan Sulton Muhammadga qanday gaplarni yetkazishni so'ragan edi?
A) Sulton Muhammadni qudratli podshoh sifatida bilishligini
B) Sulton Muhammadni g'arbning sohib-qironi (G'arb mamlakatlari yerlarining sultoni), o'zini esa sharqning podsho-si deb hisoblashini
C) Sulton Muhammadni o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rishi hamda u bilan do'stona shartnoma tuzishga roziigini aytishadi
D) Xorazmni har yili Chingizxonga boj to'lab turishi zarurligini aytishadi

21. Chingixon 1218-yilda Sulton Muhammad davlatiga yuborgan savdo va elchilar karvoni qanday tartibda tashkil topgan edi?
A) 400 tuyadan hamda 500 musulmon savdogaridan
B) 450 tuyadan hamda 400 musulmon savdogaridan
C) 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogaridan
D) 350 tuyadan hamda 400 musulmon savdogaridan

22. Chingizxonning ulkan savdo karvoni kim tomonidan talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi?
A) Samarqand hokimi Usmon B) Sulton Muhammad
C) O'tror noibi G'oirxon (Inolchiq)
D) Jand hokimi Xumortakin

23. Chingizxon kimni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi?
A) Hasan Bug'roxonni B) Mahmud Yalovochni
C) sarhang Suketi Cherbini D) Ibn Kafroj Bug'roni

24. Sulton Mahammadning volidasi Turkon xotin, ya'ni "turklar onasi" qaysi qabila vakili edi?
A) jikil B) qipchoq C) yag'mo D) qarluq

25. Nima sabab Chingizxonni Movarounnahrning obod dehqonchilik viloyatlariga bostirib kirishi uchun bahona bo'ldi?
A) O'tror voqeasi va Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi
B) Sulton Muhammadni Chigizxon hukmronligini tan olmaganligi
C) Sulton Muhammadni O'zganni bosib olishi
D) Chingizxon savdogarlaridan Movarounnahrda katta boj olinishi

26. Chingizxon o'z yurishini qayerlarni zabt etishdan boshladi?
A) Kuchlik davlatini bosib olishdan
B) Chu vodiysini egallashdan
C) Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkasini zabt etishdan
D) Buxoro vohasini bosib olishdan

27. Qachon Chingizxon Xorazmshohga qarshi yurishini boshladi?
A) 1218-yilning kuzida B) 1218-yilning qishida
C) 1219-yilning bahorida D) 1219-yilning kuzida

28. Chingizxon Movarounnahrni qisqa vaqt ichida zabt etish uchun butun harbiy kuchlarini necha qismga bo'ldi?
A) ikki qismga B) uch qismga
C) to'rt qismga D) besh qismga

29. Chingizxon O'trorni qamal qilib turish uchun kimlarni qoldirdi?
A)Chig'atoy va O'qtoyni B) Jo'ji va Oloqno'yonni
C) Suketi Cherbi va Jo'jini D) Chig'atoy va Suketi Cherbini

30. Chingizxon harbiy kuchlarining ikkinchi qismiga Chig'atoy boshliq etilib, u …….
A) Buxoro vohasini zabt etishga yuborildi
B) Sirdaryo etagi tomon yuborildi
C) Movarounnahr markazi Samarqandga yuborildi
D) Xorazmshohlarning chegara istehkomi Xo'jand tomon yo'naltirildi

31. Chingizxonning besh ming kishilik uchinchi qo'shini …… qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimiga joylashgan Binokat va Xo'jand shaharlari tomon yuborildi.
A) O'qtoy va Chig'atoy B) Jo'ji va Tule
C) Suketi Cherbi va Oloqno'yon
D) Oloqno'yon va Chig'atoy

32. O'trorliklar shaharni mo'g'ullardan mudofa qilib, uni qancha vaqt davomida o'z qo'llarida ushlab turadilar?
A) uch oy B) besh oy C) olti oy D) sakkiz oy

33. Qachon Chingizxon qo'shinlari Buxoroni egallaydi?
A) 1220-yilning 12-yanvarida B) 1220-yilning 24-yanvarida
C) 1220-yilning 16-fevralida D) 1220-yilning 16-martida

34. Mo'g'ullar Samarqandning bosh suv inshoati - …… buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradilar.
A) Jo'yi arzisni B) Siyob to'g'onini
C) Darg'om dambasini D) Qo'rg'oshin novani

35. Sulton Muhammad 30 minglik mo'g'ul qo'shinidan qochib qayerga borib joylashadi?
A) Iroqqa B) Eronga
C) Orol dengizidagi orollardan biriga
D) Kaspiy dengizining janubidagi Ashura oroliga

36. Sig'noq aholisi necha kun davomida shaharni mo'g'ullardan qahramonona himoya qiladi?
A) besh kun B) yetti kun C) to'qqiz kun D) o'n ikki kun

37. Qachon mo'g'ul bosqinchilari Jandni egallab, uni talaydilar?
A) 1220-yilning martida B) 1220-yilning aprelida
C) 1220-yilning iyunida D) 1220-yilning sentabrida

38. Binokat shahri necha kunlik mudofadan so'ng mo'g'ullarga taslim bo'ldi?
A) uch kunlik B) besh kunlik C) to'rt kunlik D) olti kunlik

39. Temur Malikning farmoyishi bilan …. yasalib, dushmanning o'qi teshib o'tmasligi, o't yondirib yubormasligi maqsadida qayiqlarning usti namat bilan qoplanib, sirkali loy bilan suvab chiqiladi.
A)12 ta qayiq B)16 ta qayiq C)28 ta kema D)36 ta kema

40. Temur Malik Xorazmda kuch to'plab mo'g'ullardan qaysi shaharni qaytarib oladi?
A) Jandni B) Sig'noqni C) Xo'jandni D) Yangikentni

41. Chingizxon 1220-yilning yozida …… bostirib kiradi va uni egallaydi.
A)Nasafga B)Naxshab(Qarshi)ga C)Termizga D) Balxga

42. Termiz mo'gullar tomonidan qamalning nechanchi kuni qattiq hujumlar bilan olinadi?
A) sakkizinchi kuni B) o'ninchi kuni
C) o'n birinchi kuni D) o'n uchinchi kuni

43. Sobiq Jand noibi qochqin … boshliq qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilgan suiqasddan xabar topgan Sulton Jaloliddin Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur bo'ladi.
A)To'g'ayxon B)Qutlug'xon C)Xumortakin D)Elatxumalik

44. Mo'g'ullar bosqini davrida Urganch taqdiri o'ta qo'rqoq va amalparast …. qo'lida qoladi.
A) Qutlug'xon B) shahzoda O'zloqshoh
C) amir Xumortakin D) amir To'g'ayxon

45. Qachon 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari hujum boshlab, Urganchni qamal qiladi?
A) 1220-yilning bahorida B) 1220-yilning kuzida
C) 1221-yilning yozida D) 1221-yilning qishida

46. Urganch bosqinchilar tomonidan bosib olingandan keyin qancha hunarmand asirga olinib, qolganlari qirib tashlanadi?
A) 50 ming B) 70 ming C) 100 ming D) 120 ming

47. Jaloliddin Manguberdi ancha yillar ilgari ….. hududlari-gacha bo'lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi.
A) G'azna, Bomiyon, Guch, Bust va Hindiston
B) Niso, Bomiyon, Uzgan va Hindiston
C) Qandahor, Tabriz, Niso, Bomiyon va Bust
D) Ray, Zaynon, Tabriz, Qandahor va Niso

48. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi kim boshchiligida necha ming kishilik qo'shin jo'natadi?
A) Oloqno'yonni 30 minglik qo'shin bilan
B) Suketi Cherbini 40 minglik suvoriy bilan
C) Shiki Xutuxu no'yonni 45 minglik qo'shin bilan
D) Chig'atoy ni 50 minglik suvoriy bilan

49.Qayerdagi jangda Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarning Shiki Xutuxu no'yon boshchiligidagi qoshinini yengadi?
A) G'azna yaqinidagi B) Parvon tekisligidagi
C) Sind daryosi bo'yidagi D) Qandahor yaqinidagi

50. Mo'g'ullar bilan bo'lgan jang g'alaba bilan tugallansada nima sababdan lashkarboshilardan Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar qo'shindan ajralib ketadilar?
A) g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik
B) Jaloliddinning lashkarboshilarini juma nomozidagi xutbaga qo'shdirmaganligi
C) Lashkarboshilarga qo'lga kiritilgan hududlardan mulk ajratilmaganligi
D) Bu lashkarboshilar g'alabani ta'minlashda jonbozlik ko'rsatmaganligi

51. Sind(Hind) daryosi bo'yidagi jang qachon bo'lib o'tadi?
A) 1221-yilning 16-iyulida B) 1221-yilning 21-avgustida
C) 1221-yilning 25-noyabrida D) 1221-yilning 24-dekabrida

52. Qachon eng so'nggi Xorazmshohning hukmronligi tugaydi?
A) 1220-yilda B) 1221-yilda C) 1230-yilda D) 1231-yilda

53. Qachon Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda keng nishonlandi?
A) 1998-yili B) 1999-yili C) 2000-yili D) 2001-yili

54. Qachon "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etilgan?
A) 1999-yil 5-mayda B) 1999-yil 15-noyabrda
C) 2000-yil 30-avgustda D) 2001-yil 10-mayda

55. Mo'g'ullar bosqini paytida Marv voha-sining sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'oni –mashhur …. buzib tashandi.
A) Qo'rg'oshin nova B) Sultonband
C) "Ot sakrash" bandi D) Joyi Xurmo

56. Chingizxon Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo'yi, Xorazm va Darbandgacha bo'lgan hududlarni hukmronligini kimga topshirdi?
A) Jo'jiga B) Chig'atoyga C) O'qtoyga D) Tuluga

57. Chingizxonning kenja o'g'li Tuluga qayerlar tegdi?
A) Movarounnahr va Xuroson yerlari
B) G'arbiy Mo'g'uliston va Xitoy
C) Mo'g'uliston, Xitoy va Qirg'iz yeri
D) Sharqiy Turkiston va Yettisuv

58. Qachon O'qtoy mo'g'ular davlatining ulug' xoqoni qilib tayinlandi?
A) 1224-yilda B) 1226-yild C) 1225-yilda D) 1227-yilda

59. Ulug' xoqonning qarorgohi … shahrida bo'lib, u yerdan turib xonlarning xatti-harakatini qattiq nazorat qilib borar edi.
A) Siyob B) Yangikent C) Qoraqurum D) Jand

60. Qachon Rusya zabt etilib Oltin O'rda davlati tashkil topadi?
A) 1227-1232-yillarda B) 1232-1236-yillarda
C) 1234-1240-yillarda D)1236-1241-yillarda

61. Qachon Eron batamom bosib olinib Hulokuiylar davlati vujudga keladi?
A) 1252-yilda B) 1254-yilda C) 1256-yilda D) 1258-yilda

62. 1258-yilda …..
A) Huloku abbosiylar sulolasiga xotima beradi
B) Oq O'rda xonligi tuziladi
C) Chig'atoy mulki tugatiladi
D) Elbarsxon Oltin O'rda taxtiga o'tiradi

63. Qachon, qayerlarni o'z ichiga olgan Chigatoy ulusi tashkil topadi?
A) XIII asrning 40-yillarida Movarounnahr va Yettisuvdan
B) XIII asrning 20-yillarida Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan
C) XIII asrning 30-yillarida Movarounnahr, Mo'g'uliston va Yettisuvdan
D) XIII asrning 50-yillarida Sharqiy Turkiston va Mo'g'uliston

64. Chig'atoy xonlari ziroatchi dehqonlardan qanaqangi yer solig'i undirgan?
A) "kalon" B) "qopchur" C) "shulen" D) "tanobona"

65. Mo'g'ullar hunarmandlar va savdogarlardan …… solig'i undirgan.
A) "zobitona" B)"mounat" C) "targ'u" D) "kepakiy"

66. Chig'atoy xonlari chorvador ahliga qanday soliq solgan?
A) "shulen" B) "qopchur" C) "mounat" D) "kalon"

67. Mo'g'ullar davlat xazinasi uchun ….. nomi bilan yuritilgan oziq-ovqat solig'i undirgan.

A) “targ’u” B) “yasoq” C) “kalon” D) “shulen”

68. Mo’g’ullarga qarshi Movarounnahrda hunarmand va dehqonlar ko’targan qo’zg’olonga kim boshchilik qilgan?
A) Temur Malik B) Shamsiddin Mahbubiy
C) Mahmud Tarobiy D) Jaloliddin Manguberdi

69. Buxoroda ko’tarilgan qo’zg’olonning rahbari Mahmud Tarobiyning eng yaqin safdoshi kim bo’lgan?
A) Mo’lla Mavlonzoda B) Shamsiddin Mahbubiy
C) Muhammad D) Mahmud Ali

70. Mahmud Tarobiy o’z tarafdorlari bilan Buxoroga kirib olgach qaysi saroyni o’ziga qarorgoh qilib oladi?
A) Varaxsha qasrini B) Registon saroyini
C) Robiya saroyini D) Narshax qasrini

71. Mahmud Tarobiy o’zini Buxoro va atrof viloyatlarning …… , ya’ni hukmdori deb rasmiy ravishda e’lon qilishga Buxoroning sadrlari, badavlat a’yonlari, yirik yer egalarini majbur etadi.
A) amiri B) sultoni C) shohi D) xalifasi

72. Chig’atoy soliqlarni tartibga solish maqsadida qachon Mahmud Yalovochni noiblikdan chetlatishga majbur bo’ladi?
A) 1237-yilda B) 1238-yilda C) 1239-yilda D) 1240-yilda

73. Ulug’ xoqon O’qtoy Mahmud Yalo-vochni qayerga hokim etib tayinlaydi?
A) Dunxuanga B) Yettisuvga
C) Pekinga D) Boloso’g’inga

74. Mo’g’ullarning huquqiy qonunlari to’plami qanday atalgan?
A) “Chingizxon qonunlari” B) “Shomonlik kitobi”
C) “Yosoq kitobi” D) “Qoraqurum bitiklari”

75. Qachonga kelib Chig’atoy ulusining mo’g’ul amaldorlari doirasida o’troqlikka ko’chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o’troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi?
A) XIII asr o’rtalarida B) XIII asr oxirida
C)XIV asr boshlarida D) XIV asr ikkinchi yarmida

76. Mo’g’ulistonning qaysi ulug’ xoqoni soliq va hashar ishlarini tartibga solish to’g’risida maxsus farmon-yorliq chiqaradi?
A) O’qtoy B) Jo’ji C) Munke D) Tug’luq Temur

77. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa tovar va pul munosabatlarining tiklanishida Ma’sudbek tomonidan …. amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo’ldi.
A) 1268-yilda B) 1269-yilda C) 1270-yilda D) 1271-yilda

78. Ma’sudbek Movarounnahrning nechta shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zabt ettirib, mamakatda ularni muomilaga chiqaradi?
A) 8 ta B) 12 ta C) 16 ta D) 18 ta

79. Kim qarorgohini mo’g’ul hukmdorlari orasida birinchi bo’lib Movarounnahrga ko’chiradi?
A) Munke B) Kebek C) Tarmashirin D) Ilyosxo’ja

80. Kebek qaysi sohalarda islohat o’tkazadi?
A) harbiy va moliyaviy B) xo’jalik va pul
C) ma’muriy va pul D) harbiy va savdo-sotiq

81. Chig’atoy xonlaridan bo’lmish Kebek Samarqand viloyatini necha tumanga bo’ladi?
A) 5 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 11 ta

82. Kebek davrida qaysi davlatlarning kumush tangalari namunasida ikki xil pul: og’irligi 8 gramlik katta kumush tanga va 1 gramlik kichik tanga zarb etilgan?
A) Xitoy va Arab xalifaligi
B) Rossiya va Hulakuiylar davlati
C) Hulakuiylar davlati va Olti O’rda xonligi
D) Oltin O’rda xonligi va Xitoy davlati

83. Kebek hukmronligi davrida Farg’ona viloyati necha tumanga bo’lingan?
A) 7 ta B) 9 ta C) 11 ta D) 13 ta

84. “Kepaki” deb nom olgan tangalar qaysi shaharlarda zarb etilib, muomilaga chiqarilgan?
A) O’zgan va Qarshida B) Urganch va Xo’jandda
C) Samarqand va Buxoroda D) Poykand va Termizda

85. Mo’g’ullar hukmronligi davrida O’rta Osiyoda yerga bo’lgan egalikning necha xil shakli mavjud edi?
A) 2 xil B) 3 xil C)4 xil D) 5 xil

86. Yettisuvlik mo’g’ullar va movarounnahrlik mo’g’ullar bir-birlarini qanday atashar edi?
A) “qoraunas”, “jete” B) “qoraunas”, “duragay”
C) “qoloqlar”, “qoroqchi” D) “jete”, “qaroqchi”

87. Mo’g’ullarning Chig’atoy ulusiga qayerlar kirar edi?
A) Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlari
B) Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo’g’uliston hududlari
C) Movarounnahr va Xuroson hududlari
D) Sharqiy Turkiston, Shimoliy Afg’oniston va Yettisuv hududlari

88. Mahmud Yalovoch qaysi shaharni o’ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerdan turib, Movarounnahrni idora qila boshlaydi?
A) Yangikentni B) Beshbaliqni C) Xo’jandni D) Samarqandni

89. Qashqadaryo vohasidagi "Qarshi" shahriga kim asos solgan?
A) Botuxon B) Munke C) Kebekxon D) Ma'sudbek

90. Mo'g'ullar tashkil qilgan qaysi davlatning hukmdori tomonidan abbosiylar sulolasiga xotima beriladi?
A) Movarounnahr hukmdori Olg'uxon tomonidan
B) Eronda tashkil topgan Hulaku davlatining hukmdori
C) Oltin O'rda hukmdori Berka tomonidan
D) Mo'g'uliston xoqoni Munke tomonidan

91. Mo'g'ullar davrida mamlakat bo'ylab savdo yo'llarida joylashgan bekatlar qanday atalgan?
A) rabod B) ko'shk C) yom D) qo'rg'on

92. Chig'atoy ulusi qachonga kelib ikkiga bo'linib ketdi?
A) XIII asrning 70- yillarida B) XIII asrning 90-yillarida
C) XIV asrning 20-yillarida D) XIV asrning 40-yillarida

93. Qachon Chig'atoy naslidan bo'lgan Tug'luq Temur Mo'g'uliston xoni etib ko'tariladi?
A) 1340-yilda B) 1344-yilda C) 1348-yilda D) 1352-yilda

94. Asrlar davomida Xitoy va Hindistondan Turkiston orqali Kichik Osiyo va Yevropa tomon kesib o'tgan mashhur Ipak yo'li qaysi davrda butunlay harakatsiz qoldi?
A) Qoraxoniylar hukmronligi davrida
B) Qoraxitoylar bosqini davrida
C) Xorazmshohlar hukmronligi davrida
D) Mo'g'ullar bosqini davrida

95. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida Movarounnahr va Xorazm teritoriyasida qanday moddiy madaniyat obidalari bino qilindi?
A) Buxoroda Sayfuddin Boxarziy, Bayonqulixon maqbarasi,
Samarqandda Qusam ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli
ulug'vor minora, Najmiddin Kubro va To'rabekxonim
maqbarasi
B) Samarqanddagi mashhur Shohizinda me'moriy ansamblining asosiy qismi, Jarqo'rg'on minorasi
C) Buxoroda "Ma'sudiya" va "Xoniya" nomli madrasalar
D) Ko'hna Urganchda Najmiddin Kubro va To'rabekxonim
maqbaralari, Samarqandda bir qancha masjid va xonaqohlar

96. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fors-tojik sheriyatining yirik namoyondalaridan …… kabi buyuk siymolar yashab ijod etgan.
A) Sakkokiy, Jaloliddin Rumiy, Lutfiy
B) Jaloliddin Rumiy, Sa'di Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy
C) Sharafiddin Ali Yazdiy, Sa'di Sheroziy, Lutfiy
D) Amir Xisrav Dehlaviy, Sayfi Saroyi, Durbek

97. XIII asrning ikkinchi yarmi XIV asrning boshlarida yashab ijod qilgan qaysi tarixchilarning asarlari o'sha davr tarixi, ayniqsa mo'g'ullar istibdodini o'rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi?
A) Juzjoniy, Juvayniy va Rashiduddin Fazlullohning
B) Juvayniy, Tabriziy va Narshaxiyning
C) Rashiduddin Fazlulloh, Narshaxiy va Mirxondlarning
D) Bayhaqiqiy, Tabriziy va Xondamrlarning

98. XIII asr o'rtalarida Buxoroda …… nomlari bilan shuhrat topgan ikkita madrasa bino qilinadi, ularning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.
A) "Ma'sudiya" va "Xoniya" B) "Ma'sudiya" va "Tolibiya"
C) "Farjak" va "Ma'sudiya" D) "Fiqhlar" va "Xoniya"

99. 36 ming baytdan iborat "Masnaviyi ma'naviy" nomli poema kimning ijod mahsuli hisoblanadi?
A) Sa'diy Sheroziy B) Jaloliddin Rumiy
C) Amir Xisrav Dehlaviy D) Sayfi Saroyi

100. Quyidagi asarlardan qaysi birlari o'z davrining buyuk adiblaridan bo'lmish Amir Xisrav Dehlaviy ijodining mahsuli hisoblanadi?
A) "Guliston", "Bo'ston"
B) "Masnaviyi ma'naviy" va "Bo'ston"
C) "Zafarlar kaliti", "Falakning to'qqiz gumbazi"
D) "Gul va Navro'z", "Zafarlar kaliti"

101. Quyidagi mutafakkir adiblarning qaysi biri o'z asarlarida ona yerga bo'lgan muhabbat va insonparvarlik g'oyalarini mohirona bayon etadi?
A) Jaloliddin Rumiy B) Sadiy Sheroziy
C) Amir Xisrav Dehlaviy D) Sayfi Saroyi

102. "Jome at-tavorix" ("Tarixlar to'plami") nomli tarixiy asar quyidagi qaysi tarixchi tomonidan yozilgan?
A) Juvayniy B) Juzjoniy
C) Rashiduddin Fazlulloh D) Bayhaqiqiy

103. Buyuk tasavvuf shoiri Jaloliddin Rumiy qaysi yillarda yashab ijog qilgan?
A) 1207-1273-yillarda B) 1219-1293-yillarda
C) 1253-1325-yillarda D) 1220-1276-yillarda

104. "Tarixi jahonkushoy" ("Jahon fotihi tarixi") asari qaysi tarixchi tomonidan yozilgan?
A) Mirxond B) Narshaxiy C) Juvayniy D) Juzjoniy

105. Quyidagi asarlarning qaysi biri Juzjoniy qalamiga tegishli?
A) "Zafarlar kaliti" B) "Jome at-tavorix"
C) "Tarixi jahonkushoy" D) "Taboqati Nosiriy"

# 5-mavzu: Amir Temur va temuriylar davlati

1.XIV asrning 50-60-yillarida Mavorounnahrning Samarqand viloyatida kim hokimi mutlaq edi?
A) O'ljaytu Sulduz B) Amir Boyon Sulduz
C) Amir Hoji Barlos D) Amir Boyazid Jaloir

2. Qachon Amir Temur Qozog'onning nabirasi,Amir Husayinning singlisi Uljoy Turkon Og'ani o'z nikohiga oladi?
A)1352-yilda B) 1355-yilda C)1361-yilda D)1365-yilda

3.Qaysi yillarda Mo'g'iliston xoni Tug'luq Temur Mavorounnahrga birin-ketin ikki marta bostirib kiradi?
A) 1356-1358-yillarda B) 1358-1360-yillarda
C) 1360-1361-yillarda D) 1363-1364-yillarda

4. Qachon Amir Temur Samarqandda qurultoy chaqiradi?
A) 1370-yil 11-aprelda B) 1370-yil 20-mayda
C) 1370-yil iyun oyida D) 1370-yil,iyul oyida

15. Amir Temur davlatida soliq undiruvchi qanday atalgan?
A) sadri a'zam B) muhassil C) tavochi D) muxtasib

6. Amir Temur Ozarboyjon,G'arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni kimga suyurg'ol qilib berdi?
A) Mirzo Umar ibn Mironshoh B) Pirmuhammad Jahongirga
C)Shohruh Mirzoga D) Sulton Mahmudga

7. Amir Temur qachon Ispaniya elchilarini Samarqandan jo'natib yuboradi?
A) 1403-yilning 21-mayida B)1404-yilning 10-aprelida
C) 1403-yilning 26-sentyabrda D)1404-yilning 21-noyabrida

8.Ispaniya elchisi Klavixo qachon vataniga qaytib boradi?
A) 1405-yilning sentyabrda B) 1404-yilning noyabrida
C) 1406-yilning martida A) 1406-yilning mayida

9. Qachon Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movoraunnahrga bostirib kirib Samarqandni qamalga olganida Xoja Ubaydulloh Ahror majaroga qatian aralashib, raqiblarni yarashtiradi?
A) 1454-yilda B) 1458-yilda C) 1456-yilda D) 1460-yilda

10.Qaysi yodgorliklarning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari XV asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalaridan hisoblanadi?
A) Bibixonim madrasasi va Go'ri Amir maqbarasining
B) Go'ri Amir va Shohizindaning
C) Ishratxona va Ulug'bek madrasasining
D) Ulug'bek rasadxonasi va Shohizindaning

11. Xuroson Hukmdori Abulqosim Bobur vafotidan so'ng Sulton Husayn va Alisher Navoiy qancha vaqt boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar?
A) 8 yil B) 10 yil C)12 yil D)14 yil

12.Qachon Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi?
A)1418-yilda B)1419-yilda C)1421-yilda D)1423-yilda

13.Qachon Mirzo Ulug'bek shahar yaqinidagi Obirahmat anhori bo'yida rasadxona qurdirdi?
A) 1424-1429-yillarda B) 1420-1424-yillarda
C) 1422-1427-yillarda D) 1426-1429-yillarda

14. Ulug'bek rasadxonasining kutubxonasida fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qancha kitob saqlangan?
A)7 ming B) 10 ming C) 12 ming D) 15 ming

15. Ulug'bek rasadxonasining etagida ikkita chorbog' barpo etilgan bo'lib,ular qanday nom bilan atalgan?
A)Bog'izag'on va Bog'ibehisht
B)Bogi Maydon va Chinnixona
C) Bog'i Dilkusho va Bog'ibaland
D) Bog'i nav va Chilustun

16. Quyidagi qaysi so'z muqovasozlik ma'nosini anglatadi?
A) lawohlik B) sahhoflik C) rixtgarlik D) sarrojlik

17. Qaysi davrlarda Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan?
A) XIII asrning 90-yillarida B) XIV asrning 40-yillarida
C) XIV asrning 50-60-yillarida D) XIV asrning 80-90-yillarida

18. Amir Temur qayerda tavallud topgan?
A) Samarqand shahrida B) Nasaf shahrida
C) Kitob tumanida D) Yakkabog' tumanida

19. Amir Temur necha yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi?
A) besh yoshga to'lgach B) olti yoshga to'lgach
C) yetti yoshga to'lgach D) sakkiz yoshga to'lgach

20. Qachon Amir Temurni otasi Amir Joku Barlosning qizi Turmush Og'oga uylantiradi?
A) 1350-yilda B) 1352-yilda C) 1354-yilda D) 1356-yilda

21. Nima sabab Amir Temur bilan Balx hokimi Amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga keladi?
A) ota-bobolari o'rtasida azaliy ittifoqchilik
B) Amir Husaynni Amir Temurga Kesh viloyatini berganligi

C) Amir Temur Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon
Og'oga uylangani
D) Mo'g'ullarga qarshi kurash maqsadi

22. Qachon Amir Temur Amudaryoning chap sohilida Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadi?
A) 1361-yilda B) 1362-yilda C) 1363-yilda D) 1364-yilda

23. Ittifoqchilar Ilyosxo'ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta janglar qilib qachon mo'g'ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar?
A) 1363-yilning bahorida B) 1363-yilning kuzida
C) 1364-yilning yozida D) 1364-yilning oxirida

24. Tarixda "Loy jangi" nomi bilan shuhrat topgan Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yidagi jang qachon bo'lib o'tgan?
A) 1364-yil 12-may kuni B) 1364-yil 24-sentabr kuni
C) 1365-yil 22-may kuni D) 1365-yil 16-noyabr kuni

25. Sarbadorlar harakati …. Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldii.
A) XIV asrning 20-yillarida B) XIV asrning 30-yillarida
C) XIV asrning 40-yillarida D) XIV asrning 60-yillarida

26. Amir Temur qo'shini qayerga yetganida uning huzuriga taniqli sayidlardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi?
A) Termiz yaqinidagi Boysun qishlog'iga yetganda
B) Balx yaqinidagi Darband qishlog'iga yetganda
C) Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganda
D) Balx yaqinidagi Qunduzcha shahri yaqinida

27. Amir Temur bilan Amir Husayn 1366-yilning bahorida Samarqandga yo'l oladilar va shahar yaqinidagi …… kelib tushadilar.
A) Ko'hak mavzesiga B) Konigul mavzesiga
C) Cho'ponota qirlariga D) Saripul mavzesiga

28. Qachon Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi?
A) 1370-yilning 10-martida B) 1370-yilning 18-martida
C) 1370-yilning 10-aprelida D) 1370-yilning 24-mayida

29. Qachon Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning yoshlikdan birga bo'lgan quroldosh do'stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi?
A) 1370-yilning 11-aprelida B) 1370-yilning 26-aprelida
C) 1370-yilning 12 mayida D) 1370-yilning 28-mayida

30. 1370-yil, iyul oyida …..
A) Amir Temur Shibirg'on hokimligiga yurish boshladi
B) Samarqandda qurultoy chaqirildi
C) Zinda Chashm Amir Temur xizmatiga o'tdi
D) Badaxshon va Qunduz viloyati hokimlari bo'ysindirildi

31. Qachon Hirot, Seiston, Mozandaron Amir Temur hokimiyatiga bo'ysindirildi?
A) 1371-yilda B) 1379-yilda
C) 1378-yilda D) 1381-yilda

32. Amir Temur 1372-yilda …. yurish qilib, uni egalladi.
A) Mozandaronni B) Xorazmni
C) Hirotni D) Badaxshonni

33. Amir Temur Xorazmga necha marta yurish qildi?
A) ikki marta B) uch marta
C) to'rt marta D) besh marta

34. Qachonga kelib Xorazm uzil-kesil Amir Temur tomonidan bo'ysindirildi?
A) 1378-yilda B) 1381-yilda
C) 1385-yilda D) 1388-yilda

35. Amir Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi shiddatli jang …. Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo'yida sodir bo'ldi.
A) 1389-yil 10-mayda B) 1391-yil 16-aprelda
C) 1395-yil 15-aprelda D) 1395-yil 18 avgustda

36. Qaysi Rossiya tarixchilarining ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi?
A) B.D.Grekov va A.Yu.Yakubovskiylar
B) V.P.Nalivkin va V.V.Bartoldlar
C)V.L.Vyatkin va N.I.Veselovskiylar
D) V.V.Bartold va B.D.Grekovlar

37. Amir Temur o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida qaysi hududlar ustiga uch marta yurish qildi?
A) Hisor, O'tror, Yassi(Turkiston) va Sayramga
B) Hirot, Seiston va Mozandaronga
C) Saraxs, Jom va Sabzavorga
D) Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya)ga

38. Amir Temur Usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabatni yaxshilash tarafdori bo'lib, ziddiyatlarni diplomatik yo'l bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o'rtasida ……. xat almashish tashabbuskori bo'lgan.
A) 3 marta B) 4 marta C) 5 marta D) 6 marta

39. Amir Temur uch yillik (1386-1388) harbiy yurishlari natijasida qaysi hududlarni egalladi?
A) Eron(Fors), Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy

qismi, Gurjiston va Armanistondagi(Van ko'li atrofidagi)
yerlar
B) Eron, Ozarbayjon, Shom(Suriya) va Iroqi Ajam hududlari
C) Shimoliy Xorazm, Hirot, Seiston va Mozandaron
hududlari
D) Yassi(Turkiston), Hisor va Sayram hududlari

40. Amir Temur besh yillik (1392-1396) urushi davomida qaysi hududlarni egalladi?
A) Iroqi Ajam, Seiston va Sabzavorni
B) G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni
C) Mozondaron, Janubiy Eron va Hirotni
D) Gurjiston, Shom(Suriya) va Seistonni

41. Amir Temurning yetti yillik yurishlari qaysi yillarni o'z ichiga oladi?
A) 1392-1399-yillarni B) 1393-1400-yillarni
C) 1399-1401-yillarni D) 1399-1404-yillarni

42. Tarixda "Anqara jangi" deb atalgan Amir Temur va Sulton Boyazid qo'shin-lari o'rtasidagi hal qiluvchi jang qachon sodir bo'ladi?
A) 1401-yilning 12-mayida B) 1401-yilning 20-dekabrida
C) 1402-yil 20-iyulda D) 1402-yil 18-sentabrda

43. Uch kun davom etgan "Anqara jangida "har ikki tomodan ….. askar qatnashadi.
A) 200 ming B) 260 ming C) 300 ming D) 360 ming

44. Amir Temur salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohi bo'lmish qaysi shaharni zabt etadi?
A) Anqara B) Antaliya C) Izmir D) Anado'li

45. Amir Temur qachon 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoyga safarga chiqadi?
A) 1404-yilning 16-sentabrida
B) 1404-yilning 27-noyabrida
C) 1404-yilning 21-dekabrida
D) 1405-yilning 14 yanvarida

46. Sohibqiron Amir Temir nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysindirilgan mamlakatlarning …… kabi shaharlarini ham qayta qurdirdi.
A)Bog'dod, Darband va Baylakon
B)Hirot, Seiston va Damashq
C)Baylakon, Damashq va Hala
D)Darband, Bog'dod va Hirot

47. Boyazid ustidan qozonilgan g'alaba bilan Amir Temurni ….. tabriklab unga o'z muboraknomalarini yubordi.
A)Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422),Angliya qiroli Genrix IV
(1399-!413) hamda Venetsiya qiroli Anton III (1385-1407)
B)Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422),Angliya qiroli Genrix IV
(1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III
(1390-1407)
C) Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413), Konstantinopol noibi
Ioann VII Palelog
D) Genuyaning Perudagi hokimi va Venetsiya hokimlari

48. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda yana qanday nomlar bilan ulug'langan?
A) "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl" –Adolat sohibi
B) "Xalqparvar" va "Odil sohib"
C) "Adolatpesha" va "Sohibi jahon"
D) "Haqgo'y podsho" va "Saxovatpesha"

49. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi necha idoradan iborat bo'lgan?
A) ikkita B) uchta C) to'rta D) beshta

50. Amir Temur davlati ijroiya hokimiyatida ….. faoliyat yuritgan.
A) harbiy vazir, qishloq xo'jaligi vaziri, mulkchilik vaziri
B) harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, saroy
xarajatlari- moliya vaziri
C) moliya vaziri, tashqi aloqalar vaziri va harbiy vazir
D) mulkchilik va soliq ishlari vaziri va tashqi aloqalar vaziri

51. Devonda sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana …… bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.
A) uch vazir B) ikki nafar noib
C) to'rt nafar kotib D) besh nafar hojib

52. Amir Temur o'limidan biroz avval o'g'il va nabiralari orasida Movarounnahrdan tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni taqsimlab, ….. Mirzo Umar ibn Mironshohga berdi.
A) Xuroson, Mozandoron, Ray va Seistonni
B) Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha
C) Ozarbayjon, G'arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni
D) Toshkent, Sayram, O'tror va Ashparadan to Xitoygacha

53. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida inom qiladi. Ulug'bekka qayerlar beriladi?
A) Samarqand, Qarshi, Kobul va Qandahor teritoriyalari
B) Toshkent, Sayram, O'tror va Ashparadan to Xitoy
chegarasigacha bo'lgan hududlar
C) Farg'ona, Tarozdan to Xo'tangacha bo'lgan hududlar
D) Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Sharqiy Turkiston
hududlari

54. Amir Temur hukmronligi davrida ulus hukmdorlarining markaziy hokimiyatga tobeligi nimada edi?
A) juma nomozida o'qiladigan xutbada hukmdorning nomini albatta qayd etish
B) yig'ilgan xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashib yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi
C) har yili ming bosh ot va besh ming qo'y miqdorida xiroj to'lab turgan
D) har uch oyda Bosh vazirga ulusdagi holat haqida hisobot bergan

55. Amir Temur hukmronligi davrida askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan qanday mansabdagi amaldorlar shug'ullangan?
A) aylboshi B) yasovul C) tavochi D) xushunboshi

56. Amir Temur hukmronligi davrida biron qo'shinni yenggan biror mamlakat yoki viloyatni zabt etgan amir ……
A) biron tumanning noibligi bilan siylangan
B) bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan
C) minglik bo'linmaning boshligi bo'lgan va unga yer-mulk in'om etilgan
D) o'n minglik qo'shin boshliqligi lovozimiga tayinlanib unga biron sarhadning noibligi berilgan

57Amir Temurning harbiy yurishari paytida oldinda kimlar borardi?
A) yasavul bo'linmasi B) avangard qismi
C) xabarchilar D) manglay qism

58.Amir Temur Ibrohim Sultonga qayerlarni suyurg'ol qilib berdi?
A) Farg'ona,Tarozdan to Xo'tangacha, ya'ni Sharqiy Turkistonning janubi-g'arbini
B) Qashqar, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hudularini
C) Toshkent, Sayram, O'tror va Ashpara hududlari
D) Toshkent, Sayram, Qashqar va Yettisuv hududlari

59. Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning harbiy qo'shinining tuzilishi to'g'risida nima deb yozadi?
A) Amir Temur zahira (rezerv) qismni birinchi bo'lib tuzdi
B) qo'shinni yetti qo'lga –qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib joriy qilgan
C) qo'shinda avangard qismni birinchi bo'lib tuzdi
D) qo'shinda yasovul qismidan birinchi bo'lib foydalandi

60. Amir Temur kimlarning tarixini chuqur bilgan?
A) turk, afg'on va eronliklar B) arab, turk va hindlar
C) turk, arab va eronliklar D) eronliklar va hindlar

61. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy sa'nati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan qanday maxsus asar yaratilgan?
A) "Temur tarixi" B) "Temur tuzuklari"
C) "Kuch adolatda D) "Harbiy yurishlar"

62. Amir Temur qurdirgan qaysi imoratning koshinkor va parchinkor peshtoqining guldor naqshlari orasiga "Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang bizning imoratlarimizga boq" degan xitobnoma bitilgan?
A) Ko'ksaroyning B) Bo'stonsaroyning
C) Oqsaroyning D) Ahmad Yasaviy maqbarasining

63. Samarqand shahri tevaragi ….. nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi.
A) Chorsu, Korizgoh, Feruza, Registon, Oxanin va Qo'shhovuz
B) Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangoron va Feruza
C) So'zangoron, Chorsu, Qorabog', Korizgoh, Oxanin va Degrezon
D)Shayxzoda, Zomin, So'zangoron, Feruza, Korizgoh va Nomozgoh

64. Shahar arkida Amir Temur qanday qarorgohlarni qurdirdi?
A) Oqsaroy va Bog'i Dilkusho B) Ko'ksaroy va Bog'ishamol
C) Bog'i Dilkusho va Bog'ishamol
D) Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy

65. Amir Temur Samarqand atrofida ko'pgina bog'lar qurdiradi. Ular tuzilishiga ko'ra necha turga bo'lingan?
A) 2 turga B) 3 turga C) 4 turga D) 5 turga

66. Amir Temur qurdirgan bog'ning qaysi biri uch hovlidan iborat bo'lib, unda Amir Temur Klavixoni ana shu bog'da qabul qilgan?
A) Bog'i Bihisht B) Bog'i Shamol
C) Bog'i Dilkusho D) Bog'i Maydon

67. Qaysi yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratga qolgan edi?
A) 1402-1403-yillarda B) 1403-1404-yillarda
C) 1401-1403-yillarda D) 1404-1405-yillarda

68. Amir Temur qurdirgan bog'larning qaysi birida u mehmonlarni qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo'lgan?
A) Bog'i Chinorda B) Bog'i Dilkushoda
C) Davlatobodda D) Bog'i Jahonnomada

69. Amir Temur harbiy ishlarida birinchi bo'lib qo'shinlarini qanday tartibda joylashtirishni joriy qildi?
A)o'ng va so'l qanotlarga B)markaz, burong'or va juvong'orga
C)markaz, manglayga
D)yetti qo'lga –qismga bo'lib joylashtirgan

70. Amir Temur davlatining poytaxti Samarqand atrofida Sharqning mashhur shaharlari nomi bilan atalgan qanday qishloqlarni barpo etdi?
A) Damashq, Qohira, Bog'ishamol, Sultoniya
B) Damashq, Misr (Qohira), Bog'dod, Sultoniya, Sheroz
C) Sheroz, Dahbed, Charxin, Damashq, Misr
D) Dahbed, Damashq, Misr, Sheroz, Forish

71. Amir Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, bo'lajak to'qnashuvda qayerlarning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi?
A)Genuya va Venetsiya B)Trapezund va Konstantinopolning
C)Angliya va Kastiliya D)Venetsiya va Kastiliya

72. Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi qanchadan harbiy kemalar bilan yordam berish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar?
A) 15 tadan 30 ta B) 20 tadan 40 ta
C) 25 tadan 50 ta D) 30 tadan 50 ta

73. Amir Temur qachon Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo'lladi?
A) 1402-yilning bahorida B) 1402-yilning yozida
C) 1403-yil yozida D) 1403-yil kuzida

74. Amir Temur elchilari qachon Parijga yetib boradilar?
A) 1402-yilning sentabrida
B) 1402-yilning noyabrida
C) 1403-yilning mayida
D) 1403-yilning avgustida

75. Qachon Fransiya qiroli Karl VI Amir Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Amir Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bian qabul qilingan?
A) 1402-yil 20-mayda
B) 1402-yil 16-sentabrda
C) 1403-yil 12- martda
D) 1403-yil 15-iyunda

76. G'arbda "katolik dining homiysi" sifatida shuhrat topgan temuriyzodani ayting?
A) Umarshayx Mirzo B) Mironshoh
C) Shohruh D) Pirmuhammad

77. Amir Temur Ispaniyaga elchi sifatida kimni yubordi?
A) Abdurazzoq Samarqandiyni
B) Mironshohni
C) Muhammadqozini
D) Muhammad qovchinni

78. "Buyuk Temur tarixi" va "Temur qarorgohi", "Samarqandga sayohat kundaligi" nomli asarlarni kim yozgan?
A) Ibn Arabshoh
B) Sharofiddin Ali Yazdiy
C) Genrix III de Trastamara D) Klavixo

79. Klavixo o'z kundaligida Samarqandga qayerdan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini qayd etgan?
A) Xalifalik poytaxti Bog'doddan
B) Xitoy poytaxti Xonbaliqdan
C) Kiyev Rusidan
D) Angliya poytaxti Londondan

80. Xalil Sulton Mirzo qachon o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi?
A) 1405-yilning 18-fevralida
B) 1405-yilning 28-fevralida
C) 1405-yilning 11-martida
D) 1405-yilning 18-martida

81. Taxt vorisi Pirmuhammad qachon vazir Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'ladi?
A) 1406-yilning 14-mayida
B) 1406-yilning 24-noyabrida
C) 1407-yilning 22-fevralida
D) 1407-yilning 8-mayida

82. 1408-yil 22-aprel kuni Qoraquyunli turkmanlarining qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ladi. Natijada ….. temuriylar qo'lidan ketadi.
A) Ozarbayjon va Iroq B) Gurjiston va Armaniston
C) Fors va Iroqi Ajam D) Halab va Seiston

83. 1409-yil bahorida kim O'ratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi?
A) Pirmuhammad B) Amir Xudaydod
C) Umarshayx Mirzo D) Sulton Husayn Mirzo

84. Qachon Shohruh Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi?
A) 1409-yil 22-fevralda B) 1409-yil 12-martda
C) 1409-yil 25-aprelda D) 1409-yil 18-mayda

85. Ulug'bek garchi Movarounnahr bilan Turkiston hokimi deb e'lon qilinsada, aslida uning hokimiyati dastavval faqat …… cheklanardi.
A) Samarqand, Buxoro va Nasaf
B) Samarqand, Nasaf, Termiz
C) Samarqand, Farg'ona va Toshkent
D) Samarqand, Buxoro va Termiz

86. Kim 1410-yilda Muhammad Jahongir, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi Amir Abduxoliq hamda oq o'rdalik xonzodalardan Chingizxon o'g'lonlar bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi?
A) Amirak Ahmad B) Shayx Nuriddin
C) Abu Bakr Mirzo D) Xudoydod Husayniy

87. Movarounnahr va Turkistonni boshqarish necha yoshida to'liq Ulug'bek qo'liga o'tadi?
A)14 yoshida B)16 yoshida C)18 yoshida D)20 yoshida

88. Qachon Ulug'bek Farg'ona va Koshg'arni egallaydi?
A) 1412-yilda B) 1413-yilda
C) 1414-yilda D) 1415-yilda

89. Qachon Shohruh tomonidan Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olinadi?
A) 1409-yilda B) 1411-yilda
C) 1413-yilda D) 1415-yilda

90. Ulug'bek qayerda boshlangan o'zaro nizoga hamda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi?
A) Dashti Qipchoqda va Mo'g'ulistonda
B) Oltin O'rda va Mo'g'ulistonda
C) Oq O'rda va Dashti Qipchoqda
D) Xurosonda va Oltin O'rdada

91. Ulug'bek otasining rizosi bilan qachon Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi?
A) 1415-yilning bahorida B) 1425-yilning bahorida
C) 1428-yilning kuzida D) 1435-yilning kuzida

92. Ulug'bek Mo'g'uliston ustidan erishgan g'alabsini o'ziga xos "Zafarnoma"ni qayerga yozdirgan?
A) Jizzax yaqinida Ilono'tti darasidagi qoyatoshga
B) Forish yaqinidagi Ilonlisoy darasidagi qoyatoshga
C) G'allaorol yaqinidagi tog'dagi qoyatoshga
D) Jizzax yaqinidagi Sanzarsoydagi qoyatoshga

93. Shohruh qachon, kimni isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida o'rniga voris belgilashga ulgurmay olamdan o'tadi?
A) 1446-yil 10-fevralda Shayx Nuriddin isyonini
B) 1447-yil 12-martda nevarasi Sulton Muhammad isyonini
C) 1447-yil 16-aprelda nevarasi Alouddavla isyonini
D) 1448-yil 12- mayda nevarasi Abulqosim Bobir isyonini

94. 1448-yilning bahorida Ulug'bek va Abdulatifning necha kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi?
A) 40 ming kishilik
B) 60 ming kishilik
C) 75 ming kishilik
D) 90 ming kishilik

95. Abdulatif, garchi bobosi Shohruhning Hirotdagi taxtiga o'tirishga muyassar bo'lsa-da, ammo unda otasiga nisbatan adovatning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?
A) Oliy hokimiyatga bo'lgan intilish orzusi
B) Abdulatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olinib, I
xtiyoriddin qa'lasidagi xazina Ulug'bek tomonidan olib
qo'yilgani
C) Balx viloyatini Ulug'bek Abdulazizga berganligi sabab
D) G'azna va Qandahor hududlarini unga berilmaganligi

96. Abdulatif Hirotda bor yo'g'i ….. hokimlik qiladi.
A) on'besh kun
B) yigirma ikki kun
C) yigirma sakkiz kun
D) o'ttiz ikki kun

97.Abulqosim Bobur qo'shinidan yengilgan Abdulatifni Ulug'bek qayerga noib qilib tayinlaydi?
A) Balxga B) Qandahorga
C) Seistonga D) Kobulga

98. 1449-yil oktabrda qayerda Abdulatif va Ulug'bek o'rtasida qattiq jang bo'ladi va bu jangda Ulug'bek yengiladi?
A) Damariq qishlog'ida
B) Damashq qishlog'i yaqinida
C) Bog'dod qishlog'ida
D) Dahbed qa'lasi yaqinida

99. Samarqand amiri kim shahar darvozalarini berkitib, Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi?
A) Amir Qutbiddin B) Idiku Sulton
C) Mironshoh Qovchin D) Amir Sayfiddin

100.Kimning qarshiligiga qaramasdan, Abdulatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqarib, otasini o'ldirilishini uyushtiradi?
A) Mironshoh Qavchinning
B) Shamsiddin Muhammad Miskinning
C) qozi Shaxobiddinning
D) Amir Sayfiddinning

102. Mashhur olim va hukmdor Mirzo Ulug'bek qachon Samarqand yaqinida fojeali sifatida halok bo'lgan?
A) 1449-yil 23-mayda
B) 1449-yil 26-iyunda
C) 1449-yil 20-avgustda
D) 1449-yil 27-oktabrda

102. Qaysi yili Abulxayrxonning yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrga hokim bo'lib oladi?
A) 1449-yilda B) 1450-yilda
C) 1451-yilda D) 1452-yilda

103.Qachon Abu Said Hirot taxtini egallaydi va saltanatning ikki qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi?
A) 1454-yilda B) 1455-yilda
C) 1456-yilda D) 1457-yilda

104. Qachon Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida tantana bilan Hirotga kirib boradi?
A) 1467-yil 12-fevralda
B) 1468-yil 16-martda
C) 1469-yil 24-martda
D)1469-yil 28-mayda

105. 1469-yilga kelib Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga:Sulton Husayn hukmronligidagi

Xuroson va Abu Said o'g'li …… hukmronligidagi Movarounnahrga bo'linib ketadi.
A) Sulton Ahmad B) Sulton Mahmud
C) Sulton Ali D) Sulton Abdulla

106. 1454-yilda Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrga bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganda …… mojaroga qat'iyan aralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi.
A) Xoja Abulmakarim
B) Xoja Ubaydulloh Ahror
C) Xoja Muhammad Islom
D) Xoja Mahdumi A'zam

107. Temuriylardan qariyb qirq yil hukmronlik qilgan so'ngi yirik hukmdorni ayting?
A) Abu Said
B) Bobur Mirzo
C) Sulton Ahmad
D) Sulton Husayn Bayqaro

108. Sulton Husayn Hirotni egallagach, Navoiyni o'z huzuriga taklif etib, unga qanday lavozimni taklif etadi?
A) eshik og'asi B) muhrdorlik
C) devonbegi D) vazir

109. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda qayerga suv chiqarilib yangi yerlar o'zlashtiriladi?
A) Qashqadaryo vohasidagi Kitob hududlariga
B) Marv shahri atrofidagi hududlarga
C) Buxoro vohasining janubiy-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga
D) Jizzax teritoriyasidagi katta hududlarga

110. Alisher Navoiyning tashabbusi bilan ….. quriladi.
A) Murg'ob vohasida suv ombori
B) Tus viloyatining yuqori qismida Turuqband suv ombori
C) Mashhad suv ombori
D) Marviruddan yangi kanal

111. Turuqband suv omborining qurilishi natijasida qayer suv bilan ta'min etilib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi?
A) Mashhad B) Hirot
C) Balx D) Marv

112. Temuriylar hukmronligi davrida sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan soliq qanday atalgan?
A) tanobona B) xiroj
C) ushr D) zakot

113. Temuriylar davrida asosiy soliqlardan tashqari mehnatkash aholi ……. ishlarida ham qatnashganlar.
A) obxo'ra qazu B) begor
C) hachi D) otlanuv

114. XV asrda mulk yerlarining bir qismidan olinadigan soliq qanday nom bilan yuritilgan?
A) "dudong" B) "mol"
C) "ushr" D) "moli sardaraxt"

115. XV asrda peshtoq-u ravoq, hamda toqlariga parchin va girxlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar qanday nom bilan yuritilgan?
A)"ganchkor" B)"ustod"
C)"naqshinkor" D)"suvoqchi"

116. XV asrda kasblariga ko'ra g'isht terib imorat qiluvchi ustalar qanday nom bilan yuritilgan?
A) "binokor" B) "ustoz"
C) "banno" D) "quruvchi"

117. Xuroson hukmdori Shohruhning 1418-yilda Xitoyga yuborgan elchilariga kim boshchilik qilgan?
A) Sultonshoh B) Ardasher
C) Amir Ko'kcha D) Shodihoji

118. Kermon, Xurmuzd va Fors qo'ltig'i or-qali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldirgan Shohruhning elchisi kim edi?
A) G'iyosiddin Naqqosh B) Sayid Hasan Ardasher
C) Abdurazzoq Samarqandiy D) Amir Ko'kcha

119. 1420-yilda Shohruh va Ulug'bekning necha nafardan iborat elchilik karvoni Xitoyga jo'natildi?
A) 280 nafar B) 320 nafar
C) 470 nafar D) 530 nafar

120. Mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy qachon, kimning elchisi sifatda Hindistonga Viyajanagar saroyiga boradi?
A) 1441-1442-yillarda Shohruh elchisi sifatida
B) 1421-yilda Shohruh elchisi sifatida
C) 1420-yilda Shohruh va Ulug'bek elchisi sifatida
D) 1495-yilda Husayn Bayqaroning elchisi sifatida

121. XV asrda Movarounnahr xalqi orasida "fulusi adliya", ya'ni "adolatli chaqa" nomi bilan shuhrat topgan mis fuluslar-ning islohatini kim amalga oshirdi?
A) Shohruh B) Ulug'bek
C) Abu Said D) Sulton Husayn Bayqaro

122. Qaysi yili Ulug'bek muomiladagi fulusiy pullar islohatini amalga oshirdi?
A) 1418-yilda B) 1425-yilda
C) 1428-yilda D) 1435-yilda

123. Qaysi yili Shohruh va Ulug'bek elchila-riga javoban Li-Do va Jang-Fu Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar?
A) 1418-yilda B) 1419-yilda
C) 1420-yilda D) 1422-yilda

124. Ulug'bek qaysi yili G'ijduvonda madrasa qurdiradi?
A) 1417-yilda B) 1420-yilda
C) 1429-yilda D) 1433-yilda

125. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi …..
A) ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan
B) uch qavatli, yetmish hujrali bo'lgan
C) ikki qavatli, oltmish hujrali bo'lgan
D) uch qavatli, yuz hujrali bo'lgan

126. Ulug'bek qurdirgan …… darvozasiga "Bilim olish har bir musulmon ayol va erkaklarning burchidir" degan so'zlar o'yib yozib qo'yilgan,
A) Samarqand madrasasining
B) Buxoro madrasasining
C) G'ijduvon madrasasining
D) Qarshi madrasasining

127. Samarqand madrasasi ochilgan kuni birinchi darsni kim o'qigan, darsda tolibi ilmlardan to'qson nafari qatnashgan?
A) Qozizoda Rumiy
B) Alouddin Ali Qushchi
C) Shamsiddin Muhammad Havofiy
D) Mirzo Ulug'bek

128. Kim boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi ulkan sekstant o'rnatilgan?
A) G'iyosiddin Jamshid
B) Qozizoda Rumiy
C) Ali Qushchi
D) Muhammad Havofiy

129. Zamondoshlari tomonidan "Aflotuni zamon" nomi bilan shuhrat topgan qaysi allomani bilasiz?
A) Qozizoda Rumiy B) Ali Qushchi
C) Muhammad Havofiy D) Ulug'bek

130. Samarqand akademiyasi " Dorul ilm" ga qachon asos solingan?
A) 1420-yilda B) 1428-yilda
C) 1429-yilda D) 1433-yilda

131. O'rta asrda "O'z davrining Ptolomeyi" nomi bilan shuhrat topgan qaysi allomani bilasiz?
A) Qozizoda Rumiy
B) G'iyosiddin Jamshid
C) Ali Qushchi
D) Muhammad Havofiy

132. Ulug'bek "Ziji jadidi Ko'rogoniy"dan tashqari yana qanday tarixiy asar yaratgan?
A) "To'rt ulus tarixi" B) "Chingiziylar tarixi"
C) "Movarounnahr tarixi" D) "Samarqand tarixi"

133. Ulug'bek musiqa ilmiga bag'ishlangan nechta risola yozgan?
A) ikkita B) uchta
C) to'rtta D) beshta

134. Kim "Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashga buyurdi va astranomiya jadvallarini tuzishda ishtirok etdi" deb yozgan edi?
A) fransuz faylasufi va tarixchisi Volter
B) arab tarixchisi Ibn Arabshoh
C) rus tarixchisi I.V.Bartold
D) rus arxeologi N.V.Vyatkin

135.Qaysi mashhur xattot nastaliq deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qilgan?
A) Mirali Tabriziy
B) Sultonali Mashhadiy
C) Komil Xorazmiy
D) Sultonmurod

136. Hirotda Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kitobxonasida ……… qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan.
A) yigirmata xattot va naqqoshlar
B) qirqta xattot va bir qancha naqqoshlar
C) o'ttizta xattot va o'nta naqqosh
D) o'n beshta xattot va o'n beshta naqqosh

137. Qachon Boysung'ur kitobxonasida Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" dostoni ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniaturalar bilan bezatilgan?
A)1422-yilda B)1424-yilda
C)1426-yilda D)1429-yilda

138. "Qiblat ul-quttob" (Kotiblar qiblasi) va "Sulton ul-xattotin" (Xattotlar sultoni) nomi bilan shuhrat topgan xattotni aniqlang?
A) Mir Ali Qilqalam
B) Sultonali Mashhadiy
C) Mir Ali Tabriziy
D) Sultonmurod

139. O'zbek klassik she'riyatining sultoni Alisher Navoiyning hassaga tayangan, qomati birmuncha bukchaygan holda, qarashlarida horg'inlik alomatlari ko'rinib turgan, lekin siymosida ulug'vorlik va oliyjanoblik ko'zga yaqqol tashlanib turgan portretining avtori qaysi musavvir bo'lgan?
A) Kamoliddin Bekzod
B) Mirak Naqqosh
C) Mahmud Muzahhib
D) Shohmuzaffar

140. Zamondoshlari tomonidan "Ikkinchi Moniy" nomini olgan XV asr tasviriy sa'natining ulug' namoyondasi kim edi?
A) Shohmuzaffar B) Mirak Naqqosh
C) Kamoliddin Behzod D) Qosim Ali

141. "Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli ravon", "Usuli otliq" kabi kuylarni ijod qilgan tarixiy shaxsni aniqlang?
A) Alisher Navoiy
B) Mirzo Ulug'bek
C) Abdurahmon Jomiy
D) Ali Qushchi

142. O'zbek she'riyatining sultoni Alisher Navoiy ….. yirik badiiy asarlar yozgan.
A) o'ndan ortiq B) yigirmaga yaqin
C) yigirma beshta D) o'ttizdan ortiq

143. Zamonasining iste'dodli shoirlaridan kim tarixni bilishning ahamiyati katta ekanini ta'riflab, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi?
A) Alisher Navoiy
B) Abdurahmon Jomiy
C) Haydar Xorazmiy
D) Lutfiy

144. Amir Temur va Husayn o'rtasida munosabatlari keskinlashishi natijasida …… davomida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar bo'lib o'tdi/
A) 1360-1366-yillar
B) 1362-1365-yillar
C) 1364-1368-yillar
D) 1366-1370-yillar

145. Qachon Amir Temur 200 minglik qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqadi?
A)1403-yil 18-fevralda
B) 1403-yil 23-oktabrda
C) 1404-yil 27-noyabrda
D) 1404-yil 26-dekabrda

146. Sohibqiron Amir Temur 1402-yil yozida ……
A) Boyazid Yeldirimga qarshi yurishini boshlaydi
B)Fransiya va Angliiyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va
Genrix IV nomlariga maktublar yollaydi
C) Xitoy elchilarini kutib oladi
D)Bog'I Dilkushoni qurdiradi

147. Qachonga kelib beqaror siyosiy vaziyat tufayli temuriylar saltanati inqirozga yuz tutdi?
A) XIV asrning oxirida
B) XV asrning birinchi yarmida
C) XV asrning ikkinchi yarmida
D) XVI asrning birinchi yarmida

148. 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi……
A) Ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan
B) uchi qavatli, yetmish hujrali bo'lgan
C)to'rt qavatli, oltmish hujrali bo'lgan
D) uch qavatli, yuz hujrali bo'lgan

149. O'rta asrlarda Samarqandning qaysi mavzei "Naqshi jahon" degan nom bilan shuhrat qozongan
A) Registon maydoni
B)Rasadxona joylashgan hudud
C) Siyob bozori joylashgan hudud
D) Shohizinda majmui atroflari

150. Quyidagi kuylardan qay birini Navoiy ijod qilgan?
A) "Shodiyona" B) "Tabriziy"
C) "Isfahoniy" D) "Bulujiy"

# III BO'LIM. XVI -XIX ASRNING BIRINCHI YARMI

## 1-mavzu: Movorounnahr shayboniylar hukumronligi davrida

1, Qachon Xuroson hukmdori Shohruh vafot etdi va toj-u taxt uchun kurash avjga chiqdi?
A) 1442-yilda B) 1445-yilda C) 1447-yilda D)1449-yilda

2. 1469-yilda Amir Temurning ……. Sulton Husayin Bayqoro Xuroson taxtini egalladi.
A) ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi
B) birinchi o'g'li Jahongirning nabirasi
C) uchunchi o'g'li Mironshohning nabirasi
D) to'rtinchi o'g'li Shohruhning nabirasi

3. Qachon Sulton Husayn Bayqoro vafot etgach Xurosonda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi?
A) 1502-yilda B) 1504-yilda C) 1506-yilda D) 1508-yilda

4. Qachon Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, hokimyat 11 yoshli Bobur Mirzo qoliga o'tadi?
A) 1491-yilda C) 1492-yilda C) 1493-yilda D) 1494-yilda

5. Qaysi tarixchi temuriylar saltanatidagi toju-taxt uchun bo'lgan kurashlarga tarif bera turub, "Hamma bir-biridan qo'rqar edi. O'zlaricha shohlik talab qilib mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar" degan edi?
A) Biniy B) Xondamir C) Mirxond D) Muhammad Solih

6. Qachon Abulxayrxon Xoramni bosib oladi
A) 1430-yilda B) 1431-yilda C) 1433-yilda D) 1446-yilda

7. Qachon Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan shaharlar-Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan va Sig'noqni bosib oladi?
A) 1431-yilda B) 1438-yilda C) 1446-yilda D) 1448-yilda

8. 1503-yilda Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan …. egallandi
A) Farg'ona va O'ratepa hududlari
B) Andijon va Xo'jand shaharlariC) Xorazm va Balx hududlari
D) Toshkent va Shohruhiya shaharlari

9. Qachon Abulxayrxon II qo'shinlari Balxni egallaydi?
A) 1572-yilda B) 1574-yilda C) 1578-yilda D) 1580-yilda

10. Shayboniylar sulolasining qaysi vakili davrida o'zbek davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oladi?
A)Muhammad Shayboniyxon B) Pirmuhammadxon
C) Iskandarxon D) Abdulaxon II

11. Shayboniy Pirmuhammadxon bilan ashtarxoniylar Jonibek Sultonning o'g'li Boqimuhammad o'rtasida 1601-yilda qayerda jang bo'lib o'tdi?
A) Buxoro yaqinidagi G'ijduvonda
B) Samarqand yaqinidagi Bog'I shamol mavzeyida
C) Toshkent yaqinidagi Zangiota mavzeyida
D) Miyonqolning Uchqora mavzeyida

12. Qaysi yillar oralig'ida Zarafshon daryosida Karmana, Mehtar, Chorminor, Jondor suv ayirg'ichlari: Nurota tog'ida Oqchob, Murg'ob vohasida Hovuzixon suv omborlari qurilgan?
A) 1546-1575-yillar B) 1552-1580-yillar
C) 1556-1585-yillar D) 1558-1588-yillar

13. Qachon Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi Abdullaxon timi qurildi?
A) 1572-yilda B) 1575-yilda C) 1577yilda D) 1579-yilda

14. Shayboniylar davlatida xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan qanday mansabdagi amaldor shug'ullangan?
A) ko'kaldosh B) xon yasavuli C) otaliq D) parvonachi

15. Shayboniylar davlatida qaysi lavozimdagi shaxs dargoh xavsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan shug'ullangan?
A) shig'ovul B) xon yasavuli
C) eshikog'aboshi D) bakavulboshi

16. Manbalarda takidlanishicha, qaysi shayboniyzoda bilan Usmonli turk sultoni Boyazid II o'rtasida shartnoma tuzilgan?
A) Muhammad Shayboniyxon B) Ubaydullaxon
C) Abdullaxon D) Pirmuhammad

17. Qaysi shayboniyzodaning qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan?
A) Buxoro hokimi Temur Sultonning
B) Balx hokimi Pirmuhammadxonning
C) Toshkent hokimi Baroqxonning
D) Badaxshon hokimi Hamza sultonning

18. Shayboniylar hukmronligi davrida 1541-yilda ilmi tib va dori-darmonlar haqida asar yozgan qaysi olim edi?
A) Muhammad Mazid B)Qiyomiddin Shaydo
C)Shohali ibn Sulaymon
D)Muhammad Husayn Samarqandiy

19. Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiy 1550-yilda matematika va astranomiya sohasiga oid qanday asarini yozdi?
A) "Muzakkir al-ahbob" asarini B) "Hisobi amali shabaka"
C) "Risola dar ilmi hisob" D) "Vaziyat bar chahor qism"

20. Quyidagi qaysi mavlono tomonidan 1517-yilda "Risola dar muaddili qamar" (oy fazolarining tengligi haqida risola) asari yozilgan?
A) Tursun Zominiy
B) Mirza Muhammad Haydar
C) Muhammad ibn Ahmad Foriziy
D) Hofiz Ko'hakiy

21. Ubaydulloh Kahhol ibn Muhammad Yusuf qaysi hukmdorning buyrug'I bilan 1598-yilda "Shifo ul-ilal" asarini yozadi?
A) Samarqand hokimi Temur Sultonning
B) Balx hokimi Pirmuhammadxonning
C) Toshkent hokimi Darvishxonning
D) Buxoro hokimi Iskandarxonning

22. Shayboniylar davrining yetuk tarixchisi,mantiq,fiqh,kalon ilmlari olimi bo'lgan Hofiz Ko'hakiyni qaysi davlat hukmdori vazirlik vazifasiga taklif qiladi?
A) Eron hukmdori shoh Abbos I
B) Usmonli Turk davlati sultoni
C) Boburiy davlati hukmdori Akbarshoh
D) Shayboniy Abdullaxon

23.XVI asr o'rtalarida Buxoroga kelgan qaysi davlat elchisi "Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki ularning misli dunyoda yo'qdir, " deb yozadi?
A)Hindiston elchisi Varman Puri
B) Usmonli Turk sultonligi elchisi
C) Rossiya elchisi Antoniy Jenkinson
D) Buyuk Britaniya elchisi Jeyms Ebbot

24. Shohruh vafotidan keyin Xuroson davlati necha qismga bo'linib ketdi?
A) olti qismga B) sakkiz qismga
C) o'n bir qismga D) o'n to'rt qismga

25. 1469-yilda Xuroson taxtini kim egalladi?
A) Abulqosim Bobur B) Sulton Husayn Boyqaro
C) Abusaid Mirzo D) Badiuzzamon

26. Salkam 40 yil hukmronlik qilgan so'nggi temuriyzodani aniqlang?
A) Sulton Abusaid B) Zahiriddin Bobur
C) Shohruh Mirzo D) Sulton Husayn Boyqaro

27. XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga kim chiqqan edi?
A) Muhammad Shayboniyxon B) Bobur Mirzo
C) Sulton Husayn Boyqaro D) Abu Said

28. Bobur Mirzo yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini boshqarishda unga kimlar yordam bergan?
A) ishonchli beklardan Hojiqozi va onasi Qutlug' Nigorxonim
B) amakisi Sulton Ahmad Mirzo va onasi Qutlug' Nigorxonim
C) ishonchli beklardan Uzun Hasan va Ahmad Tanballar
D) Jahongir Mirzo va buvisi Davlatshohbegim

29. Qaysi yilda Xurosonda qo'sh hokimiyatchilik vujudga keldi?
A) 1457-yilda B) 1469-yilda C) 1506-yilda D) 1509-yilda

30. Bobur Mirzo Amir Temurning ….. chevarasi edi.
A) birinchi o'g'li Jahongirning
B) ikkinchi o'g'li Umarshayxning
C) uchinchi o'g'li MironshohningD) tortinchi o'g'li Shohruhning

31. Qachon Bobur Mirzoning amakisi Sulton Ahmad Mirzo Farg'ona ustiga yurish boshladi?
A) 1493-yilda B) 1494-yilda C) 1495-yilda D) 1496-yilda

32. Umarshayx Mirzoning otasi Abu Said Mirzo hukmronligi davrida, dastlab, qayerda, song Farg'ona viloyatida hukmdor etib tayinlagan?
A) Qandahor viloyatiga B) Toshkent va Sayramga
C) Kobul viloyatiga D) Fors viloyatiga

33. 1495-yilning yanvarida Samarqand taxtiga ……
A) Sulton Mahmudxon o'tqaziladi
B) Boysung'ur Mirzo o'tqaziladi
C) Sulton Ali Mirzo o'tqaziladi
D) Sulton Ma'sud mirzo o'tqaziladi

34. Qachon Bobur Mirzo ikkinchi marta Samarqandga yurish boshlaydi va ikkinchi marta Samarqand qamali boshlanadi?
A) 1496-yilning 17-iyunida B) 1496-yilning 22-sentabrida
C) 1497-yilning may oyida D) 1497-yilning oktabrida
35. Bobur Mirzo qachon Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi?
A)1496-yilning 17-iyunida B) 1497-yilning may oyida
C)1496-yilning oktabr oyida D)1497-yilning noyabr oyi oxirida

36. Bobur Mirzo necha yoshida Farg'ona taxtiga o'tqaziladi?
A) 10 yoshida B) 12 yoshida
C) 14 yoshida D) 16 yoshida

37. Qachon Bobur Mirzo bilan Jahongir Mirzo o'rtasida sulh tuziladi?
A) 1497-yilda B) 1498-yilda C) 1500-yilda D) 1501-yilda

38. Bobur Mirzo va Jahongir Mirzo o'rtasidagi sulhga ko'ra Jahongir Mirzoga ……… beriladi.
A) Sirdaryoning shimoliy tarafi Axsi shahri bilan
B) Namangan va Chust teritoriyalari
C) O'zgan va Chimkent D) Qurama tog'i atroflari

39 Shayboniyxondan yordam ololmagan Boysung'ur Mirzo kam sonli qo'shini va yaqinlari bilan kimning huzuriga qochib ketadi?
A) Hirotga Husayn Boyqaro huzuriga
B) Qunduz hukmdori Xisravshoh huzuriga
C) Balx hukmdori Badiuzzamon oldiga
D) Toshkentga Mahmud Sulton huzuriga

40. Bobur Mirzo Samarqaqnd taxtini egallashi arafasida bu yerda kim hukmdor edi?
A) Sulton Ahmad B) Sulton Mahmudxon
C) Boysung'ur Mirzo D) Sulton Ali

41. Boysung'ur Mirzoning qochib ketganligini eshitgan Bobur Mirzo …… Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi.
A) 1497-yilning may oyida
B) 1497-yilning noyabr oyining oxirida
C) 1498-yilning avgust oyida D) 1498-yilning dekabr oyida

42. Qachondan boshlab arab va fors manbalarida "Dashti Qipchoq" deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi?
A) VIII asrdan B) IX asrdan C) XI asrdan D) XIII asrdan

43. "Dashti Qipchoq" atamasi qaysi hududlarga nisbatan ishlatilgan?
A) Orol bo'yi atroflaridan Yettisuv hududlarigacha
B) Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'rlaridan Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hududlarga
C) Sirdaryoning quyi oqimidan Xitoygacha bo'lgan hududlargacha
D) Amudaryo havzasidan Eron hududigacha

44. Qaysi daryo Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turgan?
A) Sibiir daryosi B) Ob daryosi
C) Ural daryosi D) Amudaryo

45. Rus manbalarida Dashti Qipchoqliklar qanday nom bilan yuritilgan?
A) "kumanlar" B) "chorniye kolobuki"
C) "tuzemsi" D) "poloveslar"

46. Vizantiya manbalarida Dashti Qipchoqliklar qanday nom bilan qayd etilgan?
A) "poloveslar" B) "kumanlar"
C) "streleslar" D) "pechenglar"
47.Abulxayrxon o'z davlatining poytaxtini qayerdan qayerga ko'chirdi?
A) Sig'noqdan O'zganga B) So'zoqdan Arquqga
C) Turadan Sig'noqqa D) Oqqo'rg'ondan O'zganga

48. Abulxayrxon tuzgan davlat necha yil yashadi?
A) 30 yil B) 40 yil C) 35 yil D) 50 yil

49. Abu Said Samarqand taxtini egallashda Abulxayrxondan yordam olganligi uchun unga minnatdorchilik tariqasida .....
A) Qunduz viloyatini in'om etdi
B) Qorako'l atroflarini tortiq qiladi
C) Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abulxayrxonga xotinlikka beradi
D) har yili 10 ming botmon bug'doy berishga rozi bo'ladi

50. "Boburnoma" asarida Shayboniyning ismi....deb berilgan.
A) Shoyboqxon B) Sheboni C) Shohibek D) Shohbaxt

51. Muhammad Shayboniy otasi Shohbudoq Sulton va onasi Qozibegimdan yoshligidan yetim qolgach, kimning oilasida tarbiyalangan?
A) Mazid Tarxon B) Qorachabek
C) Darvish Muhammad D) Sulton Ahmad

52. Muhammad Shayboniyxonga nufuzli temuriy amirlardan qay biri homiylik qiladi?
A) Darvish Muhammad B) Sulton Ahmad
C) Muhammad Ma'zid D) Boysung'ur Mirzo

53. "Boburnoma" asarida Muhammad Shayboniyning ismi Shoyboqxon deb berilgan. Bu nomning ma'nosi qanday tushuniladi?
A) "Baxtli" B) "Kuch-qudrat egasi"
C) "Epchil, baquvvat" D) "Dovyurak, kuchli"

54. Muhammad Shayboniyxon bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo'lib ketgan qabilalarni qachon birlashtirib davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi?
A) XV asrning 60-yillarida B) XV asrning 80-yillarida
C) XVI asrning 80-yillarida D) XVI asrning 40-yillarida

55. Qaysi shayboniyzoda yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasigacha ko'tarilgan tarixiy shaxsdir?
A) Muhammad Shayboniyxon B) Ubaydullaxon
C) Abdullaxon II D) Ko'chkinchixon

56. Mazid Tarxon Shayboniyning o'z hokimiyatiga xavf solishi mumkinligini anglab, uni ...... ixtiyoriga jo'natib yuborish orqali undan qutiladi.
A) Samarqand hukmdori Abu Said
B) Buxoro hokimi Darvish Muhammad Tarxon
C) Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro
D) Toshkent hokimi Mahmud Sulton

57. Qachondan boshlab Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etishga kirishdi?
A) 1497-yildan B) 1498-yildan
C) 1499-yildan D) 1500-yildan

58. Shayboniyxon urushda temuriylarni sarosimaga solib qo'yadigan qanday jang usulini qo'llagan?
A) "to'lg'ama"
B) "pistirma qo'yish"
C) "otliq qo'shindan unumli foydalanishni"
D) "poroxli miltiqdan foydalanishni"

59. Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan Toshkent va Shohruhiya shaharlari qachon egallandi?
A) 1501-yilda B) 1502-yilda
C) 1503-yilda D) 1504-yilda

60. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkamlanib olgach, qachon Urganch shahrini bosib oldi?
A) 1503-yilda B) 1504-yilda C) 1505-yilda D) 1506-yilda

61. Muhammad Shayboniyxon temuriylarga qarshi olib borgan shiddatli va beayov urushlari oqibatida qayerlarni o'z ichiga olgan hududda Shayboniylar davlatiga asos soldi?
A) Movarounnahr va Xurosonni
B) O'rta Osiyoni
C) Movarounnahr, Xuroson va Kavkazni
D) Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni

62. Qachon, qayerda bo'lgan jangda Muhammad Shayboniyxon Ismoil Safaviy qo'shinlaridan yengildi?
A) 1510-yil Samarqand yaqinida
B) 1510-yil Marv yaqinida
C) 1511-yil Gijduvon yaqinida
D) 1512-yil Hirot yaqinida

63. Bobur Mirzo Samarqand shahrini egallagach Shayboniyxonning bu yerda qoldirib ketgan necha kishilik askarini qirib tashladi?
A) 400 kishilik B) 500 kishilik C) 600 kishilik D)700 kishilik

64. Zahiriddin Muhammad Bobur 1501-yil aprelida Muhammad Shayboniyxon qo'shinlari bilan qayerda to'qnashdi?
A) Konigilda B) Saripul qishlog'i yaqinida
C) Darg'om kanali bo'yida D) Cho'pon ota tepaligida

65. Bobur Mirzo qachon Kobulga borib, hokimiyatni qo'lga kiritdi?
A) 1501-yil aprelda B) 1503-yil martda
C) 1504-yilning sentabrida D) 1505-yilning avgustida

66. Bobur Mirzoning qizlaridan ..... o'z zamonasining eng o'qimishli oqila va donishmand ayollaridan bo'lib, o'zining "Humoyunnoma" asari bilan tariximizda o'chmas iz qoldirdi.
A) Gulrangbegim B) Gulchehrabegim

C) Gulruxsorbegim D) Gulbadanbegim

67. Qachon Bobur shoh Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritadi?
A) 1500-yilning bahorida B) 1500-yilning kuzida
C) 1501-yilning kuzida D) 1502-yilning bahorida

68. Bobur Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritganida Samarqandliklar bu safar uni qo'llab-quvvatlamaydi. Buning sababi nimada edi?
A) shahar ahliga katta o'lpon solganligi
B) shoh Ismoil oliy hukmdor deb e'lon qilganligi
C) Ismoil Safaviyga 10 ming oltin pul berganligi
D) Shoh Ismoil qo'shinlarini Samarqandga kiritgani

69. Bobur Mirzo 1512-yil 28-aprelda …… bo'lgan jangda shayboniylar qo'shinidan yengilib, Hisorga chekinadi.
A) Kobulda B) Hirot yaqinida
C) Koli Malikda D) Ko'lobda

70. Qachon,qayerda bo'lgan jangda Bobur Mirzo Shoh Ismoil qo'shinlari bilan birgalikda Ubaydullo Sulton qo'shinlaridan yengildi?
A) 1512-yil 28-aprelda Koli Malikda
B) 1512-yil 16- avgustda Samarqandda
C) 1512-yil 24-noyabrda G'ijduvonda
D) 1513-yil 14-yanvarda Termizda

71. Qachon Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi?
A) 1525-yil 24-noyabrda B) 1526-yil 26-yanvarda
C) 1526-yil 21-aprelda D) 1526-yil 27-aprelda

72. Boburiylar sulolasi Hindistonda qancha vaqt hukmronlik qildi?
A) 178 yil B) 224 yil C) 332 yil D) 356 yil

73. Bobur podshohning o'zi katta mehr bilan obod qilgan …… keyinchalik Bog'i Bobur deb atala boshlangan.
A) Bog'i Orom
B) Kobuldagi "Bog'i Kalon"
C) Agradagi "Bogi Baland"
D) Hirotdagi "Bog'i Behisht"

74. Bobur tomonidan qanday asarlar yaratilgan?
A) "Boburnoma", "Mubayyin", "Turkiy devon"
B) "Turkiy devon", "Boburnoma", "Humoyunnoma"
C) "Boburnoma", "Turkiy devon", "Hindnoma"
D) "Hindnoma", "Boburnoma", "Turkiy devon"

75. "Boburnoma" asari qaysi yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi?
A) 1493-1512-yillar B) 1497-1526-yillar
C) 1501-1528-yillar D) 1493-1529-yillar

76.Bobur Mirzo kimlarning jang qilish usullarini o'rgangan?
A) shayboniylardan urushning "to'lg'ama" usulini, tatarlardan "til" tutish usulini, mo'g'ullardan "pistirma" qo'yishni
B) turklardan otliq qo'shindan unumli foydalanishni, safaviylardan "qamal qilish" usulini
C) shayboniylardan urushning "to'lg'ama" usulini , mo'g'ullardan "pistirma qo'yish", afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni o'rgangan
D) mo'g'ullardan "pistirma" qo'yishni, safaviylardan "qamal qilish" usulini, xitoylardan "naftondoz otish" usulini o'rgangan

77. "Boburnoma"da ….. xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.
A) Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Turkiya
B) Hindiston, Eron va Pokiston
C) Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Eron
D) Hindiston, Afg'oniston, Eron va Xitoy

78. Bobur Mirzoning "Mubayyin" asarida o'sha zamon …… bayon etilgan.
A) boshqaruvi
B) aholiga bo'lgan munosabat
C) davlat mansabdorlarining vazifalari
D) soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun –qoidalari

79. Qachon O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Bobur tavalludining 510-yilligi keng miqyosda nishonlandi?
A) 1992-yilda B) 1993-yilda
C) 1994-yilda D) 1995-yilda

80. Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi?
A) Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi quurildi, "Bobur milliy bog'i" va shu bog' qoshida "Bobur va jahon adabiyoti" nomli muzey tashkil etildi
B) Boburning asarlari qayta nashr etildi va ramziy qabr maqbarasi qurildi
C) Kobuldagi "Bog'i Kalondan xoki keltirilib Andijonda ramziy maqbaraga qo'yildi va "Boburnoma" asari qayta nashr qilindi
D) Afg'oniston va Hindistonga ilmiy ekspeditsiyalar uyishtirilib uning natijalari to'plam qilinib nashr etildi

81. Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rniga qaysi shayboniyzoda taxtga o'tirdi?
A) Abu Said B) Ko'chkinchixon
C) Ubaydullaxon D) Muhammad Temur

82. Qaysi shayboniyxon davrida xonlik poytaxti Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi?
A) Ko'chkinchixon B) Muhammad Sulton
C) Ubaydullaxon D) Abdullaxon II

83. Ubaydullaxon qaysi yillarda Buxoro xonligini boshqardi?
A) 1530-1533-yillarda B) 1530-1537-yillarda
C) 1533-1538-yillarda D) 1533-1540-yillarda

84. Shayboniylardan kimning hukmronligi-dan so'ng mamlakatda qo'sh hokimiyat-chilik vujudga keldi
A) Ko'chkinchixon B) Abu Said
C) Abdullaxon I D) Abdullaxon II

85. Aslzodalik va tasavvuf tariqatidagi mavqeiga ko'ra Jo'ybor Shayxlari qaysi sulola davridan boshlab davlat ishlarida muhim mansablarni egallab kelar edi?
A) shayboniylar B) somoniylar
C) temuriylar D) qoraxoniylar

86. XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda …… shayxulislom lavozimini egallagan edilar.
A) Mahdumi A'zam va Xoja Hoshimlar
B) Muhammad Islom va Xoja Abubakr Sa'd
C) Xoja Shaxobiddin va Xoja Yusuf
D) Xoja Hoshim va Xoja Mahdi

87. Muhammad Islom va uning avlodlari o'zlarining kelib chiqishini ota tomondan kimlarga ular edi?
A) Muhammad payg'ambar avlodlariga
B) Chingizxon va Jo'jiga
C) Abulxayrxon va Budoq Sultonga
D) Ismoil Somoniyga

88. Qachon Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi?
A) 1554-yilda B) 1555-yilda C) 1556-yilda D) 1557-yilda

89. Abdullaxon II 1595-yil Xorazmni zabt etgach, uning davlati sarhadlari ….. yetdi.
A) sharqiy qismi Balxash ko'ligacha, g'arbiy qismi Uralgacha
B) janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha
C) janubda Balxdan Marvgacha, shimolda Kaspiy dengizigacha
D) Sirdaryoning o'rta oqimidan Sig'noqqacha

90. Abdullaxon II qachon Samarqandni o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi?
A) 1574-yilda B) 1578-yilda C) 1576-yilda D) 1577-yilda

91. Abdullaxon II vafot etgach qancha vaqtdan keyin bir asr davom etgan Shayboniylar hukmronligi barham topdi?
A) uch yil B) to'rt yil C) besh yil D) olti yil

92. Abdullaxon II qachon Toshkent va Farg'onani o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi?
A) 1578-yilda B) 1580-yilda
C) 1581-yilda D) 1583-yilda

93. Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min 1598-yil iyul oyida fitnachilar tomonidan ….. o'ldirildi.
A) Balxda B) Jizzax hududida
C) O'ratepa va Zomin oralig'ida
D) Farg'ona vodiysida

94. Pirmuhammad bilan Boqi Muhammad o'rtasida 1601-yilda …… jang bo'lib, bu jangda Pirmuhammad yengiladi va 80 yoshida qatl etiladi.
A) Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeyida
B) Miyonkolning Uchqora mavzeyida
C) Buxoro yaqinidagi Gijduvonda
D) Farg'ona vohasidagi Axsi yaqinida

95. Qozoq xoni Tavakkal Buxoroni …… davomida qamal qilsada, uni ololmay Samarqand tomon chekinadi.
A) bir oy B) ikki oy C) 40 kun D) 80 kun

96. Abdullaxon II Buxoro taxtini egallach kimni xon deb e'lon qiladi?
A) amakisi Balx va Badaxshon hukmdori Pirmuhammadni
B) otasi Iskandarxonni
D) Sulaymon Sultonni D) Ibodulla Sultonni

97. Pirmuhammadxon qo'shinlari qozoq xoni Tavakkal qo'shinlarini taqib etib, ….. Miyonqolning Uchqora mavzeyida yetib oladilar va shu yerda bo'lgan jangda uning qo'shinlari tor-mor keltirildi.
A) 1598-yil fevral oyida
B) 1598-yil may oyining boshlarida
C) 1599-yil mart oyining o'rtalarida
D) 1599-yil avgust oyi oxirlarida

98. O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan ….. kabi etnik guruhlar ham garchi X-XII asrlardan va undan keyingi davrlarda bu yerda o'rnashganliklariga qaramasdan, 92 o'zbek elati tarkibiga kirganlar.
A) yag'mo, nayman, tatar, turk-mo'g'ul, qipchoq, usinlar
B) chigil, yag'mo, usin, tuxsi, xalach, qipchoq va turkmanlar
C) xitoy-qipchoq, tatar, qiyot, tuxsi, qipchoq, usinlar
D) mo'g'ul-turk, qipchoq, nayman, tuxsi va xalachlar

99. Qachon Muhammad Shayboniyxon katta shaharlarda vazni bir xil- 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qildirgan?
A) 1501-yilda B) 1505-yilda
C) 1507-yilda D) 1509-yilda

100. Qaysi shayboniy o'tkazgan pul islohati Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, u oltin pul bo'lgan?
A) Kuchkunchixon B) Muhammad Shayboniyxon
C) Abdullaxon II D) Ubaydullaxon

101. Qachon Shayboniyxon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayriladigan joyda suv ayirg'ichi-ko'prik qurdirgan?
A) 1502-yilda B) 1503-yilda
C) 1505-yilda D) 1507-yilda

102. Shayboniylardan kimning hukmronligi davrida suniy sug'orish ishlari ayniqsa rivojlangan?
A) Muhammad Shayboniyxon B) Ubaydullaxon
C) Ko'chkinchixon D) Abdullaxon II

103. Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun qancha kanallar qazitgan?
A) 6 ta B) 8 ta
C) 10 dan ortiq D) 20 ga yaqin

104. Shayboniylar davlatida moliya va xo'jalik ishlarini qanday mansabdagi kishi boshqargan?
A) otaliq B) devonbegi C) naqib D) parvonachi

105. Shayboniyxonlar hukmronligi davrida xonning farmon va yorliqlarida kimning nomi birinchi bo'lib yozilgan?
A) devonbegining B) naqibning
C) otaliqning D) ko'kaldoshning

106. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri qaysi mansabga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan?
A) parvonachi B) devonbegi
C) ko'kaldosh D) otaliq

107. Shayboniylar hukmronligi davrida qurol aslaha xizmati boshlig'i …. deb atalgan.
A) mirzaboshi B) qo'rchiboshi
C) tug'begi D) shig'ovul

108. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun qanday soliq undirilgan?
A) "qopchur" B) "dorug'a" C) "ixrojat" D) "xiroj"

109. Shayboniylar hukmronligi davrida eng og'ir majburiyat nima bo'lgan?
A) "yasoq" B) "begor" C) "ixrojot" D) "mounat"

110. Shayboniylar hukmronligi davrida aholidan qancha soliq va to'lovlar olinardi?
A) 10 ga yaqin B) 15 dan ortiq
C) 20 dan ortiq D) 25 dan ziyod

111. Buxoro xonligida xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan qanday mansabda ishlagan mansabdor shug'ullangan?
A) eshikog'aboshi B) shig'ovul
C) xon yasovuli D) qo'rchiboshi

112. Buxoro xonligida chet davlatlar elchilarini qabul qilish xizmatining boshlig'i qanday nom bilan atalgan?
A) shig'ovul B) eshik og'aboshi
C) mehtar D) muhtasib

113. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar qanday yo'nalishlarda namayon bo'lgan?
A) hukmron tabaqalar va mehnatkash omma o'rtasida
B) Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyat o'rtasida
C) ruhoniylar va xalq o'rtasida
D) harbiylar va xalq o'rtasida

114. Shayboniylar davrida …. lavozimidagi shaxs dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalasi bilan shug'ullangan.
A) xon yasovuli B) ko'kaldosh
C) eshikog'aboshi D) parvonachi

115. Qaysi mansabdor xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan?
A) ko'kaldosh B) xon yasovuli
C) bakovulboshi D) qo'rchiboshi

116. Qaysi yili Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga o'zining elchilarini yubordi?
A) 1562-yilda B) 1568-yilda C) 1572-yilda D) 1578-yilda

117. Qachon Abdullaxon II Hindistonga ikkinchi marta elchi yuborgan?
A) 1576-yilda B) 1577-yilda C) 1578-yilda D) 1578-yilda

118. Hindiston hukmdori Akbarshoh Abdullaxonning elchilariga qo'shib o'zining elchisini ….. yubordi.
A) 1580-yilning 10-mayida B) 1583-yilning 16-iyunida
C) 1585-yilning 12-noyabrida D) 1586-yilning 23-avgustida

119. Qachon turk sultoni Sulton Salim huzuriga shayboniylar elchisi bordi?
A) 1510-yilda B) 1512-yilda C) 1515-yilda D) 1517-yilda

120. Abdullaxon II qaysi yillarda Moskvaga elchilar yuborgan?
A) 1557-1558-yillarda B) 1560-1561-yillarda
C) 1564-1565-yillarda D) 1567-1568-yillarda

121. Antoniy Jenkinson qaysi Buxoro hukmdori huzurida bo'ladi?
A) Ko'chkinchixon B) Ubaydullaxon
C) Abdullaxon II D) Imomqulixon

122. Antoniy Jenkinson o'zining qaysi asarida Buxoro xonligining xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini bayon etadi?
A) "Rossiya va Buxoroning savdo aloqalari" asarida
B) "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yildagi sayohat" nomli estaliklarida
C) "Rossiyadan Buxoroga jo'natilgan savdo karvoni" tarixiy estaliklarida
D) "Moskva savdo kompaniyasining elchiligi tarixi" nomli asarida

123. XVI asrda iftixor ul-atibbo(tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan …… kabi olimlar yetishdi.
A) Muhammad Ma'zid, Hakim Shahrisabziy
B) Shohali ibn Sulaymon
C) Xoja Hakim va Xoja Hasan Nisoriy
D) Kamoliddin Ibrohim va Xoja Muhammad

124. Tibbiyot sohasida ….. 1526-yili "Dastur al-iloj", "Muqaddimoti dastur al-iloj" ("Davolash bo'yicha dastur") asarini yozgan.
A) Tursun Zominiy B) Sultonali Samarqandiy
C) Tojis Saidiy D) Xoja Hasan Nizomiy

125. Toshkent hokimi ….. buyrug'iga binoan 1598-yilda "Shifo ul ilal" ("Kasallik shifosi") asari 500 varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tibb ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan.
A) Baroqxonning B) Darvishxonning
C) Suyunchxojaning D) Iskandar Sultonning

126. Quyidagi asarlarning qay biri Tursun Zominiy qalamiga mansub?
A) "Zubdat ul-osor" B) "Tazkirat ul-kahholin"
C) "Badoe ul-vaqoe" D) "Tufhayi amir"

127. XVI asrda natijatul-atibbo unvonini olgan fidokor olimlardan quyidagilarning qay biri?
A) Bobokalon muftiy Samarqandiy
B) Abdulhakim ibn Sulton Mahmud
C) Sultonali Samarqandiy D) Shohali ibn Sulaymon

128. Ali Qushchining avlodidan bo'lgan, shayboniylar davrining yetuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmlari olimi bo'lib yetishgan "Tarixi Toshkand", "Tarixi oliy Chingiz" asarlarining muallifi kim edi?
A) Mirzo Muhammad Haydar B) Mullo Shodi
C) Hofiz Ko'hakiy D) Tursun Zominiy

129. Shayboniylar sulolasining eng qudratli vakili Abdullaxon II ning muallimi kim bo'lgan?
A) Kamoliddin Ibrohim B) Xoja Muhammad
C) Xoja Hakim D) Muhammad Mazid

130. Xoja Hasan Nisoriy qaysi asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono Kavkabiyni alohida qayd etadi?
A) "Ma'rifat samti qibla" B) "Dastur al-iloj"
C) "Muzakkiri ahbob" D) "Hisobi amali shabaka"

131. Shayboniyxon topshirig'i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asarlar yozgan qaysi tarixchilarni bilasiz?
A) Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodi, Muhammad Solih,
Fazlulloh ibn Ro'zbexon
B) Muhammad Solih, Mulla Shodi, Hofiz Tanish Buxoriy
C) Mulla Shodi, Hofiz Ko'hakiy,Kamoliddin Binoiy
D) Tursun Zominiy, Mulla Shodi, Muhammad Solih

132. Kimning topshirig'i bilan Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si o'zbek tiliga o'girildi?
A) Darveshxonning B) Ko'chkinchixonning
C) Abdullaxon II ning D) Yunisxonning

133. Hofiz Ko'hakiy qachon Zahiriddin Muhammad huzuriga, Hindistonga boradi?
A) 1528-yilda B) 1529-yilda C) 1527-yilda D) 1530-yilda

134. Ubaydullaxonning o'zbek tilidagi devonida nechta g'azal bor?
A) 306 ta B) 435 ta C) 340 ta D) 416 ta

135. Mir Arab madrasasi qaysi yillarda qurilgan?
A) 1530-1532-yillarda B) 1532-1534-yillarda
C) 1535-1536-yillarda D) 1536-1538-yillarda

136. Abdullaxon II …… rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlari qurdirgan.
A) 100 dan ortiq B) 500 ga yaqin
C) 800 ga yaqin D) 1000 dan ortiq

137. Quyidagi asarlarning qaysi biri Zayniddin Vosifiy tomonidan yozilgan?
A) "Badoe ul-vaqoye" B) "Tarixi Rashidiy"
C) "Zubdat ul-ozor" D) "Tavorixi guzidayi nusratnoma"

138. Qachon Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'prik quriladi?
A) 1576-yilda B) 1578-yilda C) 1580-yilda D) 1582-yilda

## 2-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi

1. 1601-yilda Buxoro taxtiga kim o'tqazildi?
A) Jonibek Sulton B) Boqi Muhammad
C) Dinmuhammad D) Vali Muhammad

2. Buxoro xonligi ashtarxoniylar sulolasi tomonidan qancha vaqt davomida boshqarildi?
A) qariyb I asr B) 120 yil C) qariyb 1,5 asr D) 180 yil

3.Qachon qozoqlar yana Movarounnahrga yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keladilar?
A) 1542-yilda B) 1543-yilda C) 1544-yilda D) 1545-yilda

4. 1655-yilda Xiva xoni Abulg'ozixon katta qo'shin bilan yurish qilib, …….
A) Vardonzeni talaydilar B) Surxon vohasiga kirib boradi
C) Buxoro atrofini ikki bor talon-taroj qiladi
D) Balx atroflarini egallab oladi

5. Keksayib qolgan Abdulazizxon qachon taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va o'sha yerda vafot etadi?
A) 1662-yilda B) 1670-yilda C) 1678-yilda D) 1681-yilda

6. Shahrisabz hokimi, kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy qachon Qarshiga va Buxoroga hujum qilib, hokimyatni qo'lga olishga harakat qildi?
A) 1710-1714-yillarda B) 1712-1718-yillarda
C) 1716-1719-yillarda D) 1714-1720-yillarda

7. Buxoro taxtini egallash ishtiyoqida yonayotgan Ibrohimbiy va Rajab Sulton oqibatini chuqur o'ylab ko'rmasdan turib ko'chmanchi qozoqlardan yordam so'rashi natijasida qozoqlar ….. mobaynida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlarini uyushtirib, hammayoqni talab, xonavayron qiladilar
A) to'rt yil B) besh yil C) olti yil D) yetti yil

8. Qaysi muallifning asarida "Oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar" deb yozgan edi?
A)Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy"asarida
B) Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma " asrida
C) Abduraxmon Solening "Abulfayzxon tarixi" asarida
D) Muhammad Zamon Buxoriyning "Muhit ut tavorix" asarida

9. XVIII asr boshlarida qayerda Shermuhammadbiy,Xo'ja Qurbonbiy madrasalari,savdo yo'llarida hashamatli rabotlar barpo etiladi?
A) Buxoroda B) Termizda C) Samarqandda D) Qarshida

10. XVII asrda Buxoro xonligi hududlarida qancha madrasa faoliyat yuritgan?
A) 100 dan ortiq B) 120 ga yaqin
C) 130 dan ortiq D) 150 dan ortiq

11. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib qachondan boshlab Ashtarxon (Hojitarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qildi?
A) XIV asrning 40-yillaridan B) XIV asrning 60-yillaridan
C) XIV asrning 80-yillaridan D) XV asrning 20-yillaridan

12. Qachon Astraxanni Rusiya bosib oladi?
A) 1552-yilda B) 1554-yilda
C) 1556-yilda D) 1558-yilda

13. Qachondan Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining hukmronligi boshlanadi?
A) 1601-yildan B) 1602-yildan C) 1603-yildan D) 1604-yildan

14. Buxoro xonligi qancha vaqt ashtarxoniylar sulolasi tomonidan boshqariladi?
A) 135 yil B) 140 yil C) 160 yil D) 175 yil

15. Boqi Muhammad 1602-yilda Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysindirdi va ….. hokim etib tayinladi.
A) ukasi Vali Muhammadni B) jiyani Imomqulixonni
C) Nadrmuhammadni D) Iskandarsultonni

16. Qachon Vali Muhammad qozoq xoni Kelimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysindirdi?
A) 1602-yilda B) 1603-yilda
C) 1604-yilda C) 1605-yilda

17. Imomqulixon qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1607-1638-yillarda B) 1609-1640-yillarda
C) 1611-1642-yillarda D) 1613-1645-yillarda

18. Nima uchun Toshkentda Imomqulixon hukmronligiga qarshi 1613-yilda qo'zg'olon ko'tarildi?
A) Imomqulixon hukmonligini tan olmaslik uchun
B) Imomqulixon o'g'li Iskandar Sultonning aholiga boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko'paytirib, qattiq zulm o'tkazganligi
C) qozoq sultoni Kelimuhammad madadiga tayanishi
D) Iskandarni Toshkentliklardan ko'plab aholini askarlikka olishi

19. Qaysi Ashtarxoniy hukmronligi davrida Xiva xonlarining talonchilik yurushlari kuchayadi?
A) Vali Muhammad B) Imomqulixon
C) Nadr Muhammad D) Abdulazizxon

20. Qachon Subhonquli Balxni egallaydi va u Balx hokimi etib tayinlanadi?
A) 1647-yilda B) 1649-yilda
C) 1651-yilda D) 1653-yilda

21. Qachon Xiva xoni Abdulg'ozixon katta qo'shin bilan yurish qilib, Buxoro atrofini ikki bor talon-taroj qiladi?
A) 1652-yilda B) 1653-yilda
C) 1654-yilda D) 1655-yilda

22. Subhonqulixon qaysi qabiladan bo'lgan Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishadi?
A) qo'ng'irot B) qatog'on C) mangit D) yuz

23. Keksayib qolgan Abdulazizxon qachon taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va u yerda vafot etadi?
A) 1645-yilda B) 1672-yilda C) 1680-yilda D) 1682-yilda

24. Subhonqulixon isyonkor o'g'li Siddiq Muhammadni o'ldirgach Balx hokimligi kimga topshiriladi?
A) qatog'on urug'idan bo'lgan Mahmudbiy otaliqqa
B) yuz qabilasining sardori Muhammad hoji otaliqqa

C) amir Shohniyozga
D) o'g'li Ubaydulloxonga

25. Qachon Subhonqulxon Xivadagi tarafdorlari xizmatidan foydalanib, Xiva xoni Erengxonning o'ldirilishiga erishadi va Xorazm Buxoro xonligi tasarrufiga olinadi?
A) 1680-yilda B) 1684-yilda
C) 1686-yilda D) 1688-yilda

26. Xorazm Buxoro xonligi tasarrufiga olingandan keyin Subhonqulixon kimni Xivaga hokim etib tayinlaydi?
A) Erengxonni B) Amir Shohniyozni
C) Amir Shohmurodni D) Eshmuhammadni

27. Qatag'on qabilasi boshlig'i Mahmudbiy otaliq qachon Balxda hokimiyatni o'z qo'liga oladi va o'zini xon deb e'lon qiladi?
A) 1702-yilda B) 1704-yilda
C) 1706-yilda D) 1708-yilda

28. Qachon Ubaydullaxonga fitna uyushtirilib, u o'ldiriladi?
A) 1710-yilning 26-martida B) 1710-yilning 14-noyabrida
C) 1711-yilning 16-martida D) 1711-yilning 18 avgustida

29. Zamondosh tarixchilarning ma'lumotiga qaraganda qaysi ashtarxoniy "Saroyning oldi (ya'ni Registon) tinch bo'lsa bo'lgani", degan gapni doimo takrorlab turgan?
A) Nadr Muhammad B) Abdulazizxon
C) Subhonqulixon D) Abulfayzxon

30. Abulfayzxon hukmronligi davrida kim Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til biriktirib, Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qiladi?
A)Shahrisabz hokimi, kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy
B) Nurota hokimi,mangit qabilasi vakili Tog'aymurod
C) Xatirchi hokimi, moyton urug'idan chiqqan Muzaffar
D) Qarshi hokimi barlos urug'idan chiqqan Jahongir

31. Qachon Ibrohimbiy Samarqandni egalladi va kuyovi Rajab Sultonni xon deb e'lon qildi?
A) 1716-yilda B) 1719-yilda
C) 1722-yilda D) 1730-yilda

32. Rajab Sultonning mustaqil Samarqand xonligining mustaqilligi qaysi yilgacha saqlanib turildi?
A) 1730-1731-yillargacha B) 1731-1732-yillargacha
C) 1732-1733-yillargacha D) 1733-1734-yillargacha

33. Kenagas urug'i vakili Ibrohimbiy kuyovi Rajab Sultonni Samarqand xonligi taxtiga o'tqazgach o'ziga qanday unvonni oldi?
A) "otaliq" B) "amir-ul-umaro"
C) "amiri lashkar D) "amir-ul-muslimin"

34. Ashtarxoniylarning qaysi hukmdori o'z vaqtini ko'ngil-xushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketishi natijasida mast chog'ida yetti o'g'lini o'limga mahkum etgan edi?
A) Ubaydullaxon B) Imomqulixon
C) Abulfayzxon D) Subhonqulixon

35. Abulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirishi natijasida ……. amalda mustaqil bo'lib oldilar.
A) Samarqand, Buxoro, Qarshi, Urgit, Balx
B) Qarshi, Balx, Farg'ona, Ko'lob, Shahrisabz
D) Badaxshon, Balx, Ko'lob, Hirot, Urgut
D) Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Badaxshon

36. Eron shohi Nodirshoh Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng, …. Buxoro xonligiga bostirib kirdi.
A) 1736-yili B) 1737-yili
C) 1738-yili D) 1739-yili

37. Abulfayzxon Nodirshohga taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzolash uchun qayerga borgan?
A) Miyonkol oroliga B) hozirgi Qorako'l rayoni hududiga
C) Karmana hududiga
D) Zarafshon daryosi bo'yidagi Chorbakr qo'rig'iga

38. Abulfayzxon va Nodirshoh o'rtasidagi shartnomaga ko'ra …..
A) Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarvar byg'doy va arpa to'plab beradi
B) 20 ming nafar qo'shin to'plab berish shart edi
C) Eron shohi qo'shinlari uchun 10 yilga yetadigan 300 ming xarvar bug'doy va arpa berishi kerak edi
D) 30 ming qo'shinni Nodirshoh huzuriga jo'natish kerak edi

39. Buxoro xonligi aholisidan Nodirshoh huzuriga jo'natilgan 10 ming nafarli qo'shinga kim qo'mondon etib tayinlandi?
A) Muhammad Hakimbiy B) Muhammad Rahim
C) Rizoqul D) Muhammadquli

40. Ashtarxoniylar davrida davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshoatlari barpo etish va obodonchilik ishlarini qaysi mansabdor boshqargan?
A) qutvol B) bakovul
C) devonbegi D) muxtasib

41. Ashtarxoniylar davrida xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun beriladigan yer-mulk qanday atalgan?
A) "suyurg'ol" B) "tanho"
C) "mulki xurri xolis" D) "mulki amlok"

42. Ko'chmanchi chorvador qabilalarning katta-katta yerlarni egallashi natijasida ….. kabi aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi.
A) Qo'ng'irot, Mang'it, Qipchoq, Mo'yton
B) Nayman, Dormon, Kenagas, Qatog'on
C) Dormon, Naymon, Bahrin, Qo'ng'irot

D) Qo'ng'irot, Mang'it, Naymon, Do'rmon

43. Imomqulixon davrida, ….. Qashqadar-yodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan.
A) 1614-1615-yillarda B) 1616-1617-yillarda
C) 1618-1620-yillarda D) 1620-1622-yillarda

44. Qachon Qo'shqo'rg'ondan kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan?
A) 1622-1624-yillarda B) 1626-1628-yillarda
C) 1628-1630-yillarda D) 1633-1634-yillarda

45. XVII-XVIII asrlarda buxorolik hunarmandlar qancha kasb turlari bilan shug'ullangan?
A) 100 ga yaqin B) 150 dan ziyod
C) 200 ga yaqin D) 220 dan ortiq

46. Subhonqulixon davrida raiyatdan …. soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan.
A) qo'shin uchun B) 7 yillik
C) 5 yillik D) xon xarajati uchun

47. Ubaydulloxon … pil islohati o'tkazib, tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tangalarni o'rniga, tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb ettirdi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi.
A) 1704-yilda B) 1706-yilda
C) 1708-yilda D) 1710-yilda

48. 1712-yilda …… qo'zg'olon ko'tarilib xalqqa zulm va zo'ravonlik qilayotgan kenagas qabilasidan qo'yilgan Sulton To'qsobo shahardan haydaladi.
A) Samarqandda B) Buxoroda
C)Qarshida D) Termizda

49. XVII-XVIII asrlarda o'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, ….. kitobini o'qish o'rgatilgan.
A) "Chor kitob"
B) "Haftiyak" ("Qur'oni Karimning yettidan biri")
C) "Qur'oni Karim" oyatlari D) hadislar

50. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi shaharlarida qancha madrasa bo'lgan?
A) 80 ta B) 100 ga yaqin
C) 120 dan ziyod D) 150 dan ortiq

51. O'rta asr Buxoro madrasalarida o'qish qanday nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llnmasini o'zlashtirishdan boshlangan?
A) "Haftiyak" B) "Chor kitob"
C) "Avvali ilm" D) "Ilmi hadis"

52. Buxoro madrasalarida XVII-XVIII asrlarda qaysi kurs majburiy kurs hisoblangan?
A) aruz ilmi B) fiqh (huquq) kursi
C) notiqlik kursi D) xattotlik ilmi

53. XVII-XVIII asrda madrasa talabalari-dan Imom al-Buxoroy, Abu Mansur Mo-turidiy, Burhoniddin Marg'inoniy asar-larini, jami ….. o'zashtirish talab etilgan.
A) 80 darslik va o'quv qo'llanmalarini
B) 100 dan ortiq darslik va "Jomi as-sahih" asarini
C) 137 darslik va o'quv qo'llanmalarni
D) 137 darslik va "Qur'oni Karim"ni

54. XVII asrning taniqli olimi, Mir Arab madrasasi mudarisi Muhammad Sharif Buxoriy qalamiga mansub asarni belgilang?
A) "Dor ush-shifo" B) "Baxr ul-asror"
C) "Muhit ut-tavorix" D) "Davriylik haqida risola"

55. Quyidagi olimlarning qaysi biri tomonidan 1678-yilda falakiyat, ilmi hay'at haqida risola yozgan?
A) Mulla Yusuf Qorabog'iy
B) Mulla Tursun Fariziy
C) Boboxo'ja ibn Xoja Orif Samarqandiy
D) Abdurxmon Tole

56. Quyidagi olimlarning qaysi biri falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, astranomiya sohasida 20 dan ortiq asar yozgan?
A) Muhammad Amin Buxoriy B) Muhammad Sharif Buxoriy
C) Mulla Tursin Fariziy D) Mulla Yusuf Qorabog'iy

57. Muhammad Sharif Buxoriyning …… kitobi 25 bob 32 fasldan iborat bo'lib, unda shariat qonun qoidalari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan.
A) "Hoqonga foydali maslahatlar" B) "Baxr ul-asror"
C) "Axloq husnlari" D) "Abulfayzxon tarixi"

58. Muhammad ibn Valining 1636-yilda yozilgan qaysi asarida Samarqandlik va Buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumot berilgan?
A) "Axloq husnlari" B) "Baxr ul-asror"
C) "Bahoriyat" D) "Oriflar murodi"

59. Turkistonda "Abulmaoniy" ("Ma'nolar otasi") degan nom olgan shoirni aniqlang
A) Sayido Nasafiy B) Turdi
C) Bedil D) So'fi Olloyor

60. Mahmud ibn Valinng qaysi asarida Movarounnahr va Xuroson tarixi, mamlakatlar, shaharlar, okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilinadi?
A) "Dor ush-shifo"
B) "Tarixi Muqumxoniy"
C) "Baxr ul-asror"
D) " Oliyjanob insonlar xususida sirlar dengizi"

61. Ashtarxoniylarning qaysi hukmdori Buxoroda "Dor ush-shifo" qurdirib, bemorlarni davolash ishini yo'lga qo'ygan?
A) Nadr Muhammad B) Imomqulixon
C) Subhonqulixon D) Addulazizxon

62. Bedilning …… falsafa, tarix va ilohiyotning xilma-xil masalalari bayon etilgan.
A) "To'rt unsur" asarida B) "Irfon" dostonida
C) "Axloq husnlari"asarida D) "Qipchoqxon tarixi"asarida

63. Quyidagi asarlarning qaysi biri Xojamqulixon Balxiyning asari hisoblanadi?
A) "Qipchoqxon tarixi"asari B) "Muhit ut-tavorix"asari
C) "Tarixi Muqimxon"asari D) "Ubaydullonoma"asari

64. "Muhit ut-tavorix" ("Tarixlar dengizi") asari qaysi tarixnavis qalamiga tegishli?
A) Muhammad Amin Buxoriy
B) Abdurahmon Tole
C) Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriy
D) Xo'jamqulixon Balxiy

65. "Muhabbatnoma", "Axloq husnlari" risolalari hamda 50 ming baytdan iborat katta devon muallifi qaysi tarixnavis?
A) Abduraxmon Tole
B) Mahmud ibn Vali
C) Muhammad Amin Buxoriy
D) Muhammad Sharif Buxoriy

66. Qaysi shoir to'quvchilik bilan shug'ullanib, ko'pgina sherlarida ijtimoiy tengsizlikka, jabr-zulmga qarshi norozilik bildirilib, u 212 xil kasb-huhar egalari haqida fikr bildiradi?
A) Sayido Nasafiy B) Bedil C) Turdi D) So'fi Olloyor
67. Quyidagi asarlarning qaysi biri Sayido Nasafiy tomonidan yozilgan?
A) "Taqvadorlar maslagi"
B) "Bahoriyat" ("Hayvonotnoma")
C) "Zafarnoma" D) "Muhabbatnoma"

68. XVII asr Shoiri Turdining 434 misra hajmdagi merosining …… Subhonqulixon haqidagi hajvlardir ("Subhonqulixon to'g'risida hajviya", 1691)
A) 120 misrasi B) 132 misrasi
B) 144 misrasi D) 165 misrasi

69. Tariqat arbobi va shoiri So'fi Olloyorning quyidagi asarlarining qaysilari turkiy tilda yaratilgan?
A) "Taqvodorlar maslagi", "Oriflar murodi"
B) "Ojizlar saboti", "Najot tantanasi"
C) "Oriflar murodi", "Ojizlar saboti"
D) "Najot tantanasi", "Taqvodorlar maslagi"

70. So'fi Olloyorning qaysi asari 12 ming bayt, 135 ta bobdan iborat bo'lib, ilohiy ma'rifat badiy talqinda bayon etilgan o'zbek falsafiy adabiyotining yetuk namunasidir?
A) "Taqvodorlar maslagi" B) "Ojizlar saboti"
C) Oriflar murodi" D) "Najot tantanasi"

71. Qachon Samarqandda ko'chirilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobi o'sha davr kitobat sa'natining yorqin namunasidir?
A) 1612-yilda B) 1618-yilda
C) 1624-yilda D) 1628-yilda

72. Buxoroda yirik me'moriy majmua Labihovuz ansamblini Nodirdevonbegi ….. qurdirgan.
A) 1617-yilda B) 1620-yilda
C) 1622-yilda D) 1624-yilda

73. Qaysi davrga kelib Samarqand Registoni ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi?
A) XV asrdaB) XVI arda C) XVII asrda D) XVIII asrda

74. Samarqand hokimi Yalangto'sh Baho-dir 1619-1635-yillarda vayrona holatga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi …… qurdirdi.
A) qarshisida Sherdor madrasasini
B) yonida Tillakori madrasasini
C) orqasida Mirzoyi karvonsaroyini
D) ro'parasida Chorsu savdo kompleksini

75.Qachon Buxoro shahrida Abdulazizxon qurdirgan qo'sh imoratli madrasa mus-tahkamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadigan, o'z zamo-nasi me'morchiligining yetuk namunasi hisoblanadi?
A) 1648-yilda B) 1652-yilda
C) 1664-yilda D) 1676-yilda

76. Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir Tillakori madrasa-masjidini qachon bunyod ettirgan?
A) 1619-1635-yillarda B) 1624-1640-yillarda
C) 1646-1659-yillarda D) 1648-1662-yillarda

77. Qaysi ashtarxoniy hukmdor Madina shahrida Chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverishda darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdiradi?
A) Imomqulixon B) Abdulazizxon
C) Subhonqulixon D) Abulfayzxon

## 3-mavzu: Buxoro amirligi

1.Buxoro xoni Abulfayzxon va Eron hukmdori Nodirshoh o'rtasidagi shartnomaga ko'ra, ……
A) Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab berishi va Buxoro xonligi aholisidan o'n ming nafarli qo'shin to'plab berishi kerak edi.
B) Abulfayzxon Muhammad Hakimbiyni bosh vazir etib tayinlashi kerak edi.
C) Buxoroning Balx va Karmana hududlarini Eronga berishi kerak edi.
D) har yili Eronga 200 ming xarvar bug'doy va arpa hamda 2000 navkar yetkazib berishi kerak edi

2. Buxoro amirligida qaysi hukmdorga xalq hurmat bilan "amiri ma'sum" (begunoh amir) unvonini bergan?
A) Amir Doniyolbiyga B) Amir Shohmurodga
C) Amir Nasrulloga D) Amir Muzaffarga

3. XIX asr boshlarida Buxoro shahrida qancha masjid va hovuz mavjud bo'lgan?
A) 160 ta masjid va 60 ta hovuz

B) 200 ta masjid va 70 ta havuz
C) 280 ta masjid 65 ta hovuz
D) 360 ta masjid va 83 ta hovuz

4. Qachon Amir Haydar Yangiqo'rg'on va Chelakni egallaydi?
A) 1820-yil kuzida B) 1822-yilning bahorida
C) 1824-yil yozida D) 1825-yilning bahorida

5. Amir Nasrulloning "o'zboshimcha" kenagaslarga qarshi kurashi qancha vaqt davom etdi?
A)18 yil B) 24 yil C) 26 yil D)30 yil

6. Muhammadniyoz Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asarida qancha qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan?
A) 8 ta B) 10 ta C) 14 ta D) 16 ta

7.Quyidagi qaysi rassom Nasrulloxon amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan?
A) Ahmad Donish B) Mirzo Sodiq Jondariy
C) Mir Ma'sum Olamiyon D) Muzaffar qilqalam

8. Taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzolash uchun Abulfayzxon … Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo'ldi.
A) Karmana muzofatiga
B) Boysun muzofatiga
C) Zarafshon daryosi bo'yidagi Chorbakr qo'rig'iga
D) Labihovuz bo'yidagi Ko'kaldosh madrasasiga

9. Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan …… nufuzi baland edi.
A) mang'itlar va qatag'onlarning
B) do'rmonlar va mang'itlarning
C) kenagas va mang'itlarning
D) mang'itlar va qo'ng'irotlarning

10. Qachon Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab quvvatlashi bilan o'zini xon deb e'lon qildi?
A) 1748-yilda B) 1753-yilda
C) 1756-yilda D) 1758-yilda

11. Nima uchun Muhammad Rahimbiydan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar?
A) shayboniylarga mansub bo'lmagan-ligi sababli
B) chingiziylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun
C) ashtarxoniylarga mansub bo'lmaganligi sababli
D) temuriylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun

12. Muhammad Rahimbiy mustaqillikni da'vo etib yurgan ……. bekliklarni to'rt yil davomida o'ziga bo'ysindirdi.
A) Miyonkol, Nurota, Qo'badiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut
B) Nurota, Xatirchi, Boysun, Qo'rg'ontepa hamda Shahrisabz
C) Boysun, Sintob, Urgut, Toshkent hamda Nurota
D) Shahrisabz, Kitob, Urgut, Boysun hamda Jizzax

13. Muhammad Rahimxon bo'ysinishni istamagan qaysi qabilalarni turgan joyidan ko'chirib yuborish siyosatini tutdi?
A) qo'ng'irot, do'rmon, bahrin, kenagas, burgut, mo'yton qabilalarini
B) burgut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz, kenagas, saroy qabilalarini
C) qangli, do'rmon, tatar, yuz, qatag'on, mo'yton, kenagas qabilalarini
D) kenagas, do'rmon, jaloyir, mo'yton, bahrin, qatag'on qabilalarini

14. Doniyolbiy hukmronligi davrida qaysi bekliklarning mustaqillikka intilishi kuchayadi?
A) Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa
B) Urgut, Hisor, Nurota, Sintob
C) Shahrisabz, O'ratepa, Qo'rg'ontepa, Hisor
D) Nurota, Balx, Shahrisabz, O'ratepa

15. Qaysi hukmdor davridan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb atala boshlandi?
A) Muhammad Hakimbiy B) Muhammad Rahimbiy
C) Doniyolbiy D) Shohmurod

16. Mang'itlar sulolasining qaysi amiri "begunoh amir" nomini olgan edi?
A) Shohmurod B) Doniyolbiy
C) Amir Haydar D) Amir Nasrullo

17. Amir Shohmurod qaysi yillarda Buxoro amirligini boshqardi?
A) 1758-1785-yillarda B) 1760-1784-yillarda
C) 1785-1800-yillarda D) 1780-1800-yillarda

18. Amir Shohmurod davrida Samarqand shahri markazida olti qirrali chorsu qurilib, …… deb atalgan.
A) "Mirzoyi karvonsaroyi" B) "Toqi musaddas"
C) "Toqi zardo'zon" D) "Chorsu"

19. Amir Shohmurod qanday lavozimlarni joriy qilgan?
A) rais va qozi askar B) muxtasib va mirza boshi
C) parvonachi va dodxoh D) yasavul va bakovul

20. Amir Shohmurod qaysi soliqlardan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi?
A) tanobona va bojdan B) zakot va xirojdan
C) boj va xirojdan D) joy puli va ushrdan

21. Buxoro amirligi qancha viloyat va tumanga bo'lingan?
A) 27 ta B) 32 ta C) 36 ta D) 40 ta

22. Buxoro xonligi saroyida ….. amaldor xizmat qilgan.
A) 70 nafar B) 60 ga yaqin
C) 40 dan ortiq D) 30 ga yaqin

23. Amirlikning yer maydoni qancha bo'lgan?
A) 170 ming km kv B) 210 ming km kv
C) 270 ming km kv D) 320 ming km kv

24. Buxoro amirligi mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilar soni qancha bo'lgan?
A) 10 mingdan ziyod B) 20 mingga yaqin
C) 25 mingdan ziyod D) 30 ming atrofida

25. Buxoro amirligida viloyat va tuman hokimlari kimning tavsiyasi bilan tayinlanar edi?
A) devonbegining B) qo'shbegining
C) ko'kaldoshning D) mushrifning

26. Qaysi mansabdor butun Buxoro amirligi hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotni to'plagan?
A) devonbegi B) dodxoh C) ko'kaldosh D) inoq

27. Qaysi mansabdagi shaxs Buxoro xonligida moliya-xazina ishlarini boshqarib, soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan?
A) mushrif B) muxtasib
C) devonbegi D) vaziri buzruk

28. ……. tarixda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmronligi hisoblanadi.
A) 1740-1917-yillar B) 1747-1919-yillar
C) 1752-1920-yillar D) 1756-1920-yillar

29. O'rta asrlarda Buxoro davlatida xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan va soliq tushumlarini yozib boruvchi amaldor qanday nomlangan?
A) arkbegi B) mushrif
C) muxtasib D) devonbegi

30. Buxoro amirligi ma'muriy boshqaruvida davlat boshlig'i farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazadigan amaldor qanday nomlangan?
A) mirshab B) yasovul C) inoq D) miroxur

31. Buxoro amirligi ma'muriy boshqaruvida biror kishiga lavozim berilganda, unga kim orqali yorliq topshirilar edi?
A) munshiy B) otaliq
C) mirshab D) parvonachi

32. Buxoro amirligida musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatuvchi, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini qaysi amaldor tekshirib turgan?
A) mushrif B) muhtasib C) inoq D) arkbegi

33. Sadrlarning asosiy vazifasi …… iborat edi.
A) bozorlarni tekshirishdan
B) soliq olishni tekshirishdan
C) vaqf mulklarini boshqarishdan
D) jinoiy ishlarni ko'rib chiqishdan

34. Buxoro amirligida sudlov ishlarida qonunlarga rioya etilishini ta'minlashda hukmdorning eng yaqin yordamchisi …… bo'lgan.
A) qozikalon B) shayxulislom C) a'lam D) muftiy

35. O'rta asrlarda Buxoro davlatida qaysi lavozimdagi shaxs qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqarish huquqiga ega bo'lgan?
A) shayxulislom B) qoziaskar
C) a'lam D) muftiy

36. XVI asrdan boshlab davlat yerlarini …. deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan
A) "amlok" B) "suyurg'ol" C) "tanho" D) "vaqf"

37. XIX asrning birinchi choragida amirlikda tanholarning soni qanchadan qancha nafarga yetgan?
A) 6 mingdan 12 mingga B) 12 mingdan 24 mingga
C) 12 mingdan 36 mingga D) 14 mingdan 38 mingga

38. Buxoro amirligida eng kichik tanho yeri qanchani tashkil etgan?
A) 2-3 gektarni B) 3-5 gektarni
C) 5-7 gektarni D) 7-9 gektarni

39. Amir Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qanday soliq olingan?
A) tanobona B) qo'shpuli
C) xiroj D) suv puli

40. O'rta Osiyo davlatlarida qaysi davrda zakot solig'i beva-bechoralar,musofirlar foydasiga olingan?
A) XIII-XIV asrlarda B) XIV-XVI asrlarda
C) XV-XVIII asrlarda D) XVI-XIX asrlarda

41. Qachondan boshlab zakot solig'i davlat xazinasiga olinadigan bo'ldi?
A) XVI asrdan B) XVII asrdan
C) XVIII asrdan D) XIX asrdan

42. Qaysi davrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan?
A) XV asrdan B) XVI asrdan
C) XVII asrdan D) XIX asrdan

43. XVIII asrda Zarafshon daryosidan qanday nahrlar chiqarilgan?
A) Xurmo va Sarazm nahrlari
B) Poyariq va Mirza ariq nahrlari
C) Darg'om va Nahripay nahrlari
D) Sarazm va Darg'om nahrlari

44. Amir Shohmurod zamonida 40 va 24 chaqirim uzunlikdagi qanday suv inshoatlari qazilgan?
A) Xurmo, Sarazm, Poyariq
B) Qozonariq, Toymon ariq, To'g'izariq
C) Toymonariq,Xurmo, Sarazm
D) To'g'izariq, Sarazm, Mirza ariq

45. XIX asrda birgina Amudaryoning quyi oqimida …. chig'iriq o'rnatilgan edi.
A) 100 mingga yaqin B) 200 mingdan ortiq
C) 400 mingdan ziyod D) 600 mingdan ko'proq

46. XIX asrlarda har bir dehqon xonodoni yiliga qancha kungacha sug'orish ishlarida qatnashishga majbur edilar?
A) 12 kundan 40 kungacha
B) 20 kundan 50 kungacha
C) 60 kundan 100 kungacha
D) 70-80 kun atrofida

47. Buxoro amirligida bog'lar necha qismdan iborat alohida reja asosida barpo qilingan?
A) 2 qismdan B) 3 qismdan
C) 4 qismdan D) 5 qismdan

48. Buxoro amirligida qaysi bog'lar eng mashhur bog'lar edi?
A) Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Koykovus
B) Samarqanddagi Bog'ishamol, Buxorodagi Jo'ybor
C) Toshkentdagi Kaykovus, Karmanadagi Bog'idil
D) Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Bog'idilkusho

49. Buxoro amirligida ekin maydonini o'lchash uchun qo'llanilgan yuza birligi tanob …. teng bo'lgan.
A) 6,2 sotixga B) 8,33 sotixga
C) 7,6 sotixga D) 9,23 sotixga

50. Buxoro amirligida 1 ga yer necha tanobni tashkil etgan?
A) 6 tanobni B) 8 tanobni
C) 10 tanobni D) 12 tanobni

51. Mang'itlar hukmronligi davrida Samarqandda qancha madrasa faoliyat ko'rsatgan?
A) beshta B) yettita
C) to'qqizta D) o'n bitta

52. XIX asr boshlarida Samarqand shahri devorining uzunligi qancha bo'lgan?
A) 8,4 chaqirim B) 9,2 km
C) 13, 9 chaqirim D) 15,6 km

53. XIX asrning boshlarida Samarqand shahrining maydoni ….. tashkil etgan.
A) 8,7 kv. Kilometrni B) 9,4 kv. kilometrni
C) 7,3 kv. Kilometrni D) 10, 4 kv. kilometrni

54. Samarqand shahrida XIX asrning boshlarida qancha aholi istiqomat qilgan?
A) 60 ming B) 80 ming
C) 100 ming D) 150 ming

55. XIX asrning 40-yillarida Buxoroda … bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilgan.
A) 38 ta karvonsaroy B) 16 tim va toqlar
C) 24 ta karvonsaroy D) 28 ta tim va toqlar

56. XIX asr boshlarida Buxoro karvonsaroylariga har yili qancha tuyada mol kelgan?
A) 6-8 ming tuyada B) 8-10 ming tuyada
C) 10-13 ming tuyada D) 12-15 ming tuyada

57. XIX asr boshlarida Buxoro shahrida ….. madrasa mavjud bo'lgan.
A) 76 ta B) 85 ta
C) 103 ta D) 150 ta

58. Orenburgda 1804-yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda ….. istiqomat qilgan.
A) 15 xonadon B) 20 xonadon
C) 25 xonadon D) 30 xonadon

59. Buxorodan yo'lga chiqqan savdo karvoni qancha vaqt o'tib Orskka yetib borardi?
A) 25 kunda B) 40 kunda
C) 2 oyda D) 3 oyda

60. 1844-yilga kelganda O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya tashqi savdosidagi ulushi …. tashkil etgan bo'lsa, 1864-yilga kelib bu ko'rsatkich ….. ko'tarilgan.
A) 15 foizni; 30 foizga B) 20 foizni; 30 foizga
C) 25 foizni; 42 foizga D) 30 foixni; 50 foizga

61. XIX asr boshlarida Buxorodan yo'lga chiqadigan savdo karvonlari ba'zida qancha tuyadan iborat bo'lardi?
A) 3 mingtacha B) 5 mingtacha
C) 7 mingtacha D) 10 mingtacha

62. 1825-yilga kelib Orenburgdagi savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni … yetdi.
A) 30 taga B) 40 taga C) 50 taga D) 65 taga

63. Amir Haydar hukmronligi davrida birinchi bo'lib markaziy hokimiyatning o'lpon yig'uvchilari o'zboshimchaligidan norozi bo'lgan … 1800-yilda qo'zg'olon ko'taradilar.
A) Kattaqo'rg'on xalqi B) Marv turkmanlari
C) Chelak ahli D) Miyonkol hokimligi

64. Qachon Amir Haydarning soliq siyosatiga qarshi Miyonkolda ham qo'zg'olon ko'tarildi?
A) 1800-yilda B) 1810-yilda
C) 1818-yilda D) 1821-yilda

65. 1804-yilda Amir Haydar siyosatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga kim boshchilik qildi?
A) inisi Dinnosirbek B) inisi Isoqbek
C) Kitob begi Yusufbek D) Qarshi hokimi Abdullabek

66. Amir Nasrullo Buxoroda birinchi bor …… yaqin sarbozdan iborat muntazam qo'shin tuzdi.
A) 24 mingga B) 30 mingga
C) 34 mingga D) 40 mingga

67. Amir Nasrullo Shahrisabzga 32 marta yurishi natijasida nihoyat …… u Shahrisabz va Kitobni o'ziga bo'ysindirishga muvaffaq bo'ldi.
A) 1842-yilda B) 1848-yilda
C) 1856-yilda D) 1858-yilda

68. 1837-yilda Amir Nasrullo qanday qo'shin turini tuzib, ular uchun maxsus kiyim (qizil kurtka, oq sholvor va qalpoq) joriy etdi?
A) otliq qo'shinni
B) qilichbozlar qo'shinini
C) muntazam piyodalar qo'shinini
D) kamonchilar qo'shinini

69. XIX asrning o'rtalariga kelib Buxoroda ….. har biri nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan qurollangan edi.
A) 2500 nafar sarbozning
B) 2800 suvoriyning
C) 3600 nafar yollanma askarning
D) 4000 piyoda askarning

70. Buxoro amirligida kimlar umr bo'yi xizmat qilganlar?
A) suvoriylar B) askar va to'pchilar
C) naftandozlar D) suvoriy va qilichbozlar

71. Mang'itlar hukmronligi davrida amir saroyida qancha xizmat qiluvchi yuqori amaldorlik lavozimi joriy etilgan?
A) 100 dan ziyod B) 150 ga yaqin
C) 200 dan ziyod D) 300 ga yaqin

72. Buxoro amirligida qaysi xalq vakillariga ot minib yurish man etilgan?
A) hindlarga B) afg'onlarga
C) yahudiylarga D) armanilarga

73. Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiy Buxoriyning qaysi asari ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan, ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII-XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan?
A) "Qushlar munozarasi" B) "Husni dil"
C) "Ajoyib at-tabaqat" D) "Gulshan ul-mulk"

74. O'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan "Qushlar munozarasi" majmui kimning qalamiga mansub?
A) Muhammad Nishotiy
B) Mirzo Shams Buxoriy
C) Yoqub ibn Doniyolbiy Buxoriy
D) Ahmad Donish

75. "Axloqi Muhsiniy" kitobini hamda Sa'diyning sheriy asarlarini rasm bilan bezagan rassomni belgilang?
A) Mirzo Sodiq Jondoriy B) Mir Masum Olamiyon
C) Ahmad Donish D) Mujrim Obid

76. XVIII asrda yashab ijod etgan o'ziga xos iste'dod egasi Muhammadniyoz Nishotiy 1778-yilda qanday asarini yaratgan?
A) "Husni Dil" B) "Qushlar munozarasi"
C) "Shohi Darvish" D) "Ajoyib at-taboqat"

77. XIX asrda yozilgan "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar" ("Buxoro, Qo'qon va Qashqarning ayrim voqea-hodisalari bayoni") kitobi kimning asari?
A) Muhammadniyoz Nishotiyning
B) Mirzo Shams Buxoriyning
C) Mujrim Obidning
D) Ma'sum Olamiyonning

78. Mujrim Obidning turkiy va forsiy devonlarida qanchadan g'azallar bo'lib, ularda shoirning axloqiy qarashlari, pand-nasixatlari aks etgan?
A) turkiy devonida 459, forsiy devonida 206 g'azal bor
B) turkiy devonida 405, forsiy devonida 180 g'azal bor
C) turkiy devonida 482, forsiy devonida 232 g'azal bor
D) turkiy devonida 508, forsiy devonida 265 g'azal bor

79. Quyidagi asarlarning qaysilari Ahmad Donish tomonidan ko'chirilgan, bezalgan yoki rasm ishlangan?
A) "Husni Dil" va "Qushlar munozarasi"
B) "Gulshan ul-mulk" va "Risola"
C) "Shohi darvish" va "Ajoyib at-taboqat"
D) "Qushlar munozarasi" va "Gulshan ul-mulk"

80. Quyidagi rassomlarning qaysi biri Nasrulloxon amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, Sa'diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan?
A) Ahmad Donish B) Mirzo Sodiq Jondoriy
C) Ma'sum Olamiyon D)Mahmud Muzahhib

## 4-mavzu: Xiva xonligining tashkil topishi. XVI-XVIII asrning birinchi yarmida xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

1. Qachon Xorazmning mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi?
A) 1505-yilgacha B) 1510-yilgacha
C) 1511-yilgacha D) 1516-yilgacha

2. Xiva xonligida qachongacha shayboniylar hukmronligi davom etdi?
A) 1510-yilgacha B) 1660-yilgacha
C) 1673-yilgacha D) 1770-yilgacha

3. Amudaryo qancha vaqt davomida Orol dengizi yo'nalishiga burildiki, natijada eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi?
A) 10 yil B) 15 yil C) 20 yil D) 25 yil

4. Qaysi yillarda Xiva xonligi 2 marotaba Buxoroga bo'ysundirilgan?
A) 1593-va 1595-yilda B) 1538-va 1544-yilda
C) 1780-va 1781-yilda D) 1611-va 1632-yilda

5. 1598-yilda Abdullaxon vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida …
A) Xevada qo'ng'irotlar sulolasi hokimyatini egalladi
B) Hojimxon Xiva xonligi taxtini qayta egallashga va o'z hokimyatini mustahkamlab olishga erishdi.
C)Dashti Qipchoqlik Elbarsxon Xorazm taxtiga o'tirdi
D) Xiva xonligi Shimoliy Xuroson hududlarini ham o'z tasarrufiga olgan edi.

6. Abulg'oziy Sulton Eronda qancha vaqt tutqunlikda yashaydi?
A) 6 yil B) 8 yil C) 10 yil
D) 12 yil

7. Qachon Gijduvon yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi?
A) 1663-yilda B) 1676-yilda C) 1681-yilda D) 1685-yilda

8. Xiva taxtiga o'tqazilgan qozoq sulolasidan bo'lgan qaysi hukmdor inoqlar nufuzini yo'qotish uchun kurashdi?
A) Abu Muhammad B) Nasrulla
C) G'oyib ibn Botir C) Temurg'ozixon

9. Quyidagi shaxslardan qaysi biri "Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o'zaro urushlar oqibatida to'rt marta vayron bo'ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor" deb yozgan?
A) Floreo Benivini B) Antoni Jenkinson
C) Ivan Xoxlov D) Ivan Bekchurin

10.Xiva shahri qaysi davrlarda Xiva xonligining poytaxti bo'lgan?
A) XVI asr boshlaridan 1917-yilgacha
B) XVII asr boshlaridan 1920-yilgacha
C) 1511-yildan 1770- yilgacha
D) 1512-yildan 1920- yilgacha

11. XVI-XVIII asrlarda Xorazm hududida 20 ga yaqin o'zbek qabilalari istiqomat qilib, ular orasida ……. qabilalar ko'p sonli va eng kuchli qabilalardan hisoblanar edi.
A) mo'g'ul, qo'ng'irot, mang'it va xitoy-qipchoq
B) qo'ng'irot, mang'it, nayman, qipchoq va qiyot
C) bolg'oli, neko'z, do'rmon va mang'it
D) mang'it, do'rmon, barlos va qo'ng'irot

12. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi ……. davom etdi.
A) 1505-yildan 1510-yilgacha B) 1511-yildan 1570-yilgacha
C) 1511-yildan 1770-yilgacha D) 1510-yildan 1920-yilgacha

13. Xorazm hukmdori Elbarsxon otasi Berka sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsada, ular nima uchun dushmanlik munosabatida edilar?
A) Shayboniyxon Dashti Qipchoqda hokimiyatni o'z qo'liga olishi
B) Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shayboniyxon avlodiga mansub Berka Sultonning o'ldirilganligi
C) Shayboniyxonning Buxoroni egallashi
D) Berka Sulton avlodlariga yuqori lavozim bermaganligi

14. Qaysi hukmdor davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi?
A) Elbarsxon B) Arab Muhammad
C) Erinak D) Anushaxon

15. Elbarsxon 1516-yilgacha bo'lgan hukmronlik davrida …. egallandi.
A) Janubiy Xuroson, Shimoliy Erondagi Saraxs va Marv
B) Shimoliy Xuroson, Shimoliy Erondagi Saraxs, Orol va Mang'iqishloq
C) Shimoliy Xuroson, Hirot, Marv va Mang'iqishloq
D) Orol va Mang'iqishloq, Shimoliy Eron va Ozarbayjon

16. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi qanday guruhlarga bo'lingan?
A) qadimiy xorazmliklarning bevosita avlodlari; turkman qabilalari; mang'it, qo'ng'irot va xitoy-qipchoq qabilalari
B) Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar va xitoy-qipchoq qabilalari
C) qadimiy xorazmliklarning bevosita avlodlari; turkman qabilalari; Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar
D) Xurosondan ko'chib kelgan qabilalar; qo'ng'irot, do'rmon va xitoy-qipchoq urug'lari

17. Qaysi davrga kelib Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi?
A) XV asr boshlarida B) XV asr o'rtalarida
C) XVI asrda D) XVII asrda

18. Xiva xonligining iqtisodiy inqirozga duchor bo'lishining asosiy sabablaridan biri ……
A) Buxoro xonligi bilan olib borilgan urushlardir
B) Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib yuborganligi
C) Eron davlati qo'shinlarining to'xtovsiz hujumlari edi
D) xonlikda tez-tez bo'lib turgan qo'zg'olonlar edi

19. Qachondan boshlab Amudaryo Kaspiy dengiziga oqmay qo'ydi?
A) 1528-yildan B) 1546-yildan
C) 1558-yildan D) 1573-yildan

20. Xiva xonligi XVI asrda necha marotaba Buxoro xonligi tomonidan bosib olindi?
A) ikki marta B) uch marta C) to'rt marta D) olti marta

21.Xivani Buxoroga bo'ysindirish harakati ….. davrida boshlandi.
A) Muhammad Shayboniyxon B) Ubaydulloxon
C) Abdulloxon II D) Subhonqulixon

22. Xiva xonligida davlat parokandaligi …… davrida yuqori nuqtasiga yetgan edi.
A) Boybarsxon B) Hojimxon
C) Arab Muhammad D) Sherg'ozixon

23. Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini …… ko'chiradi.
A) Urganchdan Xivaga B) Vazirdan Urganchga
C) Katdan Urganchga D) Xivadan Urganchga

24. 1616-yili Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash Sulton bilan Elbars Sulton kimlarning ko'magiga tayanib, otalariga qarshi isyon ko'tardilar?
A) neko'z va xitoy-qipchoq qabilalarining boshliqlariga
B) nayman va uyg'ur qabilalarining boshliqlariga
C) Eron shohi Abbos I ko'magiga
D) turkman urug'i boshlig'iga

25. Habash Sulton va Elbars Sulton ikkinchi bor yana qachon otalariga qarshi isyon ko'tarishdi?
A) 1618-yilda B) 1620-yilda C) 1621-yilda D) 1624-yilda

26. Asfandiyorxon qachon Eron shohi Abbos I yordamida Xiva taxtini egallaydi va Habash hamda Elbars qatl etiladi?
A) 1621-yilda B) 1623-yilda C) 1625-yilda D) 1627-yilda

27. Abulg'ozi Sulton Eronda qaysi yillarda tutqunlikda kun kechiradi?
A) 1623-1633-yillarda B) 1626-1635-yillarda
C) 1628-1639-yillarda D) 1630-1639-yillarda

28. Nima sababdan Abulg'ozi Sulton akasi Asfandiyorxon tomonidan hibsga olinib, Eronga, shoh Safi I (1629-1642) huzuruga o'z navkarlari qo'riqchiligida jo'natadi?
A) Xiva taxtiga egalik qilishga uringanligi uchun
B) Eron tasarrufiga o'tgan Niso va Darunga hujum qilinganlikda ayblanib
C) Orol o'zbeklari bilan til biriktirib akasiga fitna uyushtirganlikda ayblanib
D) Buxoro hukmdori Imomqulixon bilan akasiga qarshi fitna uyushtirganlikda ayblanib

29. Qachon Abulg'ozi Bahodirxon Xiva xonligi taxtini egallaydi?
A) 1642-yilda B) 1643-yilda
C) 1644-yilda D) 1645-yilda

30. Abulg'ozi qabila boshliqlari nufuzini oshirish bilan ularning markaziy hokimiyatga qarshi hatti-harakatlariga barham berish maqsadida xonlikdagi barcha qabilalarni necha guruhga bo'ladi?
A) ikki guruhga B) uch guruhga
C) to'rt guruhga D) besh guruhga

31. Qachon Abulg'ozi Bahodirxon hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirdi?
A) 1662-yilda B) 1663-yilda C) 1660-yilda D) 1665-yilda

32. Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaxonga qarshi Xivaga fitna uyushtilishi natijasida qachon Anushaxon taxtdan tushirilib, ko'ziga mil torttirildi?
A) 1685-yilda B) 1686-yilda
C) 1687-yilda D) 1688-yilda

33. Xiva xoni Sherg'ozixon qaysi yillarda hukmronlik qildi?
A) 1687-1700-yillarda B) 1700-1714-yillarda
C) 1708-1722-yillarda D) 1714-1728-yillarda

34. Xiva xonligi 1740-yili Nodirshoh qo'shinlari tomonidan bosib olingandan keyin aholiga …. solig'i solinadi.
A) "ixrojot" B) "moli omon"
C) "askariy" D) "otlanuv"

35. Orol dengizining shimolida istiqomat qilib turgan o'zbek qabilalari ….. eronliklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi.
A) 1740-yili B) 1741-yili
C) 1742-yili D) 1743-yili

36. Quyidagi so'zlarning qaysi biri O'rta Osiyoda XI-XVIII asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida "maslahatchi", "vazir" ma'nosini anglatgan?
A) inoq B) otaliq
C) ko'kaldosh D) parvonachi

37. Hozirgi Urganch shahriga kim asos solgan?
A) 1505-yilda Muhammad Shayboniyxon
B) 1511-yilda Elbarsxon
C) 1646-yilda Abulg'ozixon
D) 1770-yilda Muhammad Amin inoq

38. Qachon YUNESKO Xiva shahrini 2500 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan edi?
A) 1994-yilda B) 1995-yilda
C) 1996-yilda D) 1997-yilda

39. Xiva shahri …… yuzaga kelganidan buyon uning tarixi butun Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib keldi.
A) miloddan avvalgi V asrda
B) miloddan avvalgi III asrda
C) milodiy 305-yilda

D) milodiy IV asrda

40. Xiva shahri ….. 1920-yil fevralgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lgan.
A) XIII asrdan B) XIV asr boshlaridan
C) XVI asr boshlaridan D) XVII asr boshlaridan

41. Qaysi asrda Ko'hna Urganch Xorazm davlatining poytaxti edi?
A) VIII-IX asrlarda B) X-XI asrlarda
C) XI-XII asrlarda D) XII-XIII asrlarda

42. Qachon Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad poytaxti Kot shahri bo'lgan xoramshohlarni tor-mor etib, o'zini Xorazmshoh deb e'lon qildi?
A) 991-yilda B) 993-yilda
C) 995-yilda D) 997-yilda

43. Xorazmning qadimiy shaharlaridan bo'lgan Vazir shahriga tarixiy manbalarda qayd etilishicha …… tomonidan XV asr o'rtalarida asos solingan.
A) shayboniylardan bo'lgan Mustafoxon
B) xorazmshohlardan bo'lgan Asfandiyorxon
C) shayboniylardan bo'lgan Berka Sulton
D) qo'ng'irot qabilasining boshlig'I Eshimxon

44. XVI asrda shayboniylarning o'zaro urushlari Vazir shahrini vayron bo'lishiga olib kelgan bo'lib, 1558-yilda Xivaga kelgan Antoniy Jenkinson bu haqda bunday deb yozgan edi: "Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o'zaro urushlar oqibatida ……. vayron bo'ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor".
A) ikki marta B) uch marta
C) to'rt marta D) besh marta

45. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning …….. qayd etilgan.
A) 18 sohasi B) 22 sohasi C) 25 sohasi D) 27 sohasi

46. Xiva elchisi 1620-yilda Qozon shahrida qancha mato sotganligi manbalarda qayd etilgan?
A) 480 kiyimlik B) 520 kiyimlik
C) 670 kiyimlik D) 740 kiyimlik

47. XVI-XVIII asrlarda bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun …. deb ataluvchi alohida soliq olingan.
A) tagjoy B) rasta puli
C) savdo puli D) do'kon haqi

48. Mashhur xattot Hamadoniy 1556-yilda kimning topshirig'i bilan "Shayboniyno-ma"ni minatyuralar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi?
A) Abulg'ozixon B) Eshmuhammadxon
C) Muhammad Amin inoq D) Muhammad Rahimxon I

49. XVII-XVIII asrlarda Xivada ….. kabi qator usta, xattotlar ishlab mehnat qilganlar.
A) Hamadoniy, Mirzo Sodiq, Mujrim Obid, Usta Avaz
B) Amir To'raxon, Bobojon Sonoiy, Pahlovon Mahmud
C) Muhammad Yusuf Rojiy, Bobojon Sonoiy, Muhammad Rizo Oxund
D) Muhammad Moyqalam, Qo'ldosh usto, Rizo Oxund

50. Abulg'ozining topshirig'i bilan yozilgan qaysi asarda sohibqiron Amir Temurdan tortib, Zahiriddin Muhammad Boburga qadar temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan?
A) "Dastur amal" B) "Shajarayi turk"
C) "Shajarayi tarokima" D) "Podsholar tarixi"

51. Abulg'ozixon fan va madaniyat tarixida ikki muhim asari ….. bilan o'chmas nom qoldirdi.
A) "Shajarayi turk" va "Xorazmshohlar tarixi"
B) "Shajarayi tarokima" va "Shohlar tarixi"
C) "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima"
D) "Xorazmshohlar tarixi" va "Dahmaiy shohon"

52. Qaysi olim Abulg'oziyning "Shajarayi turk"i uchun butun dunyo undan minnatdor, deb yozgan edi?
A) turkolog olim Likoshin Nil Sergeyevich
B) Vengriyaning mashhur sharqshunosi A.Vamberi
C) taniqli sharqshunos Vyatkin Vasiliy Lavrentyevich
D) fransuz tarixchisi va faylasufi Volter

53. "Shajarayi turk" asarining 9-bobi bevosita Xorazmning …….. ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan.
A) 1510-1660-yillardagi B) 1611-1655-yillardagi
C) 1612-1663-yillardagi D) 1621-1662-yillardagi

54. Qachon Xiva shahrining 2500 yilligi nishonlandi?
A) 1995-yilda B) 1996-yilda
C) 1997-yilda D) 1998-yilda

55. Xiva xonligida ekinzorlarning ……. paxta yetishtirilgan.
A) 1/5qismida B) 2/3 qismida
C) 50 foizida D) 62 foizida

56. XVI-XVII asrlarda Xiva xonligidan asosan qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari qaysi davlatlarga eksport qilingan?
A) Hindiston, Xitoy, Turkiya va Rossiyaga
B) Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiyaga
C) Rossiya, Angliya, Fransiya va Xitoyga
D) Xitoy, Tibet, Hindiston va Yaponiyaga

## 5-mavzu: XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi

1. Xiva xonligi hukmdorlaridan kimlar davlat hokimyatini inoq unvonida boshqarganlar?
A) Abulg'oziy va akasi Asfandiyorxon
B) Anushaxon va Erinak
C) Sherg'ozixon va Elbarsxon
D) Muhammad Amin va uning o'gli Avaz

2. Qaysi hukmdor davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi?
A) Muhammad Amin B) Elto'zarxon
C) Muhammad Rahimxon I D) Olloqulixon

3. Xiva xonligida davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar. Ijara yerlarining hajmi qanchagacha bo'lgan
A) 10 tanobgacha B) 20 tanobgacha
C) 2-3- gektar D) 8-10- gektar

4. Qachon Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi?
A)1758-yilda B)1765-yilda C)1776-yilda D)1810-yilda

5. Qachon Olloqulixon madrasasi qurilishi tugallandi?
A) 1834-yilda B) 1838-yilda C) 1842-yilda D) 1848-yilda

6. Markaziy Osiyodagi qaysi shahar "ming gumbaz shahri" nomi bilan mashhur?
A) Ko'hna Urganch B) Buxoro C) Samarqand D) Xiva

7. XIX asr o'rtalarida qaysi usta Xivada o'ymakori eshik va ustunlar ustasi nomi bilan ayniqsa shuhrat qozongan?
A) Muhammad Matniyoz B) Polvon Abdusattor o'g'li
C) Matniyoz pona D) Odina Muhammad

8. Qaysi shahar XX asr boshlarigacha xonlikda yagona shoyi to'qish markazi bo'lib qoldi?
A) Qo'hna Urganch B) Hazorasp C) Xiva D) Xo'jayli

9. Xiva xoni, tarixchi olim Abulg'oziy Bohodirxonning (1603-1664-) "Shajarayi turk " asarining qaysi bobida 1512-1663-yillardagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva-Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan?
A) VI bobi B) VII bobi C) IX bobi D) XI bobi

10. Qachon Xiva xonlari arxivi Toshkent shahriga olib kelingan va hozirda O'zbekiston markaziy davlat arxivida saqlanmoqda?
A) 1920-yilda B) 1962-yilda
C) 1924-yilda D) 1976-yilda

11. Qachondan boshlab, Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi boshliqlari asta sekin o'z qo'llariga ola boshladilar?
A) XVII asrning 60-yillaridan boshlab
B) XVII asrning oxirlariga kelib
C) XVIII asrning 20-yillariga kelib
D) XVIII asrning 60-yillaridan boshlab

12. Qaysi Xiva hukmdori 20 yil davomida 13 marta soxta xonlarni almashtirgan?
A) Muhammad Amin inoq B) Elto'zarxon
C) Muhammad Rahimxon I D) Ollohqulixon

13. Yirik zodogonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'irot qabilasining yo'lboshchisi Muhammad Amin qachon inoqlik lavozimiga ko'tarilgan?
A) 1758-yilda B) 1761-yilda C) 1764-yilda D) 1768-yilda

14. Qachon Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi?
A) 1765-yilda B) 1767-yilda C) 1770-yilda D) 1771-yilda

15. Qachon Muhammad Amin inoq Buxoro amirligi qo'shinlarining hujumini qaytarib, Xiva xonligi mustaqilligini saqlab qoladi?
A) 1776-yilda B) 1778-yilda C) 1774-yilda D) 1780-yilda

16. Qachondan boshlab Xiva xonligida hokimiyat amalda Xiva qo'ng'irotlari qo'liga o'tdi?
A) 1511-yildan B) 1680-yildan C)1770-yildan D)1804-yildan

17. Qo'ng'irotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini …… rasman egalladi.
A) 1770-yilda B) 1780-yilda C) 1800-yilda D) 1804-yilda

18. Muhammad Rahim I 1811-yilda ……
A) Orolbo'yi zodogonlari guruhinig qarshiligini sindirdi
B) qozoqlarning Kichik juz xonligi bo'ysindirildi
C) Marv shahrini ishg'ol qildi
D) Turkmanlarning takya qabilasini bo'ysindirdi

19. Qaysi yillar oralig'ida Xiva xonligi qozoqlarning Kichik juz xonligi hududiga 2 marta hujum uyushtirildi?
A) 1810-1815-yillarda B) 1811-1818-yillarda
C) 1812-1820-yillarda D) 1813-1822-yillarda

20. 1813-yilda Shimoliy Xurosonda joylashgan ……. Xiva xonligiga qaramligini tan olishga va belgilangan hajmda soliq to'lab turishga majbur etildi.
A) turkmanlarning takiya qabilasi
B) afg'onlarning baxtiyor qabilasi
C) turkmanlarning yovmut qabilasi
D) o'zbeklarning naymon qabilasi

21. Qachon Yangi Marv shahri bunyod etildi?
A) 1220-yilda B) 1221-yilda C) 1223-yilda D) 1224-yilda

22. Qaysi Xiva xoni Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta yurish qilgan?
A) Muhammad Amin inoq B) Muhammad Rahim I
C) Avaz D) Olloqulixon

23. Xiva xonlaridan Muhammad Aminxon Marvga …. yurish qiladi.
A) 5 marta B) 7 marta C) 10 marta D) 12 marta

24. Rossiya hukumati 1819-yilda Xivaga rus armiyasi zobiti N.Muravyovning ekspeditsiyasini jo'natishdan maqsadi nima edi?
A)Turkmanlar yerini,Xiva xonligini turkmanlar bilan munosabatini hamda yangi savdo yo'li ochish istiqbollarini o'rganish edi
B) Qoraqalpoqlar yerini, Xiva xonligini qoraqalpoqlar bilan munosabatini bilish edi
C) Xiva xonligi chegaralarini o'rganish va Xiva Buxoro munosabatlarini bilish edi
D) Xiva xonligining ichki ahvolini bilish va Buxoro xonligiga boradigan yo'llarni o'rganish edi

25. Qachon Orenburg savdogarlari S.Sialkovskiy boshchiligidagi harbiy qism hamrohligida yo'lga chiqadi?
A) 1820-yilda B) 1822-yilda C) 1824-yilda D) 1826-yilda

26. Rossiya Xiva bilan munosabatlarini harbiy yo'l bilan tartibga solish maqsadida …. V.Perovskiy harbiy ekspeditsiyasini tashkil etdi.
A) 1837-yilda B) 1838-yilda C) 1839-yilda D) 1840-yilda

27. V.Perovskiy harbiy ekspeditsiyasi ixtiyorida …..
A) 4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya bor edi
B) 4700 piyoda askar, 18 ta to'p va 8 ming tuyada yuk bor edi
C) 2 ming suvoriy, 5 ming piyoda askar va 22 ta to'p bor edi
D) 5 ming kazak, 6 ming suvoriy va 33 ta to'p bor edi

28.Qachon Xivaga kapitan Jeyms Abbot keldi va u Olloqulixon bilan uchrashdi?
A) 1838-yilda B) 1839-yilda C) 1840-yilda D) 1841-yilda

29. Kim boshchiligida Rossiya hukumati Xiva bilan munosabatlarga aniqlik kiritish maqsadida elchilik missiyasini yubordi?
A) kapitan Jeyms Abbot B) I.Xoxlov
C) F.Benevini D) G.Danilevskiy

30. Qachon Xiva Rossiya o'rtasida "Majburiyatlar akti" deb ataluvchi shartnoma imzolandi?
A) 1840-yil 20-mayda B) 1841-yil 16-avgustda
C) 1842-yil 27-dekabrda D) 1849-yil 12-martda

31. XIX asr o'rtalarida boj to'lovlari Rossiya tovarlari qiymatining …… miqdoridan oshmasligi belgilab qo'yildi.
A) 5 foiz B) 10 foiz C) 15 foiz D) 20 foiz

32. XIX asrning 20-yillari boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Xiva aholisining soni …… kishini tashkil etgan.
A) 1 mln B) 800 ming C) 500 ming D) 300 ming

33. XIX asrning boshlarida Xiva xonligi poytaxti Xiva shahrida qancha aholi yashagan?
A) 2 ming B) 2600 C) 3 ming D) 4 ming

34. Xiva xonligi ma'muriy jihatdan ……, shuningdek, xonning bevosita o'ziga bo'ysindirilgan tumanlarga bo'lingan edi.
A) 12 ta viloyat va 2 ta noiblikka
B) 15 ta viloyat va 2 ta noiblikka
C) 18 ta viloyat va 50 ta tumanga
D) 22 ta viloyat va 70 ta tumanga

35. Xiva xonligida qo'shbegidan keyingi o'rinda qaysi mansabdor turgan?
A) devonbegi B) otaliq C) maxram D) mehtar

36. Muhammad Rahimxon I davrida nufuzli amaldorlardan iborat Devon tuzilgan bo'lib, Devonda xondan keyingi o'rinda ……. turadigan bo'ldi.
A) otaliq B) mehtar C) qo'shbegi D) devonbegi

37. XIX asrlarda Xiva xonligidagi yerlar qanday qismlarga bo'lingan?
A) amlok va vaqf yerlariga B)tarxon va amlok yerlariga
C) axya va adra yerlariga D)amlok, xususiy va vaqf yerlariga

38. Xiva xonligida davlat hayotiga oid masalalarni hal etish maqsadida kimning davrida nufuzli amaldorlardan iborat Devon, ya'ni davlat kengashi tuzilgan edi?
A) Olloqulixon B) Eltuzarxon
C) Muhammad Aminxon D) Muhammad Rahim I

39. Xiva xonligida mehnatkash xalq qancha soliq va boshqa to'lovlarni to'lagan?
A) 14 ta B) 16 ta C) 18 ta D) 20 ta

40. Xiva xonligida "chibik puli" solig'i ….
A) begor majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq
B) ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq
C) bir yo'la to'lanadigan haq
D) soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq

41. XVIII asr 70-yillarida Xiva xonligida…
A) Davkor ko'li yonida kanal qurildi
B) Katta Xonobod kanali qurildi
C) Qilich Niyozbiy kanali ishga tushirildi
D) Lavzan kanali bunyod etildi

42. Xiva xonligida begar majburiyatini o'tash haqidagi xabar berganlik uchun to'lanadigan haq qanday nomlangan?
A) chibik B) chopar puli C) afanak D) qo'nalg'a puli

43. Xiva xonligida himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati nima deyilgan?
A) qazu B) hachi C) obxo'ra qazu D) otlanuv

44. Xiva xonligida xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish nima deyilgan?
A) chopuv B) lashkariy C) otlanuv D) begar

45. Qachonga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi?
A) 1764-yilda B) 1772-yilda C) 1780-yilda D) 1782-yilda

46. 1834-yilda ……. qurilishi tugallandi.
A) Sherg'ozixon madrasasi
B) Muhammad Aminxon madrasasi
C) Olloqulixon madrasasi
D) Muhammad Rahimxon madrasasi

47. Xivada XIX asr birinchi yarmiga kelganda ….. mavjud bo'lgan.
A) 2 xon saroyi, 6 tim, 20 ta karvonsaroy
B) 4 xon saroyi, 22 masjid, 15 madrasa
C) 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa
D) 1 xon saroyi, 20 masjid, 5 tim, 28 madrasa

48. Ichan qa'laga qanday darvozalar orqali kirilgan?
A) Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota darvozalari
B) Polvon, Pitnak, Tosh va Regar darvozalari
C) Ota, Bog'cha, Kat va Xonqa darvozalari
D) Tosh, Kat, Pitnak va Bog'cha darvozalari

49. Kimning rahbarligida 1842-yilda Xiva atrofida 6 km uzunlikdagi mustahkam shahar-qa'la devori va uning darvozasi qurib tugallangan?
A) Otabek Tora B) Muhammad Yoqub mehtar
C) Qilichbek devonbegi D) Olloqulixon

50. Qachon Xivada Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora ham qad ko'tardi?
A) XVIII asr boshlarida B) XVIII asr o'rtalarida
C) XVIII asr oxirida D) XIX asr o'rtasida

51. 1840-1842-yillarda ……. madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi.
A) Qutlug' Murod Inoq B) Muhammad Rahim I
C) Olloqulixon D) Muhammad Amin Inoq

52. Ichan qa'lani bunyod etishda Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana …. qurish usulidan foydalanishgan.
A) ketma-ketlikda B) bir qatorda
C) ro'parama-ro'para D) oldinma-ketin

53. Qaysi hukmdor Ichan qa'laning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga Katta minor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi?
A) Muhammad Aminxon B) Olloqulixon
C) Muhammad Rahimxon I D) Asfandiyorxon

54. Qachon Ichanqa'la Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantirilgan?
A) 2000-yilda B) 1998-yilda C) 1995-yilda D) 1990-yilda

55. 1842-yilda Xiva xoni Olloqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi …., balandligi 7-8 metr, devorining qalinligi esa 5-6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan.
A) 6000 metr B) 6250 metr C) 6480 metr D) 6650 metr

56. Dishan qa'laning qancha darvozasi bo'lgan?
A) 4 ta B) 6 ta C) 8 ta D) 10 ta

57. Qaysi davrga oid manbalarda Xivada zargarlik hunari mahoratli yetakchi hunarlar qatorida tilga olib o'tilgan?
A) XVIII asrning 60-70-yillariga
B) XVIII asrning 80-90-yillariga
C) XIX asrning 30-40-yillariga
D) XIX asrning 60-70-yillariga

58. XIX asr o'rtalarida o'ymakori eshik va ustunlar ustasi kimning nomi ayniqsa shuhrat qozondi?
A) usta Otamurod B) Polvon Abdusattor o'g'lining
C) Qulmurod mehtar o'g'lining D) Pirmuhammad ustaning

59. XVII asrda yashagan Hasanbek Rumluning qaysi asari XVI asrning birinchi yarmidagi Xiva tarixiga bag'ishlangan?
A) "Shajarayi turk" B) "Qo'ng'irot hukmdorlari tarixi"
C) "Eng go'zal tarixi" D) "Shohlar tarixi"

60. "Shajarayi turk" asarining qaysi bobida 1512-1663-yillar oralig'idagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva-Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan?
A) VII bobi B) IX bobi C) XIII bobi D) X bobi

61.Munis qaysi tarixiy asarini 1806-yil Eltuzarning topshirig'i bilan yozgan?
A) "Riyoz ud-davla" B) "Gulshani davlat"
C) "Zubdat ut-tavorix" D) "Firdavs ul-iqbol"

62. Quyidagi asarlarning qaysi biri o'zida 1872-yilgacha bo'lgan tarixni aks ettiradi?
A) "Shohidi iqbol" B) "Riyoz ud-davla"
C) Gulshani davlat" D) "Zubdat ut-tavorix"
63. Xudoyberdi Avaz Muhammadning ….. yozilgan "Dili g'aroyib" asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumot beradi.
A) 1812-1813-yillarda B) 1818-1820-yillarda

C) 1831-1832-yillarda D) 1840-1841-yillarda

64. Quyidagi asarlarning qaysi biri Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo'lgan tarixini qamrab olgan?
A) "Shohidi iqbol" B) "Dili g'aroyib"
C) "Gulshani davlat" D) "Firdavs iqbol"

65. 1725-yilda Xivaga …… esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan.
A) Angliya elchisi bo'lib kelgan Jeyms Abbot
B) Rossiya elchsi bo'lib kelgan Florio Benevini
C) Angliya sayyohi Standort D) Rossiya elchisi G.Danilevskiy

66. Xiva xoni Asfandiyorxonning topshirig'i bilan 1912-yilda Yusufbek Bayoniy ……. Xiva xonligi tarixini yaratgan.
A) 1870-1910-yillardagi B) 1871-1911-yillardagi
C) 1872-1911-yillardagi D) 1875-1917-yillardagi

67. Qaysi yillarda Orenburgdan Xivaga oftolmolog vrach Blankennagel taklif etilgan?
A) 1783-1784-yillarda B) 1787-1789-yillarda
C) 1793-1794-yillarda D) 1812-1813-yillarda

68. Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga 1819-yilda kelgan ……. ham yozib qoldirgan esdaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi.
A) G.Danilevskiy B) N.I.Muravyov
C) Florio Benevini D) I.Xoxlov

69. "O'zbeklar Xorazmda", "Inoqlar hukmronligi", "Qo'ng'irot sulolasi", asarlari qaysi sharqshunos qalamiga mansub?
A) G.Danilevskiy B) C.Jukovskiy
C) H.Vamberi D) N.Vasilevskiy

70. Xiva bilan Rossiyaning XVIII-XIX asrdagi o'zaro aloqalari to'g'risida sharqshunos olim C.Jukovskiy qanday asar yozgan?
A) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari, hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati" asarini
B) "Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi" asarini
C) "Xiva va Rossiyaning savdo aloqalari" asarini
D) "O'zbeklar Xorazmda" asarini

71. Quyidagi asarlardan qaysi biri Xorazmning eng qadimiy davrlaridan to hozirgi kungacha, shu jumladan, XVI-XIX asrlar birinchi yarmi tarixi haqida Xiva shahrining 2500 yilligi yubileyi munosabati bilan chop etilgan?
A) "Xorazmning qadimgi davridan hozirgi kunigacha bo'lgan tarixi"
B) Xorazm tarixi"
C) "Xiva ming gumbaz shahri"
D) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari tarixi"

72. "Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi" (1976-yil) asari qaysi olim tomonidan yozilgan?
A) I.Mo'minov B) A.Ahmedov
C) M.Jo'raqulov D) A.Muhammadjonov

73. 1842-yilda Xiva va Rossiya o'rtasida "Majburiyatlar akti" shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi G.Danilevskiy o'zi bilan Xivaga kelgan tabiatshunos olim R.Baziner bilan birgalikda qanday asar yozib qoldirgan?
A) "O'zbeklar Xorazmda" asarini
B) "Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati" asarini
C) "Xiva ming gumbaz shahri" asarini
D) "Qo'ng'irotlar sulolasi" asarini

## 6-mavzu: XVI-XIX asrning birinchi yarmida Qoraqalpoqlar

1. Qaysi davrda bijanaklar negizida qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni boshlangan?
A) II-V asrlarda B) V-VIII asrlarda
C) VIII-X asrlarda D) IX-XI asrlarda

2. Qaysi davrlarda qoraqalpoqlar yo Buxoro xonligiga,yo qozoq xonligiga tobe bo'lgan?
A) XIV-XV asrlarda B) XV-XVI asrlarda
C) XII-XIV asrlarda D) XVI-XVII asrlarda

3. Qachon Sirdaryobo'yi qoraqalpoqlari o'z yetakchilari Eshmuhammad (Eshimxon) boshchiligida davlatga qoraqalpoq xonligiga birlashtirilgan?
A) 1714-yilda B) 1719-yilda C) 1723-yilda D) 1726-yilda

4. 1726-yilda qozoq xoni Abulxayrxon Petrburgga o'z elchilarini jo'natadi. Bunga javoban, 1731-yilda Rossiya……
A) o'z elchisi N.I.Muravyovni Xivaga jo'natadi
B) o'z elchisi M.Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga jo'natadi
C) o'z elchisiG.Danilevskiyni Kichik juz xonligiga jo'natadi
D)ingliz savdo va diplomatiya vakili A.Jenkinsonni Xiva xonligiga jo'natadi

5. Qaysi shahar XVIII-XIX asrlarda Orol va Xiva oralig'idagi savdo markazi bo'lib, bojxona shu shaharda joylashgan?
A) Chimboy B) Qo'ng'irot C) Xo'jayli D) Hazorasp

6. Qahramonlik eposi bo'lmish "Qirqqiz" dostoni qachon atoqli xalq baxshisi (jirovi) Qurbonboy baxshi Tojiboy o'g'lidan yozib olingan?
A) 1928-1932-yillarda B) 1933-1943-yillarda
C) 1936-1937-yillarda D) 1939-1940-yillarda

7. Qaysi qadimgi yodgorliklarda Orolbo'yi va Sirdaryoning quyi oqimida yashagan aholi "Saka tigraxauda" (cho'qqi qalpoqli saklar) deb atalgan?

A) Doro I qabri ustidagi toshlarga mil. avv V asrda mixxat
bilan o'yib yozilgan bitiklarda
B) "Avesto" asarida
C) Ahmoniylarning Suzadagi saroyi devoriga
D) Yunon-Rim tarixchilarining asarlarida

8. Qaysi davrda Orolbo'yi dashtlariga bir qator turkiy qabilalar kelib joylashgan?
A) mil. avv IV-III asrlarda B) mil. avv III-II asrlarda
C) milodiy II-III asrlarda D) milodiy V-X asrlarda

9. Mahalliy aholining kirib kelgan qabilalar bilan qo'shilishi natijasida Orolbo'yida qaysi qabilalar shakllangan?
A) bijanaklar va xitoy-qipchoqlar B) o'g'uzlar va mang'itlar
C) qo'ldovlar va burqutlar D) bijanaklar va o'g'uzlar

10. Qaysi davrda bijanaklar negizida qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni boshlangan?
A)6-7asrlarda B)7-8asrlarda C)8-10asrlarda D)10-11asrlarda

11. X asr boshlarida bijanaklarning bir qismi Volga ortiga, Janubiy Rus dashtlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lganlar, bunga .... siquvi, tazyiqi sabab bo'lgan.
A) qarluq va o'g'uzlarning B) o'g'izlar va qipchoqlarning
C) jungorlar va oyratlarning D) naymon va qo'ng'irotlarning

12. Qaysi davrda bir necha urug'lardan iborat qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan?
A) X asrda B) XII asrda C) XIV asrda D) XVI asrda

13. XIV asr oxirida tashkil topgan No'g'ay (Mang'it) xonligi chegarasi ....... bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.
A) Volga daryosidan Ural tog'larigacha
B) Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol
dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha
C) Orol dengizidan Sirdaryo havzasigacha, Amudaryodan
Kaspiy degizigacha
D) Orol dengizidan Ural tog'larigacha

14. Qoraqalpoq davlatchiligi kim boshchiligida XIV asr oxirlarida tashkil etilgan No'g'ay xonligidan (O'rdasidan) boshlanadi?
A) no'g'ay (mang'it)lar yetakchisi Idigu (Edigey)
B) qo'ng'irotlar boshlig'i Taburchak
C) xitoy-qipchoqlar boshlig'i Kuchukxon
D) qo'ldovlilar boshlig'i Mamanpolvon

15. Qachonga kelib No'g'ay xonligi 3 qismga –Olti ul o'rdasi, Kichik o'rda va Katta o'rdaga bo'linib ketgan?
A) XV asrning boshlarida B) XVI asrning ikkinchi yarmida
C) XVII asrning boshlarida D) XVII asrning ikkinchi yarmida

16.Qachon no'g'aylar Volga va Yoyiq daryolari bo'ylariga
bostirib kelgan jung'orlar (qalmoqlar) tomonidan tor-mor etilgan?
A) XVI asrning o'rtalarida B) XVI asrning oxirlarida
C) XVII asrning boshlarida D) XVII asrning oxirlarida

17. Qachonga kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilgan?
A) XVI asr oxirlarida B) XVII asr boshlarida
C) XVII asr oxirlarida D) XVIII asr boshlarida

18. XVIII asr boshlarida, 1714-yili Sirdaryo bo'yi qoraqalpoqlari davlatga birlashganda, kim xon qilib ko'tariladi?
A) Idigu B) Taburchak C) Eshimxon D) Kuchukxon

19. XVIII asr boshlariga kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilganda qaysi qadimiy qo'rg'on-shahar tayanch bo'lgan?
A) Sig'noq B) Jand C) To'ra D) Yangikent

20. Qoraqalpoqlarning birlashuvida .... sultonlar muhim rol o'ynagan.
A) Mamanxon,Idigu, Taburchak
B) Kuchukxon, Taburchak va G'oyib
C) G'oyib, Eshimxon va Idigu
D) Taburchak, Mastposhsho va Kuchukxon

21. XVI asrning ikkinchi yarmida No'g'ay xonligi 3 qismga bo'lingan bo'lib, qoraqalpoqlar ..... tarkibiga kirib Orol va Sirdaryo bo'ylariga kelib o'rnashganlar.
A) Kichik o'rda B) Katta o'rda
C) Olti ul o'rdasi D) O'rta o'rda

22. 1723-yilda jungorlar bostirib kelib, Sirdaryoning o'rta qismini egallagach qoraqalpoqlar yana ko'chishi oqibatida ikkiga bo'linib ketadilar. Ular shartli ravishda ......
A) Xorazm vohasi qoraqalpoqlari va Toshkent vohasi
qoraqalpoqlariga bo'linib ketdi
B)"yuqori qoraqalpoqlar"va"quyi qoraqalpoqlar"ga bo'linib
ketdi
C) Orol bo'yi qoraqalpoqlari va Sirdaryo havzasi
Qoraqalpoqlarini tashkil etdi
D) Amudaryo qoraqalpoqlari va Sirdaryo qoraqalpoqlariga
bo'linib ketdi

23. Qachon qozoq xoni Abulxayrxon tarkibida qoraqalpoq vakillari bo'lgan o'z elchilarini Peterburgga jo'natgan?
A) 1721-yilda B) 1723-yilda C) 1724-yilda D) 1726-yilda

24. Tarixchi olimlar qaysi daryoda yaratilgan ajoyib sug'orish inshootlari tizimiga- bu qoraqalpoq xalqi

qahramonona mehnatining ulug'vorligi xotirasidir, deb baho berganlar?
A) Yangidaryoda B) Quvondaryoda
C) Amudaryoda D) Sirdaryoda

25. Qachon Elbarsxon davrida Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlari Xiva xonligi hokimiyatini tan olganlar?
A) 1722-yilda B) 1726-yilda C) 1730-yilda D) 1735-yilda

26. Qachon Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo'ysindirildi?
A) 1784-yilda B) 1796-yilda
C) 1809-yilda D) 1821-yilda

27. 1810-1811-yillarda esa …… yashovchi qoraqalpoqlar ham tobe etildi.
A) Yangidaryo atrofida B) Sirdaryo havzasida
C) Quvondaryo atrofida D) Orol dengizi bo'ylarida

28. Qaysi dostonda qoraqalpoqlarning yerlar o'zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g'alla yetishtirganligi, bog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar berilgan?
A) "Qo'blan" B) "Edigey"
C) "Qirqqiz" D) "Mastposhsho"

29. Qaysi davrda Amudaryo quyi tarmoqlarida dehqonchilik vohalari vujudga keldi?
A) XVII asrda Mang'it, Qo'ng'irot
B) XVIII asrda Qalliko'l, Kegayli
C) XVI asrda Chimboy va Neko'z
D) XIX asrda Kegayli, Mang'it

30. Qoraqalpoq dehqonlaridan qanday soliq undirilgan?
A) xiroj B) ushur C) salg'ut D) zakot

31. Harbiy xavf yuz berganda xalqdan qanday soliq undirilgan?
A) "otlanuv" solig'I B) "qozon" (xo'jalik) solig'i
C) "zobitona" D) "jul" solig'i

32. Qachon Xiva xonligi zulmiga qarshi qoraqalpoqlar qo'zg'olon ko'targan?
A) 1821-yili B) 1823-yili C) 1825-yili D) 1827-yili

33. Xiva xoni Olloqulixon Oydo'stbiy boshliq qo'zg'olonchilarni bartaraf etish uchun kim boshchiligida maxsus qo'shin jo'natdi?
A) Otajon To'rani B) Muhammad Nazarbiy inoqni
C) Matnazar inoqni D) Yusufbek mehtarni

34. Muhammad Nazar inoq qo'shinlari Oydo'stbiy qo'shinlarini qayerda tor-mor etdi?
A) Chirikrabod mavzeyida B) Qo'ng'irot qo'rg'onida
C) Sori o'tovda D) Kegayli hududida

35. XIX asrning 50-yillarida ….. qo'zg'olon ko'tarildi.
A) Kegaylida uch marta B) Qo'ng'irotda ikki marta
C) Mang'itda to'rt marta D) Chimboyda besh marta

36. 1827-yil 29-iyulida Oydo'stbiy o'zining ikki o'g'li Rizo va To'rani …… bosh qilib, Qo'ng'irot qo'rg'oniga chopovulga yuboradi.
A)200 askarga B)250 navkarga C)300 botirga D)500 botirga

37. XVII asr oxiri- XVIII asr boshlarida qaysi shahar Orol va Xiva oralig'idagi savdo markazi bo'lib, bojxona shu shaharda joylashgan?
A) Chimboy B) Qo'ng'irot C) Mang'it D) Xo'jayli

38. Qoraqalpoqlar yurtida XIX asr boshlarida qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan?
A) 200 ta B) 250 ta
C) 318 ta D) 386 ta

39. Qoraqalpoqlarning qaysi dostonida Amir Temur, To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etiladi?
A) "Qo'blon" B) "Edigey"
C) "Mastposhsho" D) "Qirqqiz"

40. Qoraqalpoqlarning qaysi dostonida qoraqalpoq xalqining XVIII asrda jung'or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o'z badiy ifodasini topgan?
A) "Bo'zatov" B) "Edigey"
C) "Mastposhsho" D) "Qirqqiz"

41. Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida, el-yurt yo'lboshchilari qahramonlaridan kimlar ulug'lanadi?
A) Esongeldi mahram, O'mirbek, Oydo'stbiy, Mamanbotirlar
B) Maman botir, Esongeldi mahram, Oydo'stbiy, Ernazarbiylar
C) Oydo'stbiy, Guloyim, Ernazarbiy, Maman botirlar
D) Ernazarbiy, Rizo botir, Oydo'stbiy va To'ra botirlar

42. Qoraqalpoq yozma adabiyoti qachondan boshlab shakllangan?
A) XVI asrdan B) XVI asr o'rtalaridan
C) XVII asr boshlaridan D) XVIII asrdan

43.Qaysi asarida Jiyan Jirov qoraqalpoqlarning mashaqqatli davri tarixini bayon etgan?
A) "Xayr endi do'stlar" B) "Darbadar el"
C) "Tuyani ber" D) "Xon yonida to'ralar"

44. Qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan qaysi vakili o'zining qaysi asarida Xiva xoni ustidan kulgan?
A) Jiyan Jirov "Hoy xonimiz, xonimiz" hajviy she'rida
B) Kunxo'ja Ibrohim o'g'lining "Boy bolasi" she'rida
C) Berdaqning "Xalq uchun" she'rida
D) Kunxo'ja Ibrohim o'g'lining "Unutmasmen", "Tuya ekansan" she'rlarida

45. Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining qaysi asarida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib

ketishiga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan?
A) "Bo'zatov" B) "Xon yonida to'ralar"
C) "O'roqchilar" D) "Mening bolam"

46. Ajiniyoz Qosiboy o'g'lini butun O'rta Osiyoga tanitgan qaysi asari edi?
A) "Yigitlar" B) "Bo'zatov"
C) "Bo'lmasa" D) "Qiz Mengem bilan aytshuv"

47. Qachon Ajiniyoz tavalludining 175 yilliigi nishonlandi?
A) 1997-yilda B) 1999-yilda C) 2000-yilda D) 2002-yilda

48. Berdaqning qaysi she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan?
A) "Bo'lgan emas", Umrim", "Yordam ber"
B) "Umrim", "Avlodlar", "O'g'limga"
C) "Yordam ber", "Xalq uchun", "Umrim"
D) "Ahmoq bo'lma", "Bo'lgan emas", "Umrim"

49. Berdaqning qaysi asarida Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon tasvirlanadi?
A) "Oydo'stbiy" dostonida B) "Omongeldi" dostonida
C) "Xalq uchun" she'rida D) "Yordam ber" sherida

50. Qaysi she'ri orqali Berdaq yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi?
A) "Bo'lgan emas", "Xalq uchun"
B) "Umrim", "Yordam ber"
C) "O'g'limga", "Ahmoq bo'lma"
D) "Avlodlar", "O'g'limga"

51. Qachon mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlangan?
A) 1998-yilda B) 1999-yilda C) 2000-yilda D) 2001-yilda

52. Berdaqning qaysi asarida qoraqalpoqlarning Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyoni aks ettirilgan?
A) "Oydo'stbiy" dostonida B) "Ernazarbiy" dostonida
C) "Omongeldi" dostonida D) "Avlodlar" dostonida

## 7-mavzu: XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi

1. Qaysi Qo'qon hukmdori davrida xonlikning qudrati ortdi va u O'sh va O'zganni bo'ysindirdi?
A)Abdurahimbiy B) Erdona
C) Norbo'tabiy D)Olimbek

2. Qaysi yillarda hukmronlik qilgan Qo'qon xoni dastlab Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostirdi hamda Xo'jandni qayta bo'ysundirdi?
A)1751-1762-yillarda hukmronlik qilgan Erdona davrida
B) 1733-1750-yillarda hukmronlik qilgan Abdulkarimbiy davrida
C) 1763-1798-yillarda hukmronlik qilgan Norbo'tabiy davrida
D) 1798-1810-yillarda hukmronlik qilgan Olimbek davrida

3. Qo'qon xonligini qaysi hukmdori o'z davlatini 1805-yilda rasman Qo'qon xonligi deb, o'ziga esa "xon" rutbasini oldi?
A) Norbo'tabiy B) Olimxon
C) Sheralixon D) Xudoyorxon

4.Qaysi tarixchi olimning 1915-yilda Toshkentda nashr etilgan "Tarixi Turkiston" asarida Qo'qon xonligidagi mansablarga ta'rif berilgan?
A)Mulla Olim Muhammadxo'ja Toshkandiyning
B)Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning
C)Abdulkarim Fazliy Namangoniyning
D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiyning

5. Qachon Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'ini uyishtirildi?
A) 1847-yil 10-mayda B) 1850-yil 9-aprelda
C) 1852-yil 9-oktabrda D) 1856-yil 14-iyunda

6. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligining qaysi shahri pilla sotiladigan asosiy bozor markazi edi?
A) Andijon B) Namangan C) Qo'qon D) Marg'ilon

7. Qaysi davrdan boshlab Andijon Farg'ona vodiysining markazi bo'lgan?
A) XII asrdan B) XIIIasrdan C) XIV asrdan D)XV asrdan

8. 1821-yilda Fazliy Namongoniy Umarxon amriga binoan necha nafar shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan "Majmuayi shoiron" to'plamini tuzgan?
A) 50 nafar B) 56 nafar C) 63 nafar D) 74 nafar

9. Qo'qon xoni Umarxon (Amiriy) ning devoni qachon qayerlarda chop etildi?
A)1882-yilda Istambulda, 1905-yilda Toshkentda
B) 1880-yilda Dehlida, 1900-yilda Orenburgda
C) 1885-yilda Qozonda, 1910-yilda Xivada
D) 1887-yilda Karochida, 1902-yilda Qohirada

10. Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo'lgan tarixiy asar "Tarixi jahonnomayi" ning muallifi kim?
A) Abdulkarim Fazliy Namongoniy
B) Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad
C) Muhammad Solih
D)Mulla Ali Qori Qunduziy

11. Qo'qon xonligi qachon tashkil topdi, uning birinchi hukmdori kim bo'lgan?
A) 1704-yil Norbo'tabiy B) 1706-yil Shodibiy
C) 1709-yil Shohruhbiy D) 1710-yil Abdurahimbiy

12. Shohruhbiyning o'g'li Abdurahimbiy davrida qaysi viloyatlar qo'shib olindi?
A) Xo'jand va O'ratepa B) Samarqand va Qo'rg'ontepa

C) O'sh va Toshkent D) Namangan va O'ratepa

13. Qo'qon xonlaridan qaysi biri o'z poytaxtini Tepaqo'rg'ondan Qo'qon shahriga ko'chirdi?
A) Shohruhbiy B) Abdulkarimbiy
C) Abdurahimbiy D) Erdona

14. 1751-1762-yillarda hukmronlik qilgan Erdona davrida qayerlar bo'ysindirildi?
A) Samarqand va Jizzax B) Qurama va Toshkent
C) O'sh va O'zgan D) Samarqand va O'ratepa

15. Erdona davrida Qo'qon xonligi ……. bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylandi.
A) g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy
B) janubda Xorazm, g'arbda Rossiya
C) sharqda Xitoy, janubda Xorazm
D) g'arbda Rossiya, shimolda Buxoro

16. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlrga qaraganda qaysi Qo'qon hukmdori davrida ekinlardan mo'l-ko'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan?
A) Erdona B) Norbo'tabiyC) Amir UmarxonD) Xudoyorxon

17. Qaysi hukmdor o'z davlatini 1805 yili rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qildi, o'ziga esa "xon" rutbasini oldi?
A) Shohruhbiy B) Abdulkarimxon C) Erdona D) Olimxon

18. Qo'qon xoni Olimxon Orenburgga boradigan savdo yo'llari tutashgan joyda xonlikning chegara qa'lasi ……. qurdirdi.
A) Bishkekni B) To'qmoqni C) Oqmasjidni D) Verniyni

19. Tarixchi olim Mahmud Hoji o'zining qaysi kitobida 24 ta katta davlat mansabiga ta'rif bergan?
A) "Tarixi Shohruhbiy" B) "Turkiston tarixi"
C)"Tarixi jahonnomayi" D) "Tarixi muhojiron"

20. Qo'qon xonligida qaysi mansabdagi amaldor xon nomiga yozilgan arizalarni qabul qilish bilan shug'ullangan?
A) xudoychi B) mehtar C) naqib D) parvonachi

21. Olimxon davrida o'tkazilgan harbiy islohatga ko'ra botirlar deb ataluvchi muntazam armiya tuzila boshlangan. Har bir botirga oyiga qancha maosh belgilangan?
A) 20 tanga B) 35 tanga C) 50 tanga D) 60 tanga

22. Qo'qon xonligida xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor qanday atalgan?
A) sarkor B) shig'ovul C) muhtasib D) daftardor

23. Qo'qon xonligida mansabdorlar ishi ustidan nazorat qilib boruvchi amaldor kim bo'lgan?
A) naqib B) parvonachi C) shig'ovul D) sarkor

24. XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent qanday dahalarga bo'lingan?
A) Ko'kcha, Sebzor, Solor va Qorasuv
B) Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor
C) Beshyog'och, Kamolon, Sebzor va Solor
D) Bo'zsuv, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur

25. Yunusxo'ja hokimiyat tepasiga kelgach unga qanday unvon berilgan?
A) "Xoni oliy" B) "Hazrati eshon"
C) "Xalq homiysi" D) "hokimi mutlaq"

26. Qachon to'rt hokimlik tugatilib, yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi natijasida mustaqil Toshkent hokimligi tashkil topdi?
A) 1780-yilda B) 1782-yilda C) 1784-yilda D) 1786-yilda

27.Yunusxo'ja 1796-yilda qayerlarni Toshkentga qo'shib oldi?
A) Chimkent,Sayram va boshqa o'nlab shahar va qishloqlarni
B) Katta qozoq juzi yerlarini
C) Qorakesak bo'lisini
D) Kichik qozoq juzi yerlari va Chimkent va Yettisuvni

28. Toshkent hokimi Yunusxo'ja qo'shinida asosiy kuchni kimlar tashkil qilgan?
A) Qorakesak bo'lisi vakillari B) katta juz qabilalari
C) qirg'izlar D) qipchoq suvoriylari

29. Toshkent bekligi Qo'qon va Buxoro xonliklarini, Orenburg va Sibir bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tadigan qaysi hududlarni o'z qo'lida tutib, O'rta Osiyo bilan Rossiyaning savdo munosabatlarida yetakchilikni qo'lga olishga intildi?
A) Xo'jand, O'ratepa, Jizzax
B) Turkiston, Chimkent va Sayram
C) Sayram, Xo'jand va Marg'ilon
D) O'sh, Turkiston va Xo'jand

30. Toshkent bekligining qaysi hudud ustidan o'z ta'sirini kuchaytirishi Qo'qon xonligining iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ygan edi?
A) Chimkent va Sayram B) Xo'jand va O'ratepa
C) Katta qozoq juzi D) Turkiston va O'ratepa

31. Qachon Qo'qon xoni Olimxon qoshinlari Toshkentga yurish boshlaydilar?
A) 1789-yida B) 1792-yilda C) 1797-yilda D) 1799-yilda

32. Yunusxo'ja hukmronligi davrida qanday pullar zarb qilingan?
A) yunusiy va tanga B) rupiya va tanga
C) fuls va so'm D) dinor va dirham

33. XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Toshkent shahrini o'rab turgan devorning uzunligi …. yaqin bo'lgan.
A) 13 km ga B) 16 km ga
C) 18 chaqirimga D) 23 chaqirimga

34. Toshkent shahri nazorati va soliq yig'ish kimning qo'lida edi?
A) Salimsoq to'rani B) Boboxon to'rani
C) Rustam to'rani D) Boshchixo'jani

35. Qachon Qurama mavzeyi Toshkentga qo'shib olindi?
A) 1789-yili B) 1784-yili C) 1795-yili D) 1799-yili

36. Toshkent hokimining nechta maslahatchisi bo'lgan?
A) ikkita B) uchta C) tortta D) beshta

37. Toshkent shahar savdosi ustidan ….. nazorat qilishgan.
A) qozi va devonbegi B) rais va mushrif
C) muxtasib va qozi D) devonbegi va mushrif

38. Toshkent bekligida qaysi lavozimdagi shaxs shariat qonun-qoidalari va bozordagi narx-navo, o'lchovlar ustidan nazorat qilgan?
A) mushruf B) muxtasib C) devonbegi D) rais

39. 1786-yili Toshkentlik savdogarlar B.Ismoilov va Azizxo'jalar qaysi yarmarkaga borishgan?
A) Orenburgdagi B) Irbitdagi
C) Troiskdagi D) Petropavlovskdagi

40. 1787-yili Troiskdan Toshkentga qancha so'mlik rus va chet el mollari keltirilgan?
A) 22380 so'mlik B) 25480 so'mlik
C) 27773 so'mlik D) 29330 so'mlik

41. 1795-yilning sentabr oyida qancha kishidan iborat Toshkent savdo karvoni Semipalatinsk shahriga kelgani hujjatlarda qayd etilgan?
A) 18 kishidan B) 24 kishidan
C) 36 kishidan D) 46 kishidan

42. XVIII asrning 90-yillarida ……. rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo Petropavlovskka qatnab turgan.
A) savdogar B.Ismoilov B) savdogar Azizxo'ja
C) Rahmatulla karvonboshi D) Yusufbek karvonboshi

43. Qachon Muhammadxo'ja va Azizxo'ja boshliq Toshkent savdo karvoni Sibirga jo'naganda Yunusxo'ja ular orqali Sibir ma'muriyati nomiga maktub jo'natgan?
A) 1784-yili B) 1787-yili C) 1892-yili D) 1794-yili

44. Sibir ma'muriyati 1794-yili qaysi elchilarini Toshkentga jo'natadi?
A) A.T.Beznosikov va T.S.Burnashevlarni
B) A.S.Pazuxin va I.Xoxlovlarni
C) F.Benivini va A.Sialkovskiylarni
D) A.T.Beznosikov va A.S.Pazuxinlarni

45. Sibir ma'muriyatining 1796-yilda ikkinchi bor yuborgan elchilarini Toshkentga kim kuzatib keladi?
A) Xiva xoni askarlari
B) Buxoro amiri sarbozlari
C) O'rta qozoq juzi Qorakesak bo'lusi sultoni Bukeyning o'g'li Eshim Sulton
D) Qo'qon xoni Norbo'tabiyning sarbozi

46. Qachon Toshkent elchilari Sankt-Peterburgga borib imperator Aleksandr I qabulida bo'lganlar?
A) 1793-yilda B) 1798-yilda C) 1803-yilda D) 1807-yilda

47. Qachon Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olindi?
A) 1803-yilda B) 1805-yilda C) 1807-yilda D) 1809-yilda

48. Qaysi tarixchi Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tavsiflagan?
A) Muhammad Hakim B) Muhammad Solih
C) Muhammad Ho'qandiy D) Fazliy Namangoniy

49. Qo'qon xonligining hududi qaysi hukmdor davrida ancha kengaydi?
A) Amir Umarxon B) Muhammad Alixon
C) Olimxon D) Xudoyorxon

50. Muhammad Alixon davrida qayerlarga yurishlar qilinib, bu yerlar egallandi?
A) Qo'rg'ontepa, Darboz va Ko'lobga
B) O'sh, O'zgan va Darbozga
C) Qorategin, Darboz va Ko'lobga
D) O'zgan, Qarshg'ar va O'shga

51. Qachon Amir Nasrullo o'z qo'shinlarini Qo'qonga yubordi?
A) 1839-yilda B) 1840-yilda C) 1841-yilda D) 1842-yilda

52. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi qo'zg'olonni tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan kimlarning madadiga tayangan edilar?
A) uyg'urlarning B) qipchoqlarning
C) jung'orlarning D) oyratlarning

53. Amir Nasrulloning ikkinchi bor Qo'qonga yurishi natijasida shahar 40 kun qamalda tutiladi, biroq qamalni davom ettirishiga nima xalaqit beradi?
A) Buxoroda Amir Nasrulloga qarshi ko'tarilgan isyon
B) Shahrisabz hokimining o'zini mustaqil deb e'lon qilishi
C) Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro amirligiga qilgan hujumi
D) Qo'qonliklarning mardonavor qarshiligi

54. Qachon Musulmonqul soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon

ko'targan O'sh xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan yuborildi?
A) 1841-yilda B) 1843-yilda C) 1844-yilda D) 1845-yilda

55. Xudoyorxon qachon Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi?
A) 1851-yil 12-mayda B) 1851-yil 8-noyabrda
C) 1852-yil 9-oktabrda D) 1853-yil 15-martda

56. Qo'qon xonligi mingboshisi Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida kim bilan maxfiy ravishda uchrashadi?
A) rus qo'mondoniligi vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan
B) Buxoro amirligi vakili Qalandarxo'ja bilan
C) Xitoy imperatori elchisi Vu-Di bilan
D) Rossiya davlati elchisi I.V.Burnashev bilan

57. Qo'qon xonligida mulklarning ko'pchiligi ……. bo'lgan.
A) 20 sotixdan 40 sotixgacha
B) 30 sotixdan 60 sotixgacha
C) 40 sotixdan 70 sotixgacha
D) 50 sotixdan bir gektargacha

58. Qo'qon xonligida ko'chmanchi xalqlardan qanaqangi zakot olinardi?
A) "tutun haqi", "xiroj", "ko'chuv puli"
B) "chodir puli", "qo'ra boshi", "moli omon"
C) "qo'ra boshi", "tutun haqi", "yig'im soliq"
D) "chorva puli", "tutun haqi", "qo'ra boshi

59. Qo'qon xonligida zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlaridan iborat bo'lgan soliq qanday nomlangan?
A) "tutun haqi" B) "yig'im soliq"
C) "qo'ra boshi" D) "o'tov puli"

60. Qo'qon xonligida bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) qanday nomlangan?
A) "tutun haqi" B) "qo'ra boshi"
D) "o'tov puli" D) "ko'chuv puli"

61. Qo'qon xonligida oltin ma'dani qaysi hududlardan olingan?
A) Pop hududidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan
B) Kosonsoy (Namangan)dan, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan
C) Iloq vohasidagi tog'lardan, Chotqol daryosi yuqoi oqimlaridan
D) O'sh tog'laridan, O'zgan hududidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan

62. Qo'qon xonligida qog'oz ustaxonasi qayerda joylashgan edi?
A) Namangan shahrida hokim saroyi yonida
B) Marg'ilonda bozor chetidagi maydonda
C) Qo'qon shahrining Mo'yi muborak darvozasi orqasida maqbara yonida
D) Andijon shahrida Jome masjidi orqasidagi maydonda

63.Qo'qondan Qashg'argacha yuklangan ot karvoni …….. yo'l yurgan.
A) 14-20 kun B) 20-25 kun C) bir oy D) 30-35 kun

64. Qashg'ardan Qo'qonga har yili ….. keltirilgan.
A)1500 otda choy,200 otda mato,50 otda qimmatbaho toshlar
B)30000 otda choy,200 otda mato,200 otda qimmatbaho toshlar, 50 otda attorlik buyumlari
C)2000 otda choy, 100 otda mato, 150 otda attorlik buyumlari
D)2500 otda choy,150 otda mato,300 otda qimmatbaho toshlar

65. Qo'qon shahrida qaysi kunlari bozor bo'lgan?
A) seshanba va shanba B) chorshanba va juma
C) yakshanba va chorshanba D) dushanba va payshanba

66. Tarixiy manbalarda Qo'qonga oid ma'-lumotlar qachondan boshlab uchraydi?
A) VIII asrdan B) IX asrdan C) X asrdan D) XII asrdan

67. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon shahrida qancha aholi yashagan?
A) 20000 aholi B) 30000 aholi
C) 40000 aholi D) 60000 aholi

68. XIX asr o'rtalarida Qo'qondagi madrasalar ichida ……. madrasalari alohida ajralib turardi.
A) Madalixon, Umarxon, Mingoyim, Xudoyorxon
B) Jome, Mingoyim, Tunqator, Norbo'tabek
C) Madalixon, Norbo'tabek, Jome, Hojimoyim, Xojadodxox, Mingoyim
D) Murodbek, Xudoyorxon, Mingoyim, Tunqator

69. Andijon shahri arablar istilo qilgan davrda …… deb atalgan, degan rivoyat ham bor.
A) "Anjon" B) "Angon" C) "Andukon" D) "Andajon"

70. "Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur …. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'r'onidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar" deganda qaysi shahar nazarda tutilgan?
A) Shahrisabz B) Andijon C) Marg'ilon D) Toshkent

71. Qachon Farg'onaning qadimgi poytaxti Axsikant qattiq zilzila oqibatida vayron bo'lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko'chgan?
A) 1600-yilda B) 1610-yilda C) 1615-yilda D) 1620-yilda

72. Namanganning nomi manbalarda qachondan boshlab uchraydi?
A)XV asrdan B)XVI asrdan C)XVII asrdan D)XVIII asrdan

73. Qachon Namangan aholisi kuchi bilan katta Yangi ariq kanal qazilib, shaharning suv ta'minoti yaxshilangan?
A) 1815-1817-yillarda B) 1817-1820-yillarda
C) 1810-1812-yillarda D) 1819-1822-yillarda

74. Namangan shahri qachon baland devor bilan o'ralgan?
A) 1832-1835-yillarda B) 1835-1837-yillarda
C) 1842-1845-yillarda D) 1846-1848-yillarda

75. XVIII-XIX asrlarda Qo'qonda …. faoliyat yuritgan.
A) 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid
B) 110 ta maktab, 30ta madrasa va masjid
C) 100 ta maktab, 25 ta madrasa va masjid
D) 80 ta maktab, 20 ta madrasa va masjid

76. 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan qanday to'plamni tuzgan?
A) "Shohnomayi Umarxon" B) "Majmuayi shoiron"
C) "Tarixi shohruhiy"ni D) "Tarixi jahonnoma"ni

77. XVIII-XIX asrlarda Marg'ilonda qancha madrasa va maktab faoliyat yuritgan?
A) 70 ta maktab, 12 ta madrasa va masjid
B) 60 ta maktab, 15 ta madrasa va masjid
C) 80 ta maktab, 10 ta madrasa va masjid
D) 50 ta maktab, 8 ta madrasa va masjid

78. Qo'qon xoni Umarxonning g'azallar devoni ……. chop etildi.
A) 1882-yilda Istambulda, 1905-yilda Toshkentda
B) 1880-yilda Qozonda, 1900-yilda Toshkentda
C) 1885-yilda Anqarada, 1905-yilda Istambulda
D) 1890-yilda Toshkentda, 1910-yilda Xivada

79. Butun sharq adabiyotida mashhur hisoblangan "Zarbulmasal" asari qaysi shoir qalamiga tegishli?
A) Maxmur B) Gulxaniy
C) Turdi D) Mashrab

80. Uvaysiyning adabiy merosida …. va boshqalar bor.
A) 269 g'azal, 29 muxammas, 3 doston
B) 306 g'azal, 26 muxammas, 10 tuyuq
C) 260 she'r, 22 g'azal, 5 doston
D) 426 g'azal, 70 ruboiy, 6 doston

81. O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim-Nodiradan qancha misraga yaqin lirik adabiy meros qolgan?
A) 5 ming misra B) 7 ming misra
C) 10 ming misra D) 12 ming misra

82. Boborahim Mashrab necha yil davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan?
A) 8 yil B) 12 yil B) 16 yil D) 18 yil

83. Boborahim Mashrab necha yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan?
A) 12 yoshidan B) 14 yoshidan
C) 15 yoshidan D) 17 yoshidan

84. Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yili g'animlarining ig'vosi bilan … tomonidan o'limga hukm etiladi.
A) Xuroson hukmdori Shoh Abbos I
B) Balx hokimi Mahmudbiy qatag'on
C) Hirot hokimi Ahmadbek
D) Buxoro hukmdori Ubaydulloxon

85. XVIII-XIX asr tarixchilaridan bo'lmish Abdulkarim Fazliy Namangoniy Amir Umarxonning topshirig'i bilan qanday tarixiy asarni yozgan?
A) "Shohnoma" B) "Majmuayi shoiron"
C) "Shohnomayi Umarxon" D) "Tarixi Shohruhiy"

86. Amir Umarxonning maslahati bilan yozilgan "Shohnomayi Umarxon" qaysi tarixchining asari?
A) Fazliy Namangoniyning
B) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiyning
C) mulla Ali Qori Qunduziyning
D) Dilshodi Barnoning

87. Quyidagi asarlardan qay biri Amir Umar-xon davrining ko'zga ko'ringan tarixchisi Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon qalamiga mansub?
A) "Shohnomayi Umarxon"
B) "Tarixi Shohruxiy"
C) "Muntaxab ut-tavorix"
D) "Tarixi jahonnomayi"

88. Mulla Niyoz Muhammad Hoqandiy "Tarixi Shohruhiy" asarida qaysi yilgacha bo'lgan , ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan va bo'lgan voqealarni bayon etadi?
A) 1860-yilgacha B) 1865-yilgacha
C) 1870-yilgacha D) 1872-yilgacha

89. Tarixchi Mulla Ali qori Qunduziyning "Tavorixi manzuma" asarida …… tarixi bayon etilgan.
A) 1800-1822-yillar B) 1810-1824-yillar
C) 1820-1836-yillar D) 1822-1848-yillar

90. Ma'rifatparvar shoira va tarixchi olima Dilshodi Barno quyidagi qaysi asarlarni yozib qoldirgan?
A) "Tarixi muhojiron" ("Muhojirlar tarixi"), "Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron" ("Inson matonati va muhojirlar tarixi")

B) “Muntaxab ut-tavorix”, “Tarixi muhojiron”
C) “Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron”, “Tarixi Shohruhiy”
D) “Shohnomayi Umarxon”, “Tarixi muhojiron”

91. Qo’qon xattotlik san’atining qaysi namoyondalarining kitob ko’chirish borasida o’zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi?
A) Muhammad Sharif, Mirzo Sharif Dabir, Qunduziy
B) Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg’ozixo’ja
C) Abulg’ozixo’ja, Mirzo Qalandar, Muhammad Hakimxon
D) Muhammad Hoqandiy, Mirzo Qalandar, Muhammad Latif

92. Quyidagi madrasalarning qaysi biri xalq orasida Madrasiyi Mir nomi bilan mashhur bo’lgan?
A) Madrasai Tunqator B) Madrasai Jome
C) Norbo’tabiy madrasasi D) Madrasai Xo’jabek

93. Amir Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroldan Yettisuvgacha egallab qanday qa’lalarni qurdirdi?
A) Pishpak (Bishkak), Verniy (Olma ota), Avliyoota ( Jambul)
B) Oqmasjid (Qizil O’rda), Avliyoota (Jambil), Pishpak (Bishkak)
C) Verniy (Olma ota), To’qmoq (Orol), Oqmasjid (Qizil Orda)
D) Avliyoota (Jambil), Raim (Kopol), Pishpak (Bishkak)

94. Quyidagi madrasalarning qaysilari 1825-yilda qurilgan?
A) Madrasayi Tunqator, Madrasayi Haqquli mingboshi
B) Madrasayi Buzrugxo’ja, Madrasayi Jome
C) Madrasayi Mingoyim, Madrasayi Xo’jabek
D) Madrasayi Jome, Madrasayi Tunqotor

95. Madrasayi Miyonhazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim To’ra inshootlari qachon qurilgan?
A) 1807-yili B) 1803-yili
C) 1798-yili D) 1795-yili

96. Qaysi davrda Toshkentda ham muhtasham me’moriy-dinniy inshootlar qurilishi, eskilarini ta’mirlash ishlari keng qo’lamda olib borilishi natijasida Baroqxon va Ko’kaldosh madrasalari qayta ta’mirlandi, Shayx Xovondu Tohur me’moriy majmuasi hozirgi ko’rinishda shakllantirildi?
A) XVIII asrning o’rtalarida
B) XVIII asrning oxirlarida
C) XIX asrning birinchi yarmida
D) XIX asrning o’rtalarida

## 8- mavzu: O’rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari

1. Hindiston hukmdori Avrangzeb Olamgir (1658-1707) bilan Buxoro xonligining qaysi hukmdorlari o’rtasida elchilik munosabatlari davom etgan?
A) Abdullaxon II va Pirmuhammad
B) Abdulazizxon va Subhonqulixon
C)Nodir Muhammad va Imomqulixon
D)Iskandarxon va Ubaydullaxon II

2. Afg’oniston hukmdori Temurshoh (1773-1793) qancha qo’shin bilan Balxga qarab yuradi?
A) 50 ming B) 70 ming C) 100 ming D) 140 ming

3.Qo’qon xoni Muhammad Ali Sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo’ja va uning ukasi Yusufxo’ja ixtiyoriga kim boshchiligida qo’shin jo’natadi?
A) Haqqulini B) Bekmuhammadni
C) Muhammadxo’jani D) Aminxo’jani

4.Qachon Buxoroda I.Xoxlov Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma’lumotlar to’playdi?
A) 1617-1620-yillarda B) 1620-1622-yillarda
C) 1622-1625-yillarda D) 1625-1627-yillarda

5. Qachon Xiva xoni Shohniyoz Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so’ragan?
A) 1700-yilda B) 1702-yilda C) 1705-yilda D) 1707-yilda

6. Qachon Katta juz sultonligining Rossiya tobeligiga o’tishi natijasida Rossiya hukumati uchun Markaziy Osiyoni o’z ta’siriga bo’ysundirish yo’lida qulay imkoniyat yuzaga keldi?
A) 1739-yilda B) 1740-yilda C) 1745-yilda D) 1747-yilda

7. Qachon hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F.Beneveni Peterburgga qaytib ketdi?
A)1723-yilda B) 1725-yilda C) 1727-yilda D) 1724-yilda

8. XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan bo’lib, bular …….
A) Movarounnahrda shayboniylar, Xurosonda temuriylar, Turkistonda minglar edi
B) Eronda safaviylar, Hindistonda boburiylar, Xurosonda afsharlar bo’lgan
C) Movarounnahrda shayboniylar, Eronda safaviylar va Hindistonda boburiylar edi
D) Turkistonda qipchoqlar, Eronda safaviylar va Hindistonda lo’diylar

9. XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida kurash maydoniga chiqqan uch siyosiy

kuchlarning manfaatlari to'qnashgan nuqta qayer edi?
A) Xuroson B) Movarounnahr
C) Toxariston D) Sharqiy Turkiston

10. Qaysi davrda shayboniylar bilan boburiylar o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi?
A)XVI asrda B)XVII asrda C)XVII asr o'rtalarida D)XVIII asrda

11. Abdullaxon boburiylar hukmdori Akbarshohga necha marta elchi yubordi?
A) uch marta B) to'rt marta
C) ikki marta D) besh marta

12. Qachon Akbarshoh elchisi Buxoroga kelgan?
A) 1580-yilda B) 1582-yilda C) 1584-yilda D) 1586-yilda

13. Qaysi hukmdor davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan?
A) Akbarshoh davrida B) Jahongirshoh davrida
C) Shoh Jahon davrida D) Salimshoh davrida

14. Nodir Muhammadxon o'g'li Abdulazizga qarshi kurashish maqsadida kimdan yordam so'raydi?
A) Eron hukmdori Shoh Abbosdan
B) Hindiston hukmdori Shoh Jahondan
C) Xorazm hukmdori Abulg'ozi Bahodirxondan
D) Balx hokimi Mahmudbiy Qatag'ondan

15. Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasi yana ……. hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu saltanat tanazzul tomon yuz tutib bordi.
A) 100 yil B) 120 yil C) 150 yil D) 170 yil

16. Qachon mustaqil Afg'oniston davlati tashkil topdi?
A) 1745-yilda B) 1747-yilda C) 1749-yilda D) 1751-yilda

17. 1751-yili Afg'oniston hukmdori ……. Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan o'zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo'shin yuboradi.
A) Ahmadshoh B) Temurshoh
C) Zoirshoh D) Suloymonshoh

18. Qachon mahalliy o'zbeklar afg'onlarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?
A) 1758-yilda B) 1763-yilda C) 1765-yilda D) 1768-yilda

19. O'zbeklar qachon Afg'oniston hukmdori Temurshohga qarshi qo'zg'olon ko'taradi?
A) 1778-yilda B) 1782-yilda C) 1785-yilda D) 1789-yilda

20. Sin imperiyasi …… mobaynida Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysindirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinardi.
A) 1751-1754-yillarda B) 1753-1758-yillarda
C) 1755-1759-yillarda D) 1761-1765-yillarda

21. Qaysi davrga kelib Qo'qon-Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi?
A) XVIII asrning 50-yillarida B) XVIII asrning 80-yillarida
C) XIX asrning 20-yillarida D) XIX asrning 60-yillarida

22. Qo'qon-Xitoy munosabatlarining keskinlashuviga nima sabab bo'ldi?
A) Muhammad Alixonning sharqiy turkistonliklarning Jahongirxo'ja boshchiligidagi Sin imperiyasiga qarshi 1825-yilda boshlangan milliy-ozodlik kurashiga aralashuvi
B) Xitoyga to'lanadigan soliqlarni to'lamay qo'yganligi
C) Qo'qon xoni Sharqiy Turkistonni o'z mulki deb e'lon qilishi
D) Xitoyning Sharqiy Turkistonni bosib olishi

23. Qachon Xitoy hukumati Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi, O'rta Osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, ularning mulklarini musodara qildi?
A) 1823-yilda B) 1825-yilda C) 1827-yilda D) 1829-yilda

24. Sharqiy turkistonliklarning Sin imperiyasiga qarshi qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragandan keyin Yusufxo'ja bilan …….. uyg'ur oilasi Farg'onaga ko'chib keladi.
A) 30 ming B) 50 ming C) 65 ming D) 70 ming

25. Qachon Pekinda Xitoy-Qo'qon shartnomasi imzolanadi?
A) 1825-yilda B) 1829-yilda
C) 1832-yilda D) 1835-yilda

26. Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra ….
A) Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini olgan
B) Xitoylik savdogarlar Qo'qon xonligida boj to'lamay savdo qilish huquqini olgan
C) Sharqiy Turkistonda savdogarlardan bojni xitoyliklar yig'ib olgan
D) Qo'qonlik savdogarlar Xitoyda boj to'lamasdan savdo qilishgan

27. Qachon Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi va podsho Mixail Romanov qabulida bo'ladi?
A) 1616-yilda B) 1618-yilda C) 1619-yilda D) 1620-yilda

28. Yozma manbalarda qaysi davrda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan?
A) XV-XVI asrlarda B) XVI-XVII asrlarda
C) XVII-XVIII asrlarda D) XVIII-XIX asrlarda

29. 1583-1600-yillarda Moskvada …….. bo'lishgan.

A) 5marta Buxoro elchilari, 2marta Xiva elchilari
B) Abdullaxonning 2 marta elchilari bo'lishgan
C) 5 marta Arab Muhammad elchilari
D) qoraqalpoq elchilari 7 marta

30. Qaysi Xiva xoni 1700-yilda Pyotr I hu-zuruga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan?
A) Anushaxon B) Erinak
C) Shohniyoz D) Muhammad

31. 1713-yili Astraxanga kelgan Xiva elchi-si … rus ma'murlariga, Sank-Peterburg-ga borgach, podsho Pyotr I ga Amudar-yo sohilidagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miq-dorda oltin yuvib olayotganini aytadi?
A) Shohniyoz B) Odambiy C) Matkarim D) Xo'ja Nafas

32. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi qachon Xiva xonligi hududiga kirib keladi va harbiy to'qnashuvlar bo'ladi?
A) 1714-yilda B) 1715-yilda C) 1716-yilda D) 1717-yilda

33. Buxoro xoni Abulfayzxon Peterburgga kim boshchiligida elchilarini yuboradi va u Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshiradi?
A) Odambiy B) Xo'ja Nafas
C) Qulibek D) Ernazar Maqsudov

34. Qachon Rossiya Buxoroga Florio Benevenini elchi qilib jo'natadi?
A) 1719-yilda B) 1721-yilda C) 1723-yilda D) 1725-yilda

35. F.Beneveni Buxoroda ……. turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ladi.
A) 1,5 yil B) 2,5 yil C) 3,5 yil D) 4,5 yil

36. Qachon Kichik juz sultoni Abulxayr Rossiyaga elchi jo'natib, Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi?
A) 1725-yilda B) 1727-yilda C) 1723-yilda D) 1730-yilda

37. Qachon Semekexon boshchiligidagi O'rta juz Rossiya tobeligiga o'tadi?
A) 1732-yilda B) 1732-1733-yillarda
C) 1739-1740-yillarda D) 1740-1741-yillarda

38. 1734-yili senat kotibi I.Krilov boshchiligidagi harbiy guruhga qanday vazifalar yuklatilgan edi?
A) "Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish", "Buxoro va undan Hindistonga" boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarni izlashni davom ettirish lozim edi
B) Buxoro va undan Hindistonga boradigan savdo yo'lini ochish, Orol dengizida flot tashkil qilish edi
C) Rossiya savdogarlarini xonliklarda savdo qilishini ta'minlash edi
D) Hindistonga boradigan yo'lni ochish edi

39. I.Krilov guruhi 1735-yilda qanday istehkomlar qurdi?
A) Kopol istehkomini qurdi
B) Orol istehkomini qurdi
C) Or daryosi bo'yida Or qa'lasini qurdi, Yoyiq va Irtish sohillari (Sibir)da istehkomlar barpo etdi
D) Kopol va Raim istehkomlarini qurdi

40. U.Murkford boshchiligidagi ingliz ekspeditsiyasi qachon Buxoroga yetib keldi?
A) 1821-yil may oyida B) 1823-yil mart oyida
C) 1825-yil fevral oyida D) 1827-yil noyabr oyida

41. Manbalarda qayd etilishicha U.Murkford ekspeditsiyasi tarkibida qancha kishi bo'lganligi, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan?
A) 70 kishi B) 80 kishi C) 60 kishi D) 90 kishi

42. 1826-yilda Rossiya hukumati polkovnik F.Berg boshchiligida qayerga ekspeditsiya yuborib, O'rta Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi?
A) Orol bo'yiga B) Ustyurtga C) Buxoroga D) Xorazmga

43. 1831-yilda inglizlar O'rta Osiyoga ikkinchi marta yuborgan elchilariga kim boshchilik qilgan?
A) leytenant A.Byorns B) mayor U.Murkford
C) mayor Richard Shekspir D) kapitan Jeyms Abbot

44. Rossiyaning 1839-yilda Xiva xonligiga qarshi uyushtirgan harbiy yurishiga kim boshchilik qilgan?
A) general-mayor N.Kuropatkin
B) general-leytinant G.Krijinovskiy
C) Orenburg gubernatori V.A.Perovskiy
D) Rossiya senati kotibi I.Krilov

45. 1847-yilda Rossiya, xonliklarga olib bo-radigan yo'lda qanday istehkomlar qurdi?
A) Or qa'lasi va Kopol istehkomini
B) Orenburg qa'lasi va Raim istehkomini
C) Troisk va Semiplatinsk qa'lalarini
D) Raim va Kopol istehkomlarini

46 Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukumati qaysi Buxoro hukmdoriga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildirdi?
A) Amir Haydarga B) Amir Shohmurodga
C) Amir Nasrulloga D) Amir Doniyolbiyga

47. Qachon Angliya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya-Angliya munosabatlari yanada keskinlashgan?
A) 1837-yilda B) 1838-yilda C) 1839-yilda D) 1840-yilda

## IV bo'lim. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari

**1-mavzu: XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti**

1. XIX asrda O'rta Osiyoda ……. mavjud edi
A)Buxoro amirligi,Toshkent bekligi,Xiva xonligi
B) uchta mustaqil davlat Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari
C)Buxoro amirligi, Turkiston general guberna-torligi, Qo'qon va Xiva xonliklari
D)Qo'qon va Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Qashqar va Toshkent bekliklari

2.Buxoro amirligining hududi XIX asrda qancha kv.km. dan ortib ketdi?
A) 170 ming kv.km. dan B) 190 ming kv.km. dan
C) 200 ming kv.km. dan D) 220 ming kv.km. dan

3. Buxoro amirligining poytaxti islom dini markazlaridan biri bo'lib ….nomiga ega bo'lgan
A) "Islom dinining gumbazi"
B) "Islom dinining poytaxti"
C) "Shayxlar shahri" D) "Buxoroyi Sharif"

4. Buxoro amirligining chegaralari janubda qayerdan qayergacha cho'zilgan?
A) Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlab Sirdaryogacha
B) Pomir tog'laridan Xiva xonligi yerlarigacha
C) Murg'ob daryosidan Ko'lob vodiysigacha
D) Panj daryosidan Hisor tog'larigacha

5. Amirlikda qancha beklik bo'lgan ?
A) 15ta B) 22 ta C) 27 ta D) 32 ta

6. Amirlikning markaziy qismi …….. shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi hisoblangan
A) Buxoro va Shahrisabz B)Samarqand va Jzzax
C)Qarshi va Termiz D) Buxoro va Samarqand

7. Buxoro davlati hududi XIX asrning o'rta-larida qayerlar bilan chegaradosh bo'lgan
A) Turkiya ,Eron ,Qoqon va Xiva xonliklari bilan
B) Eron ,Afg'oniston ,Qoqon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan
C) Rossiya, Eron ,Afg'oniston ,Qoqon va Xiva xonliklari, turkman yerlari bilan
D) Afg'oniston ,Qoqon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari yerlari bilan va Rossiya bilan

8. Xiva xonligining maydoni XIX asrning ikkinchi yarmida qanchani tashkil etardi?
A) 90 ming kv.km.ni B) 110 ming kv.km.ni
C) 130 ming kv.km.ni D)150 ming kv.km.ni

9. Xiva xonligining yerlari g'arbda …… bilan chegaradosh bo'lgan?
A) Eron B) Kaspiy dengiz
C) Buxoro amirligi D) Qozoq juzlari

10. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi-ning ma'muriy markazi qaysi shahar hisoblangan ?
A) Urganch B) Xo'jayli C) Xiva D)Kat

11. Xiva xonligida nechta beklik mavjud bo'lgan?
A) 15 ta B) 25 ta D) 36 ta D) 40 ta

12. Xiva xonligining yerlari sharqda qayer bilan chegaradosh bo'lgan?
A) Buxoro B)Eron C) Kaspiy dengizi D) qozoq juzlari

13.XVIII asr boshlarida asosan qaysi hududlar Buxoro amirligidan ajralib ,mustaqil davlat Qo'qon xonligi tashkil topadi?
A) asosan hozirgi Andijon va Farg'ona viloyatlari hududi
B) asosan Farg'ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha
C) Farg'ona vodiysi va Sharqiy Turkiston
D) Farg'ona vodiysi va Oloy hududi hamda Xo'jand

14.Qo'qon xonligining janubiy chegaralari …… o'z ichiga olib bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan.
A)Sharqiy Turkiston va Qashg'arni
B)Qorategin va Ko'lobni hamda O'zganni
C)Qorategin, Ko'lob , Darvoz ,Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni
D) O'sh, Pishpak, Turkiston, Chimkentni

15. XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligining aholisi qancha bo'lgan?
A) 1,5 milliondan ziyod B) 2 million atrofida
C) 2,5 millionga yaqin D) 3 milliondan ortiq

16. Xiva xonligining aholisi XIX asrning o'rtalarida qanchani tashkil qilgan ?
A) 500 ming kishini B) 600 ming kishini
C) 700 ming kishini D) 800 ming kishini

17. XIX asrning o'rtalarida Qo'qon xonligining aholisi qanchani tashkil qilgan ?
A) 2 millionga yaqin B) 2,5 million atrofida
C) 3 million atrofida D) 3,5 million atrofida

18. Buxoro amirligi mang'itlar sulolasi qaysi yillarda boshqargan ?
A) 1747-1917-yillarda B) 1750-1919-yillarda
C) 1752-1924-yillarda D) 1756-1920-yillarda

19. Buxoro amirligida ijro hokimyati qaysi amaldor qo'lida bo'lgan ?
A) devonbegi B) otaliq C) qo'shbegi D) mingboshi

20. Buxoro amirligini amir Nasrullo qaysi yillarda boshqargan?
A) 1804-1815-yillarda B) 1815-1860-yillarda
C) 1826-1860-yillarda D) 1860-1885-yillarda

21. Amirlikda tashqi aloqalarni yuritish qaysi mansabdorga yuklatilgan?
A)devonbegiga B) mextarga
C) qoshbegiga D) ko'kaldoshga

22. Dodhoh lavozimini egallab turgan shaxs ….. .
A) oliy hukmdor farmonlarini e'lon qilgan
B) xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan
C)amirlik hujjatlarini yuritishga ma'sul bo'lgan
D) sud ishlarini nazorat qilgan

23. Buxoro amirligini 1860-1885-yillarda kim boshqargan?
A) Amir Nasrullo B)Amir Abdulahadxon
C) Amir Muzaffar D) Amir Haydar

24. Amirlikda moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni qaysi mansabdor idora qilgan?
A) mextar B) devonbegi C) daftardor D) xazinachi

25. Muxtasib mansabidagi amaldor qanday masalalar bilan shug'ullangan?
A) shariyat qoidalarini bajarilishi va amal qilinishi masalalari bilan
B) sud ishlarini nazorat qilgan
C) diniy –huquqiy masalalar bilan
D) mamlakat xafsizligi bilan

26. Oliy hukmdor farmonlarini qaysi mansabdor e'lon qilgan ?
A) xudoychi B) muftiy C) parvonachi D) muxtasib

27. Buxoro amirligidagi qaysi mansabdor mamlakat xafsizligi, amirning yaqinlari, do'st-lari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan?
A) Sadr B)ko'kaldosh C) to'pchiboshi D) muftiy

28. Buxoro amirligidagi ….. amir qo'shinlarining bosh qo'mondon bo'lgan.
A)to'pchiboshi B)mingbosh iC)yasavul D)parvonachi

29. Amirlikda taxt vorisi-valiahd tarbiyasi bilan qanday shaxs shug'ullangan?
A) mirzaboshi B) to'pchiboshi C) muxtasib D) otaliq

30. Buxoro amirligida viloyat va tuman hokimlari kimning tavsiyasi bilan tayinlangan?
A)devonbegini B)qo'shbegini C)otaliqni D)mushrifni

31. Amirlikdagi mushrif mansabidagi shaxs …..
A) soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borishga javobgar bo'lgan
B) sud boshlig'i hisoblangan
C) xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan
D) valiahd tarbiyasi bilan shug'ullangan

32. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1510-1670-yillarda B) 1670-1880-yillarda
C) 1770-1920-yillarda D) 1760-1920-yillarda

33.Xiva xonligida oliy amaldor devonbegi hisoblanib,uning ixtiyorida …… iborat kengash faoliyat ko'rsatgan .
A)qo'shbegi,mehtar,otaliqdan
B)otaliq,biy,muxtasibdan
C) mehtar, yasavulboshi, raisdan
D)rais,otaliq,beklarbegidan

34. Xiva xonligida qo'shinlarining bosh qo'mondoni-yasavulboshi……..
A) aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan shug'ullangan
B) xonlikdagi tartib-intizom ishlariga ma'sul bo'lgan
C) sud ishlarini olib brogan
D) xazina ishlarini nazorat qilgan

35.XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida taxminan qancha otliqdan iborat qo'shin bor edi?
A) 15 ming B) 25 ming C) 34 ming D) 40 ming

36. Qo'qon xonligini minglar sulolasi qaysi yillarda boshqargan?
A) 1708-1870-yillarda B) 1710-1876-yillarda
C) 1811-1873-yillarda D) 1809-1875-yillarda

37.Qo'qon xonligida eng yuqori harbiy lavozim ……. bo'lib u harbiy vazir hisoblangan
A) mingboshi B) beklarbegi
C) amirlashkar D)to'pchiboshi

38. Qo'qon xonligida muhtasib-raislar qanday ishlarni nazorat qilishgan?
A) diniy ishlar,shariyat qoidalariga rioya qilinishi, savdo-sotiqni to'g'ri yuritilishini
B) xazina ishlarini va xarajatlarini
C) tartib-intizom ishlarini
D) shariat qoidalariga rioya etilishi va amal qilinishini

39.Qoqon xonligi zarurat tug'ilganda ……..
A) yem-xashak ortilgan 8 ming aravaga ega bo'lgan 40 mingtagacha otliqni yig'a olgan
B)oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtagacha askarni yig'a olgan
C) 15 ming suvoriy va 40 ming piyoda askarni to'play olgan
D) 3 ta to'p, 10ming arava oziq ovqat va 70 ming askarni yig'a olgan.

40.XIX asr o'rtalarida dehqonlar ijaraga olgan yerlari uchun hosilning qancha qismini xiroj sifatida to'lagan?
A) 1,5 yoki 1,3 qismini B) teng yarmini
C) 1,6 yoki 1,4 qismini D)70 foizini

41.Xiva xonligida ijaraga yer olganlar qanday atalgan?
A) "nisfikor" B) "barzikor" C) "yarimchi" D) "chorikor"

42. XIX asr o'rtalarida vaqf yerlaridan olinadigan foyda hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi mansabdor shug'ullangan?
A) sadr B)mutavalli C) muftiy D) mehtar

43. Xiva xonligida asosiy soliq qanday atalgan?
A) xiroj B) tanobona C)salg'ut D) afanak

44. Qaysi Xiva xonining buyrug'i bilan Shermuhammad Munis Xorazmning 1812-yilga qadar bo'lgan tarixini yozgan?
A) Muhammad Rahimxon II ning
B) Ollohqulixonning
C)Asfandiyorxonning D) Arab Muhammadxonning

45. Shermuhammad Munis necha misradan iborat devonini avlodlarga meros qilib qoldirgan?

A) 12 ming B) 14 ming C) 16 ming D) 18 ming

46. Mirxondning "Ravzot us-safo" (soflik bo'gi ) tarixiy asrini tarjimasini Munis qachon boshladi?
A)1812-yilda B)1816-yilda C)1819-yildaD)1821-yilda

47. Muhammad Rizo Ogahiy qaysi davrda yashab ijod qilgan?
A) 1800-1862-yillarda B) 1809-1874-yillarda
C) 1806-1872-yillarda D) 1811-1876-yillarda

48. Quyidagi tarixiy asarlarning qaysilari Ogahiy qalamiga bog'liq?
A)"Riyoz ud-davla","Zubdat ut-tavorix", "Gulshani davlat"
B) "Shohidi iqbol", "Navodir ul-vaqoe", "Ravzot us-safo"
C) "Firdavs ul-iqbol ", "Zubdat ut tavorix", "Gulshani davlat"
D) "Manozir ul-kavokib ", "Qish" , "Shohidi iqbol"

49. Ahmad Donish qaysi yili amir Nasrulloning elchilari bilan Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlari boylab sayohat qilgan?
A)1853-yilda B)1856-yilda C)1858-yildaD)1862-yilda

50. Ahmad Donish qachon kimning taklifi bilan "Manozir ul-kavokib " (Sayyoralarining joylanishilari) nomli astranomiyaga oid kitob yozgan?
A) 1858-yilda amir Nasrulloning
B) 1865-yilda amir Muzaffarning
C)1890-yilda amir Abdullaxonning
D) 1880-yilda amir Muzaffarning

51. Qo'qon xonligida she'riy istedodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo'lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig'i- "Malik ush-shuaro" nomini olgan shoirni ayting?
A) Fazliy B) Gulxaniy C) Uvaysiy D) Muqumiy

52.Quyidagi asarlardan qay birida 200 nafarga yaqin qo'qonlik shoirlar va olimlar ijodini o'z ichiga olgan tazkira hisoblanadi?
A) "Manozir ul-kavokib" B) "Navodir ul-vaqoe"
C) "Majmuat ush-shuaro" D) "Shohidi iqbol"

53.Bugungi kunda ham Xiva shahrining ko'rki hisoblangan Muhammad Rahimxon madrasasi qachon qurilgan?
A) 1851-1855-yillda B) 1865-yilda
C) 1860-1865-yilda D) 1871-yilda

54.XIX asr ikkinchi yarmi noyob arxetiktura yodgorligi hisoblangan yuzdan ortiq xonadan iborat 1863-1870-yillarda qurilgan inshootni belgilang?
A) Hokim Oyim madrasasi
B) Sulton Murodbek madrasasi
C) Xudoyorxon saroyi
D) Muhammad Aminhon madrasasi

55. 1859-yilda Baroqxon madrasasini tamirlash bilan bir davrda uning qarshisida …. singari inshootlar bunyod etilgan?
A)Moyi muborak madrasasi, Tillashayx jome masjidi
B)Hazrati Imom majmuasi
C)Qosim Shayx majmuasi, Ko'kaldosh madrasasi
D)Tillashayx jome masjidi, Hazrati Imom majmuasi

## 2-mavzu Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi

1.Qachon Irtish daryosi sohilida Rossiya imperiyasi yettita istehkom qurib bitkazdi?
A)1710-yilda B)1718-yilda C)1721-yildaD)1747-yilda

2. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy ahvoli, suv va quruqlikdagi yo'llari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun kimlarni ayg'oqchi sifatida jo'natib turdi?
A) sayyoh, savdogar, elchilarni
B)olimlar,sayyohlar,ustalarni
C)savdogar,olim,harbiy maslahatchilarni
D) elchi, usta, yirik zadogonlarni

3. Kim 1825-yilda O'rta Osiyoga Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun yuborildi?
A)Ch.Stoddart B) A.Byorns
C) M.Murkfort D) Bekovich Cherkasskiy

4. Qaysi yili A.Byorns Buxoroga yuborildi?
A)1825-yilda B)1827-yilda C)1830-yildaD)1832-yilda

5. Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari bo'lmish kimlar Buxoroga kelganda 1842-yilda amir tomonidan qatl qilindi?
A) M.Murkfort va A.Byorns B) I.Volf va J.Abbot
C) Ch.Stoddart va A.Konolli D) A.Byorns va A.Volf

6. 1855-yilda o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar…..
A) Afg'oniston viloyatiga aylantirildi
B)Rossiyaga tegishli deb e'lon qilindi
C) kichik juz qozoqlariga berildi
D) Angliya mustamlakasi deb e'lon qilindi

7. Qachon Xiva va Buxoroga kapitan J.Abbot yuborilgan?
A)1838-yilda B)1840-yilda C)1843-yildaD)1845-yilda

8. Qaysi urushdagi mag'lubiyati Rossiya imperiyasini Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish harakatini tezlashtirishga undadi?
A)Bolqon urushidagi B)Qirm urushidagi
C)Turkiya urushidagi D)Eron urushidagi

9. 1847-yilda Rossiya imperiyasi Sirdaryoning Orolga quyilish joyida qanday istehkomni qurdirdi?
A) Raim qalasini B)Kopol istehkomini
C)Orenburg shahrini D)Berniy qo'rg'onini

10. Qaysi yillar oralig'ida Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoliy-g'arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi?
A) 1845-1860-yillar B) 1847-1865-yillar
C) 1853-1864-yillar D) 1860-1865-yillar

11. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish necha bosqichda amalga oshirildi?
A) ikki B) uch C) to'rt D) besh

12.Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishning Ikkinchi bosqichi qaysi yillarda amalga oshirildi?
A) 1842-1853-yillarda B) 1847-1860-yillarda
C) 1860-1865-yillarda D) 1865-1868-yillarda

13.Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi 1873-1879-yillarda amalga oshirilgan bo'lib, bunda……yerlarini bosib olishdan iborat bo'ldi.
A) Farg'ona vodiysi B) Xiva va Qo'qon xonligi
C) Jizzax va Samarqand D) Buxoro amirligi

14. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududlarini bosib olishining to'rtinchi bosqichi …..amalga oshirilib bunda turkmanlarning bo'ysundirilishi bo'ldi.
A) 1865-1868-yillarda B) 1873-1879-yillarda
C) 1880-1885-yillarda D) 1885-1890-yillarda

15. O'rta Osiyo hududlari …..ortiq vaqt davomida Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosib olindi
A) 1847-1876-yillarda 29 yildan
B) 1853-1880-yillar 27 yildan
C) 1860-1882-yillar 22 yildan
D) 1864-1885-yillar 20 yildan

16.Rossiya imperiyasining bosqinchiligi natijasida O'rta Osiyo xonliklari hududining qancha qismi bosib olinib , mustamlakaga aylantirildi?
A) 1583255 kv.km B) 1168557 kv.km
C) 1475425 kv.km D) 1743520 kv.km

17. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishining ikkinchi bosqichi 1865-1868-yillarni qamrab olgan bo'lib, bunda …… istilochilik harakatlari amalga oshirildi.
A) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga
B) Xiva xonligi va Buxoro amirligiga
C) Xiva xonligi va turkmanlarning yerlariga
D) Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston hududlariga

18.Qachon Rossiya imperatori Aleksandir II (1855-1881) Qo'qon xonligini bosib olishni davom ettirishi to'g'risidagi ko'rsatmani berdi?
A)1857-yildaB)1859-yildaC)1861-yildaD)1864- yilda

19. Podsho qo'shinlari 1853-yilda Oqmachit qa'lasiga qancha qo'shin bilan hujum boshladi?
A) 2 minga yaqin B) 2,5 ming atrofida
C) 3 mingdan ortiq D) 3,5 mingdan ziyod

20.Oqmachit qa'lasi bosib olingandan keyin unga qanday nom berildi?
A) Cherniyayevka B) Duxovskiy
C) Skobelev D) Perovskiy

21. 1864-yilda kimlar boshchiligidagi uch mingdan ko'proq qo'shin ikki yo'nalishda, biri Perovskiy fortidan (Orenburg tomonidan), boshqasi esa Verniy (Almati) shahri tomonidan Toshkentni bosib olish uchun yo'lga chiqdi?
A) N.Veryovkin va M.Chernyayevlar
B) M.Chernyayev va fon Kaufman
C) F.Ramanovskiy va N.Veryovkin
D) N.Krijinovskiy va F.Ramanovskiy

22. Qachon N.Veryovkin otryadi Qo'qon xonligiga qrashli Turkiston shahrini bosib oldi?
A) 1864-yil 6-iyunda B) 1864-yil 12-iyulga
C)1864-yil 20-avgustda D)1864-yil 16-noyabrda

23. Amirlashkar Aliquli (Alimqul) nima sababdan Turkiston shahri himoyachilarini bu yerdan olib chiqib, Chimkent himoyasi uchun chekindi?
A) Amir lashkarni yetarli qo'shini bo'lmaganligi uchun
B) N.Veryovkin agar Turkiston himoyachilari taslim bo'lmasa,shaharni yalpi o'qqa tutib, barchani qirib tashlashini, Ahmad Yassaviy sharafiga Amir Temur tomonidan qurilgan maqbarani ham yakson qilishini ultimatum tarzida qo'yganligi uchun
C) Rossiya imperiyasi qo'shinlari Toshkent shahrini bosib olish uchun yo'lga chiqqanligi uchun, ularni yo'lini to'sib qo'yish maqsadida
D)Qo'qon xonligiga qarashli qolgan shaharlarni bosib olmaslik to'g'risidagi Rossiya podshosi-ning sulhi natijasida

24. 1864-yil kuziga kelib qanday istehkom chiziqlari vujudga kelgan edi?
A) Raim qa'lasidan Perovskiy fortigacha Sirdaryo istehkomi chizig'i, Semiplatinskdan Verniy shahrigacha Sibir istehkom chizig'i.
B) Raim qa'lasidan Perovskiy fortigacha Sirdaryo istehkomi chizig'i, Kopal qa'lasidan Almati shahrigacha Qo'qon chizig'i
C) Qo'qon istehkomi chizig'i va Sibir istehkom chizig'i
D) Yangi Farg'ona istehkom chizig'i va Raim istehkomi chizig'i

25. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrida qancha darvoza bo'lgan ?
A) 8 ta B) 10 ta C ) 12ta D) 14ta

26.Toshkent shahri aholisi XIX asr o'rtalarida qanchani tashkil qilgan?
A) 60 ming kishini B) 80 minga yaqin kishini
C) 70 ming kishini D) 90 mingdan ortiq kishini

27.Qachon M.Cherniyayev o'zini podshoga yaxshi ko'rsatish maqsadida tezlik bilan Toshkentni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi?
A) 1864-yil 20-sentyabrda B)1865-yil 10-aprelda
C) 1864-yil 1-oktyabrda D) 1865-yil 22-martda

28.Toshkent shahrini egallashda podsho hukumati qo'shinlari shaharning qaysi darvozasi yonidan devorni buzib ichkariga kirdi?
A) Kamalon B) Sag'bon C) Chig'atoy D) Ko'kcha

29. Toshkent shahri oqsoqollari bilan general M.Chernyayev o'rtasida qachon muzokaralar boshlandi ?
A) 1865-yil 20-mayda B) 1865-yil 17-iyunda
C)1864-yil 10-dekabrda D)1864-yil 6-sentyabrda

30.Qachon Rossiya podshosi "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom"ni qabul qilgan edi?
A) 1865-yil 6-avgustda B) 1865-yil 10-noyabrda
C) 1878-yil 14-martda D) 1875-yil 20-mayda

31. Toshkent oqsoqollaridan necha nafari shaharni "ixtiyoriy ravishda topshirish" to'g'risidagi sulhni imzolashga majbur bo'lishdi?
A) 16 nafari B) 12 nafari C) 9 nafari D) 6 nafari

32.Turkiston general-gubernatoriligi qachon tashkil qilingan?
A)1865-yilda B)1866-yildaC)1867-yildaD)1868-yilda

33.1867-yillarda Turkiston harbiy okrugining qo'shinlarining soni qancha bo'lgan?
A) 25 ming B) 30 ming C) 35 ming D) 40 ming

34. General adyutant K.P.fon Kaufman qaysi yillarda Turkiston general-gubernatori vazifasida faoliyat ko'rsatgan?
A) 1865-1880-yillarda B) 1866-1885-yillarda
C) 1867-1881-yillarda D) 1868-1882-yillarda

35, Qachon Buxoro amirligiga qarshi yerlarda markazi Samarqand shahri bo'lgan Zarafshon okrugi tashkil qilingan?
A)1867-yilda B)1868-yilda C)1869-yildaD)1869-yilda

36.Rossiya imperiyasi bosib olgan Turkiston o'lkasi 5 ta ma'muriy hududiy birlikka (okrugga) bo'lingan bo'lib, hududiy jihatdan eng kichigi bo'lgan .....
A) Samarqand viloyatining maydoni 2000 kv verst bo'lgan
B) Yettisuv viloyatining maydoni 2500 kv verst edi
C)Farg'ona viloyatining maydoni 2100 kv verst bo'lgan
D)Kaspiy orti viloyatining maydoni 1800 kv verst edi

37. Markazi Yangi Marg'ilon, bo'lgan keyinchalik Skobilov-hozirgi Farg'ona shahri)Farg'ona viloyati qachon tashkil qilingan?
A)1870-yilda B)1872-yilda C)1874-yildaD)1876-yilda

38. Turkiston general-gubernatorligining eng kichik viloyati Samarqand Rossiya imperiyasining qaysi guberniyasidan maydoni jihatidan katta bo'lgan?
A)Saratov guberniyasidanB)Moskva guberniyasidan
C)Ryazan guberniyasidan
D)Orenburg guberniyasidan

39. Rossiyaning Xiva xonligi hududidan bosib olgan yerlarida tashkil etilgan Amudaryo bo'limi qachon tashkil etilgan?
A)1869-yilda B)1873-yilda C)1870-yildaD)1875-yilda

40.Podsho hukumati O'rta Osiyodan M.Cherniyayevni Sank-Peterburgga chaqirib olgandan keyin, uning o'rniga kimni tayinladi?
A) K.P. fon Kaufmanni B) N.Krijinovskiyni
C) F.Romanovskiyni D) P.Veryovkinni

41. Rossiya qo'shinlari va Buxoro amirligi qo'shinlari o'rtasidagi birinchi jang qayerda bo'lib o'tgan?
A) 1886-yil 10-martda Xo'jand shahri yaqinida
B) 1866-yil 8-mayda Erjar qishlog'i yaqinida
C) 1866-yil 16-sentabrda O'ratepa yaqinida
D) 1868-yil 2-oktabrda Jizzax shahrida

42. Orenburg general-gubernatori N.Krijinovskiy Buxoro amirining vakili bilan sulh shartnomasi bo'yicha uchrashib 10 kun mobaynida qancha tovon to'lashni talab qildi ?
A) 100 ming rubl B) 100 ming rubl
C) 100 ming rubl D) 100 ming rubl

43.1866-yilning kuzida podsho qo'shinlari….. iborat harbiy qo'shin bilan O'ratepaga qarab harakat boshladi.
A) 3 ming piyoda askar, 1000 kazak, 30 ta to'p
B) 6 ming piyoda askar, 500 kazak, 28 ta to'p, 700 aravadan va 800 tuyadan
C) 4 ming otliq, 600 kazak, 35 ta to'p va 700 aravadan
D) 5 ming suvoriy, 40 ta to'p, 600 aravadan va 500 tuyadan

44. O'rta Osiyoda qaysi yillar davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Sirdaryo viloyati tashkil qilindi?
A) 1853-1865-yillarda B) 1860-1862-yillarda
C) 1864-1866-yillarda D) 1860-1865-yillarda

45. Podsho hukumati Jizzax shahrini egallagandan keyin bu yerda qancha qo'shin qoldirdi?
A) 3ming piyoda askar, 300 kazak, 12 ta to'p
B) 2ming piyoda askar, 500 kazak, 20 ta to'p
C) 4ming piyoda askar, 400 kazak, 25 ta to'p
D) 5ming piyoda askar, 600 kazak, 10 ta to'p

46. Qachon va qayerda K.P. Kaufman va Amir Muzaffar o'rtasida Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnoma imzolandi?
A) 1868-yil 28-iyunda Samarqandda
B) 1868-yil 7-iyunda Kattaqo'rg'onda
C) 1868-yil 16-iyulda Buxoroda
D) 1868-yil 8-avgustda Jizzaxda

47. Rossiya-Buxoro shartnomasiga ko'ra, bosib olingan Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan barcha hudud….. Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tdi.
A)Xo'jand,O'ratepa,Jizzax,Samarqand, Shahrisabz shaharlari
B) O'ratepa, Samarqand, Qarshi, Termiz shaharlari
C) Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Samarqand, Jizzax,Kattaqo'rg'on shaharlari
D)Jizzax, Samarqand, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Termiz shaharlari

48. Amir Muzaffarning katta o'g'li Abdumalik to'ra hech qayerdan yordam ololmagach qayerga ketadi va u yerda vafot etadi?
A)Qobulga B)Peshovarga C)Qashg'arga D)Tabrizga

49. Qachon Buxoro bilan Rossiya imperiyasi amirlikka o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi?
A)1870-yilda B)1873-yilda C)1875-yildaD)1877-yilda

50. Kim Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi?
A) I.F.Abramov B) F.Romanovskiy
C) P.Lessar D) N.Krijinovskiy

51. Qaysi yillarda Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg'oniston va O'rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to'g'risida muzokaralar olib bordi?
A) 1867-1868-yillarda B) 1868-1869-yillarda
C) 1869-1870-yillarda D) 1870-1871-yillarda

52.Buxoro amirligi va Eron O'rtasidagi chegara qachon Eron shohi bilan Tehrondagi Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada belgilandi?
A)1875-yil 12-mayda B) 1889-yil 16-dekabrda
C)1889-yil 16-aprelda D) 1881-yil 10- dekabrda

53.Qaysi yillardagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo'yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilashni nihoyasiga yetkazdi?
A) 1885-1887-yillardagi B) 1887-1889-yillardagi
C) 1889-1891-yillardagi D) 1891-1992-yillardagi

54. Qachon V.Perovskiy boshchiligidagi podsho qo'shinlari Xiva xonligiga yurish qilgan edi?
A)1717-yilda B)1832-yilda C)1839-yildaD)1841-yilda

55. Rossiya imperiyasining qaysi yo'nalishlardan yo'lga chiqqan qo'shinlari 1873-yil mayida Xiva xonligi chegaralariga yetib keldi?
A) Kazalinks va Kopal B) Toshkent va Orenburg
C) Orol va Krasnavodsk
D) Semipalatinsk va Toshkent

56. Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga yurishida …iborat harbiy qo'shini ishtirok etdi.
A)12 mingdan ortiq askar ,4600 ot va 20 ming tuyadan
B)8 ming otliq askar,1000 ta kazak va 12 ming tuyadan
C)14ming piyoda askar,6000 ot va 10 ming tuyadan
D)10mingdan ortiq askar,700 ot va 16 ming tuyadan

57. Xiva xoni Muhammad Rahim II va fon Kaufman o'rtasidagi shartnoma qachon imzolandi?
A) 1873-yil 13-mayda B) 1873-yil 18-noyabrda
C) 1873-yil 12-avgustda D) 1873-yil 12-martda

58. Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Xiva xonligi Rossiya imperiyasiga necha yil davomida qancha tovon puli to'lash kerak edi?
A) 10 yil ichida 1,5million rubl
B) 15 yil ichida 1,8million rubl
C) 20 yil ichida 2 million 200 ming rubl
D) 25 yil ichida 2 million 700 ming rubl

59. Qo'qon xonligida 1875-yilda avj olib ketgan qo'zg'alonga kim boshchilik qildi?
A)Darveshxon B) Yetimxon
C) Po'latxon D)Alimqul

60. Qachon Nasriddinbek mag'lubiyatdan qo'rqib Rossiya imperiyasiga taslim bo'ldi?
A) 1875-yil 16-avgustda B) 1875-yil 22-sentabrda
C) 1875-yil 26-dekabrda D) 1876-yil 19-fevralda

61. Qo'qon xoni Nasriddinbek va fon Kaufman o'rtasidagi shartnomaga binoan……
A) ikki million rubl tovon to'lashi,Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar-Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi belgilangan edi.
B) unda Nasriddinbek o'zini imperatorning "sodiq quli" deb tan olishi va 500 ming rubl tovon to'lash kerak edi
C) xon tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi va Farg'ona hududini Rossiya mulki deb e'tirof etish kerak edi.
D) Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlarni Rossiyaga berishi va 1million rubl tovon to'lashi kerak edi

62. Qachon podsho hukumatining Qo'qon xonligini tugatilganligi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi?
A) 1876-yil 12-yanvarda B) 1876-yil 22-yanvarda
C) 1876-yil 19-fevralda D) 1876-yil 1-martda

63. Qachon Krasnavodskdan I.Lazerev boshchiligidagi harbiy qo'shin turkmanlar joylashgan hududlarga yuborildi?
A) 1878-yil mayda B) 1878-yil dekabrda
C)1879-yil iyulda D) 1879-yil noyabrda

64.Rossiya qoshinlarini turkmanlar yashaydigan hududlarda ikkinchi yurishi qachon boshlandi?
A)1879-yil dekabrda B) 1880-yil fevralda
C) 1880-yil mayda D) 1881-yil martda

65. Qachon turkmanlarni batamom podsho qo'shinlari tomonidan bostirishi amalga oshirildi?
A)1880-yilda B)1882-yildaC)1883-yildaD) 1885-yilda

66. Rossiya imperiyasi qo'shinlari qachon Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'alonni bostirdi?
A)1881-yilda B)1883-yilda C)1885-yildaD)1887-yilda

67Qancha vaqt davom etgan janglardan so'ng qamalga olingan turkmanlar qa'lasi-G'o'ktepa qo'lga olindi?
A)40 kun B) ikki oy C) uch oy D) 70 kun

**3-mavzu:Rossiya imperiyasing urkistondagi mustamlakachilik siyosati**

1.Qaysi Turkiston general-gubernatori "Turkiston o'lkasini boshqa o'lkalarga nisbatan tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e'tibor berilishini talab qiladi," degan edi?
A) K.P.Kaufman B) F. Romanovskiy
C) S.M.Duxovskiy D) N.Krijanovskiy

2.Qachon senator K.Palen Turkiston o'lkasi-ning podsho topshirig'i bilan taftish qilgan?
A)1898-1902-yillarda B) 1900-1903-yillarda
C) 1905-1907-yillarda D) 1908-1910-yillarda

3.Rossiya imperiyasining qaysi amaldori " O'lkada eng kichik ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo'lida bo'lgan" deb takidlagan edi?
A) general- gubernator S.M. Duxovskiy
B) senator K.Palen
C) graf P. Lessar D) harbiy vazir A. N. Kuropatkin

4. Qachon qabul qilingan " Nizom" loyihasi asosida o'troq aholi bir bosqichli tizim shaklida, ya'ni oqsoqolliklarga, chorvador aholi esa ikki bosqichli tizim ko'rinishidagi volost va ovullarga birlashtirilgan?
A)1867- yilgi B)1869- yilgi C)1872- yilgiD)1875- yilgi

5. " NIzom" loyihasi asosida har bir volost qancha o'tovdan iborat holda tashkil qilinishi belgilangan?
A) 500-1000 o'tovdan B) 700-900 o'tovdan
C) 1000-1500 o'tovdanD) 1000-2000 o'tovdan

6. Qachon Toshkentda " Shahar nizomi" joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq shahar boshqaruvi Dumaga o'tgan edi?
A)1867- yilda B)1870- yilda
C)1875-yilda D)1877- yilda

7. Toshkent shahar Duma a'zolarining qanchasi Eski shahar qismidan saylangan?
A) 1/3 qismi B) 2/5 qismi C) 4/10 qismi D) 3/6 qismi
8. 1886- yil 12- iyunda imperator Aleksandr III tomonidan ……
A) Amudaryo bo'limining bir qismi Sirdaryo viloyatiga o'tkazildi
B) yangi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi " Nizom" tasdiqlandi
C) S. M. Duxovskiy Turkiston general-gubernatori etib tayinlandi
D) Toshkentda " Shahar nizom" joriy etildi

9. Toshkent shahar Dumasiga shaharning qancha aholisidan nechta deputat saylandi?
A) 40 ming mahalliy aholidan 10 deputat
B) 50 ming mahalliy aholidan 12 deputat
C) 70 ming mahalliy aholidan 18 deputat
D) 80 ming mahalliy aholidan 21 deputat

10. Turkiston general- gubernatorligining umumiy hududi qancha edi?
A) 800 ming kv.km B) 1 million kv.km
C) 1,7 million kv.km C)) 2,2 million kv.km

11. 1897- yilda Turkiston general- gubernatorligida o'zbeklar va boshqa tub xalqlar qanchani tashkil qilgan?
A) 5 millionni B) 5,5 millionni
C) 4 millionni D) 6 millionni

12. 1897-yilda Turkiston general-gubernatorligida rus aholisining umumiy soni ukrainlar va beloruslarni ham qo'shib hisoblaganda qancha kishini tashkil qilgan?
A) 140 mingni B) 155 mingni
C) 174 mingni D) 197 mingni

13. 1911-yilga kelganda Turkiston general-gubernatorligining aholisi qanchaga yetgan?
A) 5 million kishiga B) 5,5 million kishiga
C) 6 million kishiga D) 7 million kishiga

14. Rus aholisining umumiy soni ukrainlar va beloruslarni ham qo'shib hisoblaganda qancha kishini tashkil qilgan?
A) 400 ming kishini B) 500 ming kishini
C) 600 ming kishini D) 700 ming kishini

15. Qachon qabul qilingan " Nizom" ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to'ldirilgan?
A) 1867-yilgi B) 1877-yilgi
C) 1875-yilgi D) 1886-yilgi

16. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari uchun uy qurish uchun ularga qancha miqdorda mablag' berilgan?
A) 100 rubl B) 150 rubl C) 170 rubl D) 200 rubl

17. Rossiyadan Turkistonga ko'chib kelgan aholining birinchi manzilgohi qachon qayerda paydo bo'ldi?
A) 1865-yilda Bishkekda B) 1869-yilda Verniyda
C) 1872-yilda Perovskida D) 1875-yilda Avliyootada

18. 1875-1890-yillarda Turkiston o'lkasiga qancha oila ko'chib kelib joylashib, qancha rus qishlog'i tashkil topdi?
A) 800 oila ko'chib kelib joylashib 10 ta rus qishlog'i tashkil topdi
B) 1300 oila ko'chib kelib joylashib 19 ta rus qishlog'i tashkil topdi
C) 1100 oila ko'chib kelib joylashib 14 ta rus qishlog'i tasshkil topdi
D) 1500 oila ko'chib kelib joylashib 22 ta rus qishlog'i tashkil topdi

19. 1891-1892-yillarda Turkistonga ko'chib kelganlarning nechta qishlog'i tashkil topdi?
A) 15 ta B) 19 ta C) 25 ta D) 32 ta

20. Qaysi anhor Toshkent shahrini ikki qismga ajratgan chegara bo'lgan?
A) Kaykovus arig'i B) Bo'zsuv anhori
C) Zaxariq D) Anhor

21. Qachondan boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsati bilan ko'chirtirilganlarga beriladigan imkoniyatlardan foydalanishi mumkunligi e'lon qilindi?
A) 1888-yildan B) 1890-yildan
C) 1892-yildan D) 1894-yildan
22. Qachon Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun Toshkentda mahkama joriy qildi?
A) 1866-yil B) 1867-yil C) 1872-yil D) 1875-yil

23. Toshkentda joriy qilingan Mahkama tarkibiga mahalliy aholi vakillaridan necha kishi saylangan?
A) qozi va 7 nafar a'lam
B) 5 nafar a'lam va 2 nafar muftiy
C) 5 nafar qozi va 7 nafar a'lam
D) 3 nafar qozi va 6 nafar muftiy

24. Qozi sudlarining vakolatlariga da'vo hajmi qancha rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish kirgan?
A) 50 rubl B) 100 rubl C) 150 rubl D) 200 rubl

25. Kimlarning quriltoyi xalq sudyalari quriltoyi deb atalgan?
A) qozilar va shayxulislomlarning
B) a'lamlar va raislarning
C) qozilar va biylar D)muftiylar va qozikalonlar

26. Xalq sudlari quriltoyi da'vo hajmi qancha rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqorolik ish-larini hal qiluvchi ikkinchi bosqich sudlari edi?
A) 500 rubl B) 1000 rubl C) 1500 rubl D) 2000 rubl

27. 1886-yilgi " Nizom" da uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga ……. tuzildi.
A) shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan uchastka mirovoy sudyalari (sudlari)
B) qozilar sudi tarkibidagi a'lamlar kollegiyasi
C) harbiy sud komissiyalari D)viloyat va o'lka sudlari

28. 1886-yilgi " Nizom" ga ko'ra sud sohasida qanday lavozimlar joriy qilindi?
A) xalq sudlari, mirovoy sudyalar, qozilik sudlari
B) uyezd sudlari, o'lka bosh prokurori
C) sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchilari
D) oqsoqollik sudlari, biylik sudlari, mirovoy sudlar

29. 1898-yilda ……
A) okrug sudlari va Toshkent sud palatasi tuzildi
B) mirovoy sudlar va vaqtinchalik sud komissiyalari joriy etildi
C) bosh prokuror va oily sud raislari lavozimi joriy etildi
D) viloyat sudlari va oily sud palatasi tuzildi

30. Dastlabki poezd Samarqandga qaysi yili kirib keldi?
A)1886-yili B)1888-yili C)1890-yili D)1892-yili

31. 1899-yilda temiryo'l ……. qurib bitkazildi.
A) Krasnavodskdan Qizilarvatga qadar
B) Samarqanddan Toshkentga qadar
C) Toshkent orqali Andijongacha
D) Buxoro orqali Samarqandgacha

32. Markaziy Osiyo hududida temir yo'llarni qurilishi natijasida Rossiya harbiy qismlarini Krasnovodskdan Andijongacha bo'lgan …… masofaga ko'chirish muammo bo'lmay qoldi.
A) 2000 km ga yaqin B) 2,5 ming km dan ziyod
C) 3 ming km dan ziyod D) 4 ming km dan ortiq

33. Qaysi yili Orenburgdan Toshkentga qadar temiryo'l qurib kelindi?
A)1898-yilda B)1900-yilda C)1903-yildaD)1905-yilda

34. Qachon " Davlat tartiboti va jamiyat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom" e'lon qilindi?
A) 1881-yil B) 1883-yil C) 1885-yil D) 1888-yil

35. Qaysi yillarda Turkiston "kuchaytirilgan qo'riqlov" va " favqulodda qo'riqlov" holatida bo'ldi?
A) 1885-1912-yillarda B) 1888-1915-yillarda
C) 1892-1916-yillarda D) 1895-1917-yillarda

36. 1881-yilgi " Nizom" ga ko'ra qanday lavozim joriy qilingan edi?
A) mirovoy sudya B) uchastka pristavi
C) ober prokuror D) xalq sudyasi

37. 1882-1884-yillarda Turkiston o'lkasini Rossiya imperiyasining qaysi amaldori tekshirgan edi?
A) senator P. Lessar B) general I. F. Abramov
C) senator K. Palen D) maxfiy maslahatchi F. Girs

38. XIX asrning 80-yillarini boshida Turkiston o'lkasini tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F. Girs o'lkada qancha kishi yashashini va ulardan qanchasi erkak ekanligini yozgan?
A) 1800400 kishi yashashini va ulardan 800 minggi erkak ekanligi
B) 2000400 kishi yashashini va ulardan 1000000 erkak ekanligini
C) 2404000 kishi yashashini va ulardan 1200000 kishi erkak ekanligini
D) 2800000 kishi yashashini va ulardan 1306000 kishi erkak ekanligini

39. Qaysi podsho amaldori Turkiston aholisini armiyaga chaqirmaslik siyosatini yoqlab chiqqan edi?
A) graf P. Lasser B) harbiy vazir A. N. Kurapatkin
C) maxfiy maslahatchi F. Girs D) senator K. Palen

40. 1867-1900-yillarda Turkiston general-gubernatorligida qancha sanoat korxonasi bo'lib, ularning aksariyat ishlari qo'l mehnati bilan bajarilgan?
A) 120 ta B) 150 ta C) 175 ta D) 210 ta

41. Turkiston general-gubernatorligidagi sanoat korxonalarida qancha ishchi ishlagan?
A) 20 ming B) 25 ming C) 30 ming D) 40 ming

42. Qachondan boshlab Turkistonda yangi paxta navi ( Amerika navi) yetishtirish boshlandi?
A) 1880-yildan B) 1882-yildan
C) 1884-yildan D) 1886-yildan

43. Turkiston o'lkasida 1911-yilda ……
A) Sirdaryo magistral kanalini bunyod etish ishlari boshlandi
B) paxtaning yangi navi ( Amerika navi) ni yetishtirish boshlandi
C) to'qimachilik fabrikalari faoliyat ko'rsata boshladi
D) qishloq xo'jaligi banki faoliyat ko'rsata boshladi

## 4-mavzu: XIX asr oxirida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari.

1. Kim boshchiligida 1878-yili Mingtepada ( hozirgi Marhamat tumani) mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi?
A) Po'latxon B) Darveshxon
C) Yetimxon D) Dukchi Eshon

2. Qachon mahalliy aholi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosi oldiga ochiqchasiga norozilik bildirib yig'ildi?
A) 1875-yilning bahorida B) 1877-yilning yozida
C) 1879-yilning kuzida D) 1881-yilning qishida

3. 1880-yilning noyabrida aholi hamma soliqlarni to'laganligiga qaramay, Xo'jand uyezdining boshlig'i ……. tumanlaridagi aholidan qo'shimcha yer solig'i olinadi, deb e'lon qiladi.
A) Xo'jand va O'ratepa B) Jizzax va O'ratepa
C) Marg'ilon va Xo'jand D) Panjikent va Jizzax

4. Sabr kosasi to'lgan Xo'jand aholisi kimlar boshchiligida uyezd boshlig'ining mahkamasiga borib, adolatsiz soliqni bekor qilishni talab qildi?
A) Darveshxon va Po'latxon
B) Rahmonquliho'ji va Mirkarimboy
C) Mirkomilboy va Madalixon
D) Yetimxon va Alimquli

5. Talonchilik, soliqlar va jabr-zulm avjiga chiqqanligi sababli qachon Namangan aholisi ma'murlarga qarshi bosh ko'tarib chiqdi?
A) 1879-yili B) 1881-yili C) 1882-yili D) 1883-yili

6. 1885-yilda Andijonda ko'tarilgan qo'zg'olonga kim boshchilik qildi?
A) Darveshxon B) Yetimxon
C) Po'latxon D) Dukchi Eshon

7. 1896-yilda Namangan uyezdining qaysi hududlarida aholining mingboshilar saylovlaridagi noroziligi oshkora qo'zg'olonga aylanib ketdi?
A) Oqsuv-Shahrixon volostidagi Naymanchi, Ko'hna mozor, Langarbob qishloqlarida
B) Ko'hna mozor, Oqsuv, Langarbob, Xozara qishloqlarida
C) Naymancha volostidagi Langarbob va Marhamat qishloqlarida
D) Langarbob volostidagi Ko'hna mozor, Oqsuv va Naymancha qishloqlarida

8. Qachondan mustamlakachilar oddiy fuqarolarni ma'murlarga qarshilik ko'rsatgan taqdirda bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar?
A) 1890-yildan B) 1892-yildan
C) 1894-yildan D) 1896-yildan

9. Tarixda "Vabo isyoni" ( yoki " Toshotar voqeasi") deb nom olgan qo'zg'olon qachon boshlandi?
A) 1892-yilning 10-martida
B) 1892-yilning 15-iyunida
C) 1892-yil 24-iyunda
D) 1892-yil 20-avgustda

10. Qachondan Turkiston o'lkasida kuchga kirgan " Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida" joriy e'tildi?
A) 1892-yil 18-iyundan B) 1892-yil 24-iyundan
C) 1892-yil 20-avgustdan D) 1892-yil 26-sentabrdan

11. Qachon Rossiyadan aholining Farg'ona viloyatiga ko'plab ko'chrilib keltirilishi, ularning joylashtirilishi yer taqchil va aholi zich yashaydigan vodiyning ahvolini nihoyatda yomonlashtirib yubordi?
A) 1887-yilda B) 1889-yilda
C) 1891-yilda D) 1892-yilda

12. Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida Dukchi Eshon nomini olgan Muhammad Ali (1846-1898) boshchiligidagi qo'zg'olon qachon boshlandi?
A) 1898-yilning 16-fevralida
B) 1898-yilning 12-martida
C) 1898-yilning 17-mayida
D) 1898-yilning 26-iyunida

13. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Qo'yli qishlog'iga borganlarida kim o'z odamlari bilan qo'shildi?
A)Ziyovuddin Maxsum B)G'oyibnazar mingboshi
C) Ahmad to'qsoba D)N Karimbek ponsod

14. Andijon qo'zg'olonchilari bilan mustamlakachi harbiy kuchlari o'rtasidagi to'qnashuvda ……..
A) harbiy kazarma jangchilaridan 22 tasi o'ldirildi, 22 tasi yarador bo'ldi
B) qo'zg'olonchilardan 11 tasi halok bo'ldi, 20 tasi yarador bo'ldi
C) harbiylardan 28 tasi o'ldirildi, qo'zg'olonchilardan 10 tasi halok bo'ldi
D) qo'zg'olonchilardan 18 tasi halok bo'ldi, harbiy kazarma jangchilaridan 30 tasi o'ldirildi

15. Podsho Nikolay II qaysi Turkiston general-gubernatorini Andijondagi 1898-yil qo'zg'olonidan keyin lavozimidan chetlatdi?
A) general N. Korolkovni
B) general-leytinant A. Vrevskiyni
C) harbiy vazir A. N. Kurapatkinni
D) general S. M. Duxovskiyni

16. Qachon Farg'ona vodiysida yana yangi qo'zg'olon boshlandi?
A) 1898-yilning 18-noyabrida
B) 1898-yilning 20-dekabrida
C) 1899-yilning 20-iyunida
D) 1899-yilning 10-sentabrida

17. Andijon qo'zg'oloni bostirilgach qancha kishi hibsga olindi?
A) 500 kishi B) 1000 kishi
C) 1500 kishi D) 2000 kishi

18. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirilgach qancha kishi o'lim jazosiga mahkum qilindi?
A) 400 kishi B) 600 kishi C) 800 kishi D) 1000 kishi

19. N. Korolkov qachon qo'zg'olon ko'tarilishining oldini ololmaganligi uchun Farg'ona viloyati harbiy gubernatori va bir qancha amaldorlarni lavozimidan bo'shatdi?
A) 1898-yil 20-may kuni B) 1898-yil 25-may kuni
C) 1898-yil 30-may kuni D) 1898-yil 3-iyun kuni

20. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Qutchi qishlog'iga yetib borganlarida ularning safiga yana qancha kishi qo'shildi?
A) 150 kishi B) 200 kishi C) 250 kishi D) 320 kishi

### 5-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qoraqolpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti

1. Qachondan boshlab qoraqolpoqlar Xiva xonligi hukmronligi ostida bo'lib, ular Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida va Orol dengiziga quyiladigan yerlarda yashagan?
A) XVIII asr boshlaridan B) XVIII asr oxirlarida
C) XIX asr boshlaridan D) XIX asr o'rtalaridan

2. XIX asr o'rtalarida qoraqolpoqlar soni taxminan qancha bo'lgan?
A) 70 ming atrofida B) 80 mingdan ziyod
C) taxminan 100 ming nafar
D) taxminan 150 ming nafar

3. Qaysi qabilalar tarkibidagi urug'lar " o'n to'tr urug'" – aris (urug') birlashmasini tashkil qilgan?
A) xitoy-qipchoq, mang'it va kenagas
B) qo'ng'irot, mang'it va do'rmon
C) kenagas, qo'ldovli, oyrat
D) mang'it, qang', ochamayli

4. Qoraqolpoqlarda harbiy kuch borasida ikkinchi o'rinda – shulluk va joungurni birlashtirgan aris - ….. turar edi.
A) qatag'onli B) do'rmon C) mong'it D) qo'ng'irot

5. XIX asrning ikkinchi yarmida butun qoraqolpoq urug'larini boshqarish, soliqlarni undirish, harbiy xizmatni o'tash majburiyatlariga doir ishlarni tartibga solish maqsadida qanday lavozim tayin etilgan?
A) otaliq B) biy C) beklarbegi D) yasovulboshi

6. Qoraqolpoq ruhoniylari foydasiga qanday soliq undirilgan?
A) jizya B) ushr C) xiroj D) salgut

7. Urush paytlari qoraqolpoqlar qanday soliqni to'lagan?
A) "qozon puli" B) "afanak puli" C) "jul" D) "otuv puli"

8. XIX asrning ikkinchi yarmida qoraqolpoq aholisidan 40 bosh qoramol uchun qancha so'm zakot olingan?
A) 7 so'm B) 9 so'm C) 12 so'm D) 15 so'm

9. Urush paytida qoraqolpoqlarning har bir jamoasi qanchagacha askar berishi lozim bo'lgan?
A) 500 tadan 1000 tagacha
B) 1000 tadan 1500 tagacha
C) 1000 tadan 2000 tagacha
D) 1500 tadan 3000 tagacha

10. Askar yetkazib bera olmagan jamoalar qo'shimcha qancha pul yig'ib bergan?
A) 180 ming so'mdan 250 ming so'mgacha
B) 150 ming so'mdan200 ming so'mgacha
C) 100 ming so'mdan 150 ming so'mgacha
D) 80 ming so'mdan 120 ming so'mgacha

11. Xivaning qaysi hukmdori qoraqolpoqlarni boshqarish qulayroq bo'lishi uchun "Qoraqolpoq ulusi" ni shakllantirdi?
A) Muhammad Amin B) Olloqulixon
C) Muhammad Rahim I D) Asfandiyorxon

12. Qachon qoraqolpoqlarning qo'ldovli qabilasidan bo'lgan Ernazarbiy boshchiligida qo'zg'olon boshlandi?
A)1853-yilda B)1855-yilda C)1857-yildaD)1859-yilda

13. Ernazarbiy Rossiya ta'sirida bo'lgan kimni xon qilib ko'tarish va natijada imperiya tobeligiga o'tishga intilardi?
A) Bobo Go'klanni B) Do'smatbiyni
C) qozoq urug'i boshliqlaridan biri Zarliqni
D) kichik juz boshliqlaridan biri Tavakkalni

14. Kim 1856-yil Xiva taxtiga o'tirgach, Ernazarbiy qo'zg'olonini bostirish uchun katta qo'shin yubordi?
A) Said Muhammadxon B) Olloqulixon
C) Muhammad Rahim I D) Muhammad Rahim II

15.Qoraqolpoqlarning Biybozor va Nukus volostida mustamlakachilarga qarshi kim boshchiligida xalq qo'zg'oloni jiddiy tus olib, qariyb o'n yil (1881-1891) davom etdi?
A)Ernazarbiy B)Oydo'stbiy
C)Bobo Go'klan D) Alimbetbiy

16. Qaysi shahar 1858-1859-yillarda qoraqolpoq urug'larining ayrimlari ko'targan qo'zg'olonning markaziga aylangan edi?
A) Nukus shahri B) Qo'ng'irot shahri
C) To'rtko'l shahri D) Qozoqdaryo shahri

17. Qoraqolpoq dehqonlarining ahvoli og'irlashishi natijasida 1900-yil qayerlarda norozilik harakatlari amalga oshirildi?
A) Nukus volosti va Qo'ng'irot bekligida
B) Qo'ldovli volosti va To'rtko'l bekligida
C) Qorao'zak volosti va Xo'jayli bekligida
D) Chimboy volosti va Ellikqa'la bekligida

18. Amudaryo bo'limida qoraqolpoqlar soni qanchani tashkil etgan?
A) 40 mingni B) 50 mingni
C) 70 mingni D) 80 mingni

19. XIX asrning 70-yillarida Rossiyadan ko'chib kelgan odamlar qanchani tashkil qilgan?
A) qariyb ming kishini B) 1200 dan ortiq kishini
C) 1,5 ming kishi atrofida D) 2000 dan ziyod kishini

20. Qoraqolpoqlar yashaydigan hududlarga ko'chib kelgan Rossiyaliklar qayerlarda yashardi?
A) Xo'jayli, Nukus, Qorao'zakda
B) Petro-Aleksandrovsk, Chimboyda
C) Petro-Aleksandrovsk, Uralskiy posyolkasi va Nukus qishlog'ida
D) Uralskiy posyolkasi, Shumanay va Mo'ynoq qishlog'ida

21. Qaysi xalq 1875-yilda podsho hukumati tomonidan armiya xizmati to'g'risidagi yangi nizomga bo'ysinmagani uchun bu yerga surgun qilib ko'chirilgan edi?
A) Sibirliklar B) Qrim tatarlari
C) Boshqird kazaklari D) Ural kazaklari

22. Amudaryo bo'limi tashkil qilingandan keyin Xiva xonligi hududida qoraqolpoqlar … tashkil etar edi?
A) 3,8 foizni, ya'ni qariyb 25 ming kishini
B) 12 foizni, ya'ni 40 ming kishini
C) 70 ming kishi bo'lib, 46% ni tashkil qilardi
D) 40 ming kishini, 28 % ni tashkil qilardi

23. XIX asrning 70-yillarida qoraqolpoqlarning savdo-sotiq markazi qayer bo'lgan?
A) To'rtko'l B) Mo'ynoq C) Chimboy D) Nukus

24.1914-yilda qoraqolpoqlar yashaydigan joylarda qancha umumta'lim maktablari faoliyat ko'rsatgan?
A) to'rtta B) beshta C) oltita D) yettita

25. Qoraqolpoqlar yashaydigan joylarda 1914-yilga kelib nechta kasalxona faoliyat olib brogan?
A) oltita B) beshta C) to'rtta D) ikkita

26. XIX asrning 70-yillarida ayrim biylar, yuzboshilar, mulla va eshonlarning yer mulklari qanchagacha bo'lgan?
A) 7-8 ming tanobgacha B) 10-12 ming tanobgacha
C) 15 ming tanobgacha D) 20 ming tanobgacha

27. Qoraqolpoqlar yashaydigan joylardagi to'rtta umumta'lim maktablarida qancha o'quvchi o'qigan?
A)150 nafar B)200 nafar C)250 nafar D)300 nafar

28. Qaysi yillar ma'lumotlariga qaraganda, qoraqolpoq urug'ining aksariyat oddiy a'zolari chorvaga ega bo'lmagan, ayrim biylar mingboshgacha qoramol va 1,5 ming boshgacha qo'y-qo'ziga ega edi?
A) 1871-1872-yillar B) 1873-1874-yillar
C) 1874-1875-yillar D) 1875-1876-yillar

29. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida qoraqolpoqlarda bir qancha madrasalar bo'lib, ularning eng kattalari qaysilari edi?
A) Oydo'stbiy va Mamanbotir madrasalari
B) Qoraqum eshon va Tosh madrasalari
C) Ernazarbiy va Mastposhsho madrasalari
D) Oydo'stbiy va Qoraqum eshon madrasalari

30. Tosh madrasa 1841-yilda kim tomonidan qurdirilgan?
A) Xo'jayli hokimi Oydo'stbiy tomonidan
B) Qorao'zak hokimi Ernazarbiy tomonidan
C) Mang'it hokimi Xo'janiyoz tomonidan
D) Nukus hokimi Alimbet tomonidan

31. Qachondan boshlab qoraqolpoqlarning ilk yozma asarlari paydo bo'la boshladi?
A) XVIII asr boshlarida B) XVIII asr oxirlarida
C) XIX asr o'rtalarida D) XIX asr oxirlarida
32. Qaysi qoraqolpoq shoirining taxallusi –Zevar bo'lgan?
A)Kunxo'janing B)Otash Olshinboyning
C)Ajiniyoz Qosiboy o'g'liningD) Berdaqning

33. Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining qaysi dostonida qoraqolpoq xalqining hayoti, ayniqsa, ularning yurtma-yurt ko'chib yurish jarayoni bilan bog'liq voqealar katta mahorat bilan tasvirlangan?
A) " Qiz Mengesh bilan aytishuv"
B) "Bo'zatov" C) "Qirqqiz" D) "Xalq uchun"

34. Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining hayoti va ijodi haqida kim tomonidan " Ajiniyoz" romani yozilgan?
A) K. Sultonov B) I. Yusupov
C) T. Qaipbergenov D) S. Ibragimov

35. Qoraqolpoqlarning buyuk shoiri Berdaq quyidagi qaysi madrasada o'qigan?
A) Tosh madrasada B) Xiva madrasasida
C) Qoraqum eshon madrasasida
D) Ernazarbiy madrasasida

36. XX asr boshlariga kelib qoraqolpoq adabiyotidagi demokratik an'analarni yangi avlod vakillari bo'lmish kimlar davom ettirdilar?
A) Umar, Qulimbet, Sariboy, Qulmurot, Sodiq
B) Berdaq, Ajiniyoz, Qulimbet, Alimbet, Abay
C) Qulmurot, Kunxo'ja, Do'nanboy, Sodiq, Berdaq
D) Kunxo'ja, Do'nanboy, Sariboy, Bobo Go'klan

**6-mavzu: Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati**

1. Qachondan boshlab Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi?
A) XIX asrning boshlarida
B) XIX asrning ikkinchi yarmida
C) XIX asrning o'rtalarida D) XX asr boshlarida

2. Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali qaysi yillarda yashab faoliyat ko'rsatgan?
A) 1851-1914-yillarda B) 1848-1910-yillarda
C) 1853-1912-yillarda D) 1850-1915-yillarda

3. Qachon Ismoil G'aspirali Qrimdagi Boqcha-saroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi?
A)1880-yilda B)1882-yilda C)1884-yildaD)1886-yilda

4. Ismoil G'aspirali o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida qancha vaqtda necha o'quvchini savodini chiqardi?
A) 20 kun ichida 10 ta o'quvchini
B) 40 kunda 12 o'quvchini
C) 30 kunda 20 o'quvchiniD) 50 kunda 26 o'quvchini

5. 1888-yilda Ismoil G'aspirali qanday nomdagi kitobini chop ettirdi?
A)"Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'losh"
B) " Rahbari avval" C) " Alifbo" D) " O'qish kitobi"

6. Jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida qaysi gazetaning o'rni katta bo'lgan?
A) " Oyna" B) " Sadoi Turkiston"
C) " Tarjimon" D) " Xurshid"

7. Qachon Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi?
A) 1890-yildan B) 1891-yildan
C) 1892-yildan D) 1893-yildan

8. Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo'lib, birinchi bosqichda ma'rifatparvarlikdan boshlangan jadidchilik harakati … kelib o'zining ikkinchi bosqichi-siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi.
A)1905-yilga B)1910-yilga C)1914-yilgaD)1917-yilga

9. Qachondan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus olib, siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi?
A) 1907-yildan B) 1910-yildan
C) 1914-yildan D) 1916-yildan

10. Qachondan boshlab qayerda kim ikkinchi jadid maktabini ochdi?
A) 1895-yilda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy
B) 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla
C) 1899-yilda Toshkentda Munawar qori
D) 1900-yilda Andijonda Kamoliddin domla

11. 1899-yilda qayerda kimlar tomonidan jadid maktablari ochildi?
A) Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori
B) Buxoroda Ashur domla va Xivada Islomxo'ja
C) Samarqandda M. Behbudiy va Toshkentda Munawar qori
D) Qo'qonda Salohiddin domla va Andijonda Kamoliddin domla

12. Qayerda nashr qilingan darslari va o'quv qo'llanmalaridan Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida foydalanildi?
A) Moskva va Sankt-Peterburgda
B) Qozon va Orenburgda
C) Istambul va Dehlida D) Toshkent va Qozonda

13. 1906-yilda Ismoil Obidov muharrirligida qanday gazeta nashr qilina boshlandi?
A)" Oyna" B) " Sadoi Farg'ona"
C) " Xurshid" D) " Taraqqiy"

14. Qaysi yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat" , Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" gazetalari chop etildi?
A) 1900-1903-yillarda B) 1903-1905-yillarda
C) 1907-1908-yillarda D) 1909-1911-yillarda

15. Qaysi yillarda ma'rifatchilikning yangi talqinida "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "El bayrog'i", "Kengash", "Ulug' Turkiston", "Turon" gazetalari chop etilgan?
A) 1905-1907-yillarda B) 1907-1908-yillarda
C) 1913-1915-yillarda D) 1915-1917-yillarda

16. Turkistonda 1917-yilda qanday ommaviy axborot vositalari paydo bo'ldi?
A)"Hurriyat", "Farg'ona sahifasi" B)"Osiyo", "Xurshid"
C)"Ulug' Turkiston", "Turon" D)"Kengash", "Huriyat"

17. 1911-yilga kelib O'rta Osiyodagi yangi usul maktablar soni qanchaga yetdi va ularda qancha o'quvchi o'qigan ?
A) 40 ta maktab, 3800 nafar o'quvchi
B) 56 ta maktab, 4100 nafar o'quvchi
C) 63 ta maktab, 4106 nafar o'quvchi
D) 68 ta maktab, 4580 nafar o'quvchi

18. Qaysi yilga kelganda Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 1740 ta bola o'qigan?
A)1910-yilda B)1912-yilda C)1908-yildaD)1914-yilda

19. 1917-yilga kelganda o'lkada qancha yangi usuldagi maktablar mavjud edi?
A) 50 dan ziyod B) 100 ga yaqin
C) 80 ga yaqin D) 120 dan ziyod

20. Quyidagi ma'rifatparvarlardan qaysi biri O'rta Osiyo jadidlarining "otasi" deb tan olingan?
A)Munawar Qori Abdurashidxonov
B)Abdulla Avloniy
C)Mahmudxo'ja Behbudiy D) Abdurauf Fitrat

21. Munawarr Qori maktablar uchun qanday darsliklarni yaratdi?
A) "Adibi awal", "Adib soniy", "Yer yuzi"
B) "Alifbo", "Yer yuzi", "O'qish"
C)"Adibi soniy", "Juxrofiya", "Alifbo"

22. Turkiston o'lkasida ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy qachon "Shuhrat" gazetasiga asos soldi?
A) 1903-yil B) 1905-yil C) 1907-yil D) 1909-yil

23. Abdulla Avloniy o'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun qanday darsliklarni yaratdi?
A) "Ikkinchi muallim", "Jug'rofiya", "Yer yuzi"
B) "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq"
C)"Turkiy guliston yoxud axloq","Adibi awal","Yer yuzi"
D) "Yer yuzi" , "Muallimi awal", "Adibi awal"

24. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rofiy, Mirza Abduvohid,Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin Maxdum kabilar qanday jamiyatni tashkil qildilar?
A) "Tarbiyayi atfol" ("Bolalar tarbiyasi")
B) "Ijtimoiy hayot" C) "Mehribonlik" D) "Adibi awal"

25. "Bolalar tarbiyasi" jamiyati ko'magida qaysi yillarda, qanchadan talaba Turkiyaga o'qishga yuborilgan?
A) 1909-yilda 7 nafar, 1911-yilda 10 nafar
B) 1910-yilda 10 nafar, 1912-yilda 12 nafar
C) 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda 30 nafar
D) 1912-yilda 20 nafar, 1913-yilda 36 nafar

26. Jadid ma'rifatparvarlaridan kimlar qaysi yillarda islom tarixiga oid asarlar yaratgan?
A) 1909-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy, 1910-yilda Abdulla Avloniy, 1915-yilda Abdurauf Fitrat
B) 1910-yilda Abdulla Avloniy, 1912-yilda Munavvar Qori, 1915-yilda Abdurauf Fitrat
C) 1907-yilda Abdurauf Fitrat, 1909-yilda Munavvar Qori, 1913-yilda Isoqxon Ibrat
D) 1910-yilda Hoji Rofiy, 1912-yilda Abdulla Avloniy, 1914-yilda Munavvar Qori

27. Turkiston taraqqiyparvaridan biri bo'lgan ……. Rossiyada huquqshunoslik sohasi bo'yicha ta'lim olib, birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokati bo'lgan.
A) Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat
B) Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja
C) Fayzulla Xo'jayev D) Abdulla Avloniy

28. Qachon jadidlar tomonidan Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot – "Musulmon markaziy sho'rosi" tuzildi?
A) 1917-yil mart oyida B) 1915-yil aprel oyida
C) 1917-yil may oyida D) 1917-yil sentabr oyida

29. "Musulmon markaziy sho'rosi" ta'sis syezdida qancha delegat qatnashgan?
A)240 delegat B)300 delegat
C)320 delegat D)350 delegat

**7-mavzu: Turkiston va birinchi jahon urushi**

1. Qachon Turkistonda "favqulodda muhofaza holati" deb e'lon qilinishi natijasida mustamlaka hukumatning mahalliy aholi ustidan nazorat choralari kuchaydi?
A) 1914-yilda B) 1915-yilda
C) 1916-yilda D) 1917-yilda

2. "Favqulodda holat" tartiblariga bo'ysinmagan aholiga qanday jazolar qo'llanadigan bo'ldi?
A) 6 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldi
B) 50 so'mgacha jarima to'laydigan yoki 3 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldi
C) 100 so'mgacha jarima to'laydigan yoki 6 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldii
D) 5 yilgacha surgun jazosi qo'llanadigan bo'ldi

3. Qachon Rossiya imperatori Nikolay II (1894-1917) Oliy Bosh qo'mondon va harbiy vazir taklifi bilan qabul qilgan farmoni bo'yicha "front ortidagi xizmatlari uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbarligi" boshlandi?
A) 1914-yil 20-mayda B) 1915-yil 26-iyulda
C) 1916-yil 25-iyunda D) 1917-yil 16-mayda

4. Imperator Nikolay II front ortidagi xizmatlar uchun aholining mardikorlikka olinishi to'g'risidagi farmoniga muvofiq, Turkiston o'lkasining viloyatlaridan qancha kishini mardikorlikka olish kerak edi?
A) 87 ming kishini B) 120 ming kishini
C) 156 ming kishini D) 175 ming kishini

5. Rossiya podshosining mardikorlikka olish to'g'risidagi farmoniga muvofiq Turkiston o'lkasining Sirdaryo viloyatidan qancha kishi mardikorlikka yuborilishi kerak edi?
A) 38 ming B) 44 ming C) 50 ming D) 87 ming

6. Turkistondagi qaysi viloyat gubernatorini "podsho farmonlarini bajarmaslik, kechiktirish, qarshi chiqish" deb hisoblab, uni viloyat gubernatori lavozimidan ozod qildi?
A) Sirdaryo viloyati gubernatori A. Veryovkinni
B) Farg'ona viloyati gubernatori A.Gippiusni
C) Zarafshon viloyati gubernatori I. F. Abramovni
D) Orenburg guberniyasi gubernatori N. Krijinovskiyni

7. Mardikorlikka olish to'g'risidagi farmonga qarshi birinchi bo'lib qayerda norozilik harakatlari boshlandi?
A) 1916-yil 26-iyunda Toshkentda
B) 1916-yil 28-iyunda Qo'qonda
C) 1916-yil 4-iyulda Xo'jandda
D) 1916-yil 16-iyulda Jizzaxda

8. 1916-yilning 10-iyulida qayerda taxminan 25 ming kishi norozilik bildirib bozor atrofiga yig'ildi?
A) Rishtonda B) Qo'qonda
C) Jizzaxda D) Eski Marg'ilonda

9. Mardikorlikka olinadiganlarning tuzilgan ro'yxatiga muvofiq Samarqand viloyatining Jizzax uyezdidan qancha kishi belgilandi?
A) 5 ming kishi B) 8 ming kishi
C) 11 ming kishi D) 13 ming kishi

10. 1916-yildagi Jizzax qo'zg'oloniga kimlar boshchilik qildi?
A) Nazirxo'ja eshon va Abdurahmon jevachilar
B) Alimqul va Nazirxo'ja eshonlar
C) Abdurahmon jevachi va Ostonbeklar
D) Ollohbek va Himmatbeklar

11. Toshkentdagi qo'zg'olon faollaridan kim politsiyaga qarata "Bizni o'ldirsanglar ham o'g'illarimizni sizlarga bermaymiz" deb xitob qilgan?
A)Maxpirat aya Alimova B)Rizvonbibi Ahmadjonova
C)Marxamxon Saidova D)Rixsi aya Olimjonova

12. Jizzaxdagi qo'zg'olonni bostirish uchun kim boshchiligida qancha harbiy kuch yuborildi?
A) polkovnik Ivanov boshchiligida 13 ta rota soldat, 2 ta artilleriya qismi,kazak otryadlari, sapyorlar qismi
B) general Larxe boshchiligida 8 ta kazak polki, 10 ta to'p, 2 ta sapyorlar otryadi
C) mayor I. N. Abramov boshchiligida 3 ta piyodalar polki va 15 to'p
D) polkovnik Afanasyev boshchiligida 1500 otliq qo'shin, 2 ta artilleriya, 8 ta top

13. Jizzaxdagi voqealardan xabar topgan podsho qachon Turkistonda harbiy holat deb e'lon qildi?
A) 1916-yil 20-iyun kuni B) 1916-yil 10-iyul kuni
C) 1916-yil 18-iyul kuni D) 1916-yil 27 iyul kuni

14. Turkistondagi 1916-yilgi voqealarga Rossiya imperiyasi ma'murlaridan kim "Urush frontlariga yangi bir Turkiston Fronti qo'shildi" deb o'lkadagi vaziyatga baho bergan edi?
A) harbiy vazir A. N. Kuropotkin
B) A. F. Kerenskiy
C) general S. M. Duxovskiy
D) maslahatchi Griss

15. Jizzax qo'zg'olonchilaridan qancha kishi hibsga olindi?
A) 1,5 ming B) 2 ming C) 2,5 ming D) 3 ming

**8-mavzu: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi**

1. Qachon imzolangan Rossiya-Buxoro amirligi o'rtasidagi shartnoma amirlik taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi?
A)1868-yilgi B)1869-yilgi C)1873-yilgi D)1875-yilgi

2. Buxoro amirining siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilib borish uchun tuzilgan "Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qaysi yillarda faoliyat olib brogan?
A) 1868-1885-yillarda B) 1880-1916-yillarda
C) 1885-1917-yillarda D) 1888-1920-yillarda

3. XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tgan hududlar hisobiga qisqaririshi natijasida, uning aholisi qancha bo'lib qolgan?
A)1800 ming kishi B)2 million kishi atrofida
C)2,500 ming kishiga yaqin
D)3 million kishidan ziyod

4. Buxoro amirligida asosiy soliqlarni aholining qancha foizini tashkil qiluvchi dehqonlar to'lardi?
A) 70 foizini B) 80 foizini C) 60 foizini D) 90 foizini

5. Qachon qo'zg'olon ko'targan dehqonlar va amir Muzaffar lashkarlari o'rtasida jang bo'lib o'tdi?
A) 1883-yilda B) 1885-yilda
C) 1886-yilda D) 1887-yilda

6. Qachon Ko'lob bekligida boshlangan yirik dehqonlar qo'zg'olonlari Pomir chegara qo'shinlarining yordami bilan bostirildi?
A) 1885-yilda B) 1886-yilda
C) 1888-yilda D) 1890-yilda

7. 1885-yilda kim boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi?
A) Abdurahmon mehtar B) Darveshxon
C) Yetimxon D) Vose

8. 1889-yil may oyida Buxoro amirligining qaysi bekligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi?
A) Kitob B) Kalif C) Boljuvon D) Dushanbe

9. Qachon amirlik hududi orqali dastlabki temiryo'l o'tkazildi?
A)1880-yilda B)1885-yildaC)1887-yildaD)1890-yilda

10.1888-yilga kelib Buxoro amirligi hududida ……
A) rus qishloqlari vujudga kela boshladi
B) dastlabki temir yo'l ishlari qurila boshlandi
C) paxta tozalash zavodlari ishlay boshladi
D) Rossiya banklari faoliyat olib bora boshladi

11. Amirlikda qaysi joylarni bir-biriga bog'lagan telefon aloqasi o'rnatildi?
A) paxta tozalash zavodi bilan Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi o'rtasida
B) Eski Buxorodagi qo'shbegi uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi o'rtasida
C) Rossiya davlat banki bo'limi va paxta tozalash zavodi o'rtasida
D)Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi va Rossiya davlat banki bo'limi o'rtasida

12.Buxoro taxtining so'ngi hukmdori Said Olimxon qaysi yillarda hukmronlik qildi?
A) 1898-1910-yillar B) 1900-1917-yillar
C) 1910-1920-yillar D) 1912-1921-yillar

13. Qachondan boshlab Yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi?
A) 1900-yildan B) 1905-yildan
C) 1907-yildan D) 1910-yildan

14. XX asr boshlarida Yosh buxoroliklar qanday gazetalarni nashr qildilar?
A) "Buxoroyi sharif" va "Turon"
B) "Sado" va "Ozodlik"
C) "Buyuk Turon" va "Ozod Buxoro"
D) "Xurshid" va "Hurriyat"

15. Qachon Said Olimxonni otasi Peterburgga o'qishga jo'natadi, bu yerda u 3 yil davomida harbiy ishlar va davlat boshqarish asoslarini o'rgandi?
A)1890-yilda B)1893-yilda C)1895-yildaD)1897-yilda

16. 1917-yilning martida ……
A)bosh qozi amir qabulxonasida, mamlakatda islohotlar o'tkazish haqida va'da berdi
B) Buxoroga Rossiya imperatorining harbiy vaziri keldi
C)amirlik hududida rus qarorgohlari qurila boshlandi
D) Said Olimxon Yosh buxoroliklarni taqib qilishni boshladi

17. 1917-yil 8-aprelida jadidlar qayerlarda namoyishlar o'tkazishdi?
A) Kogonda va Samarqandda
B) Shahrisabz va Keshda
C) Karki va Buxoroda D) Qiziltepa va Ko'lobda

18. Qachon Yosh buxoroliklar Chorjoyda qo'zg'olon uyushtirdilar?
A) 1919-yil 10-mayda B) 1919-yil 20-avgustda
C) 1920-yil 16-aprelda D) 1920-yil 29-avgustda

19. 1920-yil 2-sentyabrda ……
A) Said Olimxon taxtdan voz kechdi
B) bolsheviklar armiyasi qo'shinlari Buxoroga kirdi
C) Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi
D) Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Yosh buxoroliklar hokimiyatni qo'lga olishdi

20. Buxoro amirining bosh vaziri-qo'shbegi Mirzo Nasrulloning shaxsan o'zi ro'yhatga olgan boyligi to'g'risida ma'lumotga ko'ra amirning xazinasida …
A) 40 tonna oltin va 6425100 dona rus tilla tangasi bo'lgan
B) 100 mln Rossiya imperiyasi pullari bo'lgan
C) yombi holidagi gamburg tillasi – 17 dona va 20 tonna kumush bo'lgan
D) tilla kukuni – 1 tonna va 38 million so'm rus sanoati aksiyalari bo'lgan

21. Rossiya podshosi Xiva xoni ustidan nazorat o'rnatish maqsadida qancha kishidan iborat Kengash (devon) ta'sis etib, ularning necha nafari podsho hukumati vakillari edi?
A) 7 nafar Kengash a'zosi bo'lib, ulardan 4 nafari podsho hukumati a'zolari edi
B) 9 nafar Kengash a'zosidan 5 nafari podsho hukumati a'zolari edi
C) 11 nafar Kengash a'zosidan 6 nafari podsho hukumati a'zolari edi
D) 12 nafar Kengash a'zosidan 7 nafari podsho hukumati a'zolari edi

22. Xiva xonining qancha kishidan iborat muntazam qo'shini bor edi?
A) 1000 kishidan B) 1,5 ming kishidan
C) 2 ming kishidan D) 2,5 ming kishidan

23. Xiva xonligi ma'muriy jihatdan qancha beklikka bo'lingan?
A) 12ta B) 15 ta C) 20 ta D) 27 ta

24. Xiva xonligida qaysi mansabdorlar xonning oily amaldori va yaqin maslahatchisi bo'lishgan?
A) mehtar va devonbegi B) yasavulboshi va otaliq
C) beklarbegi va devonbegi D) qo'shchi va mehtar

25. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva shahrida qanchadan ortiq masjid va dindorlarning qadamjosi mavjud bo'lgan?
A)100 dan ortiq masjid va 20 dan ziyod dahma
B)120 ga yaqin masjid va 30 dan ziyod dahma
C)140 dan ortiq masjid va 40 ga yaqin dahma
D)160 dan ortiq masjid va 60 dan ortiq dahma

26. Xiva xonligida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan?
A) 800 dan ziyod B) 1000 dan ortiq
C) 1,5 mingga yaqin D) 2 mingga yaqin

27. Xiva xonligida jami sug'oriladigan yerlarning necha foizi masjidlar mulki hisoblangan?
A) 40 foizi B) 50 foizi C) 60 foizi D) 25 foizi

28. XIX asrning oxirgi choragida Xiva xonligidagi 64 ta masjid va madrasa qancha yerga egalik qilgan?
A) 150 tanobdaga yaqin B) 200 tanobdan ziyod
C) 205 ming tanobdan ziyod
D) 280 ming tanobga yaqin

29. Xiva xonligida XIX asrning oxiriga kelib qancha ruhoniylar oilasi barcha soliqlardan ozod etilgandi?
A) qariyb 4 ming ruhoniylar oilasi
B) 3,5 ming ruhoniylar oilasi
C) qariyb 5 ming ruhoniylar oilasi
D) 3 ming ruhoniylar oilasi

30. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Xiva xonligida turli majburiyatlar, doimiy yoki favqulodda soliqlarning qariyb qancha turi mavjud bo'lgan?
A) 18 turi B) 22 turi C) 25 turi D) 28 turi

31. Xiva xoni farmonlarini e'lon qiluvchi jarchi o'z foydasiga qanday soliqni yig'gan?
A) "chibik puli" B) "afanak puli"
C) otov solig'i D) "dud puli"

32. Xiva xonligida dehqonlar ishlar yakunlanganidan keyin odatda yer egasiga hosilning necha foizini bergan?
A) 20-30 foizini B) 30-40 foizini
C) 40-50 foizini D) 50-60 foizini

33. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Yangi Urganch shahrida qancha paxta tozalash zavodi bo'lgan?
A) o'n bitta B) o'n to'rtta C) o'n oltita D) yigirmata

34. Yangi Urganchdagi paxta tozalash zavodlarining qanchasi mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi?
A) to'rttasi B) oltitasi C) o'ntasi D) o'n to'rttasi

35. XIX asrning oxiri– XX asrning boshlarida Gurlan shahrida asosan paxtani tashib ketish bilan shug'ullanadigan Rossiya savdogarlarining qancha idorasi bor edi?
A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 14 ta

36. 1909-yilga kelib Xiva xonligida qancha sanoat korxonasi ishlayotgan edi?
A) 60 taB) 65 ta C) 76 ta D) 81 ta

37. Qaysi yillarda sanoat shakllanishi yanada jadallashib, kerosin va neft bilan ishlaydigan sanoat korxonasi barpo etildi?
A) 1900-1905-yillarda B) 1905-1910-yillarda
C) 1910-1915-yillarda D) 1915-1917-yillarda

38. 1917-yilda Buxoro amirligida qancha sanoat korxonasi bo'lgan?
A) 68 taB) 72 taC) 87 ta D) 92 ta

39.XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Gurlan shahrida mahalliy tadbirkorlar aka – uka Rizayevlar, P. A. Manilov, S.Maksim, S.Tojiniyozov, T. Solijonov va boshqalarning qancha paxta tozalash zavodlari joylashgan edi?
A) 7 ta B) 9 ta C) 11 ta D) 15 ta

40. 1909-yilda Rossiya – Osiyo banki va Madiyorov –Boqqolov kapitalini birlashtirgan qanday shirkat tashkil qilindi?
A) "Semonto" B) "Merkuriy"
C) "A – Meta" D) "Trest komponi"

41. Xiva xonligida faoliyat olib brogan Rossiyaning "A – Meta" sindikati har yili Rossiyaga qancha paxta xomashyosi eksport qilardi?
A) 1,5 ming tonna B) 2 ming tonna
C) 2,5 ming tonna D) 3 ming tonna

42. Qanday jarayon tufayli Xiva xonligining Rossiyaga qaramligi yanada kuchaytirildi?
A) 1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi
B)Orol dengizida Rossiyaning 2 ta flotini tashkil etilishi
C) xonlik teritoriyasida Rossiya harbiy garnizonlarining joylashtirilishi
D) xonlikda 7 kishidan iborat Kengashning ta'sis etilishi

43. Qachonga kelib Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch tumanlarida dehqon uyishmalari vujidga kelib, kurash keskin tus ola boshladi?
A) XIX asrning 60-yillaridaB) XIX asrning 80-yillarida
C) 1905-yillarda D) 1910-yillarda

44. 1902-yilda kim boshchiligida Xonqa, Hazorasp, Bog'ot tumanlari dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi?
A) Xudayberdi pono B) Olloberdi mergan
C) Matyoqub pishiq D) Salimoxun

45. Qachon Yangi Urganch, Xonqa, Hazoraspda muhtoj dehqonlar yirik zamindorlar yerlarini egallab ola boshlashdi?
A)1900-yilda B)1902-yilda C)1904-yildaD)1906-yilda

46. Qaysi yillarda Xiva xonligida qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi?
A) 1907-1908-yillarda B) 1909-1910-yillarda
C) 1910-1911-yillarda D) 1912-1913-yillarda

47. 1912-yilda qayerda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar keskin tus oldi?
A)Hazorasp va Xonqadagi
B)Toshhovuz va Xo'jaylidagi
C)Pitnak va Xonqadagi D)Qiyot va Hazoraspdagi

48. Asfandiyorxonning 1000 kishilik o'zining qo'shinini qo'zg'olonchilar qayerda tor-mor qildilar?
A) Pitnak va Xo'jayli oralig'ida
B) Qiyot va Hazorasp oralig'ida
C) Alieli va Toshhovuz o'rtasida
D) Qiyot va Pitnak o'rtasida

49. Qachon Xiva xoni "Islohotlar loyihasini" qabul qildi?
A)1907-yildaB)1910-yildaC)1912-yildaD) 1914-yilda

50. Asfandiyorxon nima sababdan 1913-yilda islohatchilar rahnomalaridan biri, mamlakat bosh vaziri Islomxo'jani o'ldirtiradi?
A) davlat mablag'larini o'zlashtirishda ayblab
B) yerlarni o'zlashtirishda ayblab
C) Yosh Xivaliklarni himoya qilganligi uchun
D) Rossiya harbiylari bilan yashrincha muzokara olib borganligi uchun

51. Xivadagi Majlis (deputatlar palatasi) ning 1917-yil 26-apreldagi birinchi sessiyasida qancha vakil ishtirok etdi?
A) 15 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 5 nafar vakil
B) 20 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 7 nafar vakil
C) 25 nafar xivalik deputat va qoraqolpoqlardan 10 nafar vakil
D) 30 nafar xivalik deputat va turkmanlardan 7 nafar vakil

52 Qachon turkman urug'ining sardorlaridan biri Junaidxon 1,5 ming kishilik otliq otryad bilan Xivani, keyin esa xonlikning boshqa tumanlarini egallab oldi?
A) 1918-yil yanvarda B) 1918-yil martda
C) 1918-yil mayda D) 1819-yil avgustda

53. Tarixda "xalq inqilobi" nomini olgan Xivadagi to'ntarish qachon ro'y berdi?
A) 1920-yil 10-dekabrda B) 1920-yil 2-sentabrda
C) 1920-yil 2-fevralda D) 1920-yil 16-mayda

54. 1920-yil 27-aprelda Sovetlarning birinchi Butun Xiva qurultoy …… mavjud bo'lgan Xiva xonligi o'rnida Xorazm Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil topganini e'lon qildi?
A) qariyb 500 yil B) ropparosa 410 yil
C) ropparosa 460 yil D) qariyb 370 yil

**9-mavzu: Mustamlaka sharoitida Turkistonda madaniy hayot**

1. Turkistondagi maktablarda "Chor kitob" (to'rt kitob) dan keyin qaysi kitoblar o'qitilgan?
A) So'fi Olloyorning "Risolai aziza","Sabotul ojizin" kitoblari
B) Xo'ja Hofiz devoni va Bedil asarlari
C) "Haftiyak" va Navoiy hazratlarining g'azallari
D) Fuzuliy g'azallari va "Dalili oshiqin" asari

2. Birinchi rus – tuzem maktablari qachon qayerda ochildi?
A)1882-yil Samarqandda Shakuriyning uyida
B)1884-yil Toshkentda Saidg'ani Saidazimboy uyida
C)1885-yil Qo'qonda Mirzakarimboy uyida
D)1886-yil Andijonda Saidolimboy uyida

3. 1911-yilga kelib Turkistondagi rus – tuzem maktablarining soni qanchaga yetdi?
A) 70 taga B) 76 taga C) 89 taga D) 92 taga

4. Qachon Toshkentda birinchi gimnaziya ochildi?
A)1884-yilda B)1890-yilda C)1896-yildaD)1898-yilda

5. Qachondan boshlab Turkiston general – gubernatorligining rasmiy nashri "Туркистанские ведемости" va uning o'zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyatining gazeti" muntazam chiqib turdi?
A) 1870-yildan B) 1872-yildan
C) 1874-yildan D) 1876-yildan

6. 1906-yilda Ismoil Obidov muharrirligida ilk o'zbek milliy gazetasi bo'lmish qaysi gazeta nashr etildi?
A)"Sado" B)"Xurshid" C)"Taraqqiy" D)"Hurriyat"

7. "Turkiston viloyatining gazeti" muharriri kim edi?
A) Ismoil Obidov B) N. Ostroumov
C) G. Rozenbax D) M. Sobirov

8. Ismoil Obidov muharrirligida ……chiqarilgan “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid” gazetalari yopib qo’yildi?
A) 1900-1905-yillarda B) 1905-1907-yillarda
C) 1902-1905-yillarda D) 1910-1912-yillarda

9. 1914-1915-yillarda nashr qilingan qaysi gazetalarning faoliyati davomida milliy ziyolilarning vatanparvar qatlamlari tomonidan millat ozodligi va ravnaqini tarannum etuvchi, xurofot eski aqidaparastlikni qoralovchi ko’plab maqolalar e’lon qilindi?
A) “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg’ona”
B) “Taraqqiy”, “Shuhrat”
C) “Xurshid” va “Sadoyi Turkiston”
D) “Oyna” va “Sadoyi Farg’ona”

10. “Al – izoh” jurnali qachon nashr etila boshlandi?
A) 1913-yildan B) 1915-yildan
C) 1912-yildan D) 1914-yildan

11. Quyidagi tarixchilardan qay biri “Tarixi Turkiston” (“Turkiston tarixi”) asarini yozgan?
A) Mulla Olim Maxdum Hoji
B) Muhammad Solih Toshkandiy
C) Isoqxon Tora Ibrat D) Muhammad Yusuf Bayoniy

12. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida yashab o’tgan tarixchi olim Muhammad Solih necha yillik izlanishlaridan keyin “Tarixi jadidai Toshkent” (“Toshkentning yangi tarixi”) asarini yozgan?
A) 10 yillik B) 15 yillik C) 20 yillik D) 25 yillik

13. Xorazmlik mashhur tarixchi olim Muhammad Yusuf Boyoniy avlodlarga qanday yirik tarixiy asarlarni meros qoldirgan?
A) “Shajarayi tarokima” va “Qo’ng’irotlar tarixi”
B)“Xorazm tarixi” va “Shajarayi Xorazmshohiy”
C) “Tarixi Turkiston” va “Firdavs ul – iqbol”
D) “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Turon tarixi”

14. Qachon sharqshunos va arxeologik olim V. Vyatkin mahalliy tarixchilar bilan birgalikda Ulug’bek rasadxonasini qoldiqlarini topishga muvaffaq bo’ldi?
A)1905-yilda B)1907-yilda C)1908-yildaD)1909-yilda

15. V. Vyatkin tomonidan qanday asarlar yozildi?
A) “Shohizinda”, “Cho’ponota”, “Afrosiyob qo’rg’oni”
B) “Turkiston o’lkasiga sayohat”, “Tarixi Narshaxiy”
C) “Xoja Ahror yodgorligi”, “Bibixonim masjidi”
D) “Ulug’bek va uning davri”, “Afrosiyob qo’rg’oni”

16. Qachon O’rta Osiyo Arxeologiya havaskorlarining to’garagi tashkil etildi?
A)1890-yilda B)1892-yilda C)1895-yildaD)1900-yilda
17. Qachon mintaqaning bosh xaritasi tuzib chiqildi?
A)1867-yilda B)1869-yilda C)1871-yildaD)1873-yilda

18. Qaysi rus olimi Pomir tog’ tizimini o’rganib chiqdi va sayohati davomida botanika, minerallarga oid namunalar to’pladi?
A) A. P. Fedchenko B) N. A. Seversev
C) P. P. Semyonov D) A. Mushketov

19. Mashhur rus olimi A. P. Fedchenko …….
A) Tyanshan tog’ tizimini o’rganib muzlik, vul-qonlar haqida qiziqarli ma’lumotlar to’pladi
B)Farg’ona vodiysi va Oloyni, shuningdek, Zarafshon vodiysi bilan Qizilqumni ham tekshirib chiqdi
C) O’rta Osiyoni tabiiy boyliklarini o’rgandi
D) Chirchiq va Ohangoron vohalarini tabiiy boyliklarini o’rgandi

20. Qachon O’rta Osiyo Olimlar jamiyati tashkil etildi?
A)1868-yilda B)1871-yilda C)1873-yildaD)1875-yilda

21. O’rta Osiyo Olimlar jamiyati mablag’i yo’qligi tufayli qachon o’z faoliyatini to’xtatishga majbur bo’lgan edi?
A)1889-yilda B)1891-yilda C)1893-yildaD)1895-yilda

22. 1876-yil Toshkentda …….
A) O’rta Osiyo Olimlar jamiyati tashkil etildi
B) mintaqaning bosh xaritasi tuzib chiqildi
C) Arxeologiya havaskorlari to’garagi ochildi
D) Turkiston muzeyi (hozirgi O’zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etildi

23. Qachon Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etildi?
A)1870-yilda B)1872-yilda C)1875-yildaD)1877-yilda

24. “Saylov”, “Tanobchilar”, “Hapalak qishlog’i aholisining xonga arzi” asarlari qaysi o’zbek demokratik shoiri qalamiga tegishli?
A) Ubaydulla Solih o’g’li Zavqiyga
B) Muhammad Aminxo’ja Muqimiyga
C) Abdulla Qodiriyga D) Avaz O’tar o’g’liga

25. Qaysi yozuvchi jadid adabiyotida 1910-yilda ilk nasriy asarlarini e’lon qildi?
A) Mahmudxo’ja Behbudiy B) Abdulla Qodiriy
C) Abdurauf Fitrat D) Abdulla Avloniy

26. Jadid teatrlarida 1911-1917-yillarda qancha pyesa namoyish etildi, ular xalq ommasi orasida eng mashhur asarlarga aylandi?
A) 15 ta B) 20 ta C) 25 ta D) 32 ta

27. Quyidagi qaysi asarda oilaviy va shaxsiy fojialar sababchisiga aylangan serchiqim ba’zi urf – odatlar va an’analar tanqid ostiga olinadi?
A) “Padarkush” asarida B) “To’y” asarida
C) “Tanobchilar” asarida D) “Hangoma” asarida

28. XIX asrning ikkinchi yarmida O’rta Osiyoning bir necha shaharlarida an’anaviy teatr uyishmalari vujudga kelgan bo’lib, ular-ning eng mashhurlari qaysi uyishmalar edi?
A) Qo’qonda Zokir eshon, Buxoroda To’la masxara
B) Qarshida Matxoliq qiziq, Qo’qonda Mahram qiziq
C) Shahrisabzda Tanbur qiziq, Samarqandda Kachal Polvon
D) Toshkentda Ahmad qiziq, Andijonda Yusufjon qiziq

29. Qachon Turkiston general – gubernatori tomonidan taklif qilingan Samara teatri o'lkada bir necha kunlik dasturlarini namoyish etgan?
A) 1870-yil B) 1872-yil C) 1874-yil D) 1876-yil

30. Qaysi shaharlarga 1910-yilda rus aktrisasi V. F. Komissarjevskaya truppasining gastrollari uyishtirildi?
A) Toshkent va Farg'onaga
B) Kogon va Termizga
C) Qo'qon va Jizzaxga
D) Samarqand va Toshkentga

31. Qaysi yillarda tatar va ozarbayjon truppalarining Turkistonda bo'lib o'tgan gastrollari ham katta madaniy voqeaga aylandi?
A) 1907-1909-yillarda B) 1909-1911-yillarda
C) 1910-1912-yillarda D) 1912-1913-yillarda

32. O'zbek jamoatchiligi orasida iliq kutib olingan "Go'ro'g'li", "Layli va Majnun" va "Arshin mololon" musiqali pyesalari kimning asari?
A)Fotih Niyoziyning B) U. Gajibekovning
C)Said Rizo Alizodaning D)Rauf Afandibeyning

33. Qachondan boshlab Turkistonda dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi?
A) 1909-yilda B) 1910-yilda
C) 1911-yilda D) 1912-yilda

34. 1914-yilda kim tomonidan Toshkent shahrida "Turon" nomidagi teatr truppasi tashkil etildi?
A) Munawar Qori B) Abdulla Qodiriy
C) Abdulla Avloniy
D) Asadullaxo'ja Ubaydullaxo'jayev

35. "Turon" teatrining Turkiston shaharlari bo'ylab gastrollari qachon zo'r muvaffaqiyat bilan o'tdi?
A) 1914-yili B) 1915-yili C) 1916-yili D) 1917-yili

36. Milliy teatr asoschisi bo'lmish kim 1916-yildan san'atga ilk qadamini tashladi?
A) Yusufjon qiziq ShakarjonovB) Mannon Uyg'ur
C) Yetim Bobojonov D) Hamza Hakimzoda Niyoziy

37. O'zbek teatrining birinchi aktrisasi kim bo'lgan?
A) Halimaxonim Nosirova B) Sora Eshonto'rayeva
C) Maryam Yoqubova D) Ma'suma Qoriyeva

38. Qachon Xiva va Buxoroda dastlabki teatrlar tashkil topdi?
A) 1920-yilda B) 1921-yilda
C) 1922-yilda D) 1923-yilda

39. Turkistonda qachon dastlabki yozma milliy sahna asari – "Padarkush" dramasi yaratildi?
A)1911-yilda B)1912-yilda C)1913-yildaD)1914-yilda

40. XX asr boshlarida barpo etilgan Sitorai Mohi Xosa majmuasining maxsus Oqsaroy zaliga pardoz berish ishini kim boshchiligidagi bir guruh usta ganchkorlar amalga oshirdilar?
A) Obloqul Hofizov B) Mo'minjon Solihov
C) Shirin Murodov D) Ibrohim Hofizov

41. Xorazm me'morchilik maktabining sarkori qaysi usta bo'lgan?
A) Odina Muhammad Murod
B) Sofimuhammad Niyoz
C) Nurmuhammad
D) Abduljabbor

42. Asfandiyorxonning bosh vaziri, ma'rifatli inson Islomxo'ja homiyligida ….. minora bunyod ettiradi.
A) 1906-1907-yillarda B) 1907-1908-yillarda
C) 1908-1910-yillarda D) 1910-1912-yillarda

43. Qaysi yillarda Xiva xoni Muhammad Rahim II Nurillaboy nomi bilan ataluvchi saroyni qurdiradi?
A) 1904-1912-yillarda B) 1906-1914-yillarda
C) 1910-1916-yillarda D) 1902-1910-yillarda

44. XIX asr oxirlarida qurilgan qaysi bino o'z qurilishi bilan yuksak milliy me'morchilik namunasi bo'lib qoldi?
A) Sitorai Mohi Xosa B) Nurillaboy saroyi
C) Islomxo'ja minorasi D) Andijon jome masjidi

## I bo'lim QADIMGI DUNYO

### 1-mavzu: Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 7 | C | 13 | A | 19 | C | 25 | B | 31 | D | 37 | C |
| 2 | B | 8 | B | 14 | B | 20 | B | 26 | C | 32 | B | 38 | B |
| 3 | C | 9 | A | 15 | A | 21 | A | 27 | B | 33 | C | 39 | C |
| 4 | D | 10 | B | 16 | B | 22 | D | 28 | C | 34 | D | 40 | A |
| 5 | A | 11 | A | 17 | C | 23 | C | 29 | C | 35 | C | | |
| 6 | B | 12 | C | 18 | A | 24 | C | 30 | B | 36 | A | | |

### 2-mavzu: Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 31 | C | 61 | D | 91 | D | 121 | C | 151 | B | 181 | C |
| 2 | C | 32 | B | 62 | C | 92 | A | 122 | D | 152 | C | 182 | C |
| 3 | C | 33 | A | 63 | B | 93 | C | 123 | B | 153 | D | 183 | B |
| 4 | D | 34 | C | 64 | A | 94 | C | 124 | B | 154 | B | 184 | C |
| 5 | B | 35 | C | 65 | C | 95 | A | 125 | B | 155 | C | 185 | D |
| 6 | C | 36 | B | 66 | A | 96 | C | 126 | A | 156 | C | 186 | D |
| 7 | C | 37 | C | 67 | C | 97 | D | 127 | B | 157 | B | 187 | B |
| 8 | A | 38 | B | 68 | B | 98 | C | 128 | C | 158 | D | 188 | A |
| 9 | C | 39 | C | 69 | C | 99 | B | 129 | B | 159 | C | 189 | B |
| 10 | B | 40 | D | 70 | B | 100 | C | 130 | C | 160 | C | 190 | C |
| 11 | C | 41 | B | 71 | B | 101 | A | 131 | D | 161 | D | 191 | D |
| 12 | B | 42 | D | 72 | C | 102 | C | 132 | B | 162 | B | 192 | B |
| 13 | C | 43 | D | 73 | B | 103 | A | 133 | C | 163 | D | 193 | A |
| 14 | B | 44 | C | 74 | C | 104 | D | 134 | D | 164 | A | 194 | A |
| 15 | C | 45 | B | 75 | C | 105 | B | 135 | A | 165 | C | 195 | B |
| 16 | A | 46 | A | 76 | A | 106 | C | 136 | B | 166 | B | 196 | D |
| 17 | C | 47 | A | 77 | B | 107 | B | 137 | C | 167 | D | 197 | C |
| 18 | D | 48 | C | 78 | C | 108 | D | 138 | D | 168 | D | 198 | B |
| 19 | A | 49 | D | 79 | C | 109 | C | 139 | A | 169 | D | 199 | B |
| 20 | B | 50 | B | 80 | A | 110 | B | 140 | C | 170 | B | 200 | C |
| 21 | D | 51 | C | 81 | B | 111 | B | 141 | B | 171 | D | 201 | B |
| 22 | C | 52 | A | 82 | B | 112 | C | 142 | C | 172 | C | 202 | C |
| 23 | D | 53 | B | 83 | C | 113 | D | 143 | C | 173 | B | 203 | D |
| 24 | B | 54 | C | 84 | D | 114 | B | 144 | D | 174 | C | 204 | A |
| 25 | C | 55 | B | 85 | B | 115 | C | 145 | B | 175 | C | 205 | C |
| 26 | D | 56 | C | 86 | C | 116 | D | 146 | C | 176 | D | 206 | A |
| 27 | A | 57 | C | 87 | B | 117 | B | 147 | B | 177 | B | 207 | B |
| 28 | D | 58 | C | 88 | C | 118 | C | 148 | C | 178 | A | | |
| 29 | A | 59 | B | 89 | B | 119 | D | 149 | A | 179 | C | | |
| 30 | B | 60 | C | 90 | C | 120 | B | 150 | D | 180 | B | | |

### 3-mavzu: Qadimgi Yunoniston.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | B | 18 | C | 35 | A | 52 | A | 69 | B | 86 | A | 103 | B |
| 2 | C | 19 | A | 36 | C | 53 | C | 70 | A | 87 | B | 104 | C |
| 3 | D | 20 | C | 37 | B | 54 | D | 71 | C | 88 | C | 105 | B |
| 4 | A | 21 | C | 38 | A | 55 | C | 72 | B | 89 | D | 106 | A |
| 5 | C | 22 | B | 39 | D | 56 | B | 73 | D | 90 | B | 107 | B |
| 6 | B | 23 | C | 40 | C | 57 | B | 74 | A | 91 | C | 108 | B |
| 7 | C | 24 | A | 41 | B | 58 | D | 75 | B | 92 | B | 109 | C |
| 8 | D | 25 | B | 42 | A | 59 | D | 76 | C | 93 | D | 110 | C |
| 9 | C | 26 | D | 43 | A | 60 | B | 77 | B | 94 | B | 111 | B |
| 10 | B | 27 | C | 44 | D | 61 | C | 78 | C | 95 | C | 112 | C |
| 11 | C | 28 | C | 45 | C | 62 | A | 79 | B | 96 | B | 113 | C |
| 12 | A | 29 | B | 46 | B | 63 | C | 80 | D | 97 | C | 114 | D |
| 13 | C | 30 | A | 47 | B | 64 | D | 81 | C | 98 | C | 115 | B |
| 14 | C | 31 | B | 48 | C | 65 | B | 82 | D | 99 | B | | |
| 15 | C | 32 | A | 49 | B | 66 | A | 83 | B | 100 | B | | |
| 16 | B | 33 | C | 50 | B | 67 | C | 84 | C | 101 | A | | |
| 17 | C | 34 | B | 51 | C | 68 | B | 85 | D | 102 | A | | |

4-mavzu: Mil.aw. VI milodiy IV asrlarda O’rta Osiyo.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | B | 16 | C | 31 | B | 46 | D | 61 | C | 76 | C | 91 | C |
| 2 | C | 17 | A | 32 | C | 47 | A | 62 | D | 77 | A | 92 | D |
| 3 | A | 18 | B | 33 | A | 48 | B | 63 | C | 78 | B | 93 | B |
| 4 | C | 19 | C | 34 | D | 49 | B | 64 | B | 79 | D | 94 | C |
| 5 | D | 20 | B | 35 | B | 50 | C | 65 | C | 80 | B | 95 | D |
| 6 | B | 21 | C | 36 | C | 51 | A | 66 | D | 81 | C | 96 | A |
| 7 | C | 22 | D | 37 | B | 52 | C | 67 | B | 82 | B | 97 | C |
| 8 | B | 23 | C | 38 | C | 53 | C | 68 | D | 83 | C | 98 | D |
| 9 | C | 24 | C | 39 | A | 54 | C | 69 | A | 84 | D | 99 | A |
| 10 | B | 25 | B | 40 | C | 55 | D | 70 | C | 85 | B | 100 | D |
| 11 | A | 26 | C | 41 | C | 56 | B | 71 | D | 86 | A | 101 | A |
| 12 | C | 27 | C | 42 | D | 57 | C | 72 | D | 87 | D | 102 | B |
| 13 | C | 28 | D | 43 | A | 58 | B | 73 | A | 88 | A | 103 | C |
| 14 | B | 29 | B | 44 | B | 59 | C | 74 | B | 89 | C | 104 | A |
| 15 | D | 30 | C | 45 | C | 60 | C | 75 | B | 90 | D | 105 | |

5-mavzu: Qadimgi Rim.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | D | 21 | A | 41 | A | 61 | C | 81 | D | 101 | A | 121 | D |
| 2 | B | 22 | A | 42 | C | 62 | D | 82 | D | 102 | B | 122 | C |
| 3 | C | 23 | C | 43 | C | 63 | C | 83 | B | 103 | C | 123 | C |
| 4 | D | 24 | D | 44 | C | 64 | D | 84 | C | 104 | D | 124 | B |
| 5 | B | 25 | C | 45 | C | 65 | A | 85 | D | 105 | C | 125 | C |
| 6 | C | 26 | B | 46 | D | 66 | D | 86 | C | 106 | D | 126 | A |
| 7 | B | 27 | B | 47 | B | 67 | C | 87 | B | 107 | B | 127 | C |
| 8 | C | 28 | B | 48 | D | 68 | B | 88 | C | 108 | D | 128 | D |
| 9 | C | 29 | C | 49 | B | 69 | C | 89 | D | 109 | C | 129 | B |
| 10 | A | 30 | B | 50 | C | 70 | D | 90 | B | 110 | D | 130 | C |
| 11 | C | 31 | C | 51 | D | 71 | C | 91 | D | 111 | D | 131 | B |
| 12 | A | 32 | A | 52 | C | 72 | A | 92 | C | 112 | B | 132 | C |
| 13 | D | 33 | C | 53 | B | 73 | B | 93 | B | 113 | C | 133 | D |
| 14 | B | 34 | B | 54 | C | 74 | A | 94 | A | 114 | D | 134 | C |
| 15 | C | 35 | C | 55 | A | 75 | C | 95 | B | 115 | C | 135 | B |
| 16 | A | 36 | B | 56 | C | 76 | D | 96 | C | 116 | D | | |
| 17 | D | 37 | A | 57 | B | 77 | C | 97 | B | 117 | B | | |
| 18 | B | 38 | D | 58 | B | 78 | C | 98 | C | 118 | C | | |
| 19 | C | 39 | B | 59 | C | 79 | B | 99 | D | 119 | D | | |
| 20 | D | 40 | D | 60 | B | 80 | C | 100 | C | 120 | B | | |

II BO’LIM: MILODNING IV ASRIDAN XVI ASR BOSHLARIGACHA

**1-mavzu: O’rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanisha va rivojlanishi**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **C** | **15** | **A** | 29 | **B** | 43 | B | 57 | A | 71 | D | 85 | A | 99 | A | 113 | C | 127 | B |
| 2 | **B** | 16 | **C** | 30 | **D** | 44 | A | 58 | B | 72 | A | 86 | B | 100 | D | 114 | D | 128 | C |
| 3 | **D** | 17 | **D** | 31 | **C** | 45 | D | 59 | B | 73 | C | 87 | C | 101 | A | 115 | C | 129 | B |
| 4 | **B** | 18 | **C** | 32 | **C** | 46 | A | 60 | A | 74 | B | 88 | B | 102 | D | 116 | A | 130 | D |
| 5 | **C** | 19 | **A** | 33 | A | 47 | B | 61 | D | 75 | C | 89 | D | 103 | B | 117 | C | 131 | B |
| 6 | **C** | 20 | **D** | 34 | B | 48 | C | 62 | C | 76 | C | 90 | B | **104** | C | 118 | A | 132 | C |
| 7 | **A** | 21 | **A** | 35 | D | 49 | D | 63 | B | 77 | D | 91 | C | 105 | A | 119 | B | 133 | D |
| 8 | **B** | 22 | **A** | 36 | C | 50 | B | 64 | C | 78 | C | 92 | D | 106 | A | 120 | A | 134 | B |
| 9 | **A** | 23 | **D** | 37 | D | 51 | D | 65 | B | 79 | B | 93 | C | 107 | B | 121 | D | | |
| 10 | **C** | 24 | **B** | 38 | A | 52 | C | 66 | A | 80 | C | 94 | B | 108 | C | 122 | A | | |
| 11 | **B** | 25 | **C** | 39 | C | 53 | C | 67 | D | 81 | B | 95 | C | 109 | A | 123 | C | | |
| 12 | **A** | 26 | **A** | 40 | B | 54 | A | 68 | D | 82 | C | 95 | C | 110 | B | 124 | A | | |
| 13 | **B** | 27 | **C** | 41 | B | 55 | C | 69 | A | 83 | B | 97 | C | 111 | A | 125 | C | | |
| 14 | **C** | 28 | **C** | 42 | C | 56 | B | 70 | B | 84 | C | 98 | B | 112 | B | 126 | D | | |

**2-mavzu: O'rta Osiyonig arablar tomonidan fath etilishi. xalq qo'zg'olonlari (VII-VIII asrlar)**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 9 | **C** | 17 | C | 25 | B | 33 | C | 41 | B | 49 | D | 57 | B | 65 | C | 73 | C |
| 2 | B | 10 | **A** | 18 | D | 26 | C | 34 | D | 42 | A | 50 | B | 58 | C | 66 | B | | |
| 3 | A | 11 | **B** | 19 | B | 27 | B | 35 | C | 43 | D | 51 | B | 59 | B | 67 | A | | |
| 4 | C | 12 | **C** | 20 | A | 28 | C | 36 | A | 44 | A | 52 | C | 60 | A | 68 | A | | |
| 5 | D | 13 | **B** | 21 | C | 29 | D | 37 | B | 45 | C | 53 | B | 61 | C | 69 | D | | |
| 6 | C | 14 | **C** | 22 | B | 30 | A | 38 | B | 46 | B | 54 | A | 62 | D | 70 | B | | |
| 7 | A | 15 | **D** | 23 | B | 31 | B | 39 | A | 47 | D | 55 | C | 63 | A | 71 | D | | |
| 8 | B | 16 | C | 24 | C | 32 | C | 40 | A | 48 | C | 56 | A | 64 | B | 72 | A | | |

**3-mavzu: Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi.**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **A** | **19** | **A** | 37 | B | 55 | B | 73 | C | 91 | C | 109 | A | 127 | B | 145 | C | 163 | C | 181 | **C** |
| 2 | **C** | **20** | **D** | 38 | C | 56 | C | 74 | C | 92 | B | 110 | B | 128 | C | 146 | A | 164 | A | | |
| 3 | **D** | 21 | **C** | **39** | A | 57 | C | 75 | D | 93 | D | 111 | B | 129 | D | 147 | D | 165 | B | | |
| 4 | **B** | 22 | **D** | **40** | D | 58 | B | 76 | A | 94 | B | 112 | D | 130 | B | 148 | C | 166 | B | | |
| 5 | **A** | 23 | **A** | 41 | C | 59 | A | 77 | D | 95 | A | 113 | B | 131 | B | 149 | B | 167 | C | | |
| 6 | **C** | 24 | **C** | 42 | C | 60 | C | 78 | A | 96 | C | 114 | C | 132 | C | 150 | C | 168 | A | | |
| 7 | **C** | 25 | **C** | 43 | B | 61 | B | 79 | B | 97 | B | 115 | A | 133 | A | 151 | B | 169 | B | | |
| 8 | **A** | 26 | **C** | 44 | A | 62 | C | 80 | D | 98 | C | 116 | C | 134 | C | 152 | C | **170** | C | | |
| 9 | **A** | 27 | **B** | 45 | B | 63 | D | 81 | B | 99 | A | 117 | A | **135** | D | 153 | B | 171 | B | | |
| 10 | **D** | 28 | D | 46 | B | 64 | C | 82 | C | 100 | C | 118 | C | 136 | B | 154 | D | 172 | C | | |
| 11 | **B** | 29 | B | 47 | C | 65 | D | 83 | D | 101 | D | 119 | C | 137 | D | 155 | B | 173 | A | | |
| 12 | **A** | 30 | A | 48 | C | 66 | B | 84 | B | 102 | D | 120 | B | 138 | B | 156 | D | 174 | B | | |
| 13 | **C** | 31 | D | 49 | B | 67 | A | 85 | D | 103 | B | 121 | C | 139 | D | 157 | A | 175 | B | | |
| 14 | **B** | 32 | A | 50 | B | 68 | A | 86 | B | **104** | D | 122 | A | 140 | A | 158 | C | 176 | C | | |
| 15 | **C** | 33 | D | 51 | A | 69 | C | 87 | D | 105 | D | 123 | B | 141 | B | 159 | D | 177 | A | | |
| 16 | **A** | 34 | B | 52 | C | 70 | B | 88 | C | 106 | C | 124 | C | 142 | C | 160 | B | 178 | B | | |
| 17 | **D** | 35 | B | 53 | C | 71 | C | 89 | B | 107 | C | 125 | B | 143 | B | 161 | B | 179 | C | | |
| 18 | **B** | 36 | C | 54 | D | 72 | A | 90 | C | 108 | C | 126 | A | 144 | C | 162 | D | 180 | B | | |

**4-mavzu: Vatanimiz xalqlarining Chingizxon istilosi va zulmiga qarshi ozodlik kurashi**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **B** | 12 | C | 23 | D | 34 | D | 45 | D | 56 | A | 67 | D | 78 | C | 89 | C | **100** | C |
| 2 | **B** | 13 | A | 24 | B | 35 | D | 46 | C | 57 | C | 68 | C | 79 | B | 90 | B | **101** | B |
| 3 | **B** | 14 | C | 25 | A | 36 | B | 47 | A | 58 | D | 69 | B | 80 | C | 91 | C | **102** | C |
| 4 | **C** | 15 | D | 26 | C | 37 | B | 48 | C | 59 | C | 70 | C | 81 | B | 92 | D | **103** | A |
| 5 | **B** | 16 | A | 27 | D | 38 | C | 49 | B | 60 | D | 71 | D | 82 | C | 93 | C | **104** | C |
| 6 | **C** | 17 | C | 28 | C | 39 | A | 50 | A | 61 | C | 72 | B | 83 | B | 94 | D | **105** | D |
| 7 | **B** | 18 | B | 29 | A | 40 | D | 51 | C | 62 | A | 73 | C | 84 | C | 95 | A | | |
| 8 | **C** | 19 | C | 30 | B | 41 | B | 52 | D | 63 | B | 74 | B | 85 | C | 96 | B | | |
| 9 | **A** | 20 | B | 31 | C | 42 | C | 53 | B | 64 | A | 75 | A | 86 | A | 97 | A | | |
| 10 | **B** | 21 | C | 32 | B | 43 | B | 54 | C | 65 | C | 76 | C | 87 | A | **98** | A | | |
| 11 | B | 22 | C | 33 | C | 44 | C | 55 | B | 66 | B | 77 | D | 88 | C | **99** | B | | |

**5-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davlati.**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **B** | 16 | **B** | 31 | D | 46 | A | 61 | B | 76 | B | 91 | B | 106 | B | 121 | B | 136 | B |
| 2 | **B** | 17 | C | 32 | B | 47 | B | 62 | C | 77 | C | 92 | A | 107 | D | 122 | C | 137 | D |
| 3 | **C** | 18 | D | 33 | D | 48 | A | 63 | B | 78 | D | 93 | B | 108 | B | 123 | B | 138 | B |
| 4 | **D** | 19 | C | 34 | D | 49 | A | 64 | D | 79 | B | 94 | D | 109 | C | 124 | D | 139 | C |
| 5 | **B** | 20 | B | 35 | C | 50 | B | 65 | A | 80 | D | 95 | B | 110 | B | 125 | A | 140 | C |
| 6 | **A** | 21 | C | 36 | A | 51 | A | 66 | C | 81 | C | 96 | A | 111 | A | 126 | B | 141 | B |
| 7 | **D** | 22 | C | 37 | D | 52 | C | 67 | B | 82 | A | 97 | A | 112 | B | 127 | C | 142 | D |
| 8 | **C** | 23 | D | 38 | B | 53 | B | 68 | B | 83 | B | 98 | B | 113 | B | 128 | A | 143 | A |
| 9 | **A** | 24 | C | 39 | A | 54 | B | 69 | D | 84 | C | 99 | C | 114 | C | 129 | A | 144 | **D** |
| 10 | **B** | 25 | D | 40 | B | 55 | C | 70 | B | 85 | A | 100 | B | 115 | B | 130 | C | 145 | **C** |
| 11 | **C** | 26 | C | 41 | D | 56 | B | 71 | B | 86 | B | 101 | D | 116 | C | 131 | C | 146 | **B** |
| 12 | **C** | 27 | B | 42 | C | 57 | C | 72 | B | 87 | C | 102 | C | 117 | B | 132 | A | 147 | **C** |
| 13 | **A** | 28 | C | 43 | D | 58 | A | 73 | B | 88 | C | 103 | D | 118 | C | 133 | D | 148 | **A** |
| 14 | **D** | 29 | A | 44 | C | 59 | B | 74 | C | 89 | C | **104** | C | 119 | D | 134 | A | 149 | **B** |
| 15 | **B** | 30 | B | 45 | B | 60 | C | 75 | D | 90 | A | 105 | A | 120 | A | **135** | A | 150 | **C** |

# III BO’LIM. XVI -XIX ASRNING BIRINCHI YARMI

## 1-mavzu: Movarounnahr Shayboniylar hukmronligi davrida

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 15 | C | 29 | C | 43 | B | 57 | C | 71 | D | 85 | B | 99 | C | 113 | B | 127 | B |
| 2 | A | 16 | A | 30 | C | 44 | C | 58 | A | 72 | C | 86 | B | 100 | C | 114 | C | 128 | C |
| 3 | C | 17 | C | 31 | B | 45 | D | 59 | C | 73 | B | 87 | A | 101 | A | 115 | A | 129 | B |
| 4 | D | 18 | D | 32 | C | 46 | B | 60 | C | 74 | A | 88 | C | 102 | D | 116 | C | 130 | C |
| 5 | D | 19 | B | 33 | B | 47 | C | 61 | D | 75 | D | 89 | B | 103 | C | 117 | B | 131 | A |
| 6 | B | 20 | C | 34 | C | 48 | B | 62 | B | 76 | C | 90 | B | 104 | B | 118 | D | 132 | B |
| 7 | C | 21 | C | 35 | D | 49 | C | 63 | C | 77 | C | 91 | A | 105 | B | 119 | C | 133 | A |
| 8 | D | 22 | C | 36 | B | 50 | A | 64 | B | 78 | D | 92 | D | 106 | D | 120 | A | 134 | A |
| 9 | B | 23 | C | 37 | C | 51 | B | 65 | C | 79 | B | 93 | C | 107 | B | 121 | C | 135 | C |
| 10 | D | 24 | C | 38 | A | 52 | C | 66 | D | 80 | A | 94 | A | 108 | C | 122 | B | 136 | D |
| 11 | B | 25 | B | 39 | B | 53 | B | 67 | C | 81 | B | 95 | B | 109 | B | 123 | A | 137 | A |
| 12 | C | 26 | D | 40 | C | 54 | B | 68 | B | 82 | C | 96 | A | 110 | C | 124 | B | 138 | D |
| 13 | C | 27 | B | 41 | B | 55 | A | 69 | C | 83 | D | 97 | D | 111 | C | 125 | B | | |
| 14 | B | 28 | A | 42 | C | 56 | B | 70 | C | 84 | C | 98 | B | 112 | A | 126 | D | | |

## 2-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | B | 9 | D | 17 | C | 25 | D | 33 | B | 41 | C | 49 | B | 57 | A | 65 | B | 73 | C |
| 2 | C | 10 | D | 18 | B | 26 | B | 34 | C | 42 | D | 50 | D | 58 | B | 66 | A | 74 | A |
| 3 | D | 11 | C | 19 | D | 27 | C | 35 | D | 43 | A | 51 | B | 59 | C | 67 | B | 75 | B |
| 4 | C | 12 | C | 20 | C | 28 | C | 36 | A | 44 | D | 52 | B | 60 | D | 68 | D | 76 | C |
| 5 | D | 13 | A | 21 | D | 29 | D | 37 | D | 45 | C | 53 | C | 61 | C | 69 | B | 77 | A |
| 6 | C | 14 | D | 22 | B | 30 | A | 38 | A | 46 | B | 54 | D | 62 | B | 70 | A | | |
| 7 | D | 15 | A | 23 | C | 31 | C | 39 | B | 47 | D | 55 | C | 63 | A | 71 | C | | |
| 8 | B | 16 | C | 24 | B | 32 | A | 40 | A | 48 | A | 56 | B | 64 | C | 72 | D | | |

## 3-mavzu: Buxoro amirligi

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A | 9 | D | 17 | C | 25 | B | 33 | C | 41 | C | 49 | B | 57 | C | 65 | A | 73 | D |
| 2 | B | 10 | C | 18 | B | 26 | C | 34 | B | 42 | D | 50 | D | 58 | B | 66 | D | 74 | A |
| 3 | D | 11 | B | 19 | A | 27 | C | 35 | D | 43 | A | 51 | B | 59 | C | 67 | C | 75 | B |
| 4 | D | 12 | A | 20 | C | 28 | D | 36 | C | 44 | B | 52 | C | 60 | C | 68 | C | 76 | A |
| 5 | D | 13 | B | 21 | D | 29 | B | 37 | C | 45 | D | 53 | D | 61 | B | 69 | A | 77 | B |
| 6 | C | 14 | A | 22 | D | 30 | C | 38 | B | 46 | C | 54 | B | 62 | A | 70 | B | 78 | A |
| 7 | B | 15 | B | 23 | C | 31 | D | 39 | B | 47 | C | 55 | A | 63 | B | 71 | D | 79 | C |
| 8 | D | 16 | A | 24 | D | 32 | B | 40 | C | 48 | A | 56 | D | 64 | D | 72 | C | 80 | B |

## 4-mavzu: Xiva xonligining tashkil topishi. XVI-XVIII asrning birinchi yarmida xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 7 | D | 13 | B | 19 | D | 25 | C | 31 | B | 37 | C | 43 | A | 49 | C | 55 | A |
| 2 | D | 8 | C | 14 | A | 20 | A | 26 | B | 32 | C | 38 | B | 44 | C | 50 | A | 56 | B |
| 3 | B | 9 | B | 15 | B | 21 | B | 27 | D | 33 | D | 39 | A | 45 | D | 51 | C | | |
| 4 | A | 10 | B | 16 | C | 22 | C | 28 | B | 34 | B | 40 | C | 46 | C | 52 | B | | |
| 5 | B | 11 | B | 17 | C | 23 | A | 29 | C | 35 | B | 41 | B | 47 | A | 53 | C | | |
| 6 | C | 12 | C | 18 | B | 24 | B | 30 | C | 36 | A | 42 | C | 48 | B | 54 | C | | |

## 5-mavzu: XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | D | 9 | C | 17 | D | 25 | C | 33 | D | 41 | A | 49 | B | 57 | C | 65 | B | 73 | B |
| 2 | B | 10 | B | 18 | A | 26 | C | 34 | B | 42 | C | 50 | C | 58 | B | 66 | C | | |
| 3 | A | 11 | D | 19 | C | 27 | A | 35 | D | 43 | B | 51 | A | 59 | C | 67 | C | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | **B** | 12 | A | 20 | A | 28 | C | 36 | C | 44 | C | 52 | C | 60 | B | **68** | B | | |
| 5 | **A** | 13 | B | 21 | D | 29 | D | 37 | C | 45 | D | 53 | A | 61 | D | 69 | D | | |
| 6 | **D** | 14 | C | 22 | D | 30 | C | 38 | D | 46 | C | 54 | D | 62 | A | 70 | B | | |
| 7 | **B** | 15 | D | 23 | C | 31 | A | 39 | C | 47 | C | 55 | B | 63 | C | 71 | C | | |
| 8 | **C** | 16 | C | 24 | A | 32 | D | 40 | B | 48 | A | 56 | D | 64 | D | 72 | A | | |

**6-mavzu: XVI-XIX asrning birinchi yarmida Qoraqalpoqlar**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **C** | 7 | A | 13 | B | 19 | A | 25 | D | 31 | B | 37 | D | 43 | B | **49** | B |
| 2 | **D** | 8 | C | 14 | A | 20 | B | 26 | C | 32 | D | 38 | C | 44 | D | **50** | C |
| 3 | **A** | 9 | D | 15 | B | 21 | C | 27 | A | 33 | B | 39 | B | 45 | A | **51** | A |
| 4 | **B** | 10 | C | 16 | C | 22 | B | 28 | C | 34 | A | 40 | D | 46 | D | **52** | B |
| 5 | **C** | 11 | B | 17 | D | 23 | D | 29 | B | 35 | B | 41 | B | **47** | B | | |
| 6 | **D** | 12 | D | 18 | C | 24 | A | 30 | C | 36 | C | 42 | D | **48** | A | | |

**7-mavzu: XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **B** | 11 | C | 21 | C | 31 | D | 41 | B | 51 | D | 61 | B | 71 | D | 81 | C | 91 | B |
| 2 | **C** | 12 | A | 22 | D | 32 | B | 42 | C | 52 | B | 62 | C | 72 | C | 82 | D | 92 | C |
| 3 | **B** | 13 | B | 23 | C | 33 | C | 43 | C | 53 | C | 63 | A | 73 | D | 83 | C | 93 | B |
| 4 | **A** | 14 | C | 24 | B | 34 | D | 44 | A | 54 | D | 64 | B | 74 | C | 84 | B | 94 | A |
| 5 | **C** | 15 | A | 25 | B | 35 | D | 45 | C | 55 | C | 65 | C | 75 | A | 85 | A | 95 | D |
| 6 | **D** | 16 | B | 26 | C | 36 | C | 46 | C | 56 | A | 66 | C | 76 | B | 86 | B | **96** | C |
| 7 | **D** | 17 | D | 27 | A | 37 | A | 47 | D | 57 | B | 67 | B | 77 | C | 87 | C | | |
| 8 | **C** | 18 | C | 28 | B | 38 | D | 48 | A | 58 | C | **68** | C | **78** | A | 88 | D | | |
| 9 | **A** | 19 | B | 29 | B | 39 | B | 49 | B | 59 | B | 69 | C | **79** | B | 89 | D | | |
| 10 | **B** | 20 | A | 30 | C | 40 | C | 50 | C | 60 | A | 70 | B | **80** | A | 90 | A | | |

**8-mavzu: O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | B | 6 | D | 11 | B | 16 | C | 21 | C | 26 | A | 31 | D | 36 | D | 41 | A | 46 | A |
| 2 | C | 7 | B | 12 | D | 17 | A | 22 | A | 27 | C | 32 | D | 37 | C | 42 | B | 47 | C |
| 3 | A | 8 | C | 13 | C | 18 | D | 23 | D | 28 | B | 33 | C | 38 | A | 43 | A | | |
| 4 | B | 9 | A | 14 | B | 19 | D | 24 | D | 29 | A | 34 | B | 39 | C | 44 | C | | |
| 5 | A | 10 | A | 15 | C | 20 | C | 25 | C | 30 | C | 35 | C | 40 | C | 45 | D | | |

# IV BO'LIM: XIX ASR IKKINCHI YARMI- XX ASR BOSHLARI

**1-mavzu: XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining siyosiy,qtisodiyi va madaniy hayoti.**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **B** | 7 | **B** | 13 | **B** | 19 | **C** | 25 | **A** | 31 | **A** | 37 | **C** | 43 | **C** | **49** | **A** | **55** | **A** |
| 2 | **C** | 8 | **C** | 14 | **C** | 20 | **C** | 26 | **C** | 32 | **C** | 38 | **A** | 44 | **C** | **50** | **B** | | |
| 3 | **D** | 9 | **B** | 15 | **B** | 21 | **A** | 27 | **B** | 33 | **A** | 39 | **B** | 45 | **D** | **51** | **A** | | |
| 4 | **A** | 10 | **C** | 16 | **D** | 22 | **B** | 28 | **A** | 34 | **B** | 40 | **A** | 46 | **C** | **52** | **C** | | |
| 5 | **C** | 11 | **D** | 17 | **C** | 23 | **C** | 29 | **D** | 35 | **D** | 41 | **C** | **47** | **B** | **53** | **D** | | |
| 6 | **D** | 12 | **A** | 18 | **D** | 24 | **B** | 30 | **B** | 36 | **B** | 42 | **B** | **48** | **A** | **54** | **C** | | |

**2-mavzu: Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoning bosib olishi**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **B** | 8 | **B** | **15** | **D** | 22 | **B** | 29 | **B** | 36 | **A** | 43 | **B** | 50 | **C** | 57 | **C** | 64 | **C** |
| 2 | **A** | 9 | **A** | 16 | **A** | 23 | **B** | 30 | **A** | 37 | **D** | 44 | **C** | 51 | **C** | 58 | **C** | 65 | **D** |
| 3 | **C** | 10 | **B** | 17 | **A** | 24 | **A** | 31 | **C** | 38 | **A** | 45 | **A** | 52 | **D** | 59 | **C** | 66 | **A** |
| 4 | **D** | 11 | **C** | 18 | **B** | 25 | **C** | 32 | **C** | 39 | **B** | 46 | **A** | 53 | **A** | 60 | **B** | 67 | **C** |
| 5 | **C** | 12 | **D** | 19 | **C** | 26 | **B** | 33 | **D** | 40 | **C** | 47 | **C** | 54 | **C** | 61 | **A** | | |
| 6 | **A** | 13 | **B** | 20 | **D** | 27 | **C** | 34 | **C** | 41 | **C** | 48 | **B** | 55 | **B** | 62 | **C** | | |
| 7 | **C** | 14 | **C** | 21 | **A** | 28 | **A** | 35 | **B** | 42 | **A** | 49 | **B** | 56 | **A** | 63 | **C** | | |

**3-mavzu: Rossiya imperiyasining Turkiston O'lkasidagi mustamlakachilik siyosati**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 6 | D | 11 | A | 16 | A | 21 | C | 26 | B | 31 | C | 36 | B | 41 | A |
| 2 | D | 7 | A | 12 | D | 17 | D | 22 | A | 27 | A | 32 | C | 37 | D | 42 | C |
| 3 | B | 8 | B | 13 | C | 18 | B | 23 | A | 28 | C | 33 | D | 38 | C | 43 | A |
| 4 | A | 9 | D | 14 | A | 19 | C | 24 | B | 29 | A | 34 | A | 39 | C | | |
| 5 | D | 10 | C | 15 | D | 20 | B | 25 | C | 30 | B | 35 | C | 40 | C | | |

**4-mavzu: XIX asr oxirida Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari.**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | C | 3 | A | 5 | C | 7 | A | 9 | C | 11 | C | 13 | B | 15 | B | 17 | D | 19 | A |
| 2 | C | 4 | B | 6 | A | 8 | B | 10 | A | 12 | C | 14 | A | 16 | C | 18 | C | 20 | B |

**5-mavzu:** XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | D | 5 | C | 9 | C | 13 | C | 17 | A | 21 | D | 25 | D | 29 | B | 33 | B |
| 2 | C | 6 | B | 10 | A | 14 | A | 18 | C | 22 | A | 26 | C | 30 | C | 34 | A |
| 3 | A | 7 | A | 11 | C | 15 | C | 19 | B | 23 | C | 27 | B | 31 | D | 35 | C |
| 4 | D | 8 | B | 12 | B | 16 | B | 20 | C | 24 | A | 28 | A | 32 | C | 36 | A |

**6-mavzu:** Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi ahamiyati. . . .

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | B | 4 | B | 7 | D | 10 | B | 13 | D | 16 | A | 19 | B | 22 | C | 25 | C | 28 | A |
| 2 | A | 5 | A | 8 | D | 11 | A | 14 | C | 17 | C | 20 | C | 23 | B | 26 | A | 29 | D |
| 3 | C | 6 | C | 9 | B | 12 | B | 15 | C | 18 | A | 21 | A | 24 | A | 27 | B | | |

**7-mavzu:** Turkiston va Birinchi jahon urushi

| | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A | 3 | C | 5 | D | 7 | C | 9 | C | 11 | B | 13 | C | 15 | D |
| 2 | B | 4 | D | 6 | B | 8 | D | 10 | A | 12 | A | 14 | B | | |

**8-mavzu:** XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A | 7 | D | 13 | D | 19 | B | 25 | C | 31 | B | 37 | C | 43 | B | 49 | B |
| 2 | C | 8 | B | 14 | A | 20 | B | 26 | C | 32 | C | 38 | D | 44 | C | 50 | A |
| 3 | B | 9 | C | 15 | B | 21 | A | 27 | A | 33 | A | 39 | B | 45 | D | 51 | D |
| 4 | D | 10 | A | 16 | A | 22 | B | 28 | C | 34 | B | 40 | C | 46 | C | 52 | A |
| 5 | B | 11 | B | 17 | C | 23 | C | 29 | A | 35 | B | 41 | D | 47 | A | 53 | C |
| 6 | C | 12 | C | 18 | D | 24 | A | 30 | C | 36 | D | 42 | A | 48 | C | 54 | B |

**9-mavzu: Mustamlaka sharoitida Turkistonda madaniy hayot.**

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A | 6 | C | 11 | A | 16 | C | 21 | C | 26 | C | 31 | C | 36 | B | 41 | A |
| 2 | B | 7 | B | 12 | D | 17 | A | 22 | D | 27 | B | 32 | B | 37 | D | 42 | C |
| 3 | C | 8 | B | 13 | B | 18 | B | 23 | A | 28 | A | 33 | C | 38 | C | 43 | A |
| 4 | C | 9 | A | 14 | C | 19 | B | 24 | B | 29 | A | 34 | C | 39 | A | 44 | D |
| 5 | A | 10 | B | 15 | A | 20 | B | 25 | B | 30 | D | 35 | B | 40 | C | | |

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2003
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T.: "O'zbekiston",1994
3, Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida,xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston",1997
4. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch .T..., "Ma'naviyat", 2008
5. A.Sagdullayev, V.Kostetiskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. Tuzatilgan va to'ldirilgan 3- nashri Toshkent. "Yangiyo'l poligrafik service",2009
6. A.Muhammadjonov, O'zbekiston tarixi (milodning IV asridan XVI asr boshlarigacha). 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent, "Sharq", 2009
7. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). 8-sinf uchun darslik.Qayta ishlangan 2- nashri "O'qituvchi"nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent, 2010
8. Tillaboyev S., Zamanov A. O'zbekiston tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). 9-sinfi uchun darslik. Toshkent, "Sharq", 2010
9. Rajabov Q.K., Hasanov J. O'zbekiston tarixi salnomasi. T.: "O'zbekiston milliy insiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2007.
10. Rajabov Q.K., Hasanov J., Shoymardonov I., Tojiboyev B. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Tuzatilgan va to'ldirilgan 3- nashri T.:, "O'zbekiston", 2010

## MUNDARIJA


So'z boshi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 3

**I bo'lim" Qadimgi dunyo tarixi**

1- mavzu: Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ………………………………… 4

2- mavzu: Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . …………………………….. 6

3- mavzu: Qadimgi Yunoniston. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . …………………………….. 15

4- mavzu: Miloddan awalgi VI asr – milodiy IV asrda O'rta Osiyo. . . . . . . . . . ……………………………… 20

5 -mavzu: Qadimgi Rim. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……………………………. 26

**II bo'lim: O'zbekiston tarixining milodiy IV asridan XVI asr boshlarigacha bo'lgan davri**

1-mavzu: O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakillanishi va rivojlanishi . . . ……….. 32

2-mavzu: O'rta Osiyoning arab xalifaligi tomonidan fath etilishi. ………………………………………... 37

3-mavzu: Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……. 40

4-mavzu: Vatanimiz xalqlarining Chingizxon istilosi va zulmiga qarshi ozodlik kurashi . . . . . . . . ……. 48

5-mavzu: Amir Temur va temuriylar davlati . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……… 52

**III bo'lim: O'zbekiston XVI-XIX asrning birinchi yarmi**

1-mavzu: Movarounnahr Shayboniylar hukmronligi davrida. . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 60

2-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 66

3-mavzu: Buxoro amirligi. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 69

4-mavzu: Xiva xonligining tashkil topishi. XVI-XVIII asrning birinchi yarmida xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. . . . . . . . . . …………………………………………………………… 73

5-mavzu: XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi. . . . . . . . . . . . . . . …. 75

6-mavzu: XVI-XIX asrning birinchi yarmida Qoraqalpoqlar. . . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 78

7-mavzu: XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi. . . . . . . . . . . . . . …………………………….. 80

8-mavzu: O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari. . . . . . . . . . . . . . ……………………………… 85

**IV bo'lim: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari**

1-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy hayoti. . . 87

2-mavzu: Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi. . . . . ……………………………… 89

3-mavzu: Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosati. . . . . . . . . . . . . . . . … 92

4-mavzu: XIX asr oxirida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari. . . . . . . . . . . ………………………….. 95

5-mavzu: XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar……………………………………… 96

6-mavzu: Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi 97

ahamiyati. . . …..
7-mavzu: Turkiston va Birinchi jahon urushi. . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .. ………………………….. 99
8-mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi. . . . ………………………………… 100
9-mavzu Mustamlaka sharoitida Turkistonda madaniy hayot. . . .. . . . . . . . . . …………………………….
Test javoblari ……………………………………………………………………… …………………..
Foydalangan adabiyotlar…………………………………………………………… ……………………

7.0 bosma taboq. Buyurtma 25/10. Adadi 100 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Javohir-poligraf» MChJ kichik bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamenshox ko'chasi, 270-uy.